



**Ўзбекистон Республикаси маданият вазирлиги
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим
вазирлиги**

**O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI MUHAMMAD YUSUF – VATAN
VA MUHABBAT KUYCHISI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
2021-yil 24-aprel

международной научно-практической конференции на тему
**НАРОДНЫЙ ПОЭТ УЗБЕКИСТАНА МУХАММАД ЮСУФ –
ВОСПЕВАТЕЛЬ РОДИНЫ И ЛЮБВИ**
24 апреля 2021 года

International scientific and practical conference on the topic
**PEOPLE'S POET OF UZBEKISTAN MUHAMMAD YUSUF - SINGER
OF THE NATIVE LAND AND LOVE**
24 April 2021 Year

**O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti**



**O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI MUHAMMAD YUSUF – VATAN VA
MUHABBAT KUYCHISI**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

2021-yil 24-aprel

международной научно-практической конференции на тему

**НАРОДНЫЙ ПОЭТ УЗБЕКИСТАНА МУХАММАД ЮСУФ –
ВОСПЕВАТЕЛЬ РОДИНЫ И ЛЮБВИ
24 апреля 2021 года**

International scientific and practical conference on the topic

**PEOPLE'S POET OF UZBEKISTAN MUHAMMAD YUSUF - SINGER OF
THE NATIVE LAND AND LOVE
24 April 2021 Year**

Toshkent – 2021

“O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI MUHAMMAD YUSUF – VATAN VA MUHABBAT KUYCHISI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallarining to‘plami / Nashrga
tayyorlovchilar: N. Avazov, I. Ostonaqulov, O ‘. Islamov, S.Mahmudova,
D.Jumayeva, Z.Norqo‘ziyeva, X.Abdujabborova, Z.Kozimova, T.Mamatqulova.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti. – Toshkent:

Mas’ul muxarrir: I.J.Yo‘ldashev – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor.

Tahrir hay’ati: S.S.Jumayev – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor

Y.Tojiyev – filologiya fanlari doktori, professor

M.Yo‘ldashev – filologiya fanlari doktori, professor

H.Ismoilov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Avazov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D.Jumayeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

(Phd)

Ushbu to‘plam 2021-yil 24-aprelda bo‘lib o‘tgan “Muhammad Yusuf – Vatan va muhabbat kuychisi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari asosida nashrga tayyorlangan bo‘lib, unda xorijlik va mahalliy olimlar, shuningdek, institut professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘qilgan ma’ruzalarning maqola variantlari va tezislari o‘rin olgan.

To‘plam materiallari adabiyotshunoslik, tilshunoslik, folklorshunoslik va san’atshunoslik sohasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar va keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

**Muhammad Yusuf xalqimiz sevgan samimi shoir,
vatanparvar inson edi. Sizlar uning munosib davomchilari
bo‘lishingiz kerak.**

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

**Мухаммад Юсуф был искренним поэтом, патриотом,
любимым нашим народом. Вы должны быть достойными
преемниками.**

Шавкат Мирзиёев
Президент Республики Узбекистан

**Muhammad Yusuf was an outspoken poet, patriot. You must
be worthy successors of him.**

Shavkat Mirziyoyev
President of the Republic of Uzbekistan

**IBROHIM JO‘RAYEVICH YO‘LDASHEV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor.**

KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA TABRIK

Hurmatli xalqaro konferensiya qatnashchilari, aziz mehmonlar va hamkasblar!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yilning 20-may kuni Toshkent shahrida tashkil etilgan Adiblar xiyobonida tashrifi davomida berilgan topshshiriqlari va o‘tkazilgan majlisning 35-sonli bayoni ijrosini ta’minalash maqsadida joriy yilning 24-aprel kuni “Muhammad Yusuf – Vatan va muhabbat kuychisi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

O‘zbek xalqining sevimli ijodkori, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodiy merosini chuqur o‘rganish, keng targ‘ib etish O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti jamoasiga yuklangandi. Shu maqsadda ta’lim muassasamizda alohida “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Shoirning ijodi va faoliyatiga bag‘ishlangan mavzular fan dasturlariga kiritilib, ularni talabalarning dars mashg‘ulotlari hamda mustaqil ta’lim asosida o‘zlashtirishlariga keng sharoitlar yaratildi. Institut professor-o‘qituvchilari, talabalarining Adiblar xiyoboniga tashrifi tashkil qilinib, Muhammad Yusuf yodgorligi poyida qator tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar, kitobxonlik kechalari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi. Tadbirlarni ko‘tarinki ruhda, taniqli ijodkorlar, adabiyotshunoslar ishtirokida uyushtirish bo‘yicha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan kelishuvga erishildi.

Abiyotimiz tarixida Vatan haqida yozilgan she’rlar, dostonlar bisyor. Ammo ularda shakl, ifoda, obrazlar tizimi har xil. Har bir ijodkor Vatanni o‘ziga xos tasvirlaydi, turfa ranglarda ko‘radi. Muhammad Yusuf she’rlarida Vatanga an’anadagi me’yorlar, siyqasi chiqqan qoliqlar bilan yondashilmaydi. U ko‘pchilikka o‘xshab Vatanini sevishi, unda go‘zal tabiat, buyuk insonlari borligini quruq sanab, she’r oxirida jonini fido qilishini aytish bilan cheklanmaydi. Yuragining tubidagi eng sohir tuyg‘ularni qalbingizning har bir torini titratadigan, ko‘nglingizning eng chuqur yerigacha yetib boradigan darajada ifodalaydi.

Men konferensiyaga masofadan turib ishtirok etadigan barcha xorijiy mehmonlarimizga, respublikamizning turli oliy ta'lim muassasalaridan qatnashadigan olimlarimizga, professor- o'qituvchilarimizga o'z minnatdorchiligidagi bildiraman.

Konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman!

I SHO‘BA

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATI TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK NIGOHIDA

Ibrohim Yo‘ldoshev,
O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti rektori,
filologiya fanlari doktori,
professor

ADIBLAR XIYOBONI – ADABIYOT, MA’NAVIYAT, MA’RIFAT MADANIYAT MASKANI (ADIBLAR XIYOBONI – OCHIQ OSMON OSTIDAGI DARSXONA)

Poytaxtimizdagи Adiblar xiyoboni. Bu maskanga qadam qo‘yishingiz bilan qalbingizni o‘zgacha bir shukuh, zavq va hayajon egallaydi. O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ta’biri bilan aytganda: bu “buyuklar kahkashonida” xalqimizning ulug‘ ijodkorlari, o‘zbek madaniyati, adabiyoti hamda tafakkurining timsollari bo‘lmish yigirmadan ortiq adiblarning haykallari joylashgan. Ularga boqib, buyuk adabiyotimizdan faxrlanish hissi yanada jo‘shturadi.

Adiblar xiyoboniga tashrif buyurgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. Bu adiblarimizning ko‘plari bu dunyodan armon bilan ketdilar. Bugungi avlod adiblarimizning ana shu armonlarini ro‘yobga chiqarishimiz, ularning har biriga o‘z hurmat-ehtiromimizni ko‘rsatishimiz lozim”, deya ta’kidladi.

Davlatimiz rahbarining ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash niyati, samimiy ruhda o‘tgan suhbatи barchamizni hayajonga soldi. Axir, bu so‘nggi o‘ttiz yil davomida

e'tibordan chetda qoldirilgan, asarlari changga botgan va nashr etilgandan ham to'rt nafar yaqinlaridan boshqalari bundan bexabar bo'lgan ijodkor uchun kutilmagan ma'naviy kuch edi. Bir paytlar shaharning qoq markazida o'zining muhtasham binosidan ayrılib, ko'p yillar davomida ko'chmanchi singari binodan-binoga ko'chib yurgan Yozuvchilar uyushmasi uchun alohida bino qurilishi esa xo'rangan yetimning boshini silaganday bo'ldi. Ularning ko'zlaridan beixtiyor yosh chiqib ketdi.

Kecha Adiblar xiyoboniga bordik va hayratdan lol bo'lib qoldik. Adiblar xiyobonining go'zalligiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Alisher Navoiydan keyingi o'zbek adabiyotining besh yuz yillik tarixi shundoq ko'z o'ngingizda. 24 nafar buyuk so'z san'atkorlarining mis va bronzadan yasalgan haykallari, atrofidagi go'zal bog'lar, kishi dimog'ini zavqlantiradigan gullarning xushbo'y hididan o'zingizni qandaydir jannatga kirgandek his etasiz. Bog'da yurganingizda, siz chiroyli qasrlarni ko'rasiz. Har bir haykal atrofida ko'shk mavjud. Siz haykallar orasidan ko'tarilishni boshlaysiz. Markaziy yo'lakdan o'tayotganda bog'ning yuqori qismida Alisher Navoiyning ulug'vor haykali o'rnatilgan. Ha, endi u boqqa teskari qaramaydi, o'girilib, Adiblar xiyoboniga qaraydi. Biz haykalning etagiga chiqdik. Biz orqaga o'girildik va qotib qoldik. Haykal poyida xuddi butun adabiyotimiz vakillarining haykallari buyuk bobomizga qarab, ta'zim qilganday. Hayajon bosildi. Shunda men davlatimiz rahbarining istak va niyatlarini his qildim.

Adiblar xiyobonining go'zalligini beqiyos, ammo uning mohiyati yanada hayajonlantirdi. Hazrat Navoiy quyoshga balandlikdan qaraydi. Quyosh – nur manbai, majozan aytganda, bilim va ma'rifat manbai. Navoiy butun hayoti davomida ma'rifat va ziyoga, ilmga intilib, ma'rifatni targ'ib etgan. Shuning uchun, u o'z davrida "Shams ul-millat", ya'ni millatning quyoshi sifatida mashhur bo'ldi. Uning poyida barcha o'zbek adabiyoti vakillari, adabiyot tarixi mukammal mujassamlantirilgan. Hamma Navoiyni ulug'laydi, Navoiy ularni balandlikdan, ma'rifatga va ziyoga targ'ib qiladi. Bu bog', bog' emas, bu o'zbek adabiyoti tarixi darsligining ko'rgazmali manzarasi! Bu yerda yosh avlod biz bir yil mobaynida o'qiydigan ma'ruzalarni bir soat davomida o'zlashtirishi mumkin. O'zbek adabiyoti bilan tanish bo'limgan odam, o'z navbatida, bir aylanishidayoq adabiyotimizning

dongdorlarini eslab qoladi, o‘zbek adabiyoti tarixi haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Shu ma’noda, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ushbu xiyobon nafaqat adabiyot, balki bilim va ma’rifat makoniga aylandi.

Adiblar xiyoboni – ochiq osmon ostidagi darsxona, bu joy doimo ochiq darslar bilan band bo‘lishi, yoshlarning qadamlari uzilmasligi, eng muhimi, bu yerdagи ruh barcha yigit-qizlarning qalbiga singib ketishi kerakligi ta’kidlandi. Ushbu vazifalar har birimizni mas’uliyatni chuqurroq his etishga, o‘z ishimizga yangi miqyosda, yuqori darajada yondashishga undaydi.

Chindan ham, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf kabi millat oydinlari yaratgan yuzlab asarlar, betakror obrazlar xalqimizning mentaliteti, xarakteri, o‘zbekning o‘zligi haqida shahodat beradi. Shu ma’noda, ushbu xiyobonga qo‘yilgan har bir haykalni o‘zbek xalqining ma’naviyati, tafakkuriga qo‘yilgan haykal, deya ayta olamiz.

Tashrif jarayonidagi uchrashuvda davlatimiz rahbari tomonidan Adiblar xiyobonini adabiyot, ma’rifat va madaniyat maskaniga aylantirish, milliy hamda mumtoz adabiyotimizni rivojlantirish, bu sohadagi ilmiy va ijodiy ishlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha alohida topshiriqlar berildi. Bu yerda yodgorligi o‘rnatilgan har bir adib hayoti va ijodi muayyan oliy o‘quv yurti tomonidan o‘rganilishi, targ‘ib etilishi belgilandi.

O‘zbek xalqining sevimli ijodkori, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodiy merosini chuqur o‘rganish, keng targ‘ib etish O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti jamoasiga yuklandi. Shu maqsadda, ta’lim muassasamizda alohida “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Unga ko‘ra, shoirning ijodi va faoliyatiga bag‘ishlangan mavzular fan dasturlariga kiritilib, ularni talabalarning dars mashg‘ulotlari hamda mustaqil ta’lim asosida o‘zlashtirishlariga keng sharoitlar yaratildi. Shuningdek, kelgusida institut professor-o‘qituvchilari, talabalarining Adiblar xiyoboniga tashrifi tashkil qilinib, Muhammad Yusuf yodgorligi poyida qator tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar, kitobxonlik kechalari o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Tadbirlarni ko‘tarinki

ruhda, taniqli ijodkorlar, adabiyotshunoslar ishtirokida uyushtirish bo‘yicha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan kelishuvga erishilgan.

Muhammad Yusufning har bir she’rida milliy ruh, xalqona falsafa, boy va betakror tilimiz jilolari, o‘zbek xalqining yuksak insoniy fazilatlari mujassamligi bilan birga, yoshlik sururi, ishq hamda muhabbatning nafis navolari yuksak darajada ifodasini topgan. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda: “Muhammad Yusuf qo‘shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflagan she’rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. Odamlar uning kitoblarini do‘konlardan qidirib yuradigan bo‘ldilar... Shoирning umri uning she’rlarida davom etmoqda”.

“Chinakam shoирning qalbida allaqanday sohir qush doimo sayrab turadi”, degan gapni ko‘p bora eshitganman. O‘sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida oshyon qurbaniga men astoydil ishonganman. Uning ko‘zları ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi.

... Darhaqiqat, u o‘z elini, xalqi, Vatanini chin farzandday, beg‘araz, sidqidildan yaxshi ko‘rar edi. Shu mehrning natijasi o‘laroq, uning she’riyat ham xuddi shundoq beminnat va beg‘araz she’riyat sifatida maydonga keldi. Va bu oqko‘ngil, osmonqalb ukamizdan xuddi shunday she’riyat yodgor qoldi”, – degan edi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov.

* * *

Ba’zan katta-katta mablag‘lar sarflab ham odamlarga Vatanni sevdirib bo‘lmaydi. Shoир esa oddiygina so‘zlar bilan Vatanni nimaligi qalbingizga joystacki: “Rimni alishmasman bedapoyangga” degan shu bittagina misrasi bilan o‘zbek xalqining qaddini qanchalik ko‘tarib qo‘ydi. Qarang, bitta bedapoyani ham Rimga bermayman, deyapti. Yana boshqa bir misrada esa, “Parijning eng mashhur restoranlarin, Bitta tandiringga alishmasman men”, deydi.

Haqiqatan ham, shoир she’rlarida nafaqat o‘zining, balki o‘zbek xalqining yurak urishi eshitiladi, u o‘zbek dunyosini anglashga o‘rgatadi.

Milliy adabiyotimiz tarixida Vatan haqida yozilgan she'rlar, dostonlar bisyor. Ammo ularda shakl, ifoda, obrazlar tizimi har xil. Har bir ijodkor Vatanni o'ziga xos tasvirlaydi, turfa ranglarda ko'radi.

Muhammad Yusuf she'rlarida Vatanga an'anadagi me'yorlar, siyqasi chiqqan qoliplar bilan yondashmaydi. U ko'pchilikka o'xshab Vatanini sevishi, unda go'zal tabiat, buyuk insonlari borligini quruq sanab, she'r oxirida jonini fido qilishini aytish bilan cheklanmaydi. Yuragining tubidagi eng sohir tuyg'ularni qalbingizning har bir torini titratadigan, ko'nglingizning eng chuqr yerigacha yetib boradigan darajada ifodalaydi.

Shundan kelib chiqib, "Muhammad Yusuf – Vatan kuychisi" degan hujjatli filmni tasvirga olishga qaror qildik. Ushbu kartinada shoir ijodi, hayoti, mahorati haqida hikoya qilinadi. Mazkur film shoir yuragidagi ona yurtga muhabbatni, otashning bir uchqunini talabalarimiz qalbiga ham ko'chirishga yordam beradi, ularda vatanparvarlik, el-yurt taqdiriga daxldorlik, milliy qadriyatlarga sadoqat, jonkuyarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, degan umiddamiz.

Shoir hayoti va ijodini o'rganish, talaba-yoshlar o'rtasida targ'ib etish bo'yicha rejalarimiz bisyor. Jumladan, institutimiz axborot-resurs bazasi qoshida Muhammad Yusuf ijodi hamda faoliyatini aks ettiruvchi alohida Adabiyot ilmiy markazi va auditoriya tashkil etamiz. Ushbu markazda Muhammad Yusuf bilan birga, boshqa o'zbek adabiyoti namoyandalari hayoti, ijodi, yaratgan badiiy asarlarini doimiy ravishda o'rganish maqsadida adabiyot to'garagi ochiladi. Shoiring uy-muzeyiga, u yashab o'tgan hamda ijod qilgan tarixiy maskanlarga professor-o'qituvchilar va talabalarning sayohatlari muntazam uyushtiriladi. Ijodkor asarlari mutolaasi bo'yicha talabalar orasida turli tanlovlardan, musobaqalar hamda festivallar o'tkazish an'ana tusini oladi.

Muhammad Yusuf nomidagi institut stipendiyasi ta'sis etilishi, har bir fakultetda o'zbek adiblari yaratgan asarlarni sahnalashtiruvchi teatr truppalari tuzilishi yoshlarning badiiy didi, salohiyati, bilim va iqtidorini yuksaltirib qolmay, ularni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.

Shoir asarlarining raqamli platformaga o‘tkazilishi, ularning elektron katalogini yaratilishi, Muhammad Yusuf hayoti va ijodini aks ettiruvchi 3D formatdagi virtual roliklar tayyorlanishi, interfaol muzey tashkil etilishi esa, yoshlarni masofaviy shaklda ham ushbu ezgu maqsadlar yo‘lida keng qamrab olish imkonini beradi. Zero, Muhammad Yusufning hayoti ham, ijodi ham yoshlar uchun har jihatdan ibratlidir.

**Rejai KIZLITUNCH,
Turkiya Arzurum universiteti dotsenti,
fan doktori (Turkiya)**

MUHAMMED YUSUF-SEÇMELER ESERINE DAIR

Pek kıymetli hazırın! Sözlerime başlamadan önce Anadolu’dan gönül coğrafyamızın Anayurduna en kalbi selamlarımı hürmetlerimi sunarım merhamet kabul buyurun! Sözlerime sizlerin ve bütün şiir severlerin affına sıgnarak Muhammed Yusuf’un Özbekistan şiiriyle başlamak istiyorum;

O’ZBEKISTON

O, ata mekanım.

Onajon ülkem,

O’zbekiston, jonim tüşey sāyenge

Sindey mehribon yok,

Seningdek görkem.

Rimni alışmesmen bidepāyengte.

Bir go ‘sha suv bo ‘lsa, bir go ‘sha qirlar,

Qancha yurtni kördim, qancha taqdirlar.

Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,

Tog ‘laring ortimdan ergashib yurar.

Ko ‘rdim suluvlarning eng faranglarin.

Yo xudbinman men yo bir sodda kasman men –

*Parijning eng go 'zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.*

*Na gapga ko 'nayin,
Na til bilayin,
Ko 'zdan uyqu qochdi, dildan halovat -
Uch kunda sog 'insam nima qilayin,
Çala qolar bo 'ldi hamma sayohat.*

*Bildim ki, baridan ulug 'im o 'zing,
Bildim ki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug 'ilgan qo 'zing,
Arab ohusidan azizroq menga.*

*Sen bilan o 'tgan har kun bayram - bazm,
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta 'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.*

Her milletin her devletin yüksek düzeyli şair, edip ya da genel anlamıyla sanatkarları vardır. Bunların birbirinden kıymetli eserleri, mensubu olduğu milletin, devletin kültür kaynaklarını teşkil ederler. Hepsi değerli hepsi övünç kaynağıdır. Lakin sanatkarlığını doğup büyüdügü, yetiştiği toprağıyla yoğurup halkıyla paylaşanların değeri, apayı olsa gerek. Zira yaşadığı toplumun tercümanı, aydınlatıcısı olan sanatkarların inşa ettiği kültür yelpazesi, mensubu olduğu toplumun adeta harcı veya zamkıdır. Kanaatimce, Muhammed Yusuf'un modern Özbek şiirinin son dönemde yetiştirdiği en parlak şahsiyetlerden biri olmasında, onun "halk şairi" sıfatıyla kaleme aldığı şiirlerinin Özbekistan için ortak bir payda işlevi görmesinin rolü başta gelmektedir.

M. Yusuf'un şiirlerine şöyle bir göz atınca Özbekistan ve Özbekistan şehirleri; anne, saf temiz duygularla donanmış genç kızlar, erdemli vatanperver insan tipleri ve

evrensel insanı değerler temel konular olarak göze çarpmaktadır. Bu bağlamda şairin şiir adlarından yola çıkarak Özbekistan ve Özbek halkı için ne anlam ifade ettiğini görmek mümkündür;

Özbekistan, Özbekistan Eyalleri, Özbek Kızları, Birlik ol halkım, Vatanım, Andican, Semerkant, Taşkent; Hursenay Ape, Terakkiyat, Savaş Yıllarının Canan Kızları ve daha nice şiiri onun derin vatan ve bu vatana ait bütün unsurlara karşı duyulan sevginin abideleşmiş halleridir.

Yine Muhammed Yusuf'un "yurt" ile özdeşleştirerek üzerinde durduğu "anne" ve "kız kardeş" temalarını da zikretmeden geçmek olmaz;

Kız Kardeşime Mektuplar, Zebican, Latife, Özbek Kızları, Nazlı Geyik, Ceylan, Kızlar Koğuşu, Gelincik, Anama Mektup, Ay Baharım gibi şiirler sadece birkaç örnektir.

M. Yusuf'un yurt ve halk sevgisi aynı zamanda samimi, duru, ve hesapsız insanı değerleri de barındırır; Ceylan, Muhabbet, Azade, Hayal, Reyhan, Bir gece, Gelincik, Kırmızı Elma, Sevgi, Kelebekler, Kuşlar da Ağlar, Güzün Giden Turna, Özledim, Ay baharım, Gece Şiirler Okuduk Kelebeklerle, Gelincik, Latife, Nazlı Geyik, Zebican, Gönlümdeki yâr, Muhabbet Kalır şiirlerinden her biri evrensel insanı değerlerle donatılmış şaheserlerdir.

Yukarıdaki kısa açıklamalardan hareketle M. Yusuf'un şiirleri, kendi kuşağının olduğu kadar sonraki kuşakların da aşk ve nefretlerini, erdemlerini, güzelliklerini, doğal ve dolambaçsız duygularını işlemiştir. Bu sebepten olsa gerek ki günümüz Özbek toplumunda, sıradan vatandaşların bile dilinde hala onun şiirleri, adeta bugulu bir musiki parçası gibi terennüm etmekte ve semaya hoş sadalar bırakmaktadır. Muhammed Yusuf'un şiirlerinde sözün estetik imkânlarından faydalananmak yanında billur bir suyun akışı gibi duyguların akıcı bir dille anlatılması, insan ruhunun manzaralarının ustaca tasvir edilmesi öne çıkan üslup özelliklerinin en başında gelmektedir.

Elinizdeki eser, Taşkent Şark Neşriyat Matbaası'ndan 2007 yılında çıkan *Muhammed Yusuf-Saylanma* adlı eserden seçilen şiirlerden hazırlanmıştır. Kiril harfli ve Özbekçe yazılan eserde Muhammed Yusuf'un şiirleri, destanları ve şairle ilgili

anlatılan hatırlalar yer almaktadır. Eser, toplam 367 sayfadan oluşmaktadır. Adı geçen eserin Türkiye Türkçesine aktarılma süreci, saygıdeğer akademisyen ve gazeteci Prof. Dr. Marufjon YOLDOSHEV'in eseri bizimle tanıştırmasıyla başladı. Aynı süreçte en zor aşama, Türkçeye aktarılacak şiirlerin seçilmesi oldu. Zira her bir şiirin ayrı güzelliğe ve özgünlüğe sahip olduğu eserin bu aşamasında, tercihlerin çevirmenlere bırakılması, işimizi bir nebze olsun kolaylaştırdı. Çalışmamız esnasında ortaya çıkan bir diğer durum da seçilen şiirlerin sıralanmasıydı; bu konuda da kaynak eser *Muhammed Yusuf-Saylanma*'daki sıralamayı esas aldı. Son şekilde toplam 82 şaire yer vermiş olduk. Çalışmanın en sonuna da "Eski Kuyu" adlı destanını koyduk. Son olarak eserimizin ismi konusunda, temel kaynağımız *Muhammed Yusuf-Saylanma*'dan esinlenerek *Muhammed Yusuf-SEÇMELER* şeklinde bir adlandırmanın uygun olacağına kanaat getirdik.

Çalışmanın ortaya çıkışında başta Prof. Dr. Marufjon YOLDOSHEV olmak üzere, çevirmenler Emine BAKAR, Hamza ÖZTÜRKÇİ, Hüseyin AKBAS'a; eserin tashihinde yardımcı olan Yüksek Lisans öğrencim Tuğba YURTOĞLU'na ve emeği geçen herkese şükranlarımı sunmayı kendime borç kabul ettim; elinize, emeğinize sağlık!

Muhammed Yusuf-SEÇMELER'in kadim bağlarla ilelebet kardeş olduğumuz Özbekistan ile Türkiye ilişkilerine şiir ikliminde yeni bir soluk getirmesi temennisiyle...

“VATAN – YURAGIMNING OLAMPANOHI”

Bilgichlarning aytishicha, dastlabki she’riy namunalar bugundan yetti ming yil nari qadimgi Yunonistonda dunyoga kelgan ekan. Ma’lumingizkim, o’sha davrlarda yunonlar ilk davlat asoslarini yarata boshlagan, buyuk bunyodkorlikka undovchi zarurat paydo bo‘lgan va ayni ehtiyoj hosilasi sifatida she’r va shoir paydo bo‘lgan edi. Shu tariqa, ohangga solingan qahramonlik dostonlari, mardlik eposlari dunyoga keldi. Demak, she’r katta evrilishlar samarasi, shoir ham jamiyat burhonlari mevasidir.

Ha, Shoирni davr yaratadi. Chin shoir esa o‘z davriga asos soladi.

* * *

Bugun adabiyotga, she’riyatga qarash mutlaqo o‘zgarib ketdi. Bir paytlar, Sho‘ro davrida siyosiy quroqla, mafkuraning ta’sirchan vositasiga aylantirilgan adabiyot Mustaqillik arafasida ommaviy ruhiy tushkunlik sabab boshi berk ko‘chaga kirib qolgandek, qalam ahli sarosimaga tushganday qiyofa kasb etdi.

Chunki yetmish yildan oshiqroq dunyonи titratib turgan mahobatli, haybatli davlatning poydevoriga darz yetib, tagiga suv keta boshlagan edi. Millionlab insonlar ishongan, e’tiqod qo‘yib jonini tikkан kommunistik g‘oya aslida puchak xayol ekani, firqaning ideal jamiyat haqidagi iddaosi faqatgina xalqni mutelikda tutib turish vositasi bo‘lgani ayon bo‘lib qoldi. Inson fitrati va sa’jiyasiga zid jamiyat, qatag‘on va qon ustiga qurilgan davlat inqirozga mahkumligini abgor omma hali idrok etib ulgurmagan, ko‘plar nazarida bulutlar, yulduzlar yerga tushganday, quyosh teskari chiqib, teskari botayotganday, aql bovar qilmas voqeа yuz berayotganday edi. Ana shu buyuk inqiroz davrida adabiyot ham o‘ziga yo‘l qidira boshladi. “Endi nima haqida yozamiz, endi nimani sharaflaymiz?” kabi savollar ko‘ndalang tushdi. Sho‘ro paytida eng yetuk adiblarimiz ham o‘z asarlarini sotsialistik realizm degan qolipga randalab tushirishga majbur edi. Bu bitiklarda belgilangan quyushqonga sig‘adigan qiyofa va xarakter, ya’ni Sho‘ro kishisining ideal bo‘y-basti qad rostlab turishi shart

edi. U haqiqat uchun kurashishi, to'sqinliklarga ro'para kelishi va bu g'ovlarni yuzaga keltiradigan adashgan toifani tarbiyalashi yoki yakson qilishi, alaloqibat qahramon g'olib bo'lib chiqishi, baxtli, farovon hayotga chorlashi kerak edi. Bu quyma qoliplardan xalq allaqachon zerikkan, asarni qo'lga olishi bilan oxiri qanday yakun topishini bilib turar, shu sababli nasrning asta-sekin jozibasi yo'qolib bora boshlagandi. Albatta, she'riyatga qo'yilgan talablar ham ayni shunday bo'lib, zinhor va zinhor ichkin, shaxsiy tuyg'ular baytga solinmas, shoirning iztirob chekishi, g'ussaga botishi mutlaqo mumkin emas edi. Chirishni buzgan, biqiq nazmiy saroyga sof nasimlar olib kirgan ustozlarimiz Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfining lirik she'rlari tufayligina malomatga qolganini bugun istehzoli tabassum bilan eslaymiz. Ha, shunaqa qattol zamon edi...

Odamzod hamisha yangilikka tashna, qanday shakl va mazmunda bo'lishidan qat'i nazar insonga doimo mujda kerak. Eskicha yashab, eskicha boshqarib, eskicha kuylab bo'lmaydigan bir paytda adabiyot adirida Muhammad Yusuf degan shoir paydo bo'ldi. Ustozlarimiz Muhammad Yusufni adabiyotga qanday kirib kelganini xalq sezmay qoldi, degan fikrni aytishadi. Lekin biz o'sha paytda maktab o'quvchisi, keyinchalik talaba bo'lgan yoshlar Muhammad Yusuf degan shoirning ilk qadamlaridan kunma-kun, oyma-oy, yilma-yil kuzatib borganmiz. Muhammadjon Yusupovning yetmishinchi yillar oxirlarida "Yoshlik" almanaxida chiqishi, "Mushtum" jurnalida chop etilgan hazilomuz she'rlari bir o'qishdayoq ma'qul tushgan, topishmoqnamo va madhiyasifat ash'or badiga urgan o'quvchilar uning favqulodda tiniq va o'zbekona satrlarini jo'shib yod o'qirdi.

"Xo 'jayin keladi:

– Nima yozyapsan?

– She'r...

Kulib chiqib ketar:

– Mayli yozaver...

...Xo 'jayinning qizi keladi,

Jim kirib, jim chiqib ketadi,

Yuragimni siqib ketadi...

Endi cheksam sigaretamdan

Atirgulni isi keladi... ”

Muhammad Yusufning eng asosiy, o‘ziga xos jihat qaysi deganda, uning xalqqa yaqinligi, samimiyati, oddiyligi, ohangdorligi deb aytamiz. Bu to‘g‘ri, lekin mening nazarimda, ustoz ijodining jozibasi va shirasi odamzodni insoniylikka, insonparvarlikka chorlaydigan o‘lmas g‘oyasida bo‘lsa kerak. U garchi milliy ohanglarda she’rlar yaratgan bo‘lsa ham uning ovozi jug‘rofiy hududdan olislarga taralib, umuminsoniy mohiyat kasb etdi. “Dard” so‘zi har elatda o‘zgacha yangrasa ham tuyg‘usi bitta – qon va ko‘zyoshining rangi-yu ta’mi bir xil bo‘lmaydimi axir! Shoirning ilk kitobi – “Tanish teraklar”dagi ilk she’rlardan birida:

“Terlar bo ‘lib suv oqdi bizdan

Va gursillab yiqildi terak.

Aka bizning qilmishimizdan

Tunda qushlar yig ‘lasa kerak...

...Baland bo ‘ldi uyimiz tog ‘dek,

Ayvonida ustun ul terak.

Biz yasharmiz ko ‘nglimiz chog ‘dek,

Shunda qushlar yig ‘lasa kerak.

Terak, odatda, qurilish ashyosi sifatida ko‘riladi va ekiladi. Qishloqda yashab, umrida terak ekishda va kesishda qatnashmagan o‘zbekni topish qiyin. Bu tabiiy hol. Ochig‘ini aytganda, ko‘plashib daraxt ag‘darishning g‘alati gashti bo‘ladi. Ehtimol bu hashar kayfiyati bilan bog‘liqdir. Daraxt ag‘darildimi, uy bino bo‘ladi. Yaxshilikka! Lekin shoir bizning yashovchan mantig‘imizga ko‘nmaydi. “Ey odam, deydi, sen birovning uyini vayron qilib uy qurasanmi? Faqat senga boshpana keragu, boshqalarning boshi do‘lda qolsinmi deydi. Shundan keyin ham odammisan sen? Agar shu insongarchilik bo‘lsa, bor-e! Qurban uyingdanam o‘rgildim!” deb qo‘l siltab jo‘navoradi. Har holda men Muhammad akaning ana shunday munosabatini ko‘z oldimga keltiraman.

*“Ona chumchuq aylanib, ketmas,
Ko ‘ngliga qil sig ‘masa kerak.
Eski indan tashib borib xas,
Yangi inda yig ‘lasa kerak...”*

Birovning uyini, hatto qushniyam inini buzmagin, ozor bermagin, degan naqlni Muhammad Yusuf qanaqangi ta’sirchan, ultragumanizm o’lchamida tasvirlaydi. Albatta, hammamiz safar chog‘i Navoiy bobomizning chodirlariga musicha uya qurbanini, nogoh farmoni oliv ko‘chishga amr qilgani, hazratim esa musichali qo‘nalg‘aga qo‘riqchi qo‘yib, polaponlar parvozidan so‘nggina chodir yig‘ishni tayinlaganini bilamiz. Xeminguey – Xem tog‘a esa, urush ko‘rgan, yarador va bezor bo‘lgan inson sifatida urushga urush e’lon qiladi: “Qirg‘inbarotga sabab bo‘lgan kimsalarni, urush orqasidan sarmoya yig‘adigan korchalonlarni devorga qo‘yib otish kerak. Qon to‘kilishiga yordam bergen har qanday banda mahkumga aylansin. Mabodo mening ham aybim bo‘lsa, meniyam devorga qo‘yinglar!” O‘zbekning Muhammad Yusufi o‘zbekona ramzlar bilan, o‘zbekning teragi, chumchug‘i, tolbeshigi bilan dunyoshumul masalani ko‘taradi:

*“Men kimga ishonay yolg ‘iz bolamni?
Nima bo ‘lsa bo ‘lsin, urush bo ‘lmasin!”*

Kunbotar taraflarda urush ketyapti. Jahongirlik va oliv irq da’vosidagi fashistlar o‘ris yerlariga o‘q yomg‘iri yog‘diryapti. Odam faqat tasodif bois omon qolishi mumkin. Chunki irqchilar o‘zidan boshqani tanimaydi, tan olmaydi. Insonning eng katta fojiasi ana shunda – tanasi boshqaning dardini bilmasligida. Ajal changalidan qochib, do‘zaxga aylangan o‘lkasidan mening yurtimga evakuatsiya qilinganlar orasida Anjelika ismli qizcha bor. U menga vaqtincha sinfdosh.

*Menga qizlar yalinadi har oqshom,
Yur, fashistni ko ‘rganmikin, so ‘raylik.
Ketdik, deyman. Ammo bilib qo ‘yinglar,
Anjelika hammangizdan chiroylik!*

Qalampirni ham meva deb o ‘laydi,

*Uzib ber, deb kunda meni qo ‘ymaydi.
Kunbotarga qarab yum-yum yig ‘laydi,
Anjelika hammangizdan chiroylit!*

*Turshaklarga to ‘lib ketar qo ‘yinlar,
Qizlar to ‘xtab qolar: o ‘ylab ko ‘raylik...
O ‘ylayvering, ammo bilib qo ‘yinglar —
Anjelika hammangizdan chiroylit!..*

*Tunlar ko ‘chib, zafar tong otar bo ‘ldi,
Chehrasiga termulamiz — to ‘ymaymiz.
Sinfimizdan bir suluv ketar bo ‘ldi,
Sochi sunbul, ko ‘zlari yalpiz.*

*Kunbotarga yelib borar parovoz,
Bir qiz yig ‘lar: xat yozishib turaylik.
Bir qishloq qiz yig ‘lar undan uzmay ko ‘z:
Anjelika... hammamizdan chiroylit!*

Anjelika ko‘z oldimdan ketmaydi. Mudhish urushning vahshiyona qiyofasi, vayron bo‘lgan mamlakat, konslagerdagi qoqsuyak mahbuslarning dahshat to‘la nigohlari yurak bag‘rimni o‘rtaydi. Anjelika – odamxo‘r urushning odam aqliga sig‘mas fojialari ifodalangan tirik surati...

* * *

Rassomchilikda oqim, uslub va turlar judayam ko‘p. Grafikadan tortib moybo‘yoqqacha, natyurmontdan portretgacha, realizmdan avangardizmgacha... Ammo hammasi rang-tasvir orqali insonning ko‘nglini uyg‘otishga, zavqlantirishga, tasavvurini boyitishga, ilhomlantirishga qaratilgan. Toshqoyalarga chizilgan petrogliflaru Van Gogning aql shoshirar chizmalari mohiyatan yahlit. Rassom uslubini qabul qilmaganingizdayam ijodkorning iste’dodini his qilib turasiz. Jakondaning ko‘zlari sizni qanday hayajonga solsa, Pikassoning “Kabutar”iyam

shunday xayolga chulg‘aydi. Iste’dod, aslida, o‘sha qoliplardan qochib, o‘zining betakror qolipini yaratadi. Shoirlar ham shunaqa. Ammo asl shoir atay uslub tanlamaydi. Unga Xudoning o‘zi yo‘l ko‘rsatadi. Agar sizdan “Zamonning eng mashhur shoiri kim?” deb so‘rashsa, Muhammad Yusuf deb aytasiz. “Eng ko‘p nusxada kitobi chop etilgan shoir kim?” deb mendan so‘rasangiz, “Muhammad Yusuf” deb aytaman. Ustozning kitoblari nusxasi ikki milliondan oshiq. Har yili baraka topgur nashriyotlar basma-bas bosib turibdi. Nega? Odamzod hamdard, hamsuhbatga hamisha zor ekan-da. Muhammad aka ko‘nglingizdagi gapni topib aytadigan, yupatadigan, kerak bo‘lsa, yo‘l ko‘rsatadigan xolis do‘st emasmi? Bunaqa beminnat do‘stni qaydan topasiz?!

* * *

Muhammad Yusufning orzumand ko‘nglini, alamzada yuragini, daryo qalbini epik asarlarida, ayniqsa, “Qora quyosh” dostonida ayon ko‘rasiz. Jadid bobolarimizning boshiga tushgan ko‘rgiliklar, iste’dod evaziga istibdod zahrini totishga majbur bo‘lgan buyuk bobolarimiz tarixiy dalillar asosida xotirlanadi, odamni larzaga soladigan manzaralar chiziladi. “Xalq dushmanlari”ga aylangan ikki yashar bolajonlar, paxtazorlarda uvol bo‘lgan birinchi sinf bolalari, tomigacha paxta ekkan-u o‘zi kafangado xalq, juvonmard va juvonmarg Usmon Nosir, ro‘yolarga ishongan soddadil Fayzullo bobo-yu Akmal Ikromlar... Ularni unutib bo‘ladimi? Yo‘q! Agar ular esdan chiqsa, yana o‘sha davr kelishiga zamin yaraladi. Shoirning vazifasi ana shu xavfdan ogohlantirish, malol kelmaydigan qilib jigarlarcha jon tortib uqtirish... O‘ttiz yettinchi yil qatag‘oni iskanjasiga tushgan har yuz odamdan to‘qson oltitasi o‘z “aybi”ga iqror bo‘lib, xalqqa dushmanlik qilganini tan olgan, hukmnomaga imzo chekkan ekan. Qolgan to‘rt foizi-chi dersiz. Qolganlari qiyinoq azobidan aqldan ozib, jinnixonalarga tashlangan ekan. O‘sha jinnilar ham qamchisidan qon tomgan, odamkush tegirmon toshini yurg‘izgan Qora quyoshni betimsol najotkor deb ishongan, o‘lar chog‘i ham “Yashasin, Ishtalin!” deb jon bergen...

* * *

Vatan haqida dunyo xalqlarida tushuncha har xil. Ba’zi millatlar borki, qayerda yaxshi yashasa, qayerda daromad topsa, qayerda qozoni qaynasa, o’sha yer – Vatan. Lekin o‘zbek hech qachon o‘z Vatanini O‘zbekistondan yoki tug‘ilgan joyidan tashqarida tasavvur qilolmaydi. Gogolning “Taras Bulba”sidagi Yankelni eslang. Uning uchun Andriyning xoinligi hech gapmas. “Nima bo‘pti? Dushman tarafga o‘tgan bo‘lsa, u o’sha joyda to‘ralardek yuribdi. Egnida zarbof chakmon, kissasi to‘la tillo...”

Vatan degani jug‘rofiy xaritalarga sig‘masligi mumkin. Navoiy “Musofir bo‘l, ammo Vatan ichra bo‘l” degan da’vatida ta’riflangan Vatan o’sha zamondagi ochunning muslimobod kengliklarini anglatadi. Biz bugungi O‘zbekistonni, ko‘ngilchan otalardan qolgan hududni yurt deb bilamiz. Avvalo, ana shu Vatanni asrash, obod qilish, kelajakka bezavol yetkazish muqaddas burchimizdir. Ammo Vatan faqatgina ko‘hna kentlardan iborat emas. Padarkush farzand va beoqibat toj-u taxt bois qon yig‘lab turgan Ulug‘bek ham Vatanning bir qismidir. Yassaviy, Kubro, Ibn Sino, Amir Temur, Navoiy, Bobur, Mashrab... barchasi millatning gultoji sifatida Vatan timsoliga aylangan. Bu bor gap. Muhammad Yusuf ana shu ramzlar qatoriga “Alpomishga alla aytgan momolar”u “Marg‘ilonda yig‘lab turgan Kumush”ni, “Qonbag‘ir Zuhro-yu Tohir”ni, “Xayoldan ketmas Botir Zokirov”ni, yaktagi-yu do‘ppisini yechmagan Tursunali polvonni... va o‘nlab afsonaviy hamda zamondosh shaxslarni qo‘sadi. Uning nazarida, do‘ppi shunchaki bosh kiyim emas, u millat toji. “Boshga loyiq do‘ppi yo‘qdir yo Bosh qolmadi do‘ppiga loyiq”. Sumalak bor – yo‘g‘i yegulik – bahor taomi bo‘lmay, mehr-oqibat, qadriyatlar belgisidir. “Ha, Navro‘zfurushlar, qalaysiz endi, Biz bilan sumalak yalaysiz endi!” Qizg‘aldoq ko‘klamning chilgi chechagi emas, u ilk muhabbat suratidir. “Sevgi bamisol lolaqizg‘aldoq, Teginmay bo‘lmaydi, tegsang to‘kilar...” Ot esa zinhor ulov hisoblanmaydi, u sadoqatli do‘st. “Ot demasman, u menga Ham do‘stu ham yor edi...” She’riyatga shuncha timsol olib kirgan boshqa shoirni bilasizmi? Vatanning tog‘lari ortidan ergashib yurgan, uch kun ko‘rmasa xumori tutadigan, yurtining soyasiga jonini to‘shaydigan asl farzand – iddaolar qilmay sevadigan bola qayda bor?

* * *

Daholarning ko‘pi uzoq umr ko‘rmaydi deyishadi. Ammo Muhammad Yusuf to o‘zbek degan xalq bor ekan, abadiy yashashiga shubha yo‘q. Buyuklar tirikligida ko‘pam qadr topmaydi degan gap bor. Lekin Muhammad Yusuf hayotligida podshoyu faqirdan cheksiz e’zozu hurmat topgan erka taqdir egasi. Bugun ham uning nomi, she’rlari tildan tushmaydi.

“Men dunyoni nima qildim,

O‘zing yorug‘ jahonim...” – deb mastona kuylaydi xonanda. “Ulug‘imsan, Vatanim!” deb avjini oladi faxriyor el.

“Sen shoxlari osmonlarga

Tegib turgan chinorim...” – deb shivirlayman men.

Nazira as-Salom,

Muhammad Yusufning rafiqasi

MUHAMMAD YUSUF ASARLARIDA TABIAT MAVZUSI

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning 1985-yilda nashr etilgan birinchi she’riy to‘plamining nomi “Tanish teraklar”, ikkinchisi “Bulbulga bir gapim bor”, yana bir to‘plamning nomi “Erka kiyik” deb nomlanishi bejiz emas.

Muhammad Yusuf ijodida alohida o‘rin egallagan tabiatga: gullar, jonzotlar, hayvonlar, daraxtlar, hatto hasharotlarga bag‘ishlangan she’rlar talaygina. Bu shoirning ruhiyati tabiatga yaqin ekanligidan dalolatdir.

Shoirning quyidagi she’riga qulqoq tuting:

O’ksimagine o, yurak,

Bo ‘lma xomush, bo ‘lma lol.

Mening otam oqterak,

Mening onam-majnuntol.

Osmonda oy yolg‘izdir,

Yolg‘izman men ham axir.

Mening opam yalpizdir,

Singlim-lolaqizg‘aldoq.

To ‘shagim shu sho ‘rtuproq,

Ko ‘rpam ko ‘kda bulutdir.

Mening akam Ulug‘tov‘,

Mening ukam burgutdir.

Tabassumim chaqmoqlar,

Yomg‘irlar ko ‘z yoshimdir.

Arslon meni ardoqlar,

Qoplon qarindoshimdir.

Yov hisobin bilmayman,

Mard bo ‘lsa, jon fidodir.

Do ‘stlarim kim, bilmayman,

Mening yorim Xudodir!

Yorini Xudo deb bilgan shoir Olloh yaratgan har bir xor-u xasga, Olloh jon ato etgan jonzodlarga mehr qo‘yadi. Yalpiz, lolaqizg‘aldoq, binafsha, rayhon, oqterak, majnuntol, qaldirg‘och, kapalak, jayron, bulbul, tulpor, turna, tillaqo‘ng‘iz, bulut... Bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin.

Shoirning tabiatga yaqinligi – bu rahm-shafqat, ezguliklar to‘lib-toshgan yuragidagi evrilishlarning natijasidir.

U bolalikdan enasi Tursunbibi momoning rivoyatlari, ertaklarini tinglab o‘sdi. Juda qaysar bo‘lgan deyishadi. Momosidan eshitganlari uni kitob olamiga,adabiyot olamiga yetaklagan.Maktabda o‘qib,she’rlar mashq qilgan va gazetada e’lon qilingan tanlovda g‘olib bo‘lib, “Artek”lageriga yo‘llanma olgan. Bu-yoshgina Muhammadjonning iste’dodidan darak edi. Hali o‘smir paytida "Qushlar ham yig‘lar" she’rini yozgan edi.

*Terlar oqdi suv bo 'lib bizdan,
Va gursillab yiqildi terak.
Aka,bizning qilmishimizdan
Tunda qushlar yig 'lasa kerak.*

*Ona chumchuq aylanib ketmas,
Ko 'ngliga qil sig 'masa kerak.
Eski indan tashib borib xas
Yangi uyda yig 'lasa kerak.*

*Baland bo 'lar uyimiz tog 'dek,
Ayvonida ustun ul terak.
Biz yasharmiz ko 'nglimiz chog 'dek,
Shunda qushlar yig 'lasa kerak.*

Yoshgina o'smir yigitni yangi qurilayotgan uy emas, uy qurish uchun kesilayotgan daraxtdagi chumchuq uyining buzilishi bezovta qiladi.

“Erka kiyik” she’rida kiyikning omonat joni, ya’ni uning izini kamon quvib yurganidan kuyinadi.

Yana yarador jayronning “yarasini labi bilan silaydi” va Xudodan shifo so‘raydi. Va tug‘ishgan aka bo‘lishni taklif etadi. Yana bir she’rida Moskva shahrida uchib yurgan bulbulni ko‘rib, hayratlanadi. Uning o‘z yurtida chah-chahlashiga o‘rgangan shoir unga zorlanadi:

*Meniku zarurat sudradi bu yon,
Moskovda nima bor senga, bulbuljon.*

Shoirning tulporga, ya’ni otga bo‘lgan mehri “Oq tulpor” she’rida original tarzda ifoda qilingan. Yangi uylangan kuyov obrazi shunday ifodalanadi:

*Ot oldidan boshlandi
Chimildiqqa yo 'lakcha,
Kechir, yorim, na qilay,*

Otga mehrim bo 'lakcha.

Qoldim ikki o 't aro,

Go 'shangada dildorim.

Kelin kelgan kechadan

Arazladi tulporim.

Qahramonning otga bo‘lgan mehri, munosabati ajabtovur. Uning so‘zlari ham xalqona, she’rning tili esa o‘ziga xos.

Qahramon otga bo‘lgan mehri tufayli o‘z yoridan kechishga ham majbur bo‘ladi.

Yordan kechdim otni deb,

Elga bo 'ldim ermaklar.

Qaydan bilsin ot qadrin,

Ot minmagan erkaklar.

Muhammad Yusuf ijodida alohida o‘rin egallagan shunday mavzudagi she’rlardan biri “Hayvonot bog‘I” she’rida “Neki go‘zal bo‘lsa, bari qafasda” deb she’rga yakun yasaydi. She’rdagi jayron, to‘ti, g‘oz, burgut, kaklik, qumri obrazlarining dardi odamlarga ham daxldorligiga ishora qilinadi. Qushlar, hayvonlar obrazlari orqali shoir o‘zining, o‘sha davr odamlarining dardini namoyon qiladi.

Shoir o‘z she’rlarida “Cho‘loq turna”lar bilan “aka-uka” tutinadi.

Biz tilmochsiz bir-birimiz tushunamiz,

Sharob ichmay aka-uka tutinamiz.

O‘zining ham “qoq yuragiga tosh otishgani”ni eslab, cho‘loq turnaga dardkash bo‘ladi. Shuningdek, u o‘z she’rlarida “Munchoq” deb atalgan kuchukchani “hamqishloq” deb ataydi. Kuchukning sadoqati odamlarda yo‘qligidan afsus qiladi.

Shoir “odamning taftini odam oladi”, degan maqolni odamning taftini kuchuk oladi”, – deb o‘zgartiradi.

Bu shoirning xulosasi.

Shoirlar doim ham o‘zlari to‘g‘risida yozmaydilar, odamlarning dardini ko‘proq she’rga soladilar. Shunday she’rlardan biri “Bola” deb ataladi. She’rni u

do'sti Muhiddinga bag'ishlaydi. Do'sti befarzand. U kuchugini bolasiday yaxshi ko'radi. Ammo u kuchukchani traktor bosib, o'ldiradi.

*O'g'limni ko 'mgandek ko 'mdim "Bola" ni,
Munchoq ko 'zlariga tuproqlar to 'ldi.*

G'ildiraklarga suykalib, erkalangan kuchukvachchani g'ildiraklar bosib ketganini afsuslanib yozgan shoir, unga ushbu she'rni bag'ishlaydi.

Chunki u kuchukcha ham tabiatning bir bo'lagi edi.

Shoir ijodida yana qizg'aldoqqa bag'ishlangan she'rlar bor. Ulardan biri "Qizg'aldoq" she'ri edi. U she'rning mavzusi hofiz do'sti Muhriddin Xoliqov bilan qirga borganida tug'ilgan. Nozik hissiyot egasi bo'lgan shoir qizg'aldoqning peshonasi yo'qligini, juda nozik gul ekanligini qalban his etib yozgan:

*Qizg 'aldog 'im, qirdan bo 'lak koshonang yo 'q,
Kokil yoysang yerdan bo 'lak toshoynang yo 'q.
O'ksib-o 'ksib turganingda o 'zim borib,
Peshonangdan o 'pay desam, peshonang yo 'q.*

Shoir shunday xokisor gullarni sevadi. Dardmand jonzotlarni o'z himoyasiga olgisi keladi. Peshonasidan o'pgisi, yaralarini yalab tuzatmoqchi bo'ladi.

Umrining so'ngi yillarida yozilgan she'rlaridan yana biri "Lolaqizg'aldoq" dir. U butunlay o'ziga xos asar. Unda bu dunyo bilan vidolashayotgan shoir – asosiy qahramon. U o'z yori bilan vidolashayotib, armonlarini ham to'kib soladi. Ortida qolayotgan yoriga mehr-muhabbatini izhor etadi. Vafotidan keyingi xavf-xatardan uni ogoh etadi.

She'rning yana bir o'ziga xosligi, originalligi shundaki, u o'z yorini kutilmaganda lolaqizg'aldoqqa qiyos etadi. "Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq" deb erkalaydi. U rafiqasining otini shunday o'zgartirib, favqulodda jumboqli obraz yaratadi. Asar vasiyat ruhida yozilgan. U go'yo o'z hayoti haqida bashorat qiladi. Shoirning turli mavzudagi she'rlarini o'qir ekansiz, ulug' allomalarimizdan birining so'zleri beixtiyot yodga tushadi:

"Haqiqiy shoirlar avliyodurlar!"

Sobir O'NAR,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

KIBRSIZ ODAM

Muhammad Yusuf haqida gap ketganda kimdir erka shoir, yana kim kuychi edi, yana kim nimadir deb ta'rif beradi va har kim bu borada o'zicha haq.

Adashmasam, aka bilan biz Prezident Akademiyasiga kirmasdan xiyol burun Do'rmonda, rahmatli Shavkat Rahmon huzurida tanishgan edik va shundan so'ng quyuqroq salomlashadigan bo'lgan edik. Shavkat aka o'shanda betob, ozg'in gavdasi tag'in ham ichga tortib, ko'zлari hiyla botgan, Muhamad aka negadir dasturxonadagi mayizni maqtagan, Abdulla akam buni qora quyosh deb aytadi, deya alqay boshlagan edi. Shoir oshirib yuboryaptimikin deb o'yladim. Lekin ikki ko'zim Shavkat Rahmonda. Biqinida Nabijon Boqiy, tez-tez bir narsalar deb qoladi, esimda yo'q, har qalay o'shanda Shavkat aka yarim kosa lag'mon ichgani yodimda, shoir xuddi shu safar ishtahasi ochilib endi sog'ayib ketadiganday tuyulgan menga.

Ammo...

"Hammaga yetgan havo

Bitta menga yetmaydi..." deb yurgan kunlari ekan.

Uyushmadan M.Yusuf bilan menga Prezident Akademiyasining o'n oylik kursida o'qish uchun tavsiya berildi. Endi el qatori kirib o'qib yotibmiz-u, bitta narsadan aka bir oz xijolat tortadi. Safimizda o'ttiz yoshta yetganlar bor edi, ammo akaga o'xshab qirqni urib, bir-ikki pog'ona oshib ham ulgurganlari yo'q edi. Chamamda o'qishga qabul qilinuvchilarning yoshini cheklovchi Nizomga ham akaning "standarti" chandon to'g'ri kelmas edi.

Sababi, u – Muhammad Yusuf edi. Gap tamom.

O'zi Muhammad Yusuf adabiyotga kech kirib keldi. Esingizdadir, o'sha "Yoshlik" jurnalida tanklar ham paxta teradi hali degan mazmundagi she'ri

chiqqanda bir kunda mashhur bo‘lib ketgan edi. Biz talabalar hayron bo‘lganmiz: yoshi Sirojiddin Sayyiddan ham katta, qayerda biqinib yurdi ekan, tavba...

Nazarimda, Muhammad Yusuf rostdan ham adabiyotga bir kunda kirib kelib o‘zining muqim o‘rnini topib olgandek...

Muhamad aka birov bilan uzoq ezilib, emranishib o‘tirishni xohlamas edi. Kutilmaganda turib jo‘nab qolar edi. Akademiyadaligida ham ko‘zga ko‘rinmay panada bechorasinib yurganlar bilan qalin do‘sit bo‘lib olar, bu holat har qanday vaziyatda shoirning izzatini joyiga qo‘ya oladigan kazo-kazo va badavlat talabalarning g‘ashini keltirardi.

Esimda, 1997-yilning bahori edi. Muhammad aka Jizzaxning Dashtobodidan Ma’rufjon degan yigitning tug‘ilgan kuni ekanini bilib qolibdi. Akademiyada ham turli qavm odamlar, tinglovchilar bor, hamma ma’lum bir joyda o‘z vazifasidan ozod etilmagan holda maosh olib o‘qib yuradi, lavozimdagilar ham ancha-muncha bor, ko‘p o‘tmay vazir, viloyat hokimi darajasiga ko‘tarilganlar ham bo‘ldi. Ammo Ma’rufjon cho‘ldagi qurilishlardan birida oddiy vazifada ishlar, keyinchalik ham kar’era qilmay oddiyligicha qoldi, lekin kuzatishimcha, Muhammad akaning umri oxirigacha qadrdon ukasi bo‘lib yurdi.

Aka vazifadagi kishilar bilan mutlaqo salomlashmas edi, desam yolg‘on bo‘ladi. Ular bilan yaxshi munosabatda bo‘lar, ammo eshigiga borib yotib olmas, bir ish bitsa bitdi, bitmasa afsuslanib o‘tirmay qo‘l siltab ketaverar edi.

Qisqasi, Muhammad Yusuf kibrdan uzoq inson edi.

Akademiyada guruhlar qo‘shilgan katta auditoriyada ham, kichik auditoriyada ham shoir oxirgi partaga o‘tirishni odat qilgan edi. Bir talay she’rlar, jumladan, o‘sha “Bir o‘g‘li, bir qizi bor Ozodaning, men bari bir sevaman Ozodani” degan satrlarini dastavval Akademiyadagi tinglovchilar eshitishgan.

1997-yangi yilni kutib olish arafasidamiz. Akademiya hovlisida bir nozik, go‘yo uchib borayotgan qizning, toshdan shekilli, haykali bor, biroq u yalangoyoq holda ishlangan edi. Qitmirroq yigitlar tunda, odamlardan bekitiqcha qiz tushgurning oyog‘ini poychasiga uzun qizil paypoq kiygizib qo‘yishibdi. Muhammad aka ertasi kuni qiz haykali qoshidan ketolmay, Yevropa go‘zaliga ham ibo yarashadi, buni

tushungan o‘zbek oshiq yigitlariga rahmat ayt, mazmunidagi hazil she’rni bitib tashladi.

Dashtoboddagi Ma’rufjonning odmigina uyiga “Villis” degan mikroavtobusda 7-8 kishi kirib borganimizda yigitning dadasi xursandligidan qayta-qayta ko‘z yoshi qilgan. Rosa miriqib suhbat qurbanmiz.

Vaziyatdan go‘yo ori qo‘zigan gulistonlik ba’zi kursdoshlarimiz ertasi kuni mashina tashkil etishib, barchamizni Zomin tog‘lariga sayohatga olib chiqishgan. Muhammad aka Zominda Boburga o‘xshab yalangoyoq holda oyoqlarini kerib she’rlar o‘qigani hamon yodimda.

Akademiyada N.Komilov, G‘aybullas as-Salom, Sh.Rizayev, N.Jumaxo‘ja singari adabiyotshunos domlalar ham saboq berishardi. G‘ay nulla aka turli mavzu, turli janrlarda qalin-qalin kitoblar yozib chop etar, akademiya rektori u odamga xayrixoh va homiy edi. G‘ay nulla aka mening “Hadislarda davlat qurilishi va hokimiyatga munosabat” deb nomlangan diplom ishimga opponent, N.Komilov rahbar edi. Diplom ishi yozilmasa, Respublika nashrlarida mavzuga doir uch dona maqola chiqarish ham kifoya qilar edi. Kamina gazeta-jurnallarda 8-9 ta maqola chiqarganman, o‘zimcha kerilib yuribman, biroq rahbarim N.Komilov men chiqargan maqolalar bilan mavzu orasida hech bog‘liqlik topolmay obdon ensasi qotar edi.

Muhammad aka bir mahal orqadan turib:

– Najmiddin aka, shu Sobirning hafsalasiga besh ketish kerak, – dedi. – Birov gazetada bir parcha xabar chiqarsa dunyoni buzadi, buniki sakizta ekan-ku, yana hammasi o‘qiladigan materiallar...

Najmiddin Komilov boshqalar nima derkin, degan ma’noda zalga qaragan edi, buxorolik kursdoshim o‘rnidan turib “Bu yigit nafaqat jurnalist, balki “Yoshlik” degan jurnalga ham muharrir, falon yili buxoroliklardan bir necha kishi qamalib ketayotganda jurnal sababli odamlar nohaq qamoqdan qutulib qolishganini ko‘pirtirib gapirdi.

Bu gap g‘irt yolg‘on ekanidan avvalo, men uyalib ketdim. Axir, bizning jurnal huquqiy nashr emas, qamalganlarga aloqasi yo‘qligini hamma biladi-ku,

bilmaganlarga ham yil davomida obuna haqida gapiraverib otning qashqasidek qilib qo‘yganman.

Orqaroqda jim o‘tirgan G‘aybullा aka shart o‘rnidan turib doska yoniga keldi. Asta-sekin gapni uzoqdan boshladи. Meni, M.Yusufni “urib tashladi”. Mavzuga aloqasizlikda aybladi. Yer yorilmaydi, men kirib ketmayapman, shunchalik ham tuproqqa bulaydimi odamni, kuyovini – katta shoir M.Yusufni ham ayamadi-ya.

Biroq G‘aybullа as-Salomning xuddi yozganlaridagi singari nutqida ham ajoyib manyovrlari bor edi.

– Bir qarashda shundoq, – deya ko‘rsatkich barmog‘ini tepaga qarata ta’kidlagannamo qotirib, o‘zi ham qotib, ko‘zlarini yirik ochib, to‘xtab, o‘ychan holda davom ettirdi.

Xullas kalom matbuotda e’lon qilingan har bir maqolaning aynan falon yoki piston hadisga mos yoki “xuddi shundan kelib chiqib yozilgan maqolalar” ekanini G‘aybullа domla shu darajada ustalik va zukkolik bilan isbotladiki, yo tavba, muallif bo‘lsam ham kamina bunaqa aloqadorlikni sira bilmagan edim...

Diplom ishi egasi, Najmiddin Komilov, M.Yusuf, xullas, hamma angrayib qolgan. Najmiddin akadan tashqari, tag‘in ikki prorektor ham o‘tiribdi. Ular oldida domlalarim xijolat chekmasliklari uchun doskaga chiqib Imom G‘azzoliydan biror soat “ma’ruza” o‘qidim. Juda qiziq gaplar edi. Hamma qotib turibdi. Lekin bu safar ham mavzuga umuman aloqasi yo‘q gaplar.

Akang qarag‘ay boshqalarning zerikarli va o‘ta rasmiy, siyosiy, kitobiy mavzulariga qaraganda diplom ishimni muvaffaqiyatliroq yoqladim. Lekin qayoqlarda o‘tlab yurganimni birgina Shoir bilar edi. Shuning uchun tashqariga chiqqach, Shoir odatdagidek burnini ushlab qotib, burishib kulib, yelkamga shap etkazib urarkan:

–Sobir, o‘lay agar, odam-podammassan, odam bo‘lmaysan o‘zi sen! – dedi.

Aka kam odamlarni “sen”sirardi. Lekin samimiyati cheksizligini bildirib turardi.

Najmiddin Jiyanov, Saparboy Ochilov, Elmurod Xolbozorov, G‘ulom Mirzo, sirdaryolik ikki rais do‘stimiz, Ma’rufjon, jizzaxlik Samariddin Tilavov...

Kunlar o‘tdi. Ne bir kunlar o‘tdi? Sapar qayda, Elmurod qayda? Samariddin do‘stimiz ikki farzand bilan bo‘ydoq, yanga baxtsiz bir tasodif tufayli olamdan o‘tgan, Shoir aka unga ko‘pincha dalda bo‘lishga harakat qiladi, tasalli beradi. Falonchi, pistonchilar ham yomon emas, deb “nomzodlar” tavsiya qiladi.

Samariddin Xudo yorlaqagan yigit ekan, shundoq ko‘z o‘ngimizdagи Davlat va Jamiyat qurilishi fakulteti dekani Fatxulla akaning qabulxonasida o‘tirgan Zulfiya ismli qizni tanladi. Goh men, goh Muhammad aka kino, konsert, teatrlarga patta olib kelib yigitga beramiz, yigit ne ko‘yda qizning ko‘nglini olishga shoshadi. Axir, Zulfiyaxonim hali bo‘y qiz...

Shoirning ta’sirimi, Samar jo‘raning o‘zi ham chakki emasmidi, ishqilib o‘qish adoqlayotgan may oylari so‘ngida Sirg‘alidagi “Baxt” to‘yxonasida Samariddin bilan Zulfiyaning nikoh bazmini o‘tkazganmiz. G‘allaoroldan Samarning otasi O‘rol bobo yetovida bir avtobus odam yetib kelgan. Bu yoqqa shoir hofiz xalqini qatorlashtirib tashlagan, har zamon o‘ziyam yengil o‘ynab davra kezib qoladi...

Samarni, arbob Samariddin O‘rolovichni shunday o‘ylantirib edik. Muhammad aka bosh bo‘lgan edi.

M.Yusuf garchi, juda mashhur bo‘lib ketgan bo‘lsa-da nufuzli nashriyotlarga qo‘lyozma ko‘tarib borishni o‘ziga ep ko‘rmasdi. Xususiy nashrlar qalam haqi bermasa-da, 50-100 ta kitobni o‘ziga ortiqcha chiqarib berishni va’da qilsa, shoir rozilik beraverardi. O‘qishni tugatish arafasida sarg‘aygan gazeta qog‘oziga bosilgan kitobchasi bir nashriyotda chop etildi.

Do‘kondan bir dona sotib oldim-da, akaga dastxat yozdirish uchun bordim. Aka menga kulib qarab turaverdi.

– San kichkina ijodkormassan, o‘g‘lingning nomini ayt, – dedi so‘ng.

Kitobga esa “Oloviddinjon! Yaxshi odam bo‘l!” deb yozib qo‘ydi...

Shunda men talabalik davrimiz, o‘shanda matbuotda tez-tez ko‘rinadigan shoirlar M.Kenjabe, S.Sayyid, M.Yusuflarning birinchi kitoblari chiqishini kutganimiz, “Maktublarim”, “Ruhim xaritasi”, “Tanish teraklar” nashr etilganida o‘nlab she’rlarni yod olib, paxta dalalarida baytbarak qilganlarimizni esladim. U vaqtarda she’r, kitob shu taxlit bayram qilinganini akaga aytdim. Endi she’rlaringiz

qo'shiqchilar tilidan tushmaydi, shoirlarning vatanparvarisiz, dedim. U odam mening ikki yelkamdan ushlab tikilib qoldi.

– Qo'yaverasiz-da endi, Sobirvoy, – dedi-yu tez ortiga o'girildi.

Maqtovni uncha xushlamas edi...

Keyin Muhammad aka o'zi tez orada arbobga aylandi. "Xalq shoiri" bo'ldi, ko'p o'tmay deputat bo'lib oldi. Shogirdlari judayam ko'p edi. Shularning ichidan kamtarrog'ini tanlab, yur, deya birga ketaverar edi. U bilan ham aslida emranishib yotmas edi.

Bir kuni ikkalamiz Mustaqillik metrosiga tushsak, shoir Islom Ahadni ko'rib qoldik. Islom aka shoirning kursdoshi ekan. Shoirning ozgina "daraja"si bor edi, avval o'rtog'idan o'pkaladi, "otam o'ldi – kelmading, undan avval katta qizimning to'yiga kelmading, odamgarchilik bormi?" dedi. Islom Ahad kulib hazilga burgan edi, aka qo'pollashib uni shunaqa so'kib tashladiki, hech nari-berisi yo'q, Islom Ahad ham o'rtog'idan buni kutmagan ekanmi, shartta juftakni rostlab qoldi.

Odamlar, ayniqsa qo'shiqchilarning tez mashhurlik kasalligiga yo'liqqa nini ko'ramiz. Ijodkorlar orasida ham uchraydi. Agar shoir zotida shu kasallik urchisa, M.Yusufga birinchi galda yopishishi kerak edi, o'ylaymanki, shunda tantiqlik qilish ham shoirimizga yarashib turishi mumkin edi. Lekin shoir mashhurlikka beparvo edi. Chindan ham kibr-havo yo'q edi.

Ustozlariga, ayniqsa, Abdulla Oripovga nihoyatda sodiq ekanini kuzatganman.

Bir gal o'sha Mustaqillik maydonidagi uyushma binosida raisimiz Abdulla akaning kabinetida suhbat qurib o'tirardik. Rais ijodiy faollikni kuchaytirish haqida gapirib, ikkimizga ham tanbeh berdi. Barnoxon har zamon kirib pamil choy damlab beradi. Kech tushib, qosh qoraya boshladi. Hanifa yanga chamasi Do'rmon dan akaga telefon qilib qoldi. Bir payt: "Nima? Otam! Otammi?" deb o'rnidan turib ketdi. Ko'zлari katta ochilib, yuzi shunday vahimali tus oldiki, bunaqa holatni birinchi ko'rib turishim edi.

Muhammad akayam, men ham raisning otasi Orif bobo vafot etganini sezib turardik. Orif boboning uzoq umr ko'rganini ham bilardik. Biroq shoir o'zi oltmishdan oshib ham xuddi go'dak farzanddek uv tortib yuborishini kutmagan edik.

Rais juda ko‘p odamlarga qo‘ng‘iroq qildi. Boladay o‘ksib yig‘ladi. Biz qanday tasalli berishni bilmaymiz. Ko‘p o‘tmay Devon, Vazirlar Mahkamasining mas‘ul odamlari ham akaga qo‘ng‘iroq qilib hamdardlik bildira boshlashdi.

Muhammad aka Orif boboning uzoq yashaganini nazarda tutdi, shekilli:

– To‘y-da endi bu, aka, ko‘p ham ezilavermang, – dedi.

Biroq Abdulla aka to‘satdan boshqacha tutoqib ketdi:

–Nima? To‘y? Bu senga to‘y, menga to‘y emas!

Muhammad aka to‘y deb chakki gapirganini darhol tushundi. O‘tinib kechirim so‘ray boshladi. Raisimiz esa hovridan tushay demasdi. U yog‘idan o‘tdik, bu yog‘idan o‘tdik, shoir picha bosilgandek bo‘ldi. Xanifa yangaga telefon qilib, falon yerdagи men hajdan opkelgan zamzam suvini olinglar, otamni shu suvda yuvdiraman, dedi.

Rais uyiga borib ham o‘tirmay uchta mashinada farzandlari, rafiqasi, o‘rinbosari, jumladan Muhammad Yusuf ham qo‘shilib Kosonga jo‘nab ketdi. Muhammad aka to ma’rakalari o‘tguncha o‘sha yoqda bo‘ldi.

Keyin ham bekor bunday debman, deya afsuslanib yurdi.

Na ustoz, na shogird bu tang holatni qaytib eslab o‘tirmadilar...

Ittifoqo shoir kunlarning birida saylanma kitob chiqardi. Hammaga tarqatdi. Adashmasam tug‘ilgan kuni yaqin edi. O‘zi to‘satdan kelib xokisor, ajoyib yozuvchi do‘stimiz Abduqayum Yo‘ldoshevga “siz, Abduqayum, “Zarafshon” restoranida o‘tadigan taqdimot ssenariysi yozib berasiz”, deb qoldi. Abduqayum dovdirab qoldi: “qanday bo‘larkin, bunaqa narsaga ishim tushmagan”.

–Yo‘q, siz boplaysiz, – dedi Muhammad aka. – Tamom-vassalom.

Shunday dedi-da, shoir chiqdi-ketdi.

Abduqayum, qo‘lida “Saylanma”, menga qaraydi.

– Akaning ijodiniyam zo‘r bilmayman. Qo‘shiqlarini bilamiz-ku, lekin...

– Urinib ko‘ring, – dedim men.

Abduqayumday tezkor ishlaydigan ijodkor O‘zbekistonda yo‘q. Biror mavzuda maqola buyursangiz, kun emas, soatlar ichida aytganingizdan ham zo‘rroq shaklda

kompyuterda tap-tayyor qilib beradi. U ertasi kuniyoq 20 sahifalik ssenariy yozib keldi.

– Akaning she’rlari qiyomat, – dedi hayajonlanib. – Yonimizda yurgani bilan bari bir ijodini chuqur bilmas ekanmiz.

U ssenariyni shoirga berdi. Bir mahal o‘zi kelib Abduqayumni quchib alqay ketdi.

– Zo‘r, aytmabmidim, o‘ylaganidanam zo‘r! Rahmat, uka! – dedi.

O‘sha kunlari uyushma rahbariyati Ellikqal’aga yoshlar seminariga tayyorlanishayotgan edi. Tez orada bir qancha shoir va yozuvchilar rais Abdulla aka boshchiligidagi Nukusga uchib ketishdi. Uyushma raisining yoshlar bilan ishslash bo‘yicha o‘rinbosari sifatida Muhammad Yusuf ham birga edi. Va... o‘zimiz bilgan qisqa tarix – aka qaytib kelmadi.

Komada – behush yotganini eshitib uch kun yurak hovuchlab turdik. To‘rtinchi kuni esa... biz istamagan mudhish xabarni eshitdik...

Kecha, ko‘z o‘ngingda g‘ayrati toshib turgan inson, kuychi shoir, mehribon do‘sit va og‘a... to‘satdan... Ajalga hukm yo‘q ekan!

Abduqayum bo‘lsa, akaning ijodini o‘qib beixtiyor yaxshi ko‘rib qoluvdim, ssenariyni o‘zim bilmagan bir ilhom bilan bir o‘tirishda yozib tashlab edim deb afsus qildi. Haligacha afsus deydi.

Ertasi kuni adabiyot gazetamizda Prezidentning shoirning onasi Enaxon opaga qisqa ta’ziyanomasi e’lon qilindi. Xalqning ko‘nglini zabit etgan, mehriga sazovor bo‘lolan ijodkorga yurt rahbarining chuqur hurmat-ehtiromi, g‘amxo‘r oqsoqolning kuyingani edi bu. Ayni paytda o‘zbek she’r ixlosmandlarining irodasi ramzi edi.

...Ko‘p o‘tmay, joylarda shoirning ellik yoshligini nishonlash boshlandi. Uning nomida fond tashkil etildi. Parchadekkina gazeta ham bosila boshladи.

Yunusoboddagi bir maktabda o‘tkazilayotgan tadbirda professor Qozoqboy Yo‘ldoshev, shoirning umr yo‘ldoshi Nazira as-Salomlar bor edi. Juda ko‘tarinki ruhdagi uchrashuv edi. Nazira opaga men bir necha yillar avval bir guruh turli yoshdagagi, turli vazifadagi odamlarni uyiga boshlab borib, o‘shandan beri muxlislarga qo‘shilib akani “pochcha” deb atay boshlaganimni so‘zlagan edim. Opa ham:

– Sobirjon, shu xotiralaringizni yozib bersangiz, men gazetada berardim. Ochig‘i o‘sha kelganlaringiz, kimlar bilan kelganingiz aniq esimda yo‘q, – deb qoldi. O‘ylab yurdim-u, biroq yozish fursati kelmadi.

Mana, yozildi ham.

Akani, do‘sni, Shoирni yaxshi ko‘rib yurganimiz shundan ham ma’lum bo‘lsa kerak...

Ma’rufjon Yuldashev,
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri maslahatchisi,
filologiya fanlari doktori, professor

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATINING TILI

“Koinot qachonlardir bir nuqtaning, bir zarraning portlashidan paydo bo‘lgan deyiladi. Agar shu fikr to‘g‘ri bo‘lsa, poetik so‘z, ya’ni she’riyatning mohiyatida lohududga sochilib ketgan koinotni to‘plab, sidirib yana o‘sha nuqtaning ichiga sig‘dirish istagi yotadi”, - deydi Ramz Ravshan. Va shoирning zimmasidagi qutlug‘ vazifa haqida gapirib: “har bir asl shoир tangrini o‘z ona tilida tasvirlaydi va haqiqiy shoир tangri diydorini tilab qushday qanot qoqa-qoqa o‘z tilining osmonini kengaytiradi”, - deydi. Qushning qanot qoqishidan ohang yaraladi, kuyga aylanadi, so‘zga aylanadi. Shu bepoyon osmon qushlarga va shoirlarga armug‘on qilindi, deya bejiz aytilmaydi.

O‘z so‘zi bilan ko‘rkli tilimizning pokiza osmonini kengaytigan shoirlar ko‘p. O‘zbekning baxti ham shunda. Bugun bu tilda tarannum etib bo‘lmaydigan tuyg‘u yoxud tushunchaning o‘zi yo‘q. Turkiy tilni dag‘al va nazmga yaroqsiz deb bilganlarning haddini buyuk Navoiy XV asrdayoq ko‘rsatib qo‘ygan. XX asr avvalida o‘zbek tilida nasriy asar yozishning mushkulligini ro‘kach qilganlarni Qodiriy va Cho‘lpon nasrdagi betakror so‘z nazmi bilan hayratga solgan. Keyingi avlodlar ichida ham badiiy so‘zning me’morlari sanalmish katta shoirlar yetishib chiqdi. Demak, muqaddas silsila davom etmoqda va millat turguncha turadi.

O‘tgan asrning so‘nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo‘lchi yulduzdek porlagan shoir Muhammad Yusuf o‘zining sodda va samimiyl so‘zi, o‘zigagina yarashadigan she’riyati bilan el nazariga tushdi. U o‘zining qisqagina umrida milliy she’riyat va zamonaviy qo‘sinqchilikni yuksaklarga ko‘tarilishiga beminnat hissasini qo‘sha oldi. Shoir haqida Erkin Vohidov shunday yozgan edi: “Muhammad Yusufni xalqimiz sevib dilida saqlaydi, Vatan kuychisi, Istiqlol kuychisi deb ardoqlaydi, o‘zbek eliga ulug‘ mehr, sadoqat singib ketgan nazokatli, samimiyat to‘la she’rlarini qadrlaydi, qo‘sinq qilib aytadi. Uning she’riyatini chin ma’noda qanotli she’riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she’riyat desa bo‘ladi.”

Vatanini kuylamagan, madh qilmagan shoir dunyoda bo‘lmasa kerak. Muhammad Yusufgacha ham, undan keyin ham qo‘liga qalam tutgan shoir borki, ona Vatanni ulug‘lab she’rlar yozdi. Bu g‘oyat tabiiy hol. Muhammad Yusuf Vatanni qandaydir balandparvoz, she’rdan she’rga o‘tib yuruvchi jimjimador so‘zlar bilan emas, sodda, begidir va mag‘zi to‘q so‘zlar bilan tasvirlaydi. Uning she’rlaridagi Vatanni tasavvur qilish oson va huzurli; qaysidir jihatil bilan singlingizga, qaysidir jihatil bilan onangizga yo otangizga o‘xshab ketadi. Vatanning andozasini ulardan olasiz, Vatanning sarhadlarini ularga bo‘lgan mehr-u muhabbatingiz bilan belgilaysiz. Uning “Izhori dil” she’ridagi satrlarga e’tibor bering-a:

Ko ‘hna tolbeshikdan

Boshlangan olam,

Senga iddaolar

Qilmay sevaman.

Bir kuni singlim, deb,

Bir kuni onam –

Vatan,

Kimligingni

Bilmay sevaman!..

Vatan haqida bundan-da samimiyl yozib bo‘larmikan? Shuning uchun ham uning she’rlarini o‘qigan sari, Vatanga, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbatingiz ortaveradi.

Buyuk bastakorlarning muqaddas maqsadi musiqada ilohiy ovozga, sasga, tovushga eng yaqin ohangni topish va tinglovchiga jannatiy ovozni, behishtiy sadolarni tuydirishdan iborat bo‘ladi. Olimlar esa insoniyatni o‘ylatadigan savollarga aniq javob topish peshida aziyat chekadi. Shoirlar esa millatning vijdoni, milliy qadriyatlarning muhofizi, his-tuyg‘ularning ko‘zgusi hisoblanadi.

Muhammad Yusuf tilimizning jonkuyar himoyachisi edi. Bu bejiz emas, u har bir so‘zni Vatan deb bilar, Vatanni asrashni milliy tildan boshlash kerakligini she’rlarida ko‘p ta’kidlar edi.

*Sen bo ‘lmasang nima bizga silliq she’rlar,
Bu dunyoda tili yo ‘qda, dil yo ‘q derlar.
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to ‘ridagi so ‘lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

Inson ona allasi bilan qulog‘iga quyilgan tildagina taraddudsiz so‘zlay oladi, kayfiyatini, his-tuyg‘ularini bexato ifoda qiladi, dilidagini emin-erkin, bor bo‘yicha to‘ka oladi. Shu ma’noda shoirlar millat ruhiyatidagi evrilishlarning, ijobiy va salbiy o‘zgarishlarning barometrlari hisoblanadi.

*Qanday alam otimizni qo ‘ysa yovlar,
Marg ‘ilonlar qayerdayu Gorchakovlar?..
Bizni azal bukolmagan bu sinovlar,
Mingtepani ataylik o ‘z nomi bilan.*

Buni shoirning katta vasiyati deb tushunmoq kerak. Bu vasiyatni amalga oshirmoq bugunlarga nasib qildi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti joy nomlarini, toponimik obyektlar nomini tartibga solishga astoydil bel bog‘lagan. Muhammad Yusufning bu orzusini mazkur muassasa faoliyati davomida amalga oshiradi, degan umiddamiz.

Xalq orasida “odam dunyoga bir marta keladi” degan mashhur gap bor. Odamday yashashga, orzularni ertangi kunga surmaslikka da’vat qiluvchi bu gapni shoir o‘z yo‘rig‘ida so‘roqlaydi. “Odam dunyoga bir marta keladi. Shu bir kalima so‘z bilan qancha savob ishlar qilish mumkin”, - deydi shoir. Va shu bir jumлага

odamzod qancha gunohlarni, orzularni, isyonlarni, dard va alamlarni sig‘dirib yuborishini aytmoqchi bo‘ladi. Shoir, xalq tilidan tushmaydigan bir jumlanis o‘roqlash orqali xalq tilidagi har qanday birlikning yaxshilikka, ezgulikka va abadiyatga dahldor ekanligini urg‘ulaydi. Bir marta kelinadigan dunyoda faqat yaxshilik qil, yaxshi nom qoldir, degan qadimiy hikmatning ohorli ifodasini topadi. Shoir xalq tilidagi ayrim so‘z, ibora va quyma gaplarni g‘uborlardan poklab asl holida yana xalqqa qaytarib beradi. “Odam dunyoga bir marta keladi” gapining mayda maqsad va manfaatlar uchun qurban qilmaslik kerakligini, ezgu niyat va amallar uchun ishlatish zarurligini eslatmoqchi bo‘ladi.

Shoir ijodi bedorlikka da’vatkor she’riyat. U sevgi, visol, ayriliq, iztirob kabi shaxsiy kechinmalardangina iborat she’riyat emas. Kitobxonni ijtimoiy hayotda faol yashashga, uyg‘oqlikka chorlovchi she’riyat. Bir she’rida shunday satrlar bor:

Mudroq bosgan dilim,

Aytaman bir sir.

Tangri uyquni-da

Pallada tortar.

Uyqu – ham

Nasiyaga berilgan umr,

Uyqung ortgan sayin

Qarzing ham ortar...

Umrning har oni o‘lchovli, hatto uyquning ham badali bor. Buni idrok qilgan kitobxon o‘z umrini sarhisob qiladi va shoirdan minnatdor bo‘ladi.

Muhammad Yusuf ijodi umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lovchi she’riyat hisoblanadi. Uning she’rlarida insoniyatga aloqadar ezgu xislatlar, savob amallarning tamomi eng baland pardada kuylanadi. Bir mansur she’rida shunday deydi: “Asli inson xoki qo‘yilgan hamma joy aziz va muqaddasdir. Bas shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog‘ini ko‘zlariga surtsin. Bundan kimga jabr.” Bu yerda insonning din, e’tiqod, mazhab, irq, millat va rang-ro‘yi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar muqaddasligi va uning xoki qo‘yilgan tuproqning azizligi tarannum qilinmoqda.

Shoir she’rni, tilni ajdodlardan qolgan va avlodlarga bekam, bexato yetkazilishi shart bo‘lgan muqaddas meros deb biladi.

Tushimga kiradi Qodiriy bobom

Bemador, bemajol, behol beorom.

Tushimga kiradi Qodiriy bobom:

Tur deydi, muncha ko‘p uxlading, bolam.

So‘zga, tilga, milliy an’ana va qadriyatlargaga loqaydikni ajdodlarga, otabobolarimizga, Koshg‘ariyga, Navoiyga, Boburga, Qodiriyga xiyonat deb biladi. Undandan-da o‘ta Vatanga xiyonat deb tushunadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bir guruh yozuvchi, shoir va ziyorilar bilan o‘tkazgan uchrashuvida milliy adabiyotimizni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, galdegisi muhim vazifalar haqida gapirib: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak” – degan edilar. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti jamoasiga shoir Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyatini keng targ‘ib qilish vazifasi yuklatilgan edi. O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ibratli hayoti va ijodini chuqur o‘rganish bo‘yicha institutda o‘quv-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, ilmiy-ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tizimli ishlar rejasi tuzildi. Institutning barcha kurs va guruhlarida Muhammad Yusuf hayoti va ijodiiy faoliyatiga bag‘ishlangan maxsus kursslari o‘qitilishi belgilab olindi. Bu maxsus kursslarni o‘qitishdan maqsad bir shoirning hayoti va ijodini o‘rgatishdangina iborat bo‘lmasligi kerak. Kamida, Vatanni Muhammad Yusufdek “iddaolar qilmay” sevishni o‘rgatishdan, ona tilimizni Muhammad Yusufdek gard yuqtirmay ardoqlashni o‘rgatishdan, beqiyos milliy qadriyatlarimizni uningdek anglashni o‘rgatishdan iborat bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim.

Ikromiddin Ostanaqulov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari doktori

O‘ZBEK SHERIYATIDA MUHAMMAD YUSUF SIYMOSI

Аннотация

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag’ishlangan Bahodir Iso qalamiga mansub dostonning yozilish sabablari, uning poetikasi, ijtimoiy ahamiyati ilk marotaba yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: doston, badiiy mahorat, Vatanga muhabbat, ona-yurt sevgisi, harbiy xizmat, lolaqizg‘aldoq, shoirning tuyg‘ulari, mangulik.

Аннотация

В данной статье впервые описаны истории написания поэмы Баходира Исы, которые посвящены жизни и творчеству Мухаммада Юсуфа, его поэтике и социальной значимости.

Ключевые слова: эпос, художественное мастерство, любовь к Родине, любовь к Родине, военная служба, тюльпаны, чувства поэта, вечность.

Annotation

This article for the first time describes the stories of writing the poem by Bahodir Isa, which are dedicated to the life and work of Muhammad Yusuf, his poetics and social significance.

Key words: epos, artistic skill, love for the Motherland, love for the Motherland, military service, tulips, poet's feelings, eternity.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligiga bag’ishlab shoir va musavvir Bahodir Iso 2014-yili “Muhammad Yusuf” dostonini yaratgan edi. Bu asar Farg‘ona shahrida bosilib chiqqanligi sababli O‘zbekistonda keng

tarqalmagan [1]. Shuningdek u shoir do'stining xotirasiga bag'ishlab "Bulbul dili bor edi" nomli hujjatli qissa ham yaratgan [2]. Ushbu doston va hujjatli qissa muallifi B.Iso 1956-yili Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi Dutir qishlog'ida tug'ilgan, shu qishloqda umrguzaronlik qiladi. 1977-yili Farg'ona davlat universitetining "O'zbek tili va adabiyoti" fakultetini tamomlagan. Maktabda o'qituvchi va viloyat gazetasida adabiy xodim bo'lib ishlagan. Hozirgi kunda Rishton kulolchilik korxonasida rassomlik qiladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Shuhrat" medali sohibi.

Uning 1985-yili nashr etilgan "Xayrli tun" nomli ilk she'riy to'plamiga Muhammad Yusuf muharrirlik qilgan [3]. "Yaxshiyam bor yaxshilar" nomli yirik she'riy to'plami 2005-yili e'lon qilingan bo'lib, u O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo tahriri ostida nashr etilgan edi [4]. Shoirning bir necha she'rlari hofizlar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan.

Nega aynan Bahodir Iso "Muhammad Yusuf" dostonini yozdi? Buning uzoq va ayni paytda, g'oyatda bir havas qilgulik tarixi bor. 1978-1980-yillar orasida Bahodir Isomov (ismi va familiyasi asli shunday) bo'lajak buyuk shoir Muhammad Yusuf bilan Uzoq Sharqda bir polkda harbiy xizmatda bo'lgan. Ularning bir umrlik do'stligi shu yerda boshlangan. Harbiy xizmatga ketgunga qadar Bahodir Iso ancha mashhur shoir bo'lib, professor Laziz Qayumov uning muxlisi va ustozи edi. Harbiy xizmatda ular Muhammad Yusuf bilan tanishib, bir-birlariga o'z she'rlaridan o'qib berishadi. Bahodir akaning juda ko'p she'rlarini Muhammad Yusuf yodlab, muallifga o'qib beradi. Bu paytda Bahodir aka institutni bitirgan, oliy ma'lumotli o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi edi. Muhammad Yusuf esa undan uch yosh katta bo'lsa-da, o'qishga kira olmay harbiyga jalgan edi.

Keyinchalik Bahodir akaning bizga hikoya qilib berishicha, xizmat davrida u yangi she'r yozolmay qoladi. Bundan qattiq tashvishlangan shoir bir rus zanaxariga (tabib, sinchi) ko'nglini yoradi. Zanaxar "Sen bilan bir odam yashar ekan, u seni shu qadar sevar ekanki, butun iqtidoringni o'zida ham bo'lishini so'rab, Xudoga yolvorar ekan, duosi ijobat bo'lib sendagi fazilatlar ham unga o'tib ketibdi, bu odam kelajakda sendan ham mashhur shoir bo'ladi, seni ham qo'llaydi" deb ta'bir qiladi. Bundan

shunday xulosa qilish mumkinki, Muhammad Yusuf Toshkent adabiy muhitiga kirib kelishdan avval Bahodir aka bilan hamnafas bo‘lgan, ikki iste’dodning yaqindan tanishuvi va o‘zaro fikr almashuvi uning iste’dod bulog‘ini jonlantirib, taraddud va hadik toshlarini yorib yuborgan va xizmatdan qaytgach, o‘zgacha quvvat bilan ijod qilishga kirishib, she’riy durdonalar yarata boshlagan.

Armiya safidan ona yurtiga qaytgan ikki darvesh faol ijodiy muloqotlar qilib borishadi. Bu orada Muhammad Yusufning qalbidagi ijod bulog‘i qaynab, bulbul bo‘lib sayrab, she’rlari qo‘shiq bo‘lib yangrab ketadi. Bahodir Iso esa Muhammad Yusufning yutuqlaridan cheksiz quvonib, faxrlanib, ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilib, Toshkentdan uzoq o‘z qishlog‘ida yashaydi. Avtohalokat tufayli sog‘ligidan ajralgan Muhammad Yusuf ikki-uch yil ijodiy ishlar bilan band bo‘lib, nihoyat 2001-yili vafot etadi. Jon do‘sti va jigarining vafoti Bahodir Iso uchun chinakam musibat, chidab bo‘lmas ayriliq, dard-u alam edi. Bu dard-u alamlar ko‘p o‘tmay ulkan marsiyaga, o‘tlig‘ bir dostoniga va qissaga aylandi:

Men o‘yparast Bahodir Iso –

Xudo bergen tuyg‘uga mirzo,

Haq xushlagan qush bo‘lib sayrab,

“Xalq bo‘l, elim!” deya hayqirgan,

O‘ttiz million dilga uy qurgan,

Chamanida erka qush shoir,

Butun elga birday xush shoir –

Muhammaddan ochgim keldi gap...[5].

Shoir o‘z dostonini mana shunday ko‘tarinki ruh bilan boshlaydi va ilk hissiyotlarini “El bolasi” she’rida bayon etadi. Bunda Muhammad Yusufning shoirlilik iste’dodi, qudsiy siyimosi, o‘quvchilarga ma’lum va mashhur iboralari nazm ipiga tiziladi. Bu misralardan biz Muhammad Yusufni qanday ardoqlashimiz va sevishimiz kerakligini ilg‘ab olamiz. Jumladan, shoir deydi:

Muhammadning ko‘ngli oq edi,

Tuyg‘usi sof, fikri sog‘ edi.

Unga yuzta og‘zi polvondan,

*“Vatan” degan so ‘zi yolg ‘ondan,
Umri dala ichida kechgan,
Qoqi non yeb, quruq suv ichgan,
Sodda dehqon yaxshiroq edi!*

Bahodir Iso chinakam shoir Muhammad Yusufning “Lug‘atdag‘i har bir turkiy so‘z o‘rtoq edi unga ham chin do‘st” ekanligini ta’kidlaydi. “Sevar edi o‘zbek tilini, O‘zbegini, Ozod Elini!” deya “O‘zbekiston nomma” mavzusida qalam tebratgan G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov an‘analarini o‘ziga xos tarzda davom ettirganligini faxr bilan nazm etadi. Muhammad Yusufning “O‘zbekiston” she‘ridagi jonbaxsh misralarni bir-bir yodimizga solib, uning badiiy sirlarini kashf etishimizga ko‘maklashmoqchi bo‘ladi:

*Osmon edi yurtga vafosi,
Ummon edi yurtga vafosi!
Rimdan qimmat edi shoirga
Bedapoyasining bahosi!*

*Tandir bag‘ri to ‘lib nonlarga,
Turar ekan kulcha ulashib...
Parijdagi restoranlarga
Qo ‘yarmidi uni almashib...*

Dostonning botiniy syujetiga e’tibor bersak, unda sakkizta xotira chizig‘i borligini va ular bir-biri bilan mantiqiy bog‘lanib ketganligini sezamiz. Muallif “El bolasi” nomli birinchi xotirasida shoirning buyukligini ko‘rsatishni ko‘zlar ekan, uning qadrini bilmagan, bilishni xohlamagan ayrim zamondosh kimsalarga achchiq xitoblarini ham yashirmay so‘zlaydi va o‘z do‘stidan faxrlanib:

*U shunaqa zo ‘r shoir edi!
Joyi faqat to ‘r shoir edi!
Ichi to ‘la otash, alanga,
Davralarga qo ‘r shoir edi!
deydi.*

“Naziraxon” nomli eslatmasida shoirning turmush o‘rtog‘i Nazira Salomova siy wholemosiga samimiy chizgilarni ko‘ramiz. Bu misralarni o‘qir ekanmiz Erkin Vohidovning “Olimlarning rafiqalariga” nomli she’ri yodimizga keladi.

Naziraxon – olimning qizi.

Yaxshi she’rlar yozardi o‘zi.

She’rda emas, shoirda ekan

Ammo uning tole yulduzi...

Naziraxon Muhammad Yusuf ijodining yanada barakali bo‘lishini chin dildan istab, o‘z yorining istiqboli uchun ijoddan ham voz kechganligini sadoqatli ayol nomidan shunday ifodalaydi:

She’rni yozsin Muhammad akam,

Qo‘yib bersin o‘qishni bizga –

Menga, Ma’sudaga, Nozixon

Va kenjamiz – Madina qizga!

O‘zim bo‘lay uning cho‘risi,

Hali mashhur bo‘lib ketadi!

Uyimizga, gapning to‘g‘rasi,

Bitta ka-a-a-t-t-a shoir yetadi!”...

Naziraxon ko‘zlagan maqsadlariga erishdi – Muhammad Yusuf mashhur shoir bo‘ldi, faqat unga “Nasib etmadi, Muhabbatning shirin visoli...Chirillatib uchta qizini, Uch oftobi, uch yulduzini – Ma’sudasi – nozik yombisi, Xuddi quyib qo‘ygandek o‘zi – Nozimasi, Madinasini... Ikki dunyosiga tatirli, Xushbo‘y rayhonlardan atrli, Uch boylik, uch xazinasini, Yana yolg‘iz qoldirib, yolg‘iz Vafodori – Nazirasini... Oilasi bag‘ridan olis... Olis... Olis... Judayam olis Yo‘lga ketdi Muhammad Yusuf...”

Doston davomida muallif elimizda shoirlarga munosabat haqida so‘z yuritib, el suygan shoirlarning chinakam vasfini Muhammad Yusuf taqdiri vositasida ochib beradi:

Shoir desa, elning yodiga

Navoiy yo Bobur keladi...

Cho 'lpon, Usmon Nosir keladi...

Xudo suygan ulug‘ avliyo –

Qutbi zamon, sohibi ziyo,

Gunohsiz, pok bir hur keladi...

Muhammadning she’rlari esa

Shabboday xush esa-esa,

El ko ‘nglini qamrab boradi,

Keksalar-u yoshlar tilida,

Qo ‘shiq bo ‘lib yangrab boradi...

Dostonning “Qirq yetti” nomli qismida Muhammad Yusufning 47 yoshida, ayni Boburning vafot yoshida dunyodan o‘tganligiga taajublarni o‘qiyimiz. Taqdirning o‘yinlari, qismatning buqalamunligidan zorlangan muallifning faryodlaridan voqif bo‘lamiz va aziz insonlarni tirik paytida e’zozlash lozimligini yana bir bor o‘ylay boshlaymiz.

U o ‘ziga ko ‘rolmadi ep –

Hayo qildi Bobur Mirzodan,

“Bobomdan ko ‘p yashab qo ‘ymay” deb,

Qirq yettida ketdi dunyodan...

Dostonning “Yig‘layotgan qizg‘aldoq” nomli bobida shoir Muhammad Yusufning “Qizg‘aldog‘im” she’ridan ilhomlanib, “o‘z jonajon akasini” yo‘qotgan gulga murojaat qilib, mahzun tuyg‘ularini qog‘ozga to‘kadi va so‘ngida shoir nomi uning haroratli she’riyatida mangu bizlar bilan ekanligini bayon etadi. Gul tilini botin qulog‘i bilan eshitgan shoir o‘z o‘quvchilariga shunday tasalli beradi:

Chin shoirga o ‘lim yo ‘q ekan,

Faqat yerda qo ‘nim yo ‘q ekan...

U aylanib goh gul, goh qushga,

Kirar ekan eng toza tushga...

Shoir – elning tili, deydilar,

Shoir – orzu o‘g‘li, deydilar.

Shoir – yerda yastanib yotgan

Haqiqatning yo‘li, deydilar...

Bahodir Iso Muhammad Yusuf siymosida chinakam valiy insonni ko‘radi, shoirlar Yaratgan tomonidan xalqqa rahmat qilib yuborganligini yodimizga solib, “Shoir shunday – sal devonahol... Goh oftob u, gohida shamol... Gohi sulton, gohida hammol... Goh yerdagi ushoqday uvol... O‘zi o‘lsa...She’ri – bezavol!” deydi.

Dostonning “Dovruq” bobida Muhammad Yusufning el ardog‘iga sazovor qilgan ijodiy mehnati, fidoyiligi, o‘z elini, yaqinlarini, jonajon O‘zbekistonini qanchalar sevishi, katta-kichik muhabbatiga sazovor bo‘lishi sirlari bayon etiladi. Shoirning sho‘ro istibdodidan nafratlanishini, istiqlolning bir kun kelajagini orzu qilganlarini yodlab o‘tadi. “Onaizor” bobida Muhammad Yusufning onasi siymosi juda ta’sirchan bo‘yoqlarda chiziladi. Muhammad Yusuf “Onang o‘lsa bo‘lmasmidi, bolam deb, onam yig‘lar, onam yig‘lar, onam u” kabi misralari haqiqatga aylanib, o‘g‘li uni o‘zidan avval tashlab ketganligini iztirob bilan bayon etgan. Shoir tirikligida onaning o‘z bolasiga qilgan duolarini aynan takrorlaydi.

Dostonning “Abadiyat” nomli bobida shoir “Bu – shoирга bir mening mehrim... El mehridan qolmasin shoir, She’ri bilan o‘lmasin shoir! Yuz yil o‘tsa, yuz asr o‘tsa, zamon yuz bor evrilib ketsa, mangu gullab yurtda Istiqlol, shoir so‘zi topmasin zavol! deya sevimli insoni ruhiga ezgu duolarini, tilaklarini nisor etadi. Asar Muhammad Yusuf ijodi o‘zbek xalqi va O‘zbekiston rahbariyati tomonidan munosib e’zozlanayotganligidan faxrlanish hislari bilan yakun topadi:

Shamollarda bargi shovullab,

Yashil olov kabi lovullab,

Alif qaddi ko‘kka bo‘ylagan,

Yulduzlarni tikka bo‘ylagan

O‘scha tanish terakday o‘sib,

Yashayversin Muhammad Yusuf!

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali shoir “Saylanma”siga yozgan kirish so‘zida lutf etganidek, “Mustaqilligimizni baland pardalarda kuylagan

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf sharaflı umr kechirdi... shoirdan katta ma’naviy xazina, go‘zal she’riyat, Vatanga sadoqat, ona xalqiga ixlos, hayotga mangu muhabbat qoldi. O‘tli shoirning sozi sozlangan, u hech qachon tinmaydi, o‘lmas bo‘lib hamisha jarang berib turaveradi” [6].

Bahodir Isoning “Muhammad Yusuf” dostoni adabiyotshunoslikdagi boshqa tadqiqotlar singari M.Yusuf ijodini o‘rganishda, she’rlarining yozilish tarixini aniqlashda, ularning ijtimoiy, ma’naviy ahamiyatini chuqurroq ochib berishda o‘ziga xos manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Bahodir Iso. Muhammad Yusuf. Doston. “Farg‘ona” nashriyoti. Farg‘ona. 2014. 40-b.
2. Bahodir Iso. Bulbul dili bor edi. Hujjatli qissa. “Farg‘ona” nashriyoti. Farg‘ona. 2014. 64-b.
3. Bahodir Iso. Xayrli tun. She’rlar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. 112-b.
4. Bahodir Iso. Yaxshilar bor yaxshiyam. She’rlar. “Sharq” NMAK Bosh tahriri. Toshkent.: 2007. 214-b.
5. Bahodir Iso. Muhammad Yusuf. Doston. “Farg‘ona” nashriyoti. Farg‘ona. 2014. 40 b. -B.4 (Keyingi iqtiboslar ham shu manbadan olindi).
6. Muhammad Ali. Shoirning sozi tinmaydi. // Muhammad Yusuf. Saylanma: she’rlar, dostonlar. “Sharq” NMAK Bosh tahriri. Toshkent.: 2019. 384 b. –B.14.

Normurod Avazov,

**Toshkent davlat san'at va madaniyat instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasи mudiri,
filiologiya fanlari nomzodi, dotsent**

ВЕHBUDIY VA MUHAMAD YUSUF IJODIDA TURKISTON MAVZUSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada M.Yusuf ijodida Turkiston mavzusi masalasi yoritilgan. Uning “Turkiston”, “Ona Turkiston”, “Turkiston madhiyasi” va boshqa bir qancha she’rlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: millat, milliylik, Turkiston, Turkiston o‘lkasi, qatag‘onlik, islohot, hurriyat, Vatan, ozodlik, madaniyat, mustaqillik.

Аннотация

В данной статье раскроется тема Туркестана в творчестве М. Юсуфа. Так как стихи «Туркистан», «Она Туркистан», «Туркистан Мадхияси» и многие другие.

Ключевые слова: нация, национальность, Туркестан, Туркестан ский край, репрессии, реформа, свобода, Родина, культура, независимость.

Annotation

In this article, the topic of Turkestan occupies a special place in the work of M.Yusuf. Among them are his poems "Turkiston", "She Turkiston", "Turkiston Madhiyasi" and many others.

Key words: nation, nationality, Turkestan, introduction of the country of Turkestan, repression, reform, freedom, Motherland, freedom, culture, freedom.

Shoir Muhammad Yusuf o‘zining ijodida mustaqillik yillarida Turkiston mavzusiga alohida e’tibor qaratdi. Uning dastlabki she’rlaridan biri “Ona-Turkiston” nomi bilan ataladi [1]. Shoir Turkistonni “Ona-Turkiston” deb atar ekan, uni ona

sifatida ko‘rishni istaydi, uni Vatan deb ta’riflaydi. Uni ozodlikning, erkinlikning boshlanishi deb qaraydi. Shoir Muhammad Yusuf Behbudiy orzu qilgan Turkistonni, mustaqillikka intilgan o‘lkani mustaqillik davrida sevinchli ko‘z yoshlari bilan eslayotganligidan quvonadi:

Ko ‘klarga sig ‘may yayrab ruhi jon,

Ko ‘zlarga sevinch yoshlari to ‘ldi.

Ammo sen nechun mahzun, parishon,

Ona-Turkiston, senga ne bo ‘ldi,

deb Turkistonni hech qachon mahzun ko‘rinishini istamaydi. Uning ayni davrlaridagi parishon xotiralarini eslamasdan mardonavor bo‘lishini, qaddini ko‘tarib yurishini xohlaydi.

Shoir “Ona-Turkiston” she’rining davomida Turkiston o‘lkasi davriga sayohat qilar ekan, u bugungi mustaqillik nuqtai nazari bilan yondashadi. Turkiston o‘lkasi davridagi mavjud bo‘lgan kishanlar, to‘siqlar, millatning kamsitilishi kabi holatlarning batamom ketganligini tasvirlab, endi o‘ylangan orzular, murodlar hosil bo‘lganligini yozadi. Shu bilan bir qatorda Turkiston o‘lka davridagi qatag‘onliklar, millatparvarlar shahid bo‘lgan o‘g‘lonlarning yodi hech qachon unutilmasligini eslatadi:

Kishanlar ketib, yetgach murodga,

Shahid o ‘g ‘lonlar keldimi yodga.

Kuykalak ko ‘ngil to ‘ldimi dodga,

Ona-Turkiston, senga ne bo ‘ldi.

Shoir Muhammad Yusufning mahorati shunda ko‘rinadiki, u qiyoslash usulidan keng foydalanadi. Uning maqsadi Turkiston o‘lka davri ko‘ngilsizliklarini bugungi mustaqillikka ega bo‘lgan g‘ururli kunlar bilan solishtirib eslashni, ko‘ngillarni to‘ldirishni xohlaydi:

Erk yo ‘qlagan chog ‘ ko ‘z yosh nimasi,

Ketdi boshingdan ajdar ko ‘lasi.

Arslonlar tuqqan sherlar o ‘lkasi,

Ona-Turkiston, senga ne bo ‘ldi.

Shoir mustaqillik yillarida Turkiston o‘lkasini Behbudiy orzu qilgan niyatlar amalga oshganidan xursand bo‘ladi. O‘lka davridagi mavjud bo‘lgan ko‘z yoshlarning yo‘qolganligini aytadi. Shoir bu yurtda arslon kabi o‘g‘lonlarning har doim tayyor turganligi, ular sher kabi qahramonliklar qila olishiga ishonishini, kerak bo‘lsa shu o‘lka uchun jonlarini fido aylashiga shubhasi yo‘qlini bayon qiladi.

Muhammad Yusufning “Ona-Turkiston” she’ri aynan Behbudiy qolaversa, Behbudiy larga atalib yozilgan she’rdir. Ya’ni shoirming Turkistonga bo‘lgan dilnomasidir. Milliy qahramon bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ayni davrda kamtarinlik bilan aytadi: “Matlabim-arzi hunar va izhori fazl emas, ahli Vatanga qo‘limdan kelgunicha bir xizmatdur” [2].

Shoir Muhammad Yusuf Ona Turkiston uchun jonlarini fido qilgan Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, Munavvar Qori kabi jadidlarning xotirasiga alohida ishora qiladi va ularni eslaydi:

Sen bir bo‘stonki, gullari so‘lmas,

Qiyomatda ham chirog‘ing so‘nmas.

Yoki:

Chorlasang to‘sing noringga to‘lar,

Daryoday toshib, shamolday yelar.

Yo‘qlardan yelib Cho‘lponing kelar,

Ona -Turkiston, senga ne bo‘ldi.

Shoir she’rida Turkiston o‘g‘lonlarini o‘lkaning har bir koriga yarashini, ular daryo kabi to‘lib-toshib, shamolday tezkorlik bilan o‘lka himoyasiga yetib kelishining kafolatini beradi.

“Ona-Turkiston” she’ri Muhammad Yusuf tomonidan falsafiy ravishda sodda, xalqona yozilgan bo‘lib, tarixiy davr bilan mustaqillik davrining qiyosiy tahlillari natijasida yuzaga kelgan. She’rning oxirgi misrlarida:

Ey yori aziz, ey bag‘ri quyosh,

Jigargo ‘shangman joningga jondosh.

Quvonganingdan qildingmi ko‘z yosh,

Ona-Turkiston, senga ne bo‘ldi, deb yozadi.

Shoir mustaqillik davridan turib, onasi, yori kabi aziz bo‘lgan, bag‘ri quyosh kabi nurlarga to‘lgan Turkistonni qutlaydi, unga jondosh bo‘la olayotganidan g‘ururlanadi, bu daqiqalardan xursandligini yashira olmaydi. Biz, deydi, hozirgi mustaqillik davrining insonlari Turkiston o‘lkasining qahramonlarini jigargo‘shalari ekanligimizdan, ularni qo‘llab-quvvatlayotganimizdan, ularga xayrixoh bo‘layotganimizdan ko‘zlarimiz quvonch yoshlariiga to‘layotganligini aytadi.

Shoir Muhammad Yusufning Turkiston mavzusidagi navbatdagi she’rlaridan biri “Turkiston madhiyasi” deb nomlanadi [3]. Uning ushbu she’rida Turkistonning kelajagi, bugungi kundagi erkinligi qutlanadi.

Bugungi kunda ham qo‘sjni xalq o‘g‘lonlarning birikib, hamjihatlikda bo‘lishi targ‘ib qilinadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Mahmudxo‘ja Behbudiylar ushbu g‘oyani birinchilardan bo‘lib o‘rtaga tashlagan va Turkiston xalqlarini birdamlikka chaqirgan edi. Ya’ni, uning 1917-yilda yozilgan “Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xati” [4] shular jumlasidandir. Ochiq xat quyidagi satrlar bilan boshlanadi: “Aziz qarindoshlarim! Musulmon birodarlar! Hammangizg‘a ma’lumdurki, Turkiston qozog‘i, qirg‘izi, o‘zbegi, turkmani, tatari – hammasi turk-mo‘g‘ul bolalari hamda jahongir Chingizzon va Temurning avlodi yoki og‘a-inidurlar”. Satrlar xuddi bugungi kun dil izhoriday. “Ochiq xat”da muallif individualligi, uning siyosiy e’tiqodi, qarashlari, talqin etilayotgan masala, predmetga munosabati birinchi o‘rinda turadi. Har bir xalqning urf-odatlari o‘ziga xos ravishda ifoda etiladi. Masalan, o‘zbeklarda: og‘aynilar, qozoqlarda bovurlar degan so‘zlar bor. Behbudiyya shu so‘zlarga alohida e’tibor mavjud. Biz bu o‘rinda Behbudiyning o‘zbekona so‘z va ifodalaridagi noziklikni ko‘ra olgan va qudratlarini naqadar teran his etganligini ochiq ko‘ra olamiz. Birgina olmoq va bermoq so‘zlariga diqqatni qarataylik: “Baurlar! Bilinki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e’lon qilindi va siz bilinki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunun muxtoriyat-da olinur, lekin berilmas. Ya’ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o‘zi birlashib g‘ayrat ila olur. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo‘lidan kelsa, bermaslar. Biz bo‘shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo‘lig‘a say qilmasak, albatta, hozirgi qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni yo‘q qilurlar”.

“Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat”da ko‘pchilik, omma manfaatiga doir ijtimoiy muammo talqin etiladi.

Muhammad Yusuf “Turkiston madhiyasi” she’rida mamlakatimizda ilgari surilayotgan diniy bag‘rikenglik, yaqin qo‘shnichilik, tinch-totuvlik kabi tamoyillarga amal qilishlari targ‘ib qilinadi. Eng muhim Behbudiy boshlagan do‘stlik aloqalarini shoir o‘ziga xos ravishda talqin qiladi:

Ko ‘k yorishgay tug ‘ishganlar topishganda,

Kengashganga tor dunyolar keng bo ‘ladi.

Bo ‘lar elda botirlar ot chopishganda,

Tog ‘lar cho ‘kib to ‘pig ‘iga teng bo ‘ladi.

Quchoq ochib diydoriga chiq, Turkiston,

Tarqab ketgan bolalaring yig ‘, Turkiston!

Behbudiy o‘z davrida ona Turkistonni birlashishga chaqirib, “Qozoq qarindoshlarga ochiq xati”da muallif talqin etilayotgan ijtimoiy muammolarni o‘z shaxsiy hayoti va taqdiriga taalluqli muammo sifatida his etadi va u haqida emotsiyonal ehtiros bilan qizg‘in fikr yuritadi: “Chirog‘larim! Bobongiz Chingizning mashhur nasihatি bor va o‘z o‘g‘illariga aytib ediki, birlashingiz. Masalan: bir dasta tayoqni birga bog‘lasangiz, kimsa sindirmas. Agarda ajratsangiz birin-birin har kim sindirur”.

Endi buni mustaqillik davrida shoir M.Yusuf quyidagicha tasvirlaydi:

Kunday kulib – to ‘lmoq uchun yaralgansan,

Hur eding, hur bo ‘lmoq uchun yaralgansan.

Bir Onaning ko ‘kragidan oq sut emib,

Bir Otaning etagidan taralgansan.

Sig ‘ib kelgan kuchog‘ingga sig ‘, Turkiston,

Tarqab ketgan bolalaring yig ‘, Turkiston.

Shoir Turkistonga qarata aytadiki, sen ham quvonish uchun yayrab yashash uchun dunyoga kelgansan. Aslida ham erkin hayot uchun hur va ozod, obodlik uchun yaralgansan. Sening farzandlarining bir tuproqda yashab, bir el bo‘lib, hatto ular bitta

onaning ko‘kragidan sut emganlar, qolaversa bir otaning etagida katta bo‘lganlar, deydi. Bu shundayin bunyod bo‘lgan Ona Turkistonligini aytadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu joyda taraqqiyparvar Behbudiyning o‘ziga xos topilmasi, Muhammad Yusufning ham chiroyli so‘zlari yangilik sifatida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Behbudiylar Turkistonda qo‘shni xalqlarga hurmat, e’tibor bilan qarashni targ‘ib qilib, u atrof xalqlarning o‘zlari orasida ishlatiladigan, nomlanadigan chiroyli atamalarni topadi. Ya’ni bu yerda “Bavurim” degan so‘zning qo‘llanishi badiiy topildiq sifatida baholash mumkin. Faqat xalq ruhiyatini, ong shuvurini urfatlarini, milliy an’ana va qadriyatlarini anglagan va qadrlagan odamgina shu murojaat shaklini topishi mumkin edi.

Shoir Muhammad Yusufda esa “bir onaning ko‘kragidan oq sut emgan, bir otaning etagidan taralgan” degan chiroyli o‘xshatishni qo‘llaydi. Bu esa ayni paytdagi Turkiston o‘lkasidagi qo‘shni xalqlarning bir tan va bir jon ekanligini ko‘rsatuvchi topilma sifatida qaraladi.

Shoir ayni paytda, Turkistonda amalga oshmagan muammolarning bugungi mustaqillik davrida keng ravishda amalga oshganidan quvonadi, bu kunlarning kelganiga va rostligiga shukronalik keltiradi:

Qaytganing rost bo ‘lsin qadim Turoningga,

Ko ‘z tegmasin qaytgan mulki davroningga.

Shu joyda Behbudiylar va Muhammad Yusufning g‘oyalaridagi mushtaraklikni yana quyidagi topilmalarda ko‘ramiz. Lekin ularning har birlari o‘zlariga xos ravishda davr nuqtai nazaridan kelib chiqib masalaga asliyat tarzida yondoshadilar. Jumladan, Behbudiylar ehtiros bilan qizg‘in fikr yuritadi: “Chirog‘larim! Bobongiz Chingizning hur nasihatি bor va o‘z o‘g‘illariga aytib ediki, birlashingiz. Masalan: bir dasta tayoqni birga bog‘lasangiz, kimsa sindirmas. Agarda ajratsangiz birin-birin har kim sindirur. Mana bobongiz buyrug‘i!”. Yana u aytadiki: “Bo‘linganni bo‘ri yer” [5].

Shoir Muhamad Yusuf esa bunday hamjihatlikka chaqirishni, birlashishni quyidagicha talqin etadi:

Bo ‘linganning butun rizqi bo ‘linadi,

Oltovlon bir bo‘lsang yo‘lar kim yoninga?

Oltin beshik, olmos shamshir – tig‘ Turkiston,

Tarqab ketgan bolalaring yig‘, Turkiston.

Muallif Behbudiyning niyatlari mustaqillik davrida amalga oshganidan g‘ururlanadi.

Behbudiy qo‘llagan “Bo‘linganni bo‘ri yer” atamasini Muhammad Yusuf “Bo‘linganni butun rizqi bo‘linadi” deb barcha qo‘shni xalqlarni birdamlikka chorlaydi.

Xullas, shoirning “Ona Turkiston”, “Turkiston madhiyasi” she’rlari tom ma’nodagi uning Turkistonga bo‘lgan qalb izhorlari hisoblanadi. Bu izhorlar mustaqillik davridagi Turkistonga bo‘lgan sadoqatning ifodasi sifatida namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz.

Shuningdek, Muhammad Yusufning Turkiston va jadidlar davrining vakillari bo‘lgan Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, F.Xo‘jayevlarning timsollarini ko‘rsatuvchi yana bir qator she’rlari mavjud. Bular esa yana alohida tadqiqot obyekti bo‘ladi, albatta. Shoir ushbu she’rlari orqali Vatan, millat uchun jon fido qilgan insonlarning yoshlarimizga jasoratli millatparvar vatandoshlarimiz borligini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘yadi.

Adabiyotlar:

1. M.Yusuf. Xalq bo‘l, elim. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019-yil, 12-bet.
2. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. Toshkent: “Akademnashr”, 2018-yil, 4-bet.
- 3.M.Yusuf. Xalq bo‘l, elim. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019-yil, 26-bet.
- 4.M.Behbudiy. Qazoq qarindoshlarimizga ochiq xat. “Hurriyat” gazetasi, 1918-yil 26-yanvar.
5. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikkinchchi jild. Toshkent: “Akademnashr”, 2018-yil.

**Jahongir MAMATQOSIMOV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori v.b.**

**MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA AJDODLARGA EHTIROM
TUYG‘USI**

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she’riyatida o‘zbek xalqining buyuk mutafakkir va allomalari, yengilmas sarkardalari, ma’rifatparvarlari, ijodkorlarining qismati, faoliyati, amalga oshirgan buyuk ishlariga voris sifatida ijodiy munosabati, ajdodlarga munosib avlod bo‘lish g‘oyasining she’riy talqini tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, Vatan, adabiyot, she’riyat, ijod, so‘z, shoir, ajdod, avlod, tarix, jadid, ma’rifatparvar.

Аннотация

В этой статье народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф описывает судьбы великих мыслителей и ученых узбекского народа, непобедимых полководцев, просветителей, творцов, их творческое отношение как наследников своих великих дел, быть достойным поколением предков. анализируется поэтическая интерпретация стиха.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, Родина, литература, поэзия, творчество, слово, поэт, предок, поколение, история, джадид, просветитель.

Annotation

In this article, the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf describes the fate of the great thinkers and scientists of the Uzbek people, invincible commanders, educators, creators, their creative attitude as heirs to their great deeds, to be a worthy generation of ancestors. the poetic interpretation of the verse is analyzed.

Key words: Muhammad Yusuf, Motherland, literature, poetry, creativity, word, poet, ancestor, generation, history, jadid, enlightener.

Ko‘hna va navqiron Turon zaminining ma’naviy yuksalishida adabiyot jabhasi alohida mavqega ega bo‘lib, bu sohaning har bir ijodkori, avvalo Vatan, ona, muhabbat, xullas insoniylikning ajib xislatlarini kuylashgan. She’riyatning ibtidosi bo‘lmish og‘zaki ijodiyot bo‘ladimi, tosh bitiklar yoki xalq dostoni bo‘ladimi, mumtoz yoki zamonaviy adabiyot bo‘ladimi, bularning barchasi iqtidor va mahorat nishonasi, shoirona qalbning misralarga ko‘chgan qo‘shig‘idir.

Shoir qo‘shig‘i ilhom natijasi, ilhom esa Vatanga bo‘lgan muhabbat in’ikosidir. Kimdir Vatanni Majnun bo‘lib kuylasa, kimdir vatangado bo‘lib kuylaydi, yana kimlardir faxr bilan tilga olsa, yana kimdir buzilmas qo‘rg‘on, ota makon sifatida madh etadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf Vatanni muhabbat ila erkalanib, gohida yig‘lab, gohida quvonib madh etdi. U Vatanning erka shoiri sifatida yashil qirlardagi alvon lolaqizg‘aldoqlarni, Rimga alishmas bedapoyalarini, tilla qo‘ng‘iroqli karvonlarini, ko‘hna tol beshiklarini, oq yaktak va do‘ppilarni – “Ulug‘imsan, Vatanim” deya “Shomu Iroq zor termulgan o‘zbekligidan” faxrlanib “... iddoalar qilmay sevdi”. Jumladan,

Ziyo oqqan men yurgan yo‘l-yo‘lakka
Shomu Iroq zor termulgan o‘zbekman.
Dunyolarni o‘rantirgan ipakka,
Tilla qo‘ng‘iroqli karvon o‘zbekman?

misralarida nafaqat shoirona, balki o‘zbekona g‘urur bor.

Muhammad Yusuf she’riyatida Vatan madhi xususida shoir Muhammad Ali quyidagicha ta’rif beradi: “U chinakam xalq shoiri, mustaqillik uchun kurashgan ijodkorlardan biridir. O‘zbek, millat, Vatan, ozodlik, o‘zbeklik g‘ururi, ulug‘ bobolarga vorislik tuyg‘usi uning she’rlarida gupurib turadi. She’rlar nomiga e’tibor bering: “O‘zbekiston”, “O‘zbek”, “O‘zbekning ayollari”, “O‘zbekmomo”, “O‘zbek

qizlari”, “Vatan”, “Vatan madhi”, “Vatan yagonasan”, “Vatanni seving”, “Mening Vatanim”...” [1, 9].

O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova tomonidan mahorat bilan ijro etilgan “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!...” qo‘srig‘ining yoshlar madhiyasiga aylanishida, uning shu darajada ommalashuvida ham Muhammad Yusuf ijodi asosiy poydevordir.

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,
Oq yuvib, oq taragansan o‘zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,
Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.
Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!..

Muhammad Yusuf she’riyatida Vatanni sevish bosh mavzu bo‘lib, mazkur mavzuni yoritishda ozodlik, milliylik, mintalitet, muhabbat, tabiat, urf-odatlar birlamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Muhammad Yusufning vatanparvarlik mavzusidagi she’rlarida alohida qayd etib o‘tish lozim bo‘lgan jihat borki, bu Vatan tarixi, undagi tarixiy shaxslar, bir so‘z bilan aytganda ajdodlarga ehtirom tuyg‘usi. Muhammad Yusufning Vatan haqidagi she’rlari borki, unda albatta biror bir ajdodimiz tilga olinadi va madh etiladi.

Bu borada o‘zbek xalqining buyuk mutafakkir va allomalari, yengilmas sarkardalari, ma’rifatparvarlari, ijodkorlarining qismati, faoliyati, amalga oshirgan buyuk ishlariga voris sifatida ijodiy munosabati orqali ajdodlarga munosib avlod bo‘lish g‘oyasini ilgari suradi.

Shoir ijodida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur yoki Cho‘lpon, Qodiriylar tilga olinmasin, aytilgan bir misra sehrli so‘z butun bir tarixni, tarixning achchiq qismatini eslatadi yoki tarixni varaqlashga majbur etadi. Jumladan,

Boburga ilinsang, menga qovun so‘y,
Cho‘lponni sog‘insang, meni quchoqla...

Mazkur misralarga shoир Muhammad Ali quyidagicha ta’rif beradi: “Mana shu sodda satrlarda oddiy so‘zlar bilan shoир butun tarixni ifodalab berishga erishadi.

Xayolimiz o‘z-o‘zidan Andijonning farzandlari taqdiriga ketadi, olis tarix yillariga borib ulanadi... bu shoirning ulkan mahoratidan xabar beradi” [1, 13].

Muhammad Yusuf ijodida bunday misralar talaygina bo‘lib, Alpomishga alla aytgan momolar ruhini shod etishda, Sohibqirondek zotning beshigini tebratib, yulduzlarga narvon qo‘ygan ajdodlardek bo‘lishda barchamizni xalq bo‘lishga, ahillik va birdamlikka chorlab, ajdodlarga munosib voris bo‘lishga undaydi.

Muhammad Yusuf Vatanni shunchaki madh qilmaydi. Vatan tarixida o‘chmas iz qoldirgan, yurtparvar ulug‘larini eslab, xotirani uyg‘otadi. Elim degan er millat bayrog‘ini yurakka qadashini “Vatan madhi” she’rida poetik qiyosda shunday aytadi:

O‘ping, ko‘zingizga suring tuprog‘in,
Har so‘zin muqaddas duodek seving.
Qadang yuraklarga millat bayrog‘in
Vatanni Najmuddin Kubrodek seving.

Shoir tarixiy shaxs Najmuddin Kubro nomini eslash bilan shonli tarixga ishora qilsa, “duo” arxaik so‘zini qo‘llash bilan she’rning ta’sirchanligini orttirayotir. Duo har bir o‘zbek uchun muqaddasligi ayon [3].

Shoir birgina “Vatanim” she’rida Boborahim Mashrabning xalq mehrini qozinib, hukmdorlar tomonidan dorga osilganligini va Navoiyning dono vazir sifatida oddiy xalqqa ko‘rsatgan g‘amxo‘rligini, Ahmad Yassaviyning shonli hayotini ko‘ylab “Qo‘rig‘imsan, Vatanim” – deya ta’rif etadi.

Yengilmas sarkarda, yurt qahramonlari Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Bobur, Muqanna, Shiroq kabi ajdodlarning jasorati birgina “Cho‘lig‘imsan, Vatanim” misrasiga jo bo‘lsa, ularning o‘z vatanidan yiroqda, vatan sog‘inchi bilan yashab o‘tganligini “Targab ketgan to‘qson olti, Urug‘imsan, Vatanim...” misralarida, yana bir o‘zbek o‘g‘loni shoh va olim Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li tomonidan qatl etilishini “So‘lig‘imsan, Vatanim...” misralarida ifodalaydi.

“Vatanim” she’rida bir guruh ma’rifatparvar jadidlarning yurt maorifi, ozodlik uchun qilgan xatti-harakatlari natijasida qatag‘on etilishi shoirona mahorat bilan ifodalanadi:

O‘tgan kuning – o‘tgan kundir,

O‘z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sogtgan kun.
Qo‘lin bog‘lab, dilin dog‘lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam! – deb aytolmagan
Dudug‘imsan, Vatanim.

“Qora quyosh”, “Laganbardorlar”, “Turg‘unlikda” asarlari misoli giryasiga shoir bobolar taqdiridan – otilganlar, o‘lib o‘lmaganlar fojiasidan so‘z ochadi. Shoir ishonadi, Qodiriylar, Botu, Lutfixon aya, Shukur Burhon, Abdulla Qahhor, Halima Nosirova, Said Ahmad singarilar hayotini zaharlaganlar imperiya jilovdorlari qo‘lidagi tig‘ni egovlab berdilar. Sho‘roning uzoqni ko‘rmagan siyosatdonlari ko‘l (daryo)larning qurishiga, tog‘larning qulashiga, o‘rmonlarning qirilishiga, shaharlarning xarobazor bo‘lishiga, tarixiy obida, nomlarning yo‘qolishiga sababchi bo‘ldilar. Sinovli kunlarda esa xalqning jasoratli o‘g‘lonlari adolatsizlik, zo‘ravonlikka qarshi bosh ko‘tardilar [2, 23].

Muhammad Yusuf ko‘ngil bilan muloqot tarzda yozilgan, falsafiy-hissiy “Ey, dil” dostonida shoir farzand sifatida yurti uchun nima qilganini, elning koriga yaradimi, yo‘qmi savollarini qo‘yib, o‘zini-o‘zi taftish qilishi holatidagi ichki monolog bilan boshlanadi... Boshqacha qilib aytganda, shoir qalbidagi tuyg‘ular, ongidagi fikrlar doston dialoglarida aks etadi. To‘maris, Manguberdi, Ulug‘bek kabi vatan fidoyilarining nomini eslaganda dilini sog‘inch o‘rtasa, Chingizdek bosqinchi nomini tutganda ko‘ngli yig‘laydi. “Giyoh unmay, yer yig‘laydi, Chingiz o‘tgan joylarda. Ko‘ksimda bir she‘r yig‘laydi Chingiz o‘tgan joylarda”. Shoirning Chingizzon emas, Chingiz deb atashining o‘zida munosabat bor. O‘tmishdagagi ajdodlar oldida avlodlarning burchdorligi, ularning xotirasini aziz tutish darkorligi tarixiy siymolar misolida ukdiriladi. Ammo, zamona zayli bilan o‘shanday qilolmaganlikdan nadomat qiladi:

Bobolaring
Dastingdan dod

Urib kelsa, netarsan,
Unutding deb
Ustingga ot
Surib kelsa, netarsan?
Mirzo Bobur
Mozoridan
Turib kelsa netarsan?-
Ey dil, sen ayt! [3]

Shoir Muhammad Yusuf ijodining asosiy mavzusi Vatan, ona yurt, istiqlol bo‘lsada, har bir misrada Vatan tarixida iz qoldirgan ajdodlar oshkora yoki pinhona ifoda etilgan.

Shoir she’riyatida ajdodlarga ehtirom tuyg‘usi va uning badiiy ifodaviyligi tahlili natijasida quyidagilar tavsiya etiladi:

- O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ta’lim yo‘nalishlari spetsifikasini hisobga olgan holda talabalar yoki kurs repertuarini Muhammad Yusuf ijodiy merosi bilan boyitish;
- mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini Muhammad Yusuf ijodiga yo‘naltirish;
- ijtimoiy tarmoqlarda Muhammad Yusuf ijodiy faoliyatiga oid sahifalar yaratish;
- Muhammad Yusuf ijodiy faoliyati yuzasidan tanlovlardan tashkil etish lozim.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, Muhammad Yusuf she’riyatida yoritilgan ajdodlarga ehtirom mavzusi o‘quvchining ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik tafakkurini yanada oshirib, uning vatanparvarlik, erkparvarlik, tarixiy shaxslardan g‘ururlanish tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad, Ali. Shoirning so‘zi tinmaydi. Saylanma: she’rlar, dostonlar / M.Yusuf. – Toshkent: Sharq, 2019. – 384 b.

2. Rasulov A. Muhammad Yusuf she'riyatini kuzatganda ... // Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida / Muharrir U. Qo'chkorov. – Toshkent: "Adib" nashriyoti, 2014. – 232 b.

3. Sodiqova N. Muhammad Yusuf she'riyatida vatan mavzusining ifoda etilishi. <http://library.navojy-uni.uz/files.pdf>. murojaat sanasi: 2021-yil 17-yanvar.

Feruza Fayziyeva,

"Kino televideniye va radio rejissyorligi"

kafedrasi mudiri, San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

MILLIY G'URUR QONDA BO'LSIN

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusufning Vatan chizgilarini tasvirlashdagi mahorati, shuningdek, shoir she'rlarida ilgari surayotgan g'oyalar, inson ruhiyati, davrning yorqin manzarasi va boshqalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: she'riyat, g'oya, Vatan, san'at, muhabbat, insonparvarlik, tuyg'u

Аннотация

В предлагаемой статье речь идёт о высоком поэтическом мастерстве Мухаммада Юсуфа в изображении картин Родины, а также рассказывается о гуманизме и поэзии в изображении человеческих эмоций, поэтического познания понимание мира и красоты в работах поэта.

Ключевые слова: поэзия, идея, Родина, искусство, любовь, гуманизм, чувство.

Annotation

The proposed work deals with the high poetic skill of Muhammad Yusuf in depicting the paintings of the Motherland, and also tells about humanism and poetry in the depiction of human emotions, poetic knowledge, understanding of the world and beauty in the poet's works.

Key words: poetry, idea, Homeland, art, love, humanism, feeling.

90-yillarda shoir Muhammad Yusufning jo‘ngina yozilgan va keng ommalashgan “Ko‘nglimda bir yor” she’ri xonanda Oxunjon Madaliyev ijrosida qo‘sishiq bo‘lib yangragandi. O‘sanda she’r muallifiga nisbatan ommabop shoir, – degan fikr paydo bo‘lgandi. Lekin vaqt o‘tgan sayin bu munosabat o‘zgarib, unga ishonch va e’tibor asta sekin orta boshladi. Bunga asosan uning turli mavzuda yozilgan she’rlari sabab bo‘ldi. Bugungi kunga kelib shoir she’rlari kirib bormagan xonodon topilmasa kerak. Shoirning she’rlari asosan sodda va ravon tilda yozilgani bois, undagi teran fikrlar satrlarga singib ketgan. Masalan, Muhammad Yusufning “Samarqand” she’ridagi tarixiy voqelik, shaxs fojiasi she’r misralariga jon bag‘ishlab, Mirzo Ulug‘bek tilidan aytيلاتقاندек go‘yo.

“Bag‘rimda bo‘y yetgan bo‘z bolam,

Mergan bolam, lochin ko‘z bolam,

Bo‘g‘zimga tig‘ urgan o‘z bolam...

Men dardimni kimga aytaman”.

Shoir tarixiy shaxs, jahon fani tan olgan yirik siymo. Ulug‘bek ma’naviyati, ruhiy olami, hayoti va faoliyatining qisqa shu bilan birga eng qaltis, keskin, yuqori nuqtasi fojeasini, ziddiyatliz tuyg‘u va tushunchalar quyuni ichra yashiringan ulkan qalb iztirobini she’rga soladi. Buyuk davlat arbobining, jaholat homiyalari panohidagi o‘g‘li Abdullatifning qilmishini qoralaydi.

“O‘z bolamdan kutmagan edim...

Men dardimni kimga aytaman.”

Shoir yana ko‘pgina, jumladan, “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor”, “Tavallo”, “Ulug‘imsan Vatanim” kabi she’rlarida tarix manzaralari va hodisalariga sinchkovliklik bilan yondashadi. Soha mutahassislar va tarixchi olimlar e’tiborga oladigan tabiiy, tarixiy muhit va tafsilotlarni ham sinchkovlik bilan she’r satrlariga mohirona singdira olgan.

Muhammad Yusufning “Vatanim” she’ri kirib bormagan xonodon yo‘q, chamamda. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda namoyish qilingan “Vatanim” qo‘sishini

turli millat vakillari o‘zbek tilida kuylayotgani haqidagi lavha uning nihoyatda xalqchil ekanligidan dalolat. “Vatanim” she’rining har bir satrida Vatanimizning erk va istiqlol uchun boshidan kechirgan qonli, shiddatli kunlari, Vatan uchun jon fido qilgan qahramonlarning jasoratidan hikoya qiluvchi zargarona topilgan iboralar orqali shoirning dilidagi nolalari satrlarga ko‘chadi. Undagi har bir so‘zdan ulug‘vorlik nafasi ufurib turadi.

*“Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlargacha ragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon,
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.”*

Xalqi, yurti, Vatani bilan g‘ururlangan ona yurtini chin dilidan sevadigan iymonli insongina bunday satrlarni bita oladi. Bu misralarni buyuk qalbdan chiqqan tug‘yon,- deyish mumkin. Aslida, Vatan haqidagi o‘nlab hamd-u sanolardan ko‘ra ana shunday qo‘shiqqa aylangan she’rlar inson tafakkuriga tezroq yetib boradi.

*“Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang xalq bo‘l elim...”*

Shoir ijodi orqali o‘zbekning qaddini yana ham rostlab, qadrini ko‘tarishga intilgani bois she’rlarida ma’no, mazmun kuchli. U yozgan misralari orqali hissiy va chuqur falsafiy mushohada etib go‘zal xulosalar chiqaradi. Muhammad Yusufning qaysi bir she’rini olmaylik, uning qat-qatlarida shoirning ichki “men”ini sezish mumkin. Shuning uchun bo‘lsa kerak she’rlari inson tafakkuriga oson singib, xalq dili va tiliga yaqinligi bilan yuraklarga tez yetib boradi va uning she’rlarini oddiy so‘zlardan misralarga bitilgan buyuk asarlar, deyish mumkin.

“Bir mayizni qirqqa bo‘lgan bir tanu jon,

Kunlaringga qaytay desang xalq bo'l, elim!"

Muhammad Yusuf sodda, lekin kuchli shoir. Bir qarashda she'rning so'zлari ham jaydaridek tuyular, ammo satrlari tafakkurga turtki beradigan fikrlashga undaydi, so'zлari zalvorli. Umuman, shoir Muhammad Yusuf so'zlarning mazmun-mohiyati, yuki, kuchi va vaznini chuqur his qila olgani uchun ham she'rlari ravon, misralari ta'sirli va satrlari yoqimli, qalbi kabi keng, ko'ngli kabi toza.

Agar qushlar sayrashdan, shoir g'azal bitishdan, bastakor kuy bastalashdan, xonanda ashula aytishdan to'xtagudek bo'lsa, inson hayotining juda bebahoz zavqi shavqidan bebahra qolgan bo'lur edik.

Shoir ijodida san'atga ham dahldorlik yaqqol seziladi. Qo'shiqchilik sohasida uchlik, ya'ni shoir, bastakor va xonanda hamkorligi mavjud. Qaysi bir she'riy to'plamini ochmang, deyarli hamma she'rlari qo'shiqqa aylanib bo'lganining guvohi bo'lamiz. Shoir Muhammad Yusuf bugungi kunda mashhurlik shohsupasiga ko'tarilgan ko'pgina san'atkorlar bilan hamkorlik qilgani, ularni elga tanilishiga sababchi bo'lganini yaxshi bilamiz. Lekin shoirning kino san'atiga dahldorligini esa hamisha ham esga olavermaymiz. Rejissyor J.Qosimovning "18 kvadrat" (ishchi nomi "Vatanimning bir parchasi") , rejissyor B.Odilovning "Jasur" badiiy filmlarida shoirning she'ridan unumli foydalanilgani, bu esa filmning hamda rejissyor ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyaning mazmun-mohiyatini tomoshabinga yanada chuqurroq yetkazishda muhim omillardan biri bo'lgan.

Ba'zan teleekran, radio to'lqinlarida yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali shoirning o'zi o'qigan she'rlarini eshitib qolamiz. Bundan tinglovchining qalbi to'lqinlanib ketishi tabiiy.

Har kim o'zidan yaxshi nom qoldirishini istaydi, lekin bunga hamma ham sazovor bo'lavermaydi. Shoir Muhammad Yusuf o'zidan yaxshi nom qoldirishi bilan birga, keljak avlod uchun she'rlari bitilgan bebahoz xazina qoldirdi. Toki shoirning she'rlari o'qilarkan, tiriklar tilida yangrayverarkan, demak u tirik va xalq qalbida abadiy yashaydi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf . Xalq bo‘l, elim T., O‘zbekiston. 2019, 207-b
2. Jalilov B. O‘zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari. T., Fan, 1984, 144 b.
3. Волкинштейн В. “Драматургия”, М. 1983г.
4. Qo‘shshayeva I. Sukunat tug‘yonlari. – Т., Yangi asr avlod, 2009, 131-b.

Sevara Mahmudova,

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, f.f.n.**

MUHAMMAD YUSUFNING “QORA QUYOSH” DOSTONI – MILLAT ZIYOLILARI FOJIASI HAQIDAGI ASAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostoni xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Dostonning bugungi kundagi ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: doston, millat, fojia, qatag‘on, ramziylik, mustabid tuzum.

Аннотация

В статье рассматриваются особенности эпоса «Черное солнце» народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа. Подчеркивается, что эпопея сегодня имеет большую просветительскую ценность.

Ключевые слова: эпос, нация, трагедия, репрессии, символика, тираннический режим.

Annotation

The article examines the features of the epos "Black Sun" by the national poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. It is emphasized that the epic today has great educational value.

Key words: epos, nation, tragedy, repression, symbolism, tyrannical regime.

Adabiyotshunoslar badiiy adabiyot haqida fikr yuritar ekanlar uning umumiy jihatlarini o‘z ichiga oluvchi keng va universal masalalarni tadqiq etadilar. Bu masalalar sirasiga badiiy adabiyotning ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga egaligiga doir muammo ham kiradi.

Ijodkor o‘zi uchun yozmas ekan, balki muayyan auditoriya uchun yozarkan uning yozganlari ijtimoiy ongning namunalari sanaladi. Ayrimlar adabiyotning qomusiy bilimlar manbayi ekanligiga shubha bilan qaraydilar. Ularning nazarida aniq fanlar tabiatdagi qonuniyatlarni ochib berishi shubhasiz, lekin adabiyot bunday emas. Sababi yozuvchi nimani xohlasa shuni yozadi, uning yozganlari qanday qilib ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin? Zero, fandan farqli o‘laroq, badiiy adabiyotning amaliy o‘zlashtirilishi o‘zgacha shaklda kechadi.

Ushbu kichik tadqiqotimizda biz O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostoni, uning xususiyatlari haqida fikr yuritishga, bu asarninig bugungi kundagi ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e’tiborni qaratishni maqsad qildik. Doston XX asrning 40-yillarida bir mahbusning singlisiga yozgan maktubi bilan boshlanadi. Maktubdan so‘ng qatag‘on yillari odatiy hol sanalgan turli hodisalar hikoya qilinadi. Hikoyalar ham nasriy bayon qilinib, shu mazmundagi, o‘sha davr muhitini beruvchi she’rlar bilan davom ettiriladi. Unda tuhmat bilan nohaq qamalgan, uzoq yillarga ozodlikdan mahrum qilingan, nomi “xalq dushmani”ga aylangan minglab millatimiz ziyorolarining fojiali taqdiri bayon etiladi. Dostonda muallif Ahmad Yugnakiyning “qisqagina umr ko‘rib, uzoq yillar yashab kelayotgan zotlarga qarang...” degan fikrlarini bejiz keltirmaydi [1:B 138]. “Tushimga kiradi Qodiriy bobom, Bemador, bemajol, behol, beorom” deya Abdulla Qodiriyni xotirlasa, “Qaro yer qa’rida qon yig‘lab qolgan Akmal Ikrom bobom, Fayzullo bobom!” deb xalqimizning Akmal Ikromov, Fayzullo Xo‘jayev kabi ma’rifartli farzandlarining fojiali taqdiriga achinadi. Umri qisqa bo‘lsa-da, hali-hanuz o‘zbek xalqi tarixidagi og‘riqli dard bo‘lib qolgan, qatliom qilingan ziyoli farzandlarining yodi o‘zbek xalqi bor ekan – o‘lmaydi.

Doston nomiga ko‘z tashlagan o‘quvchi nega uning nomi “Qora quyosh” ekani, bu ramziylik ostida qanday ma’no yashiringani bilan qiziqadi. Adabiyot tarixida o‘zigacha bo‘lgan ijodkorlardan farqli ravishda, Muhammad Yusuf quyosh timsoliga o‘zgacha ma’no yuklaydi. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ijodkorlarda quyosh yaratuvchanlik, hukmdorlarningadolati ramzi etib tasvirlangan. XX asr o‘zbek adabiyotida ham Oybekning “Quyosh qoraymas” romani, O‘lmas Umarbekovning “Shoshma, quyosh!” kabi dramalarida, hatto jahon adabiyoti namunalaridan bo‘lgan E.Xemingueyning “Quyosh baribir chiqaveradi”, Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” romanlarida ham quyosh so‘zi faqat asar sarlavhasidan joy olib qolmay, balki asarning g‘oyasini ochib berishda obraz sifatida ham xizmat qilgan. Muhammad Yusuf dostonida esa “qora quyosh” – millionlab insonlar qonini to‘kkan mustabid hukmdor ramzi. Dostonda muallif fojiaviy holatlarni kinoya vositasida ham ko‘rsatib beradi:

- *Baxt nimadir, ey odam?*
- *Baxt – bir kosa atala...*
- *Atala nima, ey odam?*
- *Stalin bobongdan so ‘ra...*

Doston haqida O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toyir shunday yozadi: Quyoshli yurtimiz yozining ko‘ksiga buningdek go‘zal tashbehdan tumor taqish Muhammad Yusufga xos topilma. She’riyatdagi bu soddalik talaygina murakkabliklar imtihonidan o‘tgan shoirgagina nasib etadi. Ayni paytda, Muhammad Yusuf mustabid tuzum davrida xalqimiz boshiga tushgan azob-uqubatlarni shu qadar alam va o‘kinch bilan yozadiki, nazdimda bu she’r-u dostonlarning har bir satrini, jon ipini qalam qilib, dil qoni bilan bitgan. “Qora quyosh” dostoni ana shunday asarlar sirasiga kiradi [2: B 65].

Doston bilan tanishish mobaynida dohiy otini to‘g‘ri aytolmay, o‘z “tili boshiga yetgan” soqov, o‘zi umuman tanimagan odam – Sulaymon Azimovning “dumi” degan ayblov bilan Sibirga surgun qilingan mahbus, 37-yilning “kashfi” – bolalarga alohida qamoqxona, birgina tushlik ustida odamlar taqdirini hal qilgan zotlar, qorako‘z qo‘zichoqlarga o‘xshagan ikki yashar “xalq dushmanlari” haqida o‘qiganda,

asar nomi bejiz bunday nomlanmaganini anglab yetadi. Bolalarning qatag‘on qilinishi mavzusi faqat “Qora quyosh” dostonida yoritilgan. Shuningdek, dostonda ota obrazi tomonidan mustabid hukmdor haqida aytilgan fikrlarda uning shaxsiga bo‘lgan o‘zgacha munosabatni ham kuzatish mumkin. Boshqa dostonlardan farqli o‘laroq qatag‘on qurboni bo‘lgan millat ziyolilari fojiasi “Qora quyosh”da bosh muammo sifatida tilga olingan.

M.Yusuf dostonlarini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilayotgani ham quvonarli, jumladan, Dildora Azimovaning 2020-yil iyulida “Yangi o‘zbek doston (poema) larida davr va shaxs fojiasining poetik talqini” (Oybek, Mirtemir, S.Zunnunova, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov dostonlari misolida) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida M.Yusufning “Qora quyosh” dostoni ham tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi davr va shaxs fojasi poetik talqinida yangi o‘zbek dostonlarining janr imkoniyatlarini, xususan, romanizatsiya (romanlashuv) hodisasining o‘rnini ohib berish, epik tasvirning lirik mushohada ob’ektiga aylanish jarayonini tadqiq etishdan iborat [3:B19]. Azimova o‘z dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

- 1) Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida millat dardi aks etadi;
- 2) doston kompozitsiyasi – monolog va dialoglar shaklida;
- 3) asosiy fojia sifatida millat ziyolilari fojiasiga urg‘u berilgan;
- 4) “Qora quyosh”dan tashqari zamonaviy dostonlarning hech birida bolalarning qatag‘on qilinishi masalasi yoritilmagan;
- 5) Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida fojia xususiylikdan umumiylarga tomon qarab ketadi. “Qora quyosh” nafaqat shoir ijodida, balki qatlom mavzusi yoritilgan boshqa o‘zbek dostonlari orasida ham alohida ajralib turadi;
- 6) asarda dramatik asos juda kuchli, epik qamrov keng. Voqealar goh nasriy, goh nazmiy shaklda ifodalanadi. Tasvir ohangi, ritm sur’ati tez-tez o‘zgarib turadi [4: B 24].

Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostoni mavzusi o‘zbek adabiyotida keng uchraydigan, turli janrlarda qalamga olingan mavzu bo‘lsa-da, bu mavzuga qancha ko‘p murojaat etilsa kam, nazarimizda. Ayniqsa, bugungi globallashuv

davrida, turli millatlar assimiliyatsiyasi jadallahsgan davrda o‘zbek yoshlari o‘z tarixini, xalqining yorug‘ kelajagi uchun hayotini bag‘ishlagan millatning haqiqiy millatparvar farzandlarini yaxshi tanishi, ularni doimo xotirlashi, yodidan chiqarmasligi kerak.

Adabiyotlar:

1. Yusuf.M. Xalq bo‘l, elim. -T.: “O‘zbekiston”, 2009, 132-bet
2. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida.-T.: “Adib”, 2014, 65-bet
3. Azimova D.B. Yangi o‘zbek doston (poema) larida davr va shaxs fojiasining poetik talqini. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. 2020. 19-bet
4. Azimova D.B. Yangi o‘zbek doston (poema) larida davr va shaxs fojeasining poetik talqini. Doktorlik disseratsiyasi avtoreferati. 2020. 24-bet.

Saxobiddin Xudayberdiyev
O‘zDSMI “Informatika va tabiiy
fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Muhammadjon Ismoilov
O‘zDSMI Kutubxona-axborot
faoliyati 3-bosqich talabasi

BIR MING BIR YUZ BIR SHOIR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haqida, xususan, uning o‘z hayotining har qanday holatlarida ham shoir sifatida ijod qilganligi, haqiqiy serqirra shoir ekanligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: podsholik, saroy, haqiqiy shoir, Vatan, el-yurt, hayot, ijod.

Аннотация

В данной статье содержится информация о народном поэте Узбекистана Мухаммаде Юсуфе, в частности о том, что он был поэтом в любой жизненной ситуации, настоящим многогранным поэтом.

Ключевые слова: королевство, дворец, настоящий поэт, родина, люди, жизнь, творчество.

Annotation

This article contains information about the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf, especially that he was a poet in any situation in his life, a real multifaceted poet.

Key word: Kingdom, palace, a real poet, homeland, country, life, creation.

Shavkat Rahmon qalamiga mansub "Bir ming bir shoir" nomli she'rida yozilishicha, bir yurtning xalqi kambag'allikka yuz tutibdi. Ammo saroyga har kuni shoirlar tomonidan mazmuni maqtovlardan iborat qasidalar kelib turaveribdi. Bu esa shohni ranjitibdi. Dono shoh buni vaziriga bildirmasdan mamlakatida qancha shoir bo'lsa toplashini buyuribdi. So'ngra toplangan "bir ming bir yuz bir" shoirni zindonband ettiribdi. Yil o'tgach, vazirga zindondagi nechta shoir she'r yozishdan toxtagan bo'lsa ozod qilgin-u, qolganini saroyga keltir deb buyuribdi. Shoh saroyga keltirilgan bir yuz bir shoirni sinash uchun ularga shohona hayot in'om etibdi. Bir yildan so'ng, bir kuni shoh vazirga shoirlarni chaqirtirib, ularni she'rlaridan eshitishni xohlayotganligini aytibdi. Vazir barcha bir yuz bir shoirni toplabdi:

Barcha shoir jam bo'pti,

Davra hang-u mang bo'pti,

Yuzta po'rim shoirning

Og'ir boshi xam bo'pti.

Turar faqat bir shoir,

Turar shohga tik qarab,

Bir taraf bo'pti dunyo,

Shoir esa – bir taraf.

Shunda dono shoh vaziriga bu vaziyatni tushuntirib, bir ming bir yuz bir shoirdan kimdir ochligidan, kimdir toqligidan, kimdir ermak uchun yana kimdir obro'e'tibor uchun she'r yozadi, haqiqiy shoir esa har qanday holatda ham she'r

yozishdan to‘xtamaydi, debdi. Shu bilan shoh yurtida bitta shoir borligini vaziriga isbotlab beribdi [1].

Yurtimizda shoirlar ko‘p. Har qanday vaziyatda ham ijod qilishdan to‘xtamaydiganlari ham talaygina. Shunday haqiqiy shoirlardan biri O‘zbekiston xalq shoiri, jamoat arbobi, o‘zining sodda va xalqchil she’rlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan shoir Muhammad Yusufdir. Yurtimizning keksa-yu yoshlari ichida uning she’rlarini yoddan biluvchilar juda ko‘plab topiladi. Ayniqsa, Muhammad Yusuf qalamiga mansub “Ulug‘imsan, Vatanim” she’ri xalqimiz uchun qadrlidir. Undagi har bir so‘z xalqimizga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida jam etgan. Bastakorlarimiz she’rni musiqaga jo aylab qo‘sish qilgan va bu qo‘sishni eshitganimizda bizda Vatan tuyg‘usi yanada kuchayadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bilan yaqindan tanish har bir inson biladiki, shoirning hayot yo‘li bir tekis davom etmagan [2]. Har bir she’rlarida hurlik, xalqchillik va mehrlilik sezilib turuvchi ijodkorni hayotida qiyinchiliklari ham bo‘lgan. Mustaqil bo‘lishni xohlab, hurlikka intilib yozgan she’rlari sovet davridanoq nashr qilina boshlagan. O‘sha davrlarda “siyosatga aralashma” iborasi bo‘lishiga qaramasdan shoir davlat tizimidagi poraxo‘rlikni xalqona so‘zlar bilan qattiq tanqid ostiga olgan. Muhammad Yusufning 1985-yilda chop etilgan “Tanish teraklar” nomli ilk kitobidan o‘rin olgan ushbu she’r ham bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Men she’r yozarmidim,

Gullar sopol jomlarda emas,

Qizg‘aldoqlar tomlarda emas,

Chakkamizda ochilib tursa...

Men she’r yozarmidim,

Bo ‘g‘otlarda tiqilishmasdan,

Yuraklari siqilishmasdan,

Yelkamizda bolalasa

Qaldirg‘ochlar ham...

*Men she'r yozarmidim,
Tizza bo'yi qon kechib bunda,
Jang qilishgan chollar bir kunda
Unutvorsa urushni tushday.*

*Ul fidoyi chollarning biri-
Sakson yashar Yoqub cho'loqdan
"Zaporojes"ga pora so'ragan
Ta'magirlar bo'lmasa.*

*Men she'r yozarmidim,
Kuydirmasa qo'limni qalam,
Yuragimdan o'tmasa alam-
Ko'ksim intiqomga to'lmasa.*

*Hey, siz ustamonlar,
Siz kulmang!..
O'zni buncha donishmand bilmang,
Ekkaningni o'rasan derlar,
Eldan qaytar, har qancha qilmang,
Men she'r yozarmidim, bo'lmasa.*

Mustaqillik yillari Muhammad Yusuf qator yutuqlarga erishgan. Shuhrat ordeni, O'zbekiston xalq shoiri unvonlarini olish bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputati bo'lib saylangan. Endi rivojlanishni boshlagan o'zbek shou biznesining mashhur xonandalari tomonidan shoirning qator she'rlari qo'shiq qilib kuylangan. Deputat bo'la turib ham ijod qilishdan to'xtamaganligi tahsinga sazovordir. Ayniqsa, shoirning yosh ijodkorlarga nisbatan befarq bo'limganligi, betob bo'lishiga qaramasdan Ellikqal'a tumanida o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirda ishtirok etish uchun borishi o'z mas'ulyat va burchini qanchalar ustun qo'yanligiga

yaqqol isbot bo‘la oladi. Vatan va mehr-muhabbat kuychisi Ellikqal'a tumanidagi badiiy kechada nutq so‘zlash jarayonida hushdan ketib yiqiladi.

Shoir vafotidan so‘ng yaqinlari tomonidan “Muhammad Yusuf” nomidagi jamg‘arma fondi tashkil etilib, fond tomonidan “Qizlar qo‘srig‘i”, “Qizg‘aldog‘im”, “Qirq qo‘srig‘i”, “Baxtlimisan sevgilim” nomli kichik to‘plamlari va boshqa kitoblari nashrdan chiqarildi. Shoirlar ko‘p, ammo vafotidan keyin ham o‘zidan katta maktab yaratib xalq tiliga tushib, dilida yashab qoladiganlari sanoqlidir. Muhammad Yusuf yillar davomida ijod qilishdan to‘xtamagan, tili-yu dili bir inson sifatida o‘z davrining yagona shoirlaridan biri bo‘la oldi. Bu inson haqida qancha yaxshi sifatlarini aytsakda, ado bo‘lmaydi. Muhammad Yusuf vatanparvar, sofdir, xalqchil shoir sifatida “bir ming bir yuz bir” shoir ichida yagona shoir bo‘lib yuraklarda yashab qoladi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Rahmon. She’rlar to‘plami. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shavkat-rahmon-sherlar-1.html>
2. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: “Adib” nashriyoti, 2014.

**Dilnoza Jumayeva,
O‘zDSMI “O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)**

BIR SHE’R TARIXI Annotatsiya

Ushbu maqola shoir Muhammad Yusufning “Lolaqizg‘aldoq” she’rini yaratilish tarixiga bag‘ishlanadi. Shoir she’rini yaratish jarayonida ichki kechinmalarini ham mahorat bilan ochib bergen.

Kalit so‘zlar: ardoqli, lirik kechinma, falsafiy, tuyg‘u, xotira, da’vat, lola, oniy.

Аннотация

Статья посвящена истории стихотворения Мухаммада Юсуфа «Лолакизгалдок». В процессе создания стихотворения поэт также умело создал свои внутренние переживания.

Ключевые слова: заветный, лирический впечатление, философский, эмоция, память, зов, тюльпан, мгновение.

Annotation

This article is dedicated to the history of the poet Muhammad Yusuf's poem "Lolaqizg'aldoq". In the process of creating the poem, the poet also skillfully created his inner experiences.

Key words: cherished, lyrical experience, philosophical, emotion, memory, call, tulip, instant.

Muhammad Yusuf o'zbek elining sevimli va ardoqli shoirlaridan biri. Uning she'rlari o'zining zamonaviyligi, sho'xchanligidan tashqari, mahzunligi va xotira lirik kechinmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ijodkor qaysi yo'nalishda qalam tebratmasin, asarini yuksak darajaga yetkaza olgan. "Lolaqizg'aldoq" she'ri yuqorida aytganlarimizning yorqin timsolidir.

"Xotira lirik kechinma oniy lirik kechinma tarzida tug'iladi. Lekin shoir boshlagan she'r tezda yakun topmaydi. Chunki yo kechinmaning o'ta kuchli oqimi asarni ijodkor kutgan darajadagi falsafiy talqinida tugallashga imkon bermaydi, yo boshqa biror sabab bilan oniy lirik kechinma ta'sirida boshlangan she'r to'xtab qoladi. Mana shu muhlat ichida goh xiralashib, goh yolqinlashib shoirni ijodga da'vat etgan lirik kechinmani faqat xotira lirik kechinma deb atash mumkin" [1]. Bizningcha, xotira lirik kechinmaning yana bir xislati ma'lum voqeа-hodisa yoki predmetga bag'ishlangan she'rni yozish uchun niyat qilingan damdan shu voqeа-hodisa yoki predmetni kuzatib, uni to'liq anglab, falsafiy mushohada qilgunga qadar anchayin fursat o'tadi. Balki u kun, oy, yillar davomida cho'zilishi mumkin. Bu lirik kechinma to'liq yetilgandan so'ng, yetilgan fikr uyg'unligi orqali she'r shaklida ifodalanadi. Bunday she'rlarga "Lolaqizg'aldoq" she'ri misol bo'ladi:

Mendan nima qolar:

Ikki misra she'r,

Ikki sandiq kitob,

Bir uyum tuproq.

Men seni o 'ylayman

O 'zimdan ko 'proq –

Lola, lolajonim,

Lolaqizg 'aldoq! [2]

Ijodkorning ushbu she'ri xotira lirik kechinmaning yorqin namunasidir. Muhammad Yusuf shoir Shavkat Rahmon hayoti bilan yaxshi tanish bo'lgan. Uning so'nggi kunlarigacha yonida hamnafas birga edi. Ushbu she'r esa lirik qahramonning vasiyati sifatida olamga kelgan. Shoир lirik qahramonning ichki kechinmalarini bayon etar ekan, uni so'nggi safar oldidan orzu-umidlarining ro'yobga chiqmaganligini, biroq shunday bo'lsa-da, albatta, bu orzu-umidlari ro'yobga chiqishiga sidqidildan ishonishini ifoda qilgan. Ayniqsa, shoир tilidan:

Kuz. To 'ylar boshlandi.!

Yuragim pora -

Bitta qizimni ham

Uzatolmadim...

Demak, taqdir ekan

To 'y ko 'rmay o 'lmoq...

Biroq, ko 'nglim sezar,

Mendan keyin ham,

Bir kun hovliga

Odamlar to 'ladi.

Hali to 'ylar qilib

Charchaysan, erkam,

Mening qizlarim

Eng baxtli bo 'ladi!

deb aytilgan so'zlar fikrimizni asoslaydi.

Lirik qahramonning murojaati xoh umr yo'ldoshiga, xoh o'g'liga, o'quvchi qalb qo'rida mudrab yotgan tuyg'ularni uyg'otadi va betob yotgan bemorning ahvolini

aniq tasavvur etishga ko‘maklashadi. Bu tasavvur orqali lirik qahramonning umri tugashi oldidan paydo bo‘lgan dil qiynoqlari zuhur bo‘ladi. Ayniqsa, lirik qahramonning o‘g‘liga xitobi o‘quvchi qalbida o‘rnashib qoladi:

O‘g‘lim, yaqinroq kel,

Qara ne savdo.

Bu ajib ishlarni,

Dil lavhiga yoz:

Kimga qasr yetmas,

Kimga mol-dunyo,

Menga esa HAVO

Yetmaydi xolos[3].

Misralarni kuzatar ekanmiz, u she’r yozilgunga qadar shoir ancha voqealarni shohidi bo‘lganligi sezilib turibdi. Shoир Shavkat Rahmonning uyida tez-tez bo‘lib, u bilan suhbatlashib turgan. Shavkat Rahmonni qiynayotgan barcha tug‘yonlarni his etgan. Natijada shoirning Shavkat Rahmon xotirasiga bag‘ishlangan ajoyib she’ri yuzaga kelgan.

Lirik qahramonning kechinmalari shoirning aniq yo‘naltirilgan xulosasi bilan qorishib ketgan. Shoир badiiy kechinmalarni nozik badiiy bo‘yoqlar bilan mohirona ifodalay olgan. Shoир so‘z tanlash borasida har doimgidek oddiy, soddalikdan foydalangan holda, ular barchaga tushunarli va qalblarga kirib bora olgan. She’rning nomlanishi fikrimizga misol bo‘la oladi. Lolaqizg‘aldoq – bahoriy (mavsumiy) o‘simlik bo‘lib, go‘zal qizil rangda nafosat ramzi, lekin u umri qisqa o‘simlik hisoblansa-da, kelasi bahor yana o‘sib gullaydi. Shoир buni inson umriga o‘xshatgan bo‘lsa ajab emas. She’rda insonning umri qisqaligi, tabiatdagi barcha mavjudot singari o‘lim oldida ojizligi, lekin unga Tangridan berilgan tuyg‘ular, hayotga to‘ymaslik, orqasida qolayotgan aziz yaqinlaridan ajralish so‘ngsiz azob ekanligini va ularni baxtli bo‘lishini orzu qilishi nihoyatda chiroylı, sodda yoritilgan.

Adabiyotlar:

1. Timofeyev L. Slova i stixe. – M : Sov. Pisatel. 1982.

2. Haqqulov I., She'riyat – ruhiy munosabat. – T.:G‘.G‘ulom nashriyoti 1990.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. –T:.Sharq, 2001.
4. htths://oriftolib/uz

**Muqaddam Sadikova,
senior teacher of UzSIAC**

THE THEME OF PATRIOTISM IN THE WORKS OF MUKHAMMAD YUSUF

Annotation

The article is devoted to the reflection of the patriotic theme and the concept of “homeland” in the work of the singer of the people of Uzbekistan, the world famous Uzbek poet Muhammad Yusuf. His life and creativity is a model for the younger generation of Uzbeks, their love for Uzbek fosters a feeling in Uzbek youth patriotism and the desire for the honor and fair future of their country.

Key words: poetry, patriotism, homeland, nature, creativity, desire, love, lyrics, sincerity, simplicity.

Annotatsiya

Maqola erkin vatan kuychisi, o‘zbek xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodidagi vatanparvarlik mavzusi va “Vatan” tushunchasini aks ettirishga bag‘ishlangan. Uning hayoti va ijodi yosh avlod uchun namuna bo‘lib, ularning o‘zbek tiliga bo‘lgan muhabbati, o‘zbek yoshlarida vatanparvarlik tuyg‘usini va o‘z mamlakatining sharafi va adolatli kelajagi uchun ravnaqi istagini kuchaytirganligi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, Vatan, tabiat, bunyodkorlik, xohish, muhabbat, lirkalar, samimiylilik, soddalik.

Аннотация

Статья посвящена отражению патриотической темы и концепции «Родина» в творчестве певца народа Узбекистана, всемирно известного узбекского поэта Мухаммеда Юсуфа. Его жизнь и творчество являются

образцом для подрастающего поколения, их любовь к узбекскому языку воспитывает в узбекской молодежи патриотизм и желание стремления за честь и справедливое будущее своей страны.

Ключевые слова: патриотизм, родина, природа, творчество, желание, любовь, лирика, искренность, простота.

Poetry can be different. Singing to the most subtle and quivering feelings, screaming about tragedies, praying for justice or calmly broadcasting the philosophical experience of an author who has learned the wisdom of being. Poetry should be. And it should be different and talented, because only then the reader will be able to find in it an explanation for the entire spectrum of emotions of the human soul or understand how complex and diverse the world around it and each person in it.

Why do people write poetry? They write it because, the inspired soul, having made a moral discovery or finding the sought-after truth, intuitively finds the shortest way how to convey this truth to another soul. This shortcut is a poetic word.

Why do people read poetry? Because the poet's word, filled with inner music and harmony, can sometimes say more than whole volumes of ordinary, gray words. And then another human soul, and sometimes many thousands of human souls, begins to vibrate in unison with the soul of the poet. And this is a mighty force capable of creating!

Why do people need poetry? It is enough to look back at the experience of our ancestors to see: "Poet" and "sage" often meant the same thing. It is not for nothing that in the east the mighty rulers did not need a poetic word, and great poets became major statesmen.

Poets have always been needed by the people to realize their strength and hear their voice. The poetic word of such titans as Navai and other famous poets and writers united the people into a nation and helped them to realize their power and unity.

In Bashkortostan - Mustai Karim, in Dagestan - Rasul Gamzatov, in Uzbekistan - Mukhammad Yusuf. Each of these outstanding modern poets had some kind of magical influence on readers and was especially loved in their homeland. Perhaps the reason is simple - in proximity to the people and the scale of talent.

Among the national poets who lived with the dreams and anxieties of the people, the voice of the Uzbek national poet Mukhammad Yusuf sounds loudly and confidently. He, like lightning, burst into literature, at the dawn of his work realizing the complexity of poetic work. In a tireless search, honing his skills, he reached the highest heights of creativity and did it with lightning speed in his short life. Mukhammad Yusuf is an outstanding Uzbek poet, whose unique talent is recognized by everyone. The poet knew Uzbekistan from the side from which the people saw it, created a colorful and multifaceted image of nature, sang a high feeling of love. The deep inner strength of his poetry, the coincidence of the path with the life of the people, with the life of the country allowed him to become a truly national poet.

There are many poems written about the homeland, but among them the poems of Mukhammad Yusuf are distinguished by their simplicity, sincerity, closeness to the heart. Lyrics of the poet Mukhammad Yusuf, penetrating to the most secret corners of the soul, glorifying the small homeland, nature, people, kind, simple, open, hardworking. People who do not run for happiness somewhere into the distance, but find it here, in their native land. Most of Mukhammad Yusuf's works are dedicated to Uzbekistan. Mukhammad Yusuf was born in the Kovunchi village of the Markhamat district of the Andijan region, the poet's childhood was noisy, and his youth passed, here he wrote his first poems. And the fire of the dawn and the splash of the waves, and the silvery moon, and the immense blue of heaven, and the blue expanse of the lakes - all the beauty of the native land over the years have been molded into verses full of love for the Uzbek land. His poems preserved memories of the courtyard and the street where he lived with his parents, of the bright moments of his early years, when he ran under the downpour, washed him with dew, and caught butterflies.

Mukhammad Yusuf dedicated the poem "Confession" to his childhood, his brightest impressions. In the poem (in his book "Selected", published in 2007, this poem is called "Uzbekistan") there are such lines that, in my opinion, will delight every soul:

*Oh, the land of my fathers,
Mother earth,
Uzbekistan, I will give my life for you.
No caress you,
And there is no more picturesque
Do not compare Rome with your vastness.*

Continuing in the same spirit, the poet admits:

*Than the luxury of Parisian restaurants
My native tandoor is dear to me.*

And he ends the poems with Uzbek modesty and great pride:

*To those who know you, I bow down,
And I am sincerely sorry for those who do not know.*

Here it is, an Uzbek village, unsurpassed in its discreet but sweet beauty, understandable and close, dear. Mukhammad Yusuf's poem "Confession" expresses the feeling of love for the motherland in a very sincere and simple way. The love of the poet for the motherland is as warm as the love of a sister, a mother.

The theme of nature and patriotism is especially loud in the writings of Mukhammad, for which the poet in his homeland was honored with a flattering comparison with the Russian "last poet of the village" Sergei Yesenin. In the poems of Muhammad Yusuf about his native land, the beautiful poetic appearance of the motherland, a verbal monument to the motherland, is recreated. The sublime feelings of love for the motherland, filial duty, expressed in the poet's sincere stanzas, are echoed in the soul of the reader, because there is no falsity in his poems. The fatherland is incomparable, nowhere is there a more dear, beautiful and worthy land, there are no such tulips anywhere, there are no such mothers, there are no such

people, there are no such beauties ("Where else to find"), and a worthless poet who cannot stir up the mind and heart reader ("Delight").

During his short life, Yusuf presented his readers with more than 10 collections - "An earnest request", "Halima's Lullabies", "Ship of Love" and many others. In 2001, the "Composition" saw the light, and in 2013, thanks to the diligence of relatives - "The Poet's Love".

The Uzbek people are one of the oldest nations in the world. And these people have experienced unprecedented events. Our people survived all the trials like a straw, came out with honor. Unfortunately, history does not forget those who, withdrew when the enemy came, lost their lives for the sake of sweetness, and even sold their friends. Thanks to their efforts, the country's "endless dreams, epics that made the stones cry" appeared in the poem "My country, you have unfulfilled dreams". In the patriotic poems of Mukhammad Yusuf, one can feel the incomparable strength of the heart and self-esteem. His poems about his native land, about his homeland are incomparable with the poems of other authors; they are saturated with the national spirit, knowledge of the soul of the people.

In the poems of Mukhammad Yusuf about his native land, the beautiful poetic appearance of the motherland, a verbal monument to the motherland, is recreated. The sublime feelings of love for the motherland, filial duty, expressed in the poet's sincere stanzas, are echoed in the soul of the reader, because there is no falsity in his poems. The fatherland is incomparable, nowhere is there a more dear, beautiful and worthy land, there are no such tulips anywhere, there are no such mothers, there are no such people, there are no such beauties ("Where else to find"), and a worthless poet who cannot stir up the mind and heart reader ("Delight").

Mukhammad Yusuf is a poet with a pronounced civic stance. His poems are filled with anxiety for the fate of future generations; the author seeks to comprehend the deep spiritual and moral processes of modern life.

We can safely say that Muhammad Yusuf is the People's Poet, who created exemplary poems about his homeland, about the people, skillfully continued the best traditions of Uzbek poetry and innovatively develops topical problems of our time.

Preserving the creative heritage of Mukhammad Yusuf is an important task on a regional and national scale. For his small homeland - the Andijan region - Mukhammad Yusuf has always been a dear person. He knew how to work and dream. The memory of him, his work is the memory of a whole era.

REFERENCES:

1. The Uzbek National Encyclopedia. Tashkent, 2001-2005
2. Alimbekov A. You will live forever, my poems. The article. “Zvezda Vostoka” №4? 2015

Zuhra Yuldasheva,

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Folklor bo‘limi ilmiy xodimi

MUHAMMAD YUSUFNING DARDLI DOSTONLARI

Qadim-u qoim so‘z san’atida doston janri badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlama hodisa hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodining noyob hodisasi bo‘lgan dostonlarda ifodalangan asosiy g‘oya-fikr-mazmunni tushunish, anglash shunchaki ish emas, balki anchayin qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Dostonlarda mutlaqo o‘ziga xos, goh ochiq, goh yashirin, turli ishoralar, tagma’nolar, kosa tagidagi nimkosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma’nosini to‘g‘ri va huzur beradigan darajada chaqa bilish ko‘lamli ma’naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi. Har qanday dostonning mazmunini tugal idrok eta olish uchun uning o‘ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodining durdona dostonlari insonlarni ezgu va ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashishga chorlaydi va shunga hozirlaydi. Insoniyatni hayotning turfa sinovlaridan sabot va matonat bilan o‘ta olish ilmini o‘rgatadi.

Vatan tushunchasi zamonaviy she'riyatimizda Cho'lponning "Bizning Vatan", "Buzilgan o'lkaga", "Diyorim", "Go'zal Turkiston" kabi she'rlari orqali falsafiy-madaniy kategoriya, tafakkur hodisasi sifatida namoyon bo'lgan. "Ey, tog'lari ko'klarga salom bergen zo'r o'lka, Nima uchun boshingda quyuq bulut ko'lanka?" deya Vatan holini so'rash, so'roqlash orqali Vatanni qadrlash tuyg'usini, uni asrab avaylash kerakligini aytadi. Vatan tushunchasiga milliy mazmun va ma'naviy qudrat bag'ishlaydi.

Jadidlar boshlab bergen Vatanga muhabbat mavzusi undan keyingi davlrarda ham eng ko'p murojaat qilingan mavzu bo'ldi. Sobiq sho'rolar davrida ham ayni mavzuda behad go'zal she'rlar yozildi. Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Rauf Parfilarning Vatan haqidagi she'rlari Vatan tarannumi va vasfining eng go'zal namunalaridir. Mustaqillik yillari she'riyatida milliy shuur va ma'naviy safarbarlik ruhi oldinga chiqdi. Vatan tushunchasi milliy til, bayroq va mehrobdek mo'tabar qadriyatlarning tajassumi sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda ham ko'plab qilqalam shoirlar yetishib chiqdi. Ular qatorida Muhammad Yusufning alohida o'rni bor. Uning she'rlaridagi Vatanning qiyofasi ham bizga nihoyatda yaqin va samimiyl. U Vatanni sizga tanish narsa-buyumlar yoki qadrdon kimsalar orqali jismlashtiradi. Bu borada shoirning dostonlari juda katta ilmiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

Muhammad Yusuf dostonlarining missiyasi tarixiy haqiqatlarning badiiy in'ikosini yaratishda ko'rindi. U tarixiy hodisa va voqealarni she'riy shaklda taqdim qilishni emas, millat tafakkuridan o'chib ketmasligi uchun ishoralar ba'zi tarixiy shaxslar taqdirini hikoya qilish asnosida boradi. Shu bois uning dostonlari bir navi Vatanning tarjimayi holidir. Qadim va mo'tabar Buxoro shahri haqida yozar ekan, Buxoroni qandaydir bir shahar deb emas, sizga qadrdon bir mo'ysafiddek yaqin his qilasiz. Uning dardiga darddoshlik tuyasiz:

"Kuygan joydan kuy chiqadi, deydilar. Buxoroning esa kuymagan joyi yo'q. Bunda nimaiki qulamasin kuy bilan qulaydi. Devor qulasa – kuy, maqbara nurasa – kuy, hovuz qurisa – kuy. Buxoro yig'lab qo'shiq aytayotgan ulug' Hofiz. Uning qo'shig'ini barcha tinglaydi, uning tovushi yetmagan yer yo'q, ammo odamlar bu

qo'shiqqa mahliyo bo'lib, tildan qolishgan. Hech kim unga yordam beray demaydi. Buxoroning kuyi – ajralish kuyi. Vidolashish kuyi!.. ”

Sir emaski, tarixiy haqiqatlarni she'rga solishda poetik me'yor nihoyatda muhim hisoblanadi. Ba'zan bir so'z yoki ishora orqali muayyan voqeliklarni ifodalay oladi.

“Fayzulloxon otasidan qolgan tillalarini hukumatga topshirdi. Bir kuni “xalqlar otasi” undan so‘radi:

Xo'sh, otangizni tillalari bilan-ku, safimizga qo'shildingiz. Ammo ayting-chi, o'zingiz nima karomat ko‘rsatdingiz Inqilobga?..

Uni o‘ldirishdi. Qanday o‘ldirishganini ham hech kim bilmadi. Uning avlodi qolmadi. Uning avlodidan faqat... Buxoro qoldi. Endi Buxoro ham keksaydi.

Fayzulloxon Inqilobga boshini tikdi.

Shopmo 'ylov Stalin esa chopib tashladi qilich bilan bu boshni!..

Uzulgan boshdan sachragan qon Buxoro minorlariga tegdi.

Balki, shuning uchun ham bitta-bitta qulayotgandir Buxoro minorlari?

Balki, shuning uchun ham sho‘rdir bu kent tuproqlari?

Balki, shuning uchun ham suvlarini taxirdir Buxoroning?.. ”

Shoir “Ko‘hna quduq”, “Qora quyosh”, “Osmonning oxiri” kabi dostonlarida tarixiy voqealarni uzundan-uzoq tasvirlamaydi. Tarixiy voqeliklarga poetik munosabat bildirish orqali mash’um kechmishni yodga soladi va kitobxonni uyg‘oqlikka chaqiradi, tarixdan saboq chiqarishga chorlaydi.

“Ko‘hna quduq” dostonidagi lirik qahramon tilidan aytilgan quyidagi falsafiy satrlar hech bir kishini befarq qoldirmaydi:

“Men ham Orolman. Buxoro ham – Orol. Men Orol haqida yangi qo'shiq qildim. Uni Buxoroga bag‘ishlayman, dedi Hofiz. Agar Orolni qo'shiq bilan tiriltirib bo‘lsaydi. Agar Buxoroni qo'shiq bilan asrab qolish mumkin bo‘lsaydi. Hofiz joni chiqquncha qo'shiq aytgan bo'lardi! Buxoroning ko‘hna qudug‘idan suv ichgan hofiz... Biz barimiz Orol va orolchalarmiz. Toki bir-birimizni asrashni bilmas ekanmiz, bitta-bitta quriyveramiz. Orolning joni orolchalar qo'lida. Orolchalar esa odamlarning ko‘ksida. Odamlarning ko‘ksi esa bir-biridan suv ichadi.”

Doston tarkibidagi har bitta she'r vujudni larzaga soladi, uni shunchaki o'qib bo'lmaydi. Shoirning "Qora quyosh" deb atalgan dostoni ham millat va yurt muhofizining naqadar buyuk qalb egasi ekanligidan dalolat beradi. Qatag'on qurboni bo'lgan millatning guldek farzandlari taqdiriga befarq bo'lmaslik, istiqlol tufayli erishilgan ne'matlarning qadriga yetish, milliy mustaqillikni asrab-avaylashning nechog'li ahamiyatli ekanligi haqida millatni ogohlikka chaqiradi. Bu dostonni o'qigan har bir kitobxonni istibdod davrida qirg'in qilingan millatparvar ijodkorlarning alamlı qismati o'yga solishi tabiiy. Doston yakunidagi manzum parchada shoirning faol pozitsiyasi to'liq anglashadi va asarga nega shunday nom berilganini oshkor qiladi:

U xalqlar qotili,

Xalqlar otasi,

Tilim tebranmaydi

Yomon deyishga.

U shunday ulug'ki,

Yo 'qdir qiyosi,

Qancha ulug' bo 'lsa,

Tubandir shuncha.

Yo 'qsa ayting,

Kim u?

Yo 'qsa ayting, kim?

Yarim xalq qarg 'aru

Yarim xalq yig 'lar.

Mening savolimga

Eng to 'g 'ri javob

Bera olguvchining hammasi uxlar!..

Menga juda aziz

Uning siymosi,

Bir qarasam,

Yo 'qdek sira qiyosi.

U bir bag 'ridaryo,

Bir bag 'ritoshdir,

U bir quyosh

Ammo –

Qora quyoshdir!

Mazkur dostonlar haqidagi fikrlarga xulosa yasar ekanmiz, O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toirning quyidagi so‘zlariga e’tibor qaratishingizni so‘rab qolamiz: “Muhammadjonning “Ko‘hna quduq” dostonida shunday jumlalar bor: “Ko‘ksingda savoling bo‘lmasa dunyoga nega kelding, otingdan aylanay, Inson?” Imonda, e’tiqodda, kindik qoni tomgan ona zaminga muhabbatda sobit har insonni qalbida bir savol yuz ochadi. “El-u yurtimga munosib farzand bo‘loldimmi, tarbiyalab kamolga yetkazgan, oq sut bergen ota-onam mendan rozimi, saflarda o‘rnim, qadrim bormi?..” Shu savollar oldida yuzi yorug‘ odam yurt yo‘llarida qaddini g‘oz tutib yura oladi.”

Xumora USMANOVA,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Jahon tillari va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARIDA RAMZIY YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’rlaridagi ramziy yondoshuvlik haqida fikr bildirib, uning she’rlaridagi Vatan, muhabbat ramzlarini ifoda etilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ramz, yondashuv, Vatan, muhabbat, poetik, lirika, fidoiy, ozod, she’r.

Аннотация

В статье рассматривается символический подход в стихотворениях Мухаммеда Юсуфа и анализируется выражение символов Родины, любви в его стихах.

Ключевые слова: символ, приближение, родина, любовь, поэтическое, лирическое, религиозное, свободное, поэзия.

Annotation

This article discusses the symbolic approach in the poems of Muhammad Yusuf and analyzes the expression of the symbols of Homeland, love in his poems.

Key words: symbol, approach, homeland, love, poetic, lyric, devotional, free, poetry.

*O‘zi o‘lsa o‘lar, so‘zi o‘lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,
Yurakka ko‘milar asl shoirlar
(Muhammad Yusuf).*

Muhammad Yusuf degan shoir she’riyatga qanday kirib kelganini adabiyotimiz sezmay ham qoldi. Ammo u tezda, hammani hayron qoldirib, og‘izga tushib ketdi. Uning ijodi haqida gap ketganda, ko‘pincha qo‘shiqlarini tilga oladilar. U qo‘shiq yozgan ham, o‘zining qo‘shiqchi shoir hisoblagan ham emas. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb mavzuda o‘ta jiddiy, ammo xalq diliqa juda yaqin va ravon tilda yozilgan. Shuning uchunmi, hofizlar ularni qo‘shiqqa solib yuradilar. Bu qo‘shiqlar qo‘shiqchilikni ham baland pog‘onalarga olib chiqdi. Qancha-qancha xonandalarni elga tanitdi. [1. 6-b]

Muhammad Yusuf qo‘shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflagan she’rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi.

Muhammad Yusuf ijodining eng o‘tkir qirralaridan biri ona yurt, el, vatan haqida me’yoriga yetkazib boshqalarga o‘xshatmay yoza olishidir. Shoir shunchaki maqtovlar tizmasini tizmasdi. U ko‘nglidagi yurtga bo‘lgan sadoqati, millatga bo‘lgan mehr, fidoyilik tuyg‘ularini qo‘shiq qilib kuylaydi.

“Bizdan ozod vatan qoladi”, “Fidoyilar”, “Vatan”, “Inshoolloh”, “Tilak”, “Ona Turkiston”, “Vatan madhi”, “Alpomishlar yurti bu diyor”, “Hayrat”, “Ishori dil”,

“O‘zbekman”, “Vatan yagonasan”, “Hur o‘lkam”, “O‘zbekiston”, “Mening Vatanim”, “O‘zingdan qo‘ymasin xalqim” va yana boshqa ko‘plab mavzusidagi she’rlarida shoir balandparvozlikdan qochib, samimiy yurtiga dil izhori qiladi. Bu dil izhorlarining ramziy belgilari, Ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, qalbdan chiqayotgan dil izhorlari edi. Har kim ham his qila oladigan tuyg‘ular emas, ammo bu she’rlarda yozilgan misralarning shunchalar sodda va samimiy til bilan yozilgan bo‘lsa-da, o‘qigan o‘quvchining, qo‘shiqqa solgan qo‘shiqchining, tinglagan tinglovchining qalbini larzaga solishi ayni haqiqatdir.

Shoirning 2007-yilda chiqqan “Saylanma”sida “O‘zbekiston”, ayrim joylarda “Iqror” nomi bilan chop etilgan she’ridagi satrlar qaysi ko‘ngilga surur bag‘ishlamaydi deysiz.

O, ota makonim. Onajon o‘lkam,

O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.

Senday mehribon yo‘q, seningdek ko‘rkam.

Rimni alishmasman bedapoyanga.

Shoir shu ruhda davom etib:

Parijning eng go‘zal restoranlarin,

Bitta tandiringga alishmasman men.

Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing,

Arab ohusidan azizroq menga. –

deya ko‘nglini ocharkan she’rni o‘zbekona kamtarlik hamda g‘urur bilan:

Seni bilganlarga qilaman ta‘zim,

Seni bilmaslarga rahmim keladi [2]. – deya, o‘z she’riy misralarini tugatadi.

Yuqorida keltirilgan misralarning har bir so‘zi, har bir ta’rif aynan ona diyorning har bir jabhasini, qadrlash, tengligi o‘zga o‘lkalarda yo‘qligini sodda ramziylilik bilan ifodalab bergen.

Uning qo‘shiqlari maddohlik, quruq qofiyabozligu o‘rtamiyonachilikdan yiroq, nimaiki yozgan bo‘lsa, chin dildan, mehr va muhabbat bilan aytgan edi.

Shoirning buningdek ta’sirli misralari bilan kitobxon ko‘nglidagi yurtsevarlik daraxtining ildizi yanada mustahkamlanadi, barglari ko‘rkamlashadi.

Zotan yaxshi she'r mudroq ko'ngillarni uyg'otish, uyg'oq ko'ngillarning shiddatini oshirishi darkor. [3. 16-b]

Vatan haqida umumiylardan yozilgan she'rlar adabiyotimizda istagancha topiladi. Muhammad Yusuf she'rlarining ulardan farqli jihat, bu hasso shoirning vatan haqidagi she'rlarini o'qiganizda bevosita O'zbekiston haqida so'z ketayotganini, u she'rdagi ramziy yondashuvi vatan haqida so'z borayotganini anglatadi.

Shoir she'rni "O'zbekiston" deya nomlashi, unga beriladigan ta'rif yorqinroq his qilishi uchundir. Aslida, yuksak va teran ma'nolar ifodasiga xizmat qilgan soddalik hamma murakkabliklardan balandda turadi. Chunki bunday she'rlarni birgina istak bilan yaratib bo'lmaydi. Bunday cho'qqiga yaratgan Egam tuhfa qilgan juda ham noyob iste'dod orqaligina ko'tarilish mumkin: "Padarkushdan pana qilib Ulug'beging quchganman....".

Ha, murakkab va ziddiyatli hayot haqida bu darajadagi shaffof soddalik bilan yozish uchun shoir faqat va faqat yuksalishi kerak bo'ladi, tushishi emas! [3. 23-b]

Badiiy ijod qaysi ko'rinishda, ya'ni xoh og'zaki, xoh yozma shaklda bo'lmasin, u o'zining xalqchillagini namoyon qilsagina xalq sevgan asarlarga aylanadi.

Adabiyotda xalqchillik tushunchasining mazmuni shundaki, u o'zida xalq ruhini, xalqning eng ilg'or xususiyatlarini qamrab oladi. Xalqchillik haqida rus tanqidchisi Belinskiy shunday fikr bildirgandi: "... agar xalqchillik deganda biror xalq, biror mamlakat odamlarining xulq-atvorini, urf-odatlarini va xarakterli xususiyatlarini haqqoniy tasvirlashni tushunadigan bo'lsak, xalqchillik chinakam badiiy asarning zarur shartidir.

Har qanday xalqning hayoti faqat uning o'ziga xos shakllarida namoyon bo'ladi, binobarin, hayot tasviri haqqoniy bo'lsa, u xalqchil hamdir" [4. 250-b].

Ramz va majozlar barcha ijodkorlar uchun g'oyaviy-badiiy mazmunni ta'sirli ifodalash va tasvirda emotsiyonallikni oshirish imkoniyatidir. Ammo bunda har bir shoirga xos ijodiy individuallik, poetik mahorat, uslubiy o'ziga xoslik kabi xususiyatlar muhim rol o'ynaydi.

Jumladan, ramziy-majoziy talqinlar Muhammad Yusuf kabi shoir asarlarida, asosan, falsafiy-intellektual mazmunni an'anaviy yo'nalishga tadqiq etishga qaratilgan [5].

Muhammad Yusuf she'rlarida lirik "men" orqali poetik fikr va lirik qahramon his-tuyg'ulari mohirona ifoda etiladi. Bu his-tuyg'ular shaxsiy his-tuyg'ularning oddiy ifodasi emas. Ular umumlashgan lirik kechinmalarga asoslangan.

Shoir "men" tuyg'ularini, poetik fikrga vobasta ifoda etadi. Lirik qahramon kechinmalari shoirning aniq yo'naltirilgan xulolasi bilan qorishib ketgan. Unda xoh farzandning dardli nolalari bo'lsin, xoh oshiqning sevgisi – bu tuyg'ular lirik kechinmaning asosini tashkil etadi va "men"ning shu kechinmaga singishib ketgan munosabatini, hamdardlik, hamfikrlik holatini ifoda qiladi [6. 45-b].

Ramziy-majoziy yondashuv poetik asarning nomlanishidan xulosasigacha bo'lgan barcha unsurlarida, ijodkorning badiiy niyati, tasvir, ifoda shakllari va uslubi, obrazlar tizimi hamda badiiyat talqinlarida zohir bo'la oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ramziy-majoziy yondashuv, yetuklik Muhammad Yusuf lirikasining asosiy fazilati. Bu avvalo, Muhammad Yusuf she'rlarining ravon, kompozitsion jihatdan puxta va tugallangan bo'lishida ko'rindi.

Shoir har bir bandning, har bir misraning benihoya mazmundor bo'lshiga erisha olgan.

Shoir o'z lirikasida ilgari surayotgan g'oyani yorqin ifodalay olganligi ko'zga tashlanadi. Bu holat uni nihoyatda ravon va musiqiy bo'lishiga ko'maklashadi.

Muhammad Yusufning eng yaxshi lirik asarlarida birorta ortiqcha poetik obraz yo'q. Shu nuqtayi nazardan qaraganda Muhammad Yusuf she'r kompozitsiyasi ustida qunt bilan ishlagan mahoratli shoirdir.

Adabiyotlar:

1. O. Sharofiddinova "Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida". – Toshkent. "Adib". 2014, 232b.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma: she'rlar. dostonlar. xotiralar. – T.: "Sharq", 2007.-288 6.

3. N.Sodiqova “Muhammad Yusuf she’riyatida Vatan mavzusining ifoda etilishi”, Toshkent – 2016, 68-b
4. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1977.
5. Akramov B. Hozirgi o‘zbek she’riyatida poetik obraz muammosi. –T.: 1991.
6. Zufarova Malika Abdumannopovnaning “Bugungi o‘zbek she’riyatida lirik “men”ning ifodalaniishi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. T: – 2012, 76 -b

Zulxumor Norqo‘ziyeva,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasи o‘qituvchisi

VATANINI ULUG‘LAGAN SHOIR

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning Vatan haqidagi she’rlari xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. She’rlarning bugungi kundagi ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, Vatan, adabiyot, she’riyat, ijod, so‘z, shoir, ajdod, avlod, tarix.

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности стихотворений народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа о Родине. Подчеркивается, что стихи поэта сегодня имеет большую просветительскую ценность.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, Родина, литература, поэзия, творчество, слово, поэт, предок, поколение.

Annotation

This article examines the features of the poems about the Motherland of the national poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. It is emphasized that the poet's poems are of great educational value today.

Key words: Muhammad Yusuf, Motherland, literature, poetry, creativity, word, poet, ancestor, generation, history.

Muhammad Yusufni she’riyat osmonidagi qisqa, lekin ibratli umri davomida zamondoshlariga, kelajak avlodga, barcha-barchaga bir-biridan go‘zal, bir-biridan chiroyli, bir-biridan ma’noli she’rlaridan iborat bebaho meros qoldirib ketdi. U millat dardini, go‘zal ishtibohlar orqali insonlarning nozik kechinmalarini ko‘rsatib berdiki, shuning uchun uning she’rlari insonlar qalbidan chuqur joy oldi.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov shoir haqida shunday fikr bildirgan edi: - Muhammad Yusuf degan shoir she’riyatga qanday kirib kelganini adabiyotimiz sezmay qoldi. Ammo u tezda, hammani hayron qoldirib, og‘izga tushib ketdi. Darhaqiqat, shoir xalqning ruhiy olamini, ichki olamini o‘z she’rlari va dostonlari bilan ocha oldi, kishilarni ruhlantirishga, qanoatlantirishga erishdi, desak sira ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Muhammad Yusufga 1998-yil xalq shoiri unvoni berilgandan keyin Orif To‘xtash shoir bilan suhbatlashadi. Bu suhbat davomida Muhammad Yusuf o‘zi haqida shunday deydi: – Bilasizmi, meni nimagadir qo‘shiqchi shoir deb tan olishadi. Faqat muhabbatdan yozadi, deyishadi. Lekin men adabiyotga ijtimoiy shoir bo‘lib kirib kelganman. Esingizda bo‘lsa, o‘sha paytlarda yozilgan “Samarqandga borsam men agar...”, “Do‘ppi”, “Gdlyan” haqidagi she’rlarim ana shunday sifatlarga ega edi.

Muhammad Yusuf she’rlarida milliylik, isyonkorlik, xalqni birdamlikka chorlash falsafasi juda kuchli. Shoir “Xalq bo‘l, elim” she’ri orqali butun xalqni ahil-iniq bo‘lib, bir mayizni qirqqa bo‘lib, bir tan-u bir jon bo‘lish kerakligini moziydagagi ajdodlarimizning dovrug‘idan faxrlanib, qaddini tik tutish lozimligini, go‘zal misralar orqali yoritib bergen.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,

Qumlar bosib qurimasin daryolarim.

Alpomishga alla aytgan momolarim,

Ruhini shod etay desang – xalq bo ‘l, elim!..

*Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo 'lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang – xalq bo 'l, elim.*

*Bo 'lar elning bolalari bir-birin der,
Bo 'lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo 'l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo 'l, elim, xalq bo 'l, elim, xalq bo 'l, elim!.*

Bu satrlarda xalqimizning sirtga chiqara olmagan dardi mujassamday, go'yo.

Shoirning Vatanga mehr-muhabbatini quyidagi satrlardan ham ilg'ash mumkin:

*Tanho bilmasa ham, bilsa ham Vatan,
Yig 'lasa ham Vatan, kulta ham Vatan,
Unga jonni tikmoq tilaging bo 'lsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.
Eng yaqin do 'stidan kechgandek,
Chirillatib yurakni goh.
Cho 'ntakdag'i oxirgi so 'mni
Kontrolyor kaftiga qo 'ymoq...
Qilavermas har kimga nasib.*

Cho 'ntakdag'i oxirgi so 'm bu moddiy boyliklarimiz, balki erkimizni "Markaz"ga topshirib qo 'yganimizga sha 'ma emasmi?

"Uyqudagi qiz" kitobini varaqlar ekanmiz, Muhammad Yusufning ona yurtiga bo 'lgan cheksiz mehrini ifoda etuvchi boshqa she'r larlaridan bahramand bo 'lamiz.

*Yer aylanar,
Yer aylanar,
Yer yugurib tinmaydi,
Yaktagingni yenglaridan
Ter yugurib tinmaydi,
Qo 'ling tegmay bu dunyoda*

*Bitta giyoh unmaydi,
Tin bilmagan jonim mening,
Bobodehqonim mening...*

Sobiq SSSRning xomashyo bazasiga aylantirilgan O‘zbekiston bobodehqoni timsolida mohirona yashirilgan bo‘lishi mumkin.

*Oftob chiqar,
Oftob botar,
Cho ‘g‘lar sochib tanangga,
Bir kungina bormay qo ‘ysang,
Nima qilar dalangga?...
Bir shonacha parvonalar
Bo ‘lolmaysan bolangga,
Tashnai nolonim mening,
Bobodehqonim mening.*

Bu misralar orqali shoir moddiy boyliklaringni, gazingni, paxtangni “markaz”ga topshiravermasdan – dalaga bir kungina chiqmasdan, mashaqqatlar bilan topilgan boyligingni o‘z xalqing farovonligiga ishlata olmaysan – bolangga parvona bo‘lolmaysan, demoqchi bo‘lgandir. She’rni o‘qib beixtiyor bobodehqonni sevib qolasiz, uning ortida Vatan turganini his qilasiz.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha o‘zbek xalqi kabi Muhammad Yusufning ham ko‘ksiga shamol tegdi. Endi u qalbining tub-tubida yotgan dardini, dil tug‘yonlarini, avval oshkor ayta olmaganlarini emin-erkin yozish imkoniga ega bo‘ldi. 1992-yilda shoirning “Erka kiyik” nomli yangi she’rlar to‘plami nashrdan chiqdi. Ushbu to‘plamdagи deyarli barcha she’rlar tez orada o‘z xalqining ko‘ngil multkiga aylanishga ulgurdi.

*Ich-ichimdan ko ‘zimga yosh kelar qalqib,
Baliqday gung, qo ‘ydek yuvosh o ‘zbek xalqi!
Sen ham bunday qomat kerib yoursang balki,
Uyingga o ‘t ketmasmidi, Farg ‘onajon?...
Yoki:*

*Qaylardasan o'zing, qanisan o'zing,
Sen kimning bir parcha jonisan o'zing?
Bobolaring kimdir, momolaring kim,
Sen qachon o'zingni taniysan o'zing?..*

Shoir bu satrlar orqali xalqini o'z haq-huquqi uchun kurashga, ajdodlaridan g'ururlanib, ularga munosib farzand bo'lishga chorlayotgandek.

*"Menga qilsa ming jafo, bir qatla faryod aylamon
Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram"*

Hazrat Navoiyning ushbu baytini o'qir ekanmiz, beixtiyor Muhammad Yusuf ham elning dardini, jafosini, g'am-anduhini o'zining dardiday, jafosiday qalbidan o'tkazganini his qilamiz.

1994-yilda chop etilgan "Yolg'onchi yor" to'plamida Muhammad Yusufning she'larida yanada mukammallikni, o'zgacha ehtiroslarni ko'ramiz. Ikkinchi jahon urushidan 3 kun avval sohibqiron bobomiz Amir Temurni qabridan qo'zg'atganlarga qarata bitgan she'ri har bir insonning qalbini larzaga soladi.

*Jahongirning qabrin ochgan kazzoblar,
Biri olim, yana biri arboblar.
Xondek yashab o'tdilaru olamdan,
Amir Temur ruhi meni azoblar.
O'shal kun sen qayda eding, bolam, der,
Qulog'ingga yetmadimu nolam, der.
Meni qo'zg'ab nima topdi olam, der,
Amir Temur ruhi meni azoblar.*

Yuqoridagi tilga olingan suhbatda, – tasavvur qilingki, siz – shoir Muhammad Yusufning muxlisisiz. Chetdan turib unga nima degan bo'lar edingiz?-savoliga kechagina Xalq shoiri unvonini olgan shoir shunday javob beradi:

– *She'rlarini o'qib turib, birinchidan, ko'proq o'qi, kamroq qo'shiq yoz, degan bo'lardim. Yaxshilaridan ko'paytir, derdim.*

Darhaqiqat, Ozod Sharafiddinov ta'riflaganidek, Muhammadjon kamdan-kam tug'iladigan iste'dod egasi bo'lishi bilan birga, kamdan-kam shoirda uchraydigan

xislat egasi – shuhratdan qochadigan kamsuqum inson edi. U shuhrat ketidan emas, shuhrat uning ketidan quvib yurar edi.

Muhammad Yusuf she’rlarining ochilmagan qirralari haqida, ulardagi go‘zal tashbehlar haqida, ko‘p va xo‘p gapirsa bo‘ladi, Shoир o‘zining o‘lmas asarlari orqali kelajak avlod qalbida mangu yashaydi. Uning she’rlari o‘z Vataniga, ona yurtiga cheksiz muhabbatidan darak beradi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. “Adib” nashriyoti, T., 2014.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Muhammad Yusuf. “Uyqudagи qiz” she’rlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.

Zumriniso Kozimova,

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
institutining “O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrasi o‘qituvchisi**

MUHAMMAD YUSUFNING ABDULLA QODIRIYGA EHTIROMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoир Muhammad Yusuf ijodida o‘zbekning ardoqli yozuvchisi Abdulla Qodiriyl va uning “O‘tkan kunlar” romani qahramonlari nomlari qalamga olingan she’rlari tahlil qilingan. Unda Muhammad Yusuf qalbini xalqimizning bir qator nomdor farzandlari qatorida Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyati, asarlari alohida cho‘qqi misoli zabit etganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bugungi kun yoshlariga qatag‘on qurbanlarining vatanparvarlik faoliyatlarini tushuntirishda bu kabi she’rlar va maqolalar alohida ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriyl, “O‘tkan kunlar”, Otabek, Kumush, Zaynab, Marg‘ilon, qatag‘on qurbanlari, jodi, ruhiyat.

Аннотация

В данной статье поэт Мухаммад Юсуф анализирует стихи известного узбекского писателя Абдуллы Кодири и героев его романа «Прошлые дни». В нем мы можем стать свидетелями того, что сердце Мухаммада Юсуфа, наряду с рядом известных сыновей нашего народа, запечатлело творческую деятельность и труды Абдуллы Кадири. Такие стихи и статьи имеют особое значение в объяснении современной молодежи патриотической деятельности жертв репрессий.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, «Прошлые дни», Отабек, Кумуш, Зайнаб, Маргилан, жертвы репрессий, жоди, психика.\

Annotation

In this article, the poet Muhammad Yusuf analyzes the poems of the famous Uzbek writer Abdulla Kodiri and the heroes of his novel "Past Days". In it we can witness the fact that the heart of Muhammad Yusuf, along with a number of famous sons of our people, captured the creative activities and works of Abdullah Qadiri. Such poems and articles are of particular importance in explaining the patriotic activities of victims of repression to modern youth.

Keywords: Abdullah Kodiri, "Past Days", Otabek, Kumush, Zainab, Margilan, victims of repression, jodi, psyche.

Xalq, haqiqat va nafosat o‘lmaydi va bularni ardoqlagan, kuylagan ulug‘lar ham mangudirlar. Ular hamisha avlodlar dili va tilida barhayot, shu minnatdor avlodlarning ezgu intilish va ishlarida madadkordir, deydilar. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf ham hayoti davomida mana shunday ezgu maqsadni amalga oshirish baxtiga musharraf bo‘ldi. Shoir hayotining mazmuni, betakror ijodiy faoliyatining asosiy ma’nosи – Vatanga muhabbat degan oliv qadriyatdan iborat bo‘libgina qolmadi, hayot shodliklari, sevgi va sadoqat, ilm-ma’rifat, xalqimizni azal-azaldan ajoyib odatlaridan bo‘lgan go‘zallikni ardoqlash, onani sevish, unga hurmat ko‘rsatish, tabiatdan bahra olish, eng asosiysi, inson shaxsiga bo‘lgan mehr-muhabbat mavzulari haqida ham kuylash otashnafas ijodkor she’riyatida rangin jilolari bilan o‘z

ifodasini topdi. Shu bilan birga, Muhammad Yusuf o‘z she’rlarida kitobxonlariga bir necha ming yillik tariximizning shonli farzandlari haqida hikoya qildi. Alpomish-u Go‘ro‘g‘lidek, To‘maris-u Shiroqdek, Jaloliddin-u Amir Temurdek vatanparvar qahramonlarni, Ulug‘bek-u Ibn Sino, Alisher Navoiy-yu Zahiriddin Bobur singari ilm va ma’rifat egalarini, Mashrab-u Furqatdek mumtoz shoirlarni, Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Akmal Ikromov, Fayzullo Xo‘jayev kabi qatag‘on qurbanlarini, Nabi Rahimov, Shukur Burhon kabi san’at ahillarini, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi o‘ziga ustoz deb bilgan shoirlarni asosan, vatan madhi, uning taqdiri, o‘tmishi va buguniga bag‘ishlangan she’rlarida chizgilarini yaratdi. Xususan, shoirning bиргина Abdulla Qodiriy hamda uning “O’tkan kunlar” romani qahramonlari bo‘lgan Otabek, Kumush, Zaynab nomlari keltirilgan yigirmaga yaqin she’rlari mavjud. “Vatanim”, “Kundoshli uy”, “Laganbardorlar”, “Yurtim ado bo‘lmas...”, “Sodda Muhammadman”, “Kinoga kirmayman”, “Zaynab qo‘shig‘i”, “Menga bering”, “Bibi”, “Otabek qo‘shig‘i”, “Kumush”, “Ona tilim” hamda “Qora quyosh” dostonidan joy olgan “Qodiriy bobom”, “Qodiriyni qilishar so‘roq” kabi she’rlari shular jumlasidandir. Qodiriy nomi “Vatanim”, “Laganbardorlar”, “Yurtim”, “Ona tilim” kabi she’rlarida boshqa qatag‘on qurbanlari qatorida bиргина o‘rinda tilga olinsa, “Qodiriy bobom”, “Qodiriyni qilishar so‘roq” she’rlarida esa she’rning boshidan yakuniga qadar faqat Qodiriy timsoli gavdalanadi. “Laganbardorlar” hamda “Yurtim ado bo‘lmas...” she’rlarida bir-biriga mazmunan yaqin satrlar ta’kidlanadi. “Laganbardorlar”da:

*Otabek Kumushin ko‘zlarin yopib,
O‘zi ham ortidan qilgach safarlar.
Qodiriy bobomning qo‘llarin o‘pib,
Chohga itargan ham laganbardorlar [1].*

deya aytilsa, “Yurtim” she’rida:

*Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar –
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor... [2]*

misralarini o‘qiyimiz. Ko‘rib turganimizdek, har ikkala she’rida ham ikkiyuzlamachi, laganbardor, o‘z manfaati yo‘lida hech qanday razilliklardan tap tortmaydigan kimsalar qoralanadi. Bunday insonlar faqatgina bir davr va bir muhitgagina xos emas, ular insoniyat tarixining turli davrlarida, turli sharoitlarida bo‘lganlar, bo‘laveradilar ham. Xuddi shu kabi Qodiriyga “O‘tkan kunlar” romanı cheksiz shuhrat keltirganligi barchamizga ma’lum. Bunday vaziyatda uning atrofida laganbardorlarning ko‘payib qolishi, hasadgo‘ylarning yozuvchi hamda uning asaridan ayb topishga zo‘r berib urinishlarini ko‘pgina mashhur ijodkorlar singari Qodiriy faoliyatida ham ro‘y bergenligi sir emas. Ikkinchi she’rida ham ikkiyuzlamachilar qoralanishi bilan birgalikda “Mehrobdan chayon” romaniga ishora hamda asar nomi va qahramonining yozuvchi taqdiriga bevosita bog‘liqligini ko‘ramiz. Anvarning hayotini zaharga aylantirishga uringan “chayonlar”, Qodiriy hayotiga ham og‘u soldilar. Qodiriy boboning qo‘llarini o‘pib turib, chohga itarganlar ham aslida, Mehrobdan chiqqan chayonlar edilar.

Muhammad Yusufning ijodi bilan yaqinroq tanishar ekanmiz, uning Abdulla Qodiriy ijodiga cheksiz hurmatini, asarlarini qadrlashini, yozuvchining asarlari uning uchun ijod va ilhom maktabi bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, “Kinoga kirmayman” she’rida bu holat yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. She’rda qizlar “O‘tkan kunlar” filmini ko‘rishga juda ishtiyoqmand bo‘ladilar, ammo bilet qolmaganligidan ko‘zyoshi qilib, uylariga qaytadilar. Shoiring esa kinoga kirishga ishtiyoqi yo‘q. Uning ko‘zidan uyqu qochgan, oromi yo‘qolgan. Muqovasiz kitobiga muk tushganicha, uni qayta-qayta o‘qiydi. Bu muqovasiz kitob “O‘tkan kunlar” edi. Uni yillar davomida o‘qilganidan, qo‘lma-qul bo‘lganidan muqovasi ham qolmagan. Aslida, bu kitob kirmagan xonodon qolmagan, uni hamma o‘qigan, ammo shoirddek o‘qimagan, shoirddek o‘qiy olmagan. Shoир bu asarni hammadan ayricha o‘qiydi, hammadan ayricha yaxshi ko‘rib qadrlaydi. U ko‘zlarini yumganida Kumushning kulgichlarini ko‘radi, Zaynabning iztiroblarini his qiladi:

Ko ‘zimni yumaman, kulgichlar yayrab,

Kumush bolasiga rumolcha to ‘qir.

Keyin ichkaridan – ming yil naridan

Zaynabning nigohi jonomni cho ‘qir [3].

Shoir oqshomni ham, tongni ham shunday xayollar bilan qarshilaydi. Unga asarning har satri yod bo‘lib ketgan, asarning har satri uning uchun muqaddas. Shu darajada muqaddaski, asar qahramonlari – Otabek va Kumush o‘z yaqinlaridek aziz, o‘z yaqinlaridek qadrli. Ularning o‘xshashini hech qayerdan topolmaydi. Hatto sahnada rol ijro etayotgan Otabek unga begona. U san’at uchun qarsak chaladi, Otabek siymosini yaratganligi uchun emas. Chunki sahnadagi Otabek boshqa, shoirning xayollaridagi Otabegi boshqa...

“Otabek qo‘shig‘i” she’rida shoir nazdidagi Otabek ruhiyati yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Ya’ni bu she’r Otabek tilidan Zaynabga qarata aytildi. “Kinoga kirmayman” she’rida lirik qahramon shoirning o‘zi bo‘lsa, bu she’rda Otabek lirik qahramon sifatida maydonga chiqadi. She’rning birinchi bandida shoir talmeh san’atidan foydalanib, o‘zining Farhod, Zaynabning Shirin emasligini hamda tazod san’atidan foydalanib, o‘zining novvot, Zaynabning achchig‘ emasligini, shuningdek, Zaynabning dilkun bo‘lgani kabi, o‘zining ham dilshod emasligini ifodalaydi. Ammo bular taqdiri azalning hukmi ekanligini ham tan oladi. Zaynabni yonida o‘zi bilan birga uning ham bir qafas ichidagi (“giryon”) bo‘zlab yig‘layotgan bir juft qushga o‘xshatadi, ahvolining xomush va vayrona ekanligini aytadi. Ular bir dinda-yu ammo piri o‘zga, ular bir joyda-yu, ammo bir-biriga na do‘st, na g‘anim bo‘la oladi, Zaynab jayron bo‘lmaganidek, Otabek ham sayyod (ovchi) emas.

She’rning to‘rtinchi bandida Otabekning sevgisiga sodiqligi, hayotining mazmuni faqat Kumush ekanligi ifodalanadi. Zaynabni suymaganni suyishda ayblaydi. Bunday yashash ko‘ngilga xush emasligini aytadi. Uni quchsa, Kumushni sog‘inishini, Kumushsiz joni omon bo‘lsa-da, o‘zining hayot emasligini yashirmaydi. Ammo Zaynabni ham kamsitmaydi, uni gulga qiyos etadi, sultonga yor bo‘lishini tilaydi. O‘zi esa Kumush diydoriga intizor bo‘lib, Marg‘ilon dan ko‘z uzolmaydi:

Ey gul, suyib ne topding men yomondan,

Bekman, senga yor tilayman sultondan,

Ko ‘z uzmasman men Marg‘ilon tomon dan,

Senga ket ham, senga qol ham demasman... [4]

Barchamizga ma'lumki, shoir "Otabek qo'shig'i" she'rini 1998-yilda yozadi. Bu she'ridan oldinroq, ya'ni 1994-yilda yozilgan "Zaynab qo'shig'i" she'rida esa Zaynab tilidan faqat she'rning uchinchi bandidagina Otabekka murojaat qilinadi. Qolgan bandlarida esa uning hissiyotlari monolog tarzida aks ettiriladi. Aslida, shoir "Zaynab qo'shig'i" she'rining uzviy davomi sifatida "Otabek qo'shig'i" she'rini yozgan bo'lsa, ajab emas. Bu ikkala she'r ketma-ketlikda o'qilsa, xalq qo'shiqlar yo'lidagi aytishuvni eslatadi. "Kumush" she'rini esa shoir Marg'ilonda Kumushni ko'zida yosh bilan Otabekni qidirib yurganligi lavhasi bilan boshlagan bo'lsa, "Bibi" she'rida shoir o'zining Marg'ilonga borib, har eshikdan Kumushni axtarganligini aytadi. She'rda lirk qahramonning qalbini o'rtayotgan iztiroblari, ruhiy yolg'izlik qiyonoqlarining sababchilari sifatida "Laganbardorlar", "Yurtim ado bo'lmas..." she'rleridagi kabi ikkiyuzlamachi, hasadgo'y kimsalar ko'rsatiladi. Qodiriyni ham shular gumdon qilganligi ta'kidlanadi. Bibining dushmani Zaynab bo'lsa, u bir rashk bandasi edi, ammo shoirning dushmani hasadgo'ylar edi. Ular dushmanlarning eng nomard xili, kundoshlarning eng sharmandasi. Shoir bunday kimsalarning orasida bo'lishdan ko'ra Zaynabning og'usidan ichishni afzal biladi.

Qodiriyl timsoli Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dostonida boshqa qatag'on qurbanlaridan ko'ra ko'proq tilga olinadi. Dostonda keltirilgan "Qodiriyl bobom" she'rining mazmun-mohiyati undan oldin keltirilgan nasriy parchadan to'laligicha anglashiladi. Qamoqxonada ming mashaqqatlar bilan qog'oz to'plab, asar yozgan, ammo turma boshlig'i qo'lyozmani gurillab yonib turgan pechka ichiga otib yuborganidan keyin ruhiy iztiroblar iskanjasida boshini devorga uraverib, o'zini halok etgan adibning kim ekanligi kitobxonga havola etilganida, har bir kitobxon o'z ruhiy yaqinligidan kelib chiqib, Qodiriyl, Cho'lpon, Fitrat yoki Usmon Nosir nomlarini xayolidan o'tkazadi. Muhammad Yusuf esa ushbu parchadan keyin "Qodiriyl bobom" she'rini keltiradi. Endi yosh kitobxonda "bu – Qodiriyl ekanda" degan o'y kechsa ham ajab emas:

Tushimga kiradi Qodiriyl bobom,

Bemador, bemajol, behol, beoram.

Egniga eski bir to'n kiyib olgan,

(Shineldir balki u, kim dandir qolgan)... [5]

Ko‘rinib turibdiki, Qodiriy bobo shoirning tushiga qamoqxonadagi eski shineli bilan kiradi. Uning yuzlari somon kabi sarg‘aygan, ko‘zлari to‘la mung. Ammo shu holda ham u avlodlariga yaxshilik o‘gitini beradi. O‘zi sochgan ezgulik hosilini o‘rib olishga undaydi.

She’rning II qismining ikkinchi bandi:

...Mana,

Qodiriyni qilishar so ‘roq:

“O‘tkan kunlar” degan she’r siznikimi?

- Ha.

Ammo u she’r emas...

misralari bilan boshlanadi. Bu yerda shoir kitobxонни yaqин о‘тмishning eng qora va chirkin kunlariga yetaklaydi. Ya’ni she’rning birinchi qismida shinel kiyib olgan Qodiriy bobo lirik qahramonning tushlariga kirgan bo‘lsa, II qismida esa uning tergov jarayoni holati jonlantiriladi. Nodon, manfur kimsalarning asl qiyofalari ochiladi, zamonaning zo‘ravonligi gavdalantiriladi. She’r yoki roman nimaligini bilmaydigan, ularning bir satrini ham o‘qishdek baxt nasib qilmagan temir yuraklarning, temir qalblarning, temir hissiyotlarning hukmi bilan o‘zbekning yana bir o‘g‘lonidan judo bo‘lish holati hikoya qilinadi. Ularning aybi nimada ekanligini hech kim bilmaydi. Balki, eng katta aybi – iste’dodidir? Ularga qanday hukm o‘qildi? Otildimi, osildimi? Balki, boshlari jodiga qo‘yilgandir? Shoir she’rning to‘rtinchi bandida “jodi nimaligini hozirgi yoshlар bilishmaydi, bilmaganlari ham ma’qul”, deydi. Aslida, “jodi” – beda, pichan, xashak qirqiladigan dastakli asbob [6]. Jodi orasiga boshni qo‘yib qirqish holatini tasvirlashga shoirning bardoshi yetmaydi. Shoir bilan birgalikda kitobxon ruhiyatida ham temir yuraklarga nisbatan nafrat paydo bo‘ladi. Ko‘ziga yosh to‘ladi, qo‘yniga tosh to‘ladi, ko‘ziga dunyo tor bo‘ladi. “O‘tgan kuning qursin, Abdullo bobom!”, deya iztirob chekadi.

Dostonning boshqa o‘rnida she’rning mantiqiy davomi sifatida keltirilgan bandida boshqa qatag‘on qurbanlarining nomlari ham sanab o‘tiladi:

Rutubatli shimol o‘rmonlarida

*Qayinlar ho 'ngrab quyoshni uyg'otar.
Qarang Cho 'lponingiz so 'nggi makonida
Beqasam choponin yopinib yotar.
Yotar alpqomatli bahodirlar qator,
Usmonlar,
Qodirlar,
Shokirlar yotar,
Yotar Abdullolar,
Yotar Ahmadlar,
Xudo rahmat qilgur, xudo rahmatlar... [7]*

Shoirning bu kabi she'rlarida xalqimizning qaysi bir e'zozli farzandi tilga olinmasin, ular Vatan mavzusi bilan bog'lanadi. Bu she'rlarni o'qiganingizda hazin kuy va ohang paydo bo'lgandek bo'ladi. Quloqqa chalingan bu dilkash kuy kishi ruhini qamrab oladi, samoviy kengliklar osha kelib, qalbingizga kirayotgandek tuyuladi. Inson ruhida hukm surgan beqarorlik tiniqlashadi, boshlar beixtiyor egiladi, zil-zambil tashvishlar yelkalarni bosa boshlaydi, o'z-o'zidan turli savollar jism-u jonga singa boradi, sababi bu yerda muqaddas Vatan kuylanmoqda, uning uchun jon fido qilgan farzandlari ardoqlanmoqda. Muhammad Yusuf qalbini bezovta qilgan, ruhiyatini notinch etgan holat kitobxon ruhiyatiga ham ko'chgandek bo'ladi. She'rning ruhi esa odatda shoirning ahvoli – ruhiyatiga bog'liq bo'ladi. Demak, Muhammad Yusuf ruhiyatini ulug' ajdodlarning insonparvarlik, pok e'tiqodlilik, mustahkam irodalilik, hayotsevarlik, ulug'verlilik hislari cho'lg'ab, o'ziga ohangrabodek chorlab kelganligi, shubhasizdir.

Adabiyotlar:

1. M.Yusuf. Ulug'imsan, Vatanim. Toshkent: "Ijod dunyosi", 2004, 88-b.
2. O'sha asar, 86-b.
3. M.Yusuf. Saylanma. "Sharq", 2019, 113-b.
4. O'sha asar, 256-b.
5. O'sha asar, 300-b.

6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti. 2007, 125-b.

7. O‘sha asar, 315-b.

**Dilorom Muxammedova,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
“Folklor va etnografiya” kafedrasи katta o‘qituvchisi**

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MILLIY QADRIYATLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ijodiga va qisman hayot yo‘liga to‘xtalinadi. Ayniqsa uning ijodida yoritilgan, ko‘p bora tilga olingan o‘zbek milliy qadriyatlari yoritib beriladi. Maqola davomida bir qancha mashhur insonlar, shoir va yozuvchilarning shoir she’riyati haqidagi fikrlari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, she’r, she’riyat, qadriyatlar, ijod, qo‘sish.

Аннотация

Статья посвящена творчеству и жизни народного поэта Узбекистана Мухаммеда Юсуфа. В частности, подчеркиваются узбекские национальные ценности, которые часто упоминаются в его творчестве. В статье цитируются мнения ряда известных людей, поэтов и писателей о поэзии поэта.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, поэзия, ценности, творчество, песня.

Annotation

This article focuses on the work and life of the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. In particular, the Uzbek national values, which are often mentioned in his work, are highlighted. Throughout the article, the opinions of a number of famous people, poets and writers about the poet's poetry are quoted.

Key words: Muhammad Yusuf, poetry, poetry, values, creativity, song.

She’rlari samimiyligi, ruhiyatga yaqin bo‘lganligi uchun ham inson ko‘ngil mulkiga aylangan va har bir o‘zbek xonadoniga kirib bora olgan lirik shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. Shu yerda o‘sib, voyaga yetgan. O‘rta məktəbni tugatgan. Rus tili va adabiyoti institutini tugatgan. Bir qator nufuzli gazeta, agentlik, nashriyotlarda ishlagan. O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida o‘qigan. 1997-yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. Ilk to‘plami – “Tanish teraklar” 1985-yilda nashr etilgan bo‘lsa, keyinchalik “Bulbulga bir gapim bor”, “Uyqudagisi qiz”, “Halima enam allalari”, “Ishq kemasi”, “Ko‘nglimda bir yor”, “Bevafo ko‘p ekan”, “Yolg‘onchi yor”, “Erka kiyik”, “Osmonimga olib ketaman” kabi ko‘plab she’riy kitoblari bosilib chiqqan. She’rlari milliy qadriyatlarimizga boyligi, xalqonaligi, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt ruhiyati, manzaralariga boyligi bilan el orasida mashhur bo‘lgan. Diltortar qo‘shiqlarga aylangan.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmadning shoir haqida shunday fikrlari bor: “Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarni o‘ylatgan, kuldirgan, yig‘latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. Muhammad hammani o‘ziga do‘st deb bilardi. Hech kimni begona qilmasdi. Qo‘lida borini do‘stlariga tarqatmaguncha, cho‘ntagi bo‘shab qolmaguncha ko‘ngli to‘lmasdi. Muhammad Yusuf tez og‘izga tushdi. Birorta shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo‘lмаган. Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo ortdan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o‘lmas meros qoldirdi. Muhammad she’r muxlislarining yuragini o‘rtab ketdi. Endi shoirning o‘zi yo‘q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish she’riyati bor. Bu she’riyat aslo zavol bilmaydi.” Darhaqiqat, Muhammad Yusuf she’riyati aslo zavol bilmaydi. Chunki u, avvalo xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflagan she’rlari, qo‘shiqlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. El mehriga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning shoir haqida yozganlari diqqatga sazovor: “She’riyat – Muhammad Yusuf uchun tom ma’noda qismatga aylandi. So‘z yo‘li, she’r yo‘li uning hayot yo‘li, umriy taqdirini belgilab berdi.” Biz ushbu ishda Muhammad Yusuf ijodida milliy qadriyatlarning o‘rni qay darajada ekanligini yoritish maqsadida uning xalq orasida mashhur bo‘lib ketgan 3 asarini: Yulduz Usmonova ijrosidagi “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!” Sevara Nazarxon ijrosidagi “O‘zbekiston” va G‘iyos Boytoyev ijrosidagi “Ko‘klamoyim” qo‘shiqlarini tanladik. Mana shu 3 ta asarning o‘zi ham uning ijodida milliy qadriyatlarning o‘rni qay darajada ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib bera oladi. Aslida esa uning har bir she’ri milliy qadriyatlar bilan yo‘g‘irilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Aslini olganda, Muhammad Yusufning ijodiyoti haqida so‘z borganida uning Vatan haqidagi she’rlariga to‘xtalmaslik mumkin emas. Eslaysizmi, O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova ijro etgan “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan qo‘shiqni. Bu qo‘shiq O‘zbekiston yoshlarining gimni, deb ham tan olingan. Qo‘shiq matni ohanglar bilan uyg‘unlashib ulug‘vorlik, mahobat kasb etganligidan tinglovchi qalbini larzaga soladi:

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,

Oq yuvib, oq taragansan o‘zing bizni.

Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,

Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.

Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!

Hech kimga bermamiz seni, O‘zbekiston!

Eslayman, bu qo‘shiq ilk bor O‘zbekiston mustaqilligiga bag‘ishlangan bayram tantanasida ijro etilgan edi. O‘shanda ishtirokchilarining yoshi ulug‘lari u yoqda tursin, hatto yoshlari ham oyoqqa qalqib turgan, ko‘zlarida yosh bilan jo‘r bo‘lishgan edi. Agar bu asar o‘zida milliy qadriyatlrimizni bag‘oyat go‘zal tarzda jamlamaganida bu qadar ko‘tarinkilik bilan kutib olingan bo‘larmidi?

Qolaversa, musiqa va she’r uyg‘unligi bir birini to‘ldirib, yanada chiroy ochib boradi. Kuyning boshida 2\4 o‘lchovida keluvchi kirish qismi esa aynan milliy ladlar koloritini ochib beradi. 4\4 o‘lchovidagi asosiy mavzu boshlanganda esa milliy,

mumtoz va akademik yo‘nalishlar birlashib, milliy estrada ko‘rinishini mujassam etgan. Qo‘shiq solosi musiqiy jihatdan daryo to‘lqini kabi mavjlanadi hamda naqorat qismida xor jamoasining birga kuylashi qo‘shiq mazmunini ochibgina qolmay, kuyning fakturasini kengaytiradi va xuddiki, xalq birlashsa katta kuch degan mazmunni to‘liq ifoda etadi. Qo‘shiqning she’ri va musiqasi soddaligi bilan eshituvchiga oson yetib borishi va tez tushunishi uchun zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti Yulduz Usmonova esa ushbu qo‘shiqni yurakdan, mohirona ijro etganligi tinglovchilarning hissiyotlarini uyg‘otib, vatan tuyg‘usini jo‘sh urdiradi.

Muhammad Yusufning Vatan tashbehidagi fikrlari ham sodda, ravon, tushunarli, yoqimli: “Osmonga bo‘y cho‘zgan oqterak o‘lkam!”, “O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga, Rimni alishmasman bedapoyangga”. U Vatanni o‘ziga hos tasavvur qiladi va ajoyib tashbehlarga qo‘l uradi:

*Sen – shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O‘g‘lim deb, bosh egib turgan chinorim,
Qo ‘ynimdagи iftixorim,
Bo ‘ynimdagи tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!*

Bu qo‘shiqlarni eshitgan o‘zbek farzandining ko‘zida yosh qalqiydi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sevara Nazarxon tomonidan ijro etilgan bu qo‘shiq yuraklarni jumbushga keltirib, ko‘ngilda shukronalik hissini uyg‘otadi. Chunki, she’r mazmunini birinchi o‘ringa qo‘yuvchi bu xonanda tinglovchiga shu she’r ma’nolarini yetkazib berishni xohlagan va buni uddasidan chiqqan. Kuyning sokinligi, birinchi mavzu bayon etilgandagi ritmik ko‘rinishi musiqani yanada jonlantirib, asosiy tonlikni namoyon etadi. Solist ovoziga hamohang harakatlanayotgan ikkinchi ovozlar goh tersiya bo‘ylab harakatlansa, goh kvinta harakatlanib, ikkinchi mavzuni bayon etadi. Kuy estrada yo‘nalishidaligiga qaramasdan, halq cholg‘ulari ijrosidan foydalanilganligi alohida ahamiyat kasb etgan.

Aynan sato cholg‘usi solosi esa asarda maqomlar ohangini eslatadi va sato vositasida ulanib ketgan modulyasiya qo‘sishqqa o‘zgacha nur bag‘ishlab, xuddiki yangi zamon, yangi davron, erkin hayot, mustaqillikni ifoda etayotgandek, milliy qadriyatlar esa abadiy ardoqlanishini ovoza qilayotgandek tuyuladi.

Filologiya fanlari doktori, professor Abdug‘afur Rasulov Muhammad Yusuf she’riyati haqida shunday yozadi: “Ohangdorlik shoir she’rlarining joni-jahoni, sho‘xsha’n xatti-harakatlari boisi, bastakorni chorlaydigan tilsim. Bastakor shoir bolidan holva yasaydi”.

Erka, erk, erkalash, lolaqizg‘aldoq, jayron, yalpiz, rayhon, maysa singarilar shoir she’riyatining yetakchi so‘zlari, ohang taratuvchi manbalaridir. Ayni paytda nozik so‘zlarda teran ma’no, o‘rtovchi tuyg‘u bor. Avvalo, shoirning “Jayron” she’ridagi misralarga, undan keyin esa o‘z qalbingizda tug‘yon ura boshlagan tuyg‘ularga e’tibor bering:

*Labim bilan yarang silayman,
Senga dardi shifo tilayman,
Kel, tug ‘ishgan og ‘ang bo ‘lay man,
Jayron, nega ko ‘zing to ‘la yosh?*

Jayron, deya aslida kimga murojaat qilinyapti? Jayron aslida jayronko‘zli oy qizlar emasmi? She’rni to‘laligicha o‘qib chiqsangiz, zahmatlardan qaddi bukilgan, hayot tashvishlari ostida qolgan juvonlar ko‘z oldingizga keladi, qoladi. She’rda esa ana o‘sha qiz-juvonlarga atalgan bir dunyo mehr mujassamlangan.

Shoirning tantiligi, chapaniligi, soddaligi, tabiatga muhabbat “Oq qo‘chqor”, “Qarg‘a”, “Munchoq”, “Qaldirg‘och”, “Cho‘loq turna”, “Jayron”, “Erka kiyik” nomli bir qator she’rlarida ham aks etgan.

“Ko‘klamoyim”. Bu she’r G‘iyos Boytoyev ijrosida ajoyib qo‘sishq bo‘lib yangradi. Ko‘klamoyim... O‘zbeklarda “oyim” atamasi hurmatli, o‘qimishli, obro‘li ayollarga nisbatan ishlatiladi. Ko‘klam ham Allohning ulug‘ inoyati. Yangilanishlar debochasi. Ehtimol, shuning uchun ham shoir bahorning ilk kunlariga nisbatan “Ko‘klamoyim” tashbehini ishlatgandir...

Sochimda oq, men bahordan o ‘tindim:

*Ko 'klamoyim, ko 'kingdan ber bir chimdim,
Qor qo 'ynida seni qo 'msab o 'kindim,
Ko 'klamoyim, ko 'kingdan ber bir chimdim...*

Eslaysizmi, bir zamonlar erta bahorda onalarimiz, buvilarimiz yangi unib chiqqan maysani ko‘zlariga surib “omonliq, somonliq” qilganlar. Yangi kunlarga yetib kelganlari uchun shukronalar aytganlar. Bu qo‘shiqni tinglab, ilk bahorning hayrli tashvishlari bilan yurgan onaxonlar, atlas ko‘ylaklarida yal-yal tovlanib arg‘imchoq uchayotgan qizlar, yalpiz izlab dalalarda chopayotgan bolakaylar, ot minib, ko‘pkarida ishtirok etayotgan yigitlar, sumalak qaynayotgan qozonlar, gullayotgan bog‘lar, gullardan shira olayotgan bolarilar, val fajr aytayotgan qaldirg‘ochlar, shaldirab oqishni boshlagan soylar ko‘z oldingizda gavdalanmaydimi? Bu she’r, bu qo‘shiq sizni milliy qadriyatlarimiz sari yetaklaydi. Qo‘shiqdagi vals tempida keluvchi 3\4 o‘lchovi bahor haqida kuylangan xalq qo‘shiqlarining andozasidan olinganga o‘xshaydi. Bu qo‘shiqda naqorat bo‘lgani bilan maqom ohanglari asosida yaratilgani ko‘rinib turibdi, ya’ni maqomlarda rivojlanuvchi daromad, miyonxat, avj va furovardga o‘xhash, tonikadan boshlangan kuy naqoratdan keyin kvintadan ijro etiladi. Tonikaga qaytib, musiqiy pauzadan keyin septimadan ijro etiladi. Keyingi qism esa xuddi avjga o‘xhab oktavadan davom etadi va yana naqoratlar kuylanib tonikaga qaytadi. O‘zbek milliy mumtoz ashulalari singari bu qo‘shiq ham o‘z milliy kolorit ohanglari rivojlanishini asar davomida ifoda etadi. Demak, bu asarni ham Muxammad Yusuf ijodidagi milliy qadriyatlarning bir namunasi sifatida olish mumkin.

Yonimizda qanday buyuk odamlar yurganini, qanday iste’dodlar mavjudligini sezmaymiz. Muhammad Yusuf ham o‘zbek adabiyotiga chaqmoq bo‘lib, olov bo‘lib kirib kelganini hech kim sezmay qoldi. Bu haqda O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov shunday yozib qoldirgan ekan: “Muhammad Yusuf degan shoir she’riyatga qanday kirib kelganini adabiyotimiz sezmay ham qoldi. Ammo u tezda, hammani hayron qoldirib, og‘izga tushib ketdi. Uning ijodi haqida gap ketganda, ko‘pincha qo‘shiqlarini tilga oladilar. U qo‘shiq yozgan ham, o‘zining qo‘shiqchi

shoir hisoblagan ham emas. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb mavzuda o‘ta jiddiy, ammo xalq diliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan”.

Darhaqiqat, uning yozganlari xalq diliga juda ham yaqin. Chunki bu bitiklar milliy qadriyatlarimizga asoslanadi. Xuddi ana shu jihat bilan qo‘sishqlarga aylanib ketadi. Shunchaki qo‘sishqqa emas, bir eshitib, keyin esdan chiqib ketadigan qo‘sishqqa emas, aksincha “shedevr” asarga aylanadi. Bu jihat bilan qo‘sishqchilikni ham yuqori pog‘onalarga ko‘tara oldi, desak mubolag‘a bo‘lmash. Ehtimol, kimdir shoirni mashhur qilgan xonandalar bo‘ladi, deb aytar. Yo‘q, aslo unday emas, Muhammad Yusuf qo‘sishqlari bilan emas, avvalo xalq dardini baralla ayta olgani, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ifodalay olgani bilan tanildi. Xuddi Ozod Sharofiddinov aytganidek, “Uning oson yoziladiganga o‘xshab ko‘ringan misralari muxlislarini yig‘latadi, kuldiradi, o‘z og‘ushiga tortib oladi.”

Taniqli yozuvchi, shoir Muhammad Ali esa: “Muhammad Yusuf she’riyatining eng oliy fazilati, fikrimcha, bu uning sof va pok samimiyatida mujassamdir. Samimiyat, xalqona ruh uning she’rlarini jilolantirib, bezab, ularga betakror ko‘rku tarovat bag‘ishlaydi” deydi.

Sirojiddin Sayyid haq gapni aytgan: “Uni el rag‘batiga sazovor etgan - she’rlari, dehqon qo‘lidagi nonday jaydari va soddavash she’riyati. Ularda da’vo yo‘q, o‘ziga mahliyolik va bodilik yo‘q. She’rlar - ko‘ngil bog‘ining shavq shamollarida shovullab to‘kilgan yaproqlaridir.”

Shoir 1998-yilda O‘zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo‘ldi. U O‘zbekistondagi eng yosh xalq shoiri edi. Afsus, ming afsuski, Muhammad Yusuf 2001-yilning 31-iyulida yurak xurujidan vafot etdi. Mustaqillikning ilk davrlaridayoq “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston”, deya kurash maydoniga tushgan, Istiqlolni baralla kuylagan, vijdoni uyg‘oq ijodkor Muhammad Yusufning hayot yo‘li, ijodi va qizg‘in ijtimoiy faoliyati yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Uning milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni, xalqimiz ma’naviyati, ongu tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini kamol toptirish borasidagi xizmatlarini inobatga olib, 2013-yilning 27-

dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi hamda shoirning tavallud ayyomi milliy adabiyotimizning haqiqiy bayrami sifatida tantana qilindi.

“O‘zbekkino” Milliy agentligi qoshidagi Yoshlar tajriba ijodiy 5-studiyasi esa O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning 60 yilligiga bag‘ishlab “Bu yorug‘ dunyoda o‘chmas chirog‘im” hujjatli filmini suratga oldi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf “Saylanma”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent 2001-yil.
2. “Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida” Muharrir U.Qo‘chqorov – toshkent, “Adib” nashriyoti, 2014-yil.
3. <http://uzas.uz/articles/1516/>
4. Muhammad Yusuf “Erka kiyik”, Farg‘ona “Yozyovon”, 1992-yil.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
6. <https://saviY.uz/ijod/nazm/muhammad-yusuf-sherlaridan>

**Nigora Saydaxmedova,
Namangan viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi**

“IKKI QISMLI KUNDALIK ” METODI ASOSIDA MUHAMMAD YUSUF SHOH SATRLARINI O’RGATISH

Annotatsiya

Maqolada shohbayt tushunchasi va uning ko‘rinishlari, sharq she’riyatidagi mashhur shohbaytlar haqida fikr yuritilib, Muhammad Yusuf shoh satrlarini yangi metod asosida o‘rgatish va she’r badiiyati va shoir mahorati jihatidan tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: shohbayt, tashbeh, talmeh, ma’no, ifoda, mahorat, badiiyat.

Аннотация

В статье обсуждается концепция шахбайта и его проявлений, знаменитого шахбайта в восточной поэзии, и анализируется Мухаммад Юсуф с точки зрения обучения царским стихам по новому методу, искусству поэзии и мастерству поэта.

Ключевые слова: шахбайт, ташбех, талмех, значение, выражение, мастерство, искусство.

Annotation

The article focuses on the concept of shahbayt and his views, views on the famous shahbayt in eastern poetry, the teaching of the lines of the King by Muhammad Yusuf on the basis of a new method and analyzes in terms of poetry fiction and poet skills.

Key wordas: king, tashbeh, talmeh, meaning, expression, skill, art.

Ma'lumki, sharqda badiiy so'zning nufuzi nihoyatda baland bo'lgan – favqulodda tashbehlar, kutilmagan iboralar, nafis lutflar, nozik qochirimlar juda qadrlangan, badiiy kashfiyot darajasidagi she'r va baytlar tildan-tilga, kitobdan-kitobga ko'chib yurgan. Shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy jihatdan mukammal, she'rning asosiy mohiyati, yetakchi g'oyasini o'zida mujassam etgan baytlar mumtoz adabiyotda "shohbayt" deb yuritilgan. "Shohbayt qasida yoki g'azalda o'zining salmoqli ma'nosi, jozibali yorqin uslubi bilan boshqa barcha baytlardan ajralib turadi. Bugungi zamonaviy adabiyotimizni kuzatar ekanmiz, avvalgi shohbaytlar bilan bo'ylisha oladigan misralar borligi juda quvonarli. Shunday shoh satrlar sohibi shoir Muhammad Yusufdir. Asrlar osha shaklan o'zgargan bo'lsada, g'oyalar o'sha-o'sha. Oddiylik, soddalik shoir she'riyatining qo'ridir. Shoир Shavkat Rahmon xotirasiga bag'ishlangan "lolaqizg'aldoq" she'rida:

Mendan nima qolar,

Ikki misra she'r,

Ikki sandiq kitob,

Bir uyum tuproq...

Aslida shoirdan bir uyum tuproq emas, Muhammad Yusuf degan she’riyat qoldi-ku. She’rning poydevori bo’lgan bu satrlar keyingi misralarga mas’uliyat bilan yondashib, go’zal va barkamol chiqishiga asos hisoblangan. Odatda, shoir ilk misralardan qanoat hosil qilmay turib she’rning o’ziga kirishmagan. Ichki bir qoniqishdan so‘ng esa, shoh satrlarni shoir she’rning istagan qatoriga joylay olgan. Shoirning xalqqa yaqin va sevimli qilgan eng asosiy omillardan biri ham ayni shunda.

Biz ko‘pincha atrofimizdagи ulug‘ insonlarni payqamaymiz-u, qanday zotni yo‘qotganimizni ular bu dunyodan o‘tib ketganlaridan so‘ng daf’atan sezib qolamiz.

Jim qolasan... Endi shuhrat ham,

She’r ham seni qiziqtirmaydi.

Qabring uzra egilar boshlar,

Hayajonli nutqlar yangraydi:

“Og‘aynilar!

Shoir o‘lmaydi!

Muhammad Yusuf haqgo‘y shoir edi. U tarix dardlariga qulog‘ini kar, zamon muammolariga ko‘zini ko‘r qilib yasholmadi. U butun vujudi ko‘z bo‘lib, tarixning ayanchli manzaralarini kuzatdi, o‘qidi, o‘rgandi, butun jismi quloqqa aylanib, xalqi tarixining nola-faryodini tingladi. Ulkan bir yurakka do‘nib, odamlar qalbini his etdi va qaynoq ilhom bulog‘i bo‘lib qog‘ozga yog‘ildi – evrilayotgan zamon surati, ayniyotgan tarixiy jamiyat qiyofasi, ikkiyoqlama zulm ostida ezilgan xalq qismati shoir asarlarida bor bo‘yi bilan namoyon bo‘ldi. Shoirning dardi iztirob iskanjasida:

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,

Ana, yurishibdi kiyganlari zar.

Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar –

Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor.

satrlari dunyoga keldi. Yana bir she’rida: Boburga ilinsang, menga qovun so‘y, Cho‘lponni sog‘insang, meni quchoqla”, eh, tassanolar aytish bilan birga aqling shoshib qoladi. Mahmud Toir “Sukutdagi sadoni tinglay olgan odam asl shoirdir”¹ - deya Muhammad Yusufga aytgandek. U nafaqat olis tarix sadosini, haqiqatini o‘zi

¹ Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. –Toshkent, “DAVR PRESS”, 2019 y.

tingladi, balki hech qanday hayqiriqsiz, barcha ma’no qirralari bilan yuqoridagi baytlar bag‘rida xalqiga yetkazdi.

Dilkash shoirning tabiatga ham mehri boshqacha:

Umrimizning barcha yo‘li, so ‘qmog‘i cho ‘g‘,

Cho ‘g‘dan qo‘rqma, beyuz qo‘ygan qopqondan qo‘rq.

Bu dunyoda senga do‘st yo‘q, menga do‘st yo‘q,

Erka kiyik, maylimi bir erkalasam.

Demakki, tiynati buzuq, yaramas, razil kimsalarning shum niyati insonga ham, jonzotgalarga ham yetib ortishi mohirona chizilgan. Tagi past, asli yomon bu tuban toifadan na inson, na hayvon qochib qutiladi. Chorasizlikdan faqatgina qora qismatlar ochib berilgan xolos. Shoirning ko‘rib o‘tganimiz satrlarida har bir jonzotni, har bir nabototni asrash bu insonning o‘zini, qalbini, ayni damda Vatanini asrash ekanligini tushunib, she’r mazmunidagi boshqa baytlar ham qavat-qavat ma’no qirralariga egaligi va badiiy salmog‘iga ko‘ra bemalol shoh satrlar sirasiga kiritish mumkinligini his qilamiz.

Shoir “qon yurak” bilan shunday deydi, aslida tagi past, nokas kimsalarga shaxsmi, jonzotmi farqi yo‘q, ular ko‘ngil ko‘zgusini xira torttiribgina qolmay, uni birato‘la chil-chil ham qila oladilar.

Ular iblis bilan tili bir o‘rtoq,

Ular Azroilga sodiq choparlar.

Avval Usmonlarni sotib, keyinroq

Faryod ko‘targan ham –

Laganbardorlar.

Yov nadir? Zo ‘r kelsa o‘ldiradi yov,

Bular qon so‘raguvchi iskabtoparlar.

Qahhorni qandkasal,

Oybekni soqov

Qilib qo‘yganlar ham –

Laganbardorlar.

Ko‘ngil zadalik, davomiy, zalvarli og‘riqlar bilan tarixdan shikoyat ohanglariga yo‘g‘rilganiga qaramay, bu misralar o‘zida teran hayotiy haqiqatni yorqin aks ettirgani bilan badiiy barkamollik kasb etgan.

Barmoq vazni qoidalariga muvofiq jaranglayotgan misralarga qarang “Ko‘zimni yoshini keladi ichgim, Tilimni chaynagim Kelar gohida”, “Yumalab yotaman ilonlar bilan. Ularga ishondim Bir yordan ko‘proq... Mushohada qilsak, an’anaviy etikada aslo ilon bilan yotish-u, chayonni chaynashga yo‘l qo‘yilmaydi,- deydi I.Haqqul. Bularni aksi bo‘lmog‘i kerak. Bu yerda shoir mubolag‘a san’atini haddi a’losiga yetkazgan. Shunday oddiy so‘zlar va oddiy narsa vositasida shunday chuqur fikrni ifodalash mumkinligiga ishonmaysan kishi. Lekin shoir buning uddasidan chiqadi: bu iste’dod kuchi, mahorat mevasi. Jahon she’riyat nasimi o‘zbek she’riyati bog‘ini allaqachon kezib o‘tib, daraxtlari hosil bergenini guvohi bo‘lyapmiz.

Yuqorida tahlilga tortilgan satrlarni “Ikki qismli kundalik” texnologiyasi asosida o‘quvchilarga o‘rgatish ma’qul bo‘ladi. Ushbu metod chizmasini e’tiboringizga havola etamiz. Bu pedagogik texnologiya bo‘lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi. 1-bosqichda o‘quvchi she’rni o‘qib chiqadi. 2 - bosqichga ko‘ra, daftalarini vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lib, 3-bosqichga ko‘ra chap tomoniga muallif g‘oyalari – Har kimning ham sochlariga oq tushsin , Ajin tushsin yuzlariga, dog‘ tushsin kabi so‘zlarni yozishlari aytildi. 4-bosqichga ko‘ra, o‘ng tomoniga o‘quvchi mazkur so‘zlar izohini yozadi, ya’ni o‘qilgan she’r haqidagi fikrlarini umumlashtirib aytadi. Bunda o‘quvchilar guruh bo‘lib ishlashlari ham mumkin, sinfda va sinfdan tashqari o‘qish paytlarida amalga oshiriladi. Metod qo‘llanganda:

*O‘qitish mazmuni yaxshi o zlashtirishga olib keladi, tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

*Har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil fikr yuritishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

*O‘qitish mazmuni yaxshi o zlashtirishga olib keladi.

*O‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materiali yaxshi esda qoladi.

Har kimning ham sochlariga oq tushsin, Ajin tushsin yuzlariga, dog` tushsin. Har kimning ham quvvat ketib belidan, Qo'llariga aso-bir tayoq tushsin.	Tilakni qarang! Oqil, odil odamlar Yaratgandan o'ziga tilagan ezgu niyatlarni o'zgalarga ham ilinib yashaydi. Baxt tilashdan oson niyat yo'q. Baxtli bo'lish uchun kurashishni hamma ham eplay olmaydi
Shoir fikri	O'quvchi fikri

Ma'lumki, o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiya metodlaridan foydalanib shoir sher'larini o'rgatar ekan, pedagogik motivlar: ehtiyoj, manfaat, maqsadlar o'ziga xos bog'liq ekanligini unutmasligi lozim. Ma'lum bo'ladiki, tahlilga tortilgan satrlar ayni paytda shoir mahoratining o'zgacha namoyishi, iste'dod qudratini belgilovchi o'ziga xos mezon hamdir. Xulosa qiladigan bo'lsak, shoirning qalbi olov edi. U bir marta yondi-yu, avlodlar qalbiga payvand bo'lib, mangu alanga oldi. Vatan "tuprog'idan terib olingan, chag-g'uborini qoqa-qoqa" betakror satrlarni yana xalqiga taqdim etganligi shubhasiz muallifning katta mahoratidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: „DAVR PRESS”, 2019.
2. Atoyi. Jondan aziz jonona (Tuzuvchi, so'zboshi va izohlar muallifi: E.Ochilov). – Toshkent: „Sharq”, 2011, 122-bet.)
3. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq (Fors tilidan Komiljon Rahimov tarjimasi). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi.
4. Haqqul I. Mushohada yog'dusi. Adabiy o'ylar (To'plab nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi: E.Ochilov). – Toshkent: „Fan”, 166-bet.
5. Muhammad Yusuf. Xalq bo'l elim. – Toshkent: „O'zbekiston”, 2018.
6. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: „Sharq”, 2019.

To‘lg‘anoy Mamatqulova,
O‘zDSMI “O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrasi o‘qituvchisi

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MILLIY RUH

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’rlaridagi odob-axloq masalalari haqida yozilgan. Uning farzand tarbiyasida ota-onaning o‘rni, qizlarimiz va yigitlarimizda shakllanishi kerak bo‘lgan turli xil fazilatlar haqida yozgan she’rlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: odob-axloq, ma’naviyat, farzand tarbiysi, yuksak fazilatlar, kattaga hurmat, kichikka izzat.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы нравственности в стихотворениях Мухаммада Юсуфа. Его стихи посвящены роли родителей в воспитании детей и различным качествам, которые должны формироваться в наших дочерях и сыновьях.

Ключевые слова: нравственность, духовность, воспитание детей, высокие качества, почитание старших, уважение младших.

Annotation

The article deals with the issues of morality in the poems of Muhammad Yusuf. His poems are dedicated to the role of parents in raising children and the various qualities that should be formed in our daughters and sons.

Key words: morality, spirituality, raising children, high qualities, respect for elders, respect for younger ones.

Muhammad Yusuf xalqimizning suyukli shoiri. U o‘zbek adabiyotida so‘nmas yulduzi bo‘lib har bir dillarda porlaydi. Aytishlaricha, Muhammad Yusufgacha o‘zbek adabiyotida yaqin yuz yil orasida bunday mashhurlik Cho‘lpon va Usmon Nosir kabi shoirlargagina nasib etgan edi. Uning deyarli har bir she’ri

qo'shiqchilarimiz tomonidan qo'shiq qilib kuylangan. Bugungi kunga kelib Muhammad Yusuf ijodi kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. U eng xalqparvar shoir sifatida xalqimiz o'rtasida yaxshi nom qozongan, o'z she'rlarida xalqimizning mehnatsevarligi, tanti va olivjanobligini madh etgan. Muhammad Yusuf o'z she'rlarida turli mavzularda qalam tebratgan: Vatan, sevgi, urush, oila, tabiat kabi mavzularda yozilgan she'rlari bilan o'quvchilarning qalbiga ozgina bo'lsa ham yaxshilik urug'ini sepmoqchi bo'lgan. Muhammad Yusuf nafaqat millatimiz vakillarining bunday fazilatlarini ulug'lagan, balki barcha birdek o'rnak oladigan odob-axloq masalalarini ham yuksak mahorat bilan aks ettirgan. Misol uchun uning quyidagi "O'zbek qizlari" she'ri boshdan-oyoq odob-axloq ruhida yozilgan deb bemalol ayta olamiz:

Bu Momo Havodan ularga odat:

*Ushlasa gul ushlar qo'lini faqat,
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin
O'psa faqat shamol o'par yuzlarin.*

*Ko 'ngli daryoday keng, mehri ulug 'vor
Dugonasi Hayo, dugonasi Or
Ayting, farishtadan nima farqi bor
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin?.. [1, B 96].*

"O'zbek qizi" degan so'zni eshitgan har bir inson xayoliga hayo va iboga to'la, adres va atlaslarga burkangan, bellarida qirqta kokili shoda-shoda marvariddek tovlanayotgan farishtadek parilar keladi. Chunki ular Momo Havoning qizlaridir. Biz ularni qancha maqtasak, qancha ko'klarga ko'tarsak shuncha oz. Nazarimda, ularning or-nomusi, hayo va iboga to'la qalbi hamda odob-axloqqa to'la tarbiyasini hech qanday xazinaga almashib bo'lmaydi. Shoir ushbu she'ri bilan nafaqat o'zbek qizlariga maqtov keltirgan, balki ba'zi bir o'zi o'zbek bo'lsa-da, yurish turishidan tortib to kiyinishigacha yevropalashib ketgan qizlarga tarbiya ham bermoqchi bo'lgan. Yuqorida keltirilgan she'rni o'qigan har qanday kitobxon o'zbek qizlaridagi tarbiya va odob-axloqning yuqori darajasiga guvoh bo'ladi va bu she'rni o'qigan har

qanday qiz o‘ziga o‘rnak oladi. Ota-onalar farzandlariga yoshligidan kattalarni hurmat qilishni, kichiklarni izzat qilishni qunt bilan o‘rgatib kelishgan. Ushbu so‘zlarimning dalili sifatida yuqoridagi o‘zbek qizi, o‘zbek farzandi haqida yozilgan she’rni o‘qishimiz mumkin. Farzandlarini ushbu illatlardan holi qilib tarbiyalagan ota-onalarga tassannolar aytsak arziydi. Millatining kelajagi, vatanining ravnaqiga befarq bo‘lmagan har qanday ota-onsa o‘z farzandlarini yuksak madaniyatli qilib tarbiyalaydi.

Bizning millatimizda odob-axloq tushunchalari doimo yuksak pog‘onalarda turadi. Shuning uchun ham maktablarimizda nafaqat ta’lim, balki tarbiya ham yosh avlodlarga birday o‘rgatib kelinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi so‘zlaridan ham yosh avlod tarbiyasiga, ularning odob-axloqiga naqadar katta e’tibor berilayotganini bilishimiz mumkin: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir masala – bu yoshlарimizning odob-axloqi, yurish-turishi, ularning dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlар. Mayli, yoshlар o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasligi lozim. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doim aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobida erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.” Yuqorida keltirilgan so‘zlar bilan uyg‘un holda she’rlar yoza olgan buyuk shoirimiz – bu Muhammad Yusufdir.

Bir qo ‘lda belanchak, bir qo ‘lda Qur’on,

Bir yelkada ketmon, birida iymon.

Barchaga barobar oftobsimon,

Yashnasin olam deb yashaydi, O‘zbek! [2, B 107]

Yuqorida keltirilgan parcha Muhammad Yusufning “O‘zbek haqida ballada” she’ridan olingen bo‘lib, yoshlарimizga bitmas-tuganmas tarbiya berishda, odob-axloqli bo‘lishlarida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. She’rda Qur’on hamda iymon tushunchalarining qo‘llanilgани fikrimizning yorqin isbotidir. Dinimizda odob-axloqning bosh kitobi hisoblangan Qur’oni karimdan hali hanuz yoshlарimizga

tarbiya berishda, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda asosiy tayanch qo‘llanma sifatida foydalanib kelinmoqda. Shunday ekan, yuqorida namunasi keltirilgan she’rni ham odob-axloq ruhida yozilgan deb bemalol ayta olamiz.

Nima deysan, ey, g‘ayur inson?

G‘iybatlaring qildi meni qon.

Sen ham bir kun o‘tursan, inon,

Mehr qolur, muhabbat qolur [3, B 56].

Mehr va muhabbat tushunchalari o‘zbek xalqi bilan birga yashab kelayotgan tushunchalardir. Shoirning aynan “Mehr qolur, muhabbat qolur” nomli she‘r yozganligi ham biz yoshlarga yuksak o‘rnak namunasi bo‘la oladi. She‘rda aytilganidek, yaxshi va yomon insonlar dunyodan o‘taveradi, ammo ulardan faqatgina mehr va muhabbat qoladi. Bu esa barchamizni bir-birimizga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lishimizga da‘vat etadi. Muhammad Yusuf o‘z she‘rlarida yetti yoshdan yetmish yoshgacha barcha insonlarga ta’sir qiladigan, o‘ylantiradigan mavzularda qalam tebratadi. Uning ushbu “Shukr deysan sen qachon?” she‘ri nafaqat yoshlarning, balki yoshi katta insonlarning ham ko‘nglini bir seskantirib hayotida qilgan xatolarini eslatib o‘tishga majbur qiladi. Sababi inson yoshligida qancha xatolar qiladi buni o‘zi tushunib yetmaydi. Yoshi o‘tib borgani sari qilgan xatolarini o‘ylab tavba qila boshlaydi, Allohdan qilgan gunohlari uchun avf so‘rab ko‘rsatgan kuniga shukronalar aytadi. Yozuvchi bu she‘ri bilan inson mol-dunyoga o‘ch bo‘lmay, yolg‘on dunyoga aldanib qolmay, hayotida doim boriga shukr qilib o‘tishini o‘quvchiga uqtirmoqchi bo‘ladi.

Ta‘magirni tortqilab,

Nafsi qo‘ymas deydilar.

Nokas o‘zi to‘ysa ham,

Ko‘zi to‘ymas deydilar.

Boq bir yorug‘ olamga

Kimlar zo‘rg‘a kun ko‘rar,

Odamlar bor, bog‘dagi

Bulbuldan ham pul so ‘rar [4, B 78].

Muhammad Yusufning deyarli har bir she’rini tahlil qilish jarayonida shunday holatga duch kelamiz. Uning samimiylari va xalqona ohanglarida tarbiya va odob-axloq masalalarining uyg‘unlashib ketgani esa bizni bag‘oyatda xursand qiladi, kitobxonni yanada ko‘proq mutolaa qilishga va Muhammad Yusuf ijodini chuqurroq o‘rganishga chorlaydi. Muhammad Yusufni har biri oltinga teng ijod mahsuli borki, uni bu maqolamizda tilga olmasak, hech ham bo‘lmaydi. Shoirning ushbu “Talabalar madhiyasi” she’ri bizning nazarimizda boshdan-oyoq pand-nasihat, ta’lim-tarbiya va yoshlarni ilmiga undash ruhida yozilgan. Bu she’rni o‘qigan har qanday yoshlarning ta’lim olishga bo‘lgan ishiyoqi ortib boradi, ushbu she’r nafaqat yoshlarni, balki yoshi katta insonlarning ham bola bo‘lib, yana bilim olib o‘qish orzusini tug‘ilishi hech gap emas.

Alp o ‘g‘lonlar o ‘lkasi bu ko ‘hna Turon,

Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.

Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,

Alisherning avlodlari, ilm istang [5, B 13].

She’rimizdan ko‘rinib turibdiki, Muhammad Yusuf o‘z o‘quvchilarini nafaqat o‘qishga undab nasihat qilmoqda, balki Alisherning, Sohibqironning avlodlari ekanligini ta’kidlamoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Muhammad Yusuf ijodi xalqimiz mushtariylari tomonidan mana yillardirki sevib mutolaa qilib kelinmoqda va umid qilamizki, bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Muhammad Yusuf ta’lim-tarbiya mavzusida bekorga shunday ko‘p, shunday ma’noli, shunday ta’sirchan she’rlar yaratmagan. Bu esa uning ijodi xalqimiz qalbidan mustahkam o‘rin olganligini bildiradi. Muhammad Yusufning boqiy ijodi kelajak avlodlarimizga ham birdek manzur bo‘ladi va uning ijodini yangi qirralarini kashf qilishdan hech qachon charchashmaydi deb umid qilamiz.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 2017.

2. Muhammad Yusuf. “Bulbulga bir gapim bor” she’rlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
3. Muhammad Yusuf. “Uyqudagি qiz” she’rlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.

**Musinov Ulug‘bek,
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi”
kafedrasи o‘qituvchisi**

MA’RIFATLI SHOIR IJODIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARIGA E’TIBOR

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ijodida ustoz-shogird an’analari, ta’lim-tarbiya sohasida she’riyatning o‘rni haqida yozilgan. Uning eng yaqin ustozlari va shogirdlari bildirgan fikrlardan iqtiboslar keltirilgan. Maqoladan shoirning qalamiga mansub she’rlaridan namunalar ham o‘rin olgan.

Калит сўзлар: феномен, шоир, устоз-шогирд, адабиёт, келажак, ёзувчи, шеърият, маърифат, халқона шоир.

Аннотация

Данная статья посвящена педагогическим традициям ученика-учителя в творчестве народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа, роли поэзии в воспитании. Из мнений, высказанных его ближайшими учителями и учениками, приводятся слова. В статье приведены образцы стихотворений, принадлежащих перу поэта.

Ключевые слова: феномен, поэт, учитель-ученик, литература, будущее, писатель, поэзия, просвещение, народный поэт.

Annotation

This article is written about the teacher-learner traditions in the work of the people's poet of Uzbekistan Mukhammad Yusuf, the role of poetry in education. From the views expressed by his closest teachers and his apprentices are quoted. From the article, samples of poems belonging to the poet's pen were also found.

Key words: phenomenon, poet, teacher-shogird, literature, future, writer, poetry, enlightenment, folk poet.

Adabiyot xalqning ruhiy olamini, ichki dunyosini so‘z vositasida ohib beradigan, kishilarni ruhlantira olishga, qanotlantirishga qodir buyuk bir san’at. U insonning kasbidan qat’i nazar, barchaga birday aziz hisoblanadigan ne’matdir.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning shaxsi, fenomeni, avvalo uning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Shoир ijodi alohidaligi, betakrorligi bilan farqlanadi. Shoirlar “asl she’rni oddiy so‘zlar bilan ifodalab bo‘lmaydi” deyishadi. Lekin oddiy fe’li, oddiy so‘zlari bilan ko‘ngillarni zabit etgan shoир o‘zining kisqa, ammo mazmundor umri va ijodiy faoliyati davomida boy adabiy meros qoldirdi. Vatan ozodligi, xalq baxti, yurtning nurafshon kelajagini yonib kuylagan iste’dodli shoirning asarlari millat e’tirofiga sazovor bo‘ldi va qalblardan chuqur joy oldi. Uning ustozlari, ijodkor do‘satlari, shogirdlari va shoirni yaqindan bilgan insonlar xotiralarida shoirning siyрати va surati aks etgan. Uning shoirona iste’dodiga sayqal berib, o‘z maslahat va yordamini ayamagan ustozlari Abdulla Oripov, Nazir Safarov, Asqad Muxtor, Tohir Malik, Alibek Rustamovlar katta ahamiyat kasb etdi.

Ustozlar izidan, safdoshlari bilan yonma-yon Muhammad Yusuf ham, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z she’rlari bilan nurli ko‘priklar solib, yangi yorug‘ yo’llar ochishga muvaffaq bo‘ldi.

Shoir Shukur Qurbon shundan bayon qilgan: “Yozuvchi Tohir Malik “Sharq yulduzi” jurnalining mas’ul kotibi edilar. Ko‘pchilik shoirlar qatori Muhammadjonning she’laridan bir dasta tayyorlab, akaning hukmiga havola etdim. Tohir aka ularni o‘qib, iliq fikr bildirdilar.

Keyin qo'shimcha qildilar:

- Lekin imzosini o'zgartiramiz.
- Imzosini? Nega? – hayron bo'ldim.
- “Muhammad Yusupov” emas, “Muhammad Yusuf” imzosi ostida e'lon qilamiz bu she'rlarni.
- Qanday bo'larkin?
- Yaxshi bo'ladi: “Muhammad” ham “Yusuf” ham payg‘ambarimizning ismlari.

Ularga “ov” qo'shimchasini qo'shib o'zimizdan begonalashtirmaylik.

Men bu fikrga qo'shildim.

“Buyuk ajdodlarimiz betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak... Biz ma'rifat borasida ta'bir joiz bo'lsa “iligi to'q” xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda bor” [6], - dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ma'rifatli shoir Muhammad Yusuf ijodini chuqur o'rganish, yosh ijodkor bolalarni tarbiyalash borasida davlat darajasidagi ishlar olib borilmoqda. Adabiyot, ma'rifat, ma'naviyat bugun o'sib voyaga etayotgan avlodlarimizni tarbiyalab, kelajak uchun, millatimiz, butun xalqimiz rivojining hal qiluvchi kuchi deb qaraymiz.

2017-yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyotni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab internati tashkil etilgani “yosh nosirlar”, “yosh dramaturglar”, she'riyat shaydolari kabi to'garaklar orqali ustoz shoirlarning nazmiy asarlariyu, nasriy ijodlarini o'rganishmoqda.

“Ko'pchilik ziyorilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'layman: mamlakatimizda uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Ular “Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas”, degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar”[6].

Muhammad Yusuf ham ilm o'rganish muhim ish ekanligini yana bir bor yosh avlodga “Talabalar madhiyasi” nomli she'ri bilan yetkazib berdi:

*Alp o ‘g ‘lonlar o ‘lkasi bu ko ‘hna Turon
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.
Yarim jahon buniyod etgan Sohibqiron,
Alisherning avlodlari ilm istang!*

Shoir har bir ilm – ma’rifatdan libos kiygan she’rida albatta, Sohibqiron Amir Temur va Alisher Navoiyni alohida hurmat bilan tilga oladi. Uning tarixga bo‘lgan qiziqishi, millat bolalarining ma’naviyatli, ilmli bo‘lishni tarixda yashab o‘tgan milliy qahramonlarimizdan o‘rganishimiz lozimligini yozadi.

*Taxtdan tushganda ham otdan tushmay yurgan,
Ajdodingiz uy qurmasdan – Davlat qurgan.
Yurti uchun yelkasiga tog ‘lar surgan,
Rustamlari, Farxodlari, ilm istang.*

*Ko ‘z ochgandan kezib yetti bahri ummon,
Yetti tilda so ‘ylashgan biz tili biyron.
Vatanida Tojmahallar tiklar sulton –
Boburlari, Behzodlari, ilm istang.*

*Haq yo ‘lida siz ilmnинг ummatlari,
Xalq yo ‘lida hidoyati, himmatlari.
Madad bo ‘lsin Yassaviyning hikmatlari,
Bobo Mashrab bayotlari, ilm istang.*

*Ilm istang, izingizdan ibrat yog ‘sin,
Ixlosingiz, shahdingizdan shiddat yog ‘sin.
Ortingizdan mag ‘rur-mag ‘rur millat yog ‘sin –
Mulki Turon najotlari, ilm istang!..*

Muhammad Yusufning ilmga tashna ekani, avvalo shoirning o‘z-o‘ziga qo‘ygan talab ekanini anglaymiz. U nafaqat tarix va adabiyot, balki barcha fanlarning o‘ziga xosligi haqida ana shu fanlarga ulkan hissa qo‘shgan qomusiy olimlarni she’rga soldi. “Talabalar madhiyasi” she’ri bir vatqning o‘zida qomusiy kuchga, vaznga egaligi bilan ajralib turadi. U oxirgi to‘rtlikda ham Sohibqiron va Navoiyni asosiy diqqat markazga olib kirdi.

Alp o‘g‘lonlar o‘lkasidir O‘zbekiston,

Erkli elning qanotlari, ilm istang.

Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,

Alisherning avlodlari, ilm istang.

Muhammad Yusuf garchi she’riyatida sodda so‘zlardan foydalangan bo‘lsa-da, uning mazmun mohiyatini juda ham boy, chuqur ma’noga ega tarzda yoritib bergen:

Mendan nima qolar,

Ikki misra she’r

Ikki sandiq kitob

Bir uyum tuproq

Odamlar ortimdan nima desa

Men seni o‘ylayman

O‘zimdan ko‘proq,

Lola, lolajonim,

Lolaqizg‘aldoq!

Ushbu she’rda ham inson va hayot, ona vatan tushunchalari mujassamlashgan.

Muhammad Yusufni o‘zining darajasida anglash bu shoir yordami bilan o‘z shaxsini anglashga, aniqlashga intilishdir. Ya’ni shoirning merosi orqali uning alohida xarakteri, fenomeni, umuman nimalar haqida ko‘proq o‘ylaganini bilish muhimroqdir.

Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom,

Yulduz bo‘lib yog ‘ildi bir sas.

Bir mahalla nigohni ko‘rdim:

Yashash kerak, sevish shart emas.

Yoqa ushlab qolsin ko 'rganlar,

Olovlarg'a otgum uni, bas.

Yonib ketsin chirsillab qalbim,

Sevish kerak, yashash shart emas!

“Osmon cho ‘kib qoldi bu oqshom...”

Shoirning faoliyatidagi asosiy manbasi, boyligi bu uning ona tilidir. U o‘z milliy ruhi va ma’naviyatini nomoddiy qadriyat sanaladigan ona tili bilan ifoda etib, “Ona tilim” she’rini bitdi.

Garchi zug‘um qilganlarni yoqtirmadim,

She’r yozdimu bo ‘lak ishni qotirmadim.

Tilim turib o‘z tilimda gapirmadim,

Bir eslasam eziladi bag‘ri – dilim,

Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

O‘z ona tilidan avf tilab, onadek aziz tiliga hurmat va ehtirom bilan murojaat qilgan shoir quyidagi satrlarda ko‘nglidagilarni bayon etgan.

Xalq shoiri Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda dunyodan ko‘z yumdi. Garchi u vafot yetgan bo‘lsada, lekin u odamlar yuragida mangu yashaydi, Muhammad Yusuf xalqning qalbidir.

Yurtboshimiz ta’kidlagan ushbu hayotiy haqiqat bugun ham o‘z tasdig‘ini topayotgani Muhammad Yusuf singari tilni – onaday, so‘zni – Vatanday qadrlagan shoirlarimizning merosini davom ettirish va qadr-qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. U.Qo‘chqorov, M.To‘ychiyev Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, “Adib” nashriyoti, 2014.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. She’rlar, dostonlar, xotiralar. –T.: “Sharq”, 2019.

3. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. To‘plami. – T.: “Ijod dunyosi”, 2004.

4. Sh.Qurban. Muhammad Yusuf saboqlari. Shoир siymosiga chizgilar. –T.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2019.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yangi O‘zbekiston gazetasi. – T.: “Kolorpak” 2020-yil, 19-sentabr, 180-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabrdagi O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi.

Амангул Прекеева,
ф.и.к. **Өзбекстан мәмлекетлик**
көркем-өнер ҳэм мәденият институты,
Кеунимжай Қутлымуратов,
Қарақалпақ мәмлекетлик университети

М.ЮСУФ ШЫҒАРМАЛАРЫНДА ТАЛМЕХ САНААТЫНЫң ҚОЛЛАНЫЛЫЎЫ

Аннотация

Мақала Мұхаммед Юсуф дөретиўшилигиндеги талмех санаатына арналады.

Таяныш сөздер: талмех санааты, тарийх, шығармалары, тарийхый шахслар, дәстан.

М.Юсуфтың қосықлары темасы әлүан түрли, сөздери тартымлы, әпиўайы халықта түсиникли өзбек тилиниң бай лексикалық қорынан шебер пайдалана алған. Қосықларын қайта-қайта оқысаң да ҳеш жалықпайсан, оқыған сайын оқығың келебереди. Шайыр халқымыздың тарийхын терең үйренген ҳэм шығармаларында өтмиш ўақыяларына көп мүрәжат еткенлигиниң гүйасы

боламыз. Өзбекстан халық шайыры Х.Худайбердиева: М.Юсуф талмех санаатынан шебер пайдаланған – деп баҳа береди.

Талмех санааты – дегенимиз арабша сөз болып «нәзер салмақ» дегенди аңлатады. Қосықларында даңқлы тарийхый ўақыя, әпсана ҳәм дәстанлар қаҳарманлары, танымалы тарийхый шахсларға қаратылған сөзи арқалы сүүретленген образды бөрттирип көрсетиүгө мейил санаат [1].

Шайырдың шығармаларының көпшилигинде талмех усылынан өнимли пайдаланған. Мысалы, «Үатаным» қосығында Сулайман, Машраб, Наўайы, Яссайи, Хожанд Чингиз, Темур Малик, Шырақ, Жалаладдин, Бабур, Алпамыс, Улугбек Абдулла Кадирий, Усман Насыр, «қаған» ҳәм «султан» атамалары қолланған. Бул қолланған атамаларды төмендегише классификациялауымызға болады.

1. Дәстан ҳәм әпсана қаҳарманлары: Алпамыс, Шырақ;
2. Танымалы тарийхый шахслар: Сулайман Шынғыс, Темур Малик, Жалаладдин, Муқанна, Наўайы, Бабур, Улугбек, Яссайи, Машраб Абдулла Кадирий, Усман Насыр;
3. Ертедеги тарийхый әмел атлары: Қаған, Султан.

«Алпамыс» дәстаны қаҳарманлық, мәртлик ўатансүйиүшилик, түрли қәүимлердин дослығы, муҳаббат, садықлылық, шаңарақ беккемлигин сөз етиүши қаҳарманлық дәстан болып, өзбек, казак, қарақалпақ халықлары арасында кең тарқалған аўызеки әдебияттың жаркын үлгиси.

Шырақ – массагетлер маликасы Тумарис Дарага қарсы гүрес режесин дүзип атырғанда, олардың алдына Шырақ деген атбағар келип, егер хожалығымның тиришилигинен хабар алып турыўына ўәде берилсе, жеке өзи-ақ душпанның қәўпинен қутқарыўға урынатуғын айтады. Сөйтеп, қулақ-мурның кесип дал қарақан болып, Дарага сақ патшаларынан арыз қылады. Дараның реҳими келип оны қасынан қалдырмайды ҳәм оларды сақлар жасаған жерге баслап бараман дейди. Бирақ Шырақ оларды шөл-қыябанларда қалдырады ҳәм елин жаўдың тырнағынан аман қутқарады, өзи жаў қолында набыт болады [2]. Соннан баслап әдебиятта шопан унамлы образ есапланады.

Сулайман – бул исим ерамыздан алдыңғы 1 әсирде жасап усы дәүирдеги құдиретли Израил мәмлекетиниң патшасы болған адамның исми болып, тийкары Шелемо формасына ийе болған, кейин Соломон түринде айтылған (Малая энциклопедия, VIII, 743) араб тилинде бул исим фонетикалық жақтан өзгертилип Сулайман түрине өткен, өзбек тилине сол сеслик дүзилиси менен қабыл қылышынған (ҮТИЛ, II-83) [3].

Араблардың хұқимдарлығына қарсы 770-780-жылларда Мауереннахрда оғада үлкен халық көтерилиси болады. Көтерилистиң басшысы Муқанна деген адам еди. Ол басына ҳәм жүзине көк перде тағып жүрген соң «Муқанна» деп аталған «Нықап бүркенген адам» деген лақап пенен аты шыққан. Оның шын исми Ҳашем ибн Ҳакум атты өнермент болады. Ол Мары қаласы жанындағы Коза аўылында тууылған [4]. Жаўлап алышыларға бағынғысы келмеген Муқанна өзин жанып турған тандырға таслап набыт болады.

VII әсирдин орталарында араблардың мәмлекетимизге атланысы анық түс алады. VIII әсирдин басларында араблар избе-из Хорезм, Бухара, Самарқанд, Шаш ҳәм Ферғана жерлерин бойсындырып алады [2].

Жалалатдин – Маўереннахрдың ийелеген соң, монгол жаўынгерлери Балх, Ҳерат Мары, Ғазна қалаларына басып кирди. Бул ўәлаятта Жалалатдин Мангубердиниң қатты қарсылығына ушырайды.

1220-жылы Бухара, Самарқанд, 1221-жылы Ургенч, Термиз қолдан кетти. Хожанд ҳәкими Темур Малик, Жалалатдин мәртликleri сондай жоқары болыуына қарамастан, баслама қолдан кеткенлиги себепли урыста жеңилиске ушырайды.

Дереклерде жазылышынша, Жалалатдин грузинлер менен тынышлық тийкарында келисім арқалы монголларға қарсы ғүрескен. 1231-жылы Әзербайжанды ийелеген монголлар және Жалалатдин қарсылығына ушырайды. Бирақ тосаттан Жалалатдин 1231-жылы 17-20-август аралығында бир курд таманынан Киши Азия әтирапында өлтириледи.

Күрдистан – Батыс Азиядағы таўлы үлке, тарийхый Күрдистаның көпшиликтік бөлеги Алдыңғы Азия ҳәм Иран таўларында жайласқан

Күрдистаның анық шегарасы болмағанлықтан бул атама тек этнографиялық мәниде қолланады.

Жалалатдин 12 жыл даўамында Иран ҳәм Эзебайжан аймақтарында монголларға қарсы гүресті даўам еттиреди [2].

Темур Малик – 1220-жылдың апрелинде монголлар Женди ийелеп, оны талайды. Хожент қаласының ҳәкими Темир Малик монголларға қутылмеген қарсылықлар көрсетеди. Бирақ күшлердин тәң болмағанлығы себепли Темур Малик қаланы таслап шығып кетеди ҳәм оның пәрманы менен 12 қайық душпанның оғы өтпейтуғындей етип соғылады. Хожентлилер монголларға қарсы үзлиksiz гүреседи. Сауашта Темур Малик әскерлеринен, дос-яранларынан толық айрылады. Өзи қурбан болыудан қутылып, Ургенч қаласына жетип келеди. Хорезмде топланған әскерлерге басшылық етеди.

Сырдәрья бассейини, Зарафшан ҳәм Кашқадәрья алаплары, Әмиүдәръяның ортаңғы ағысының оң жағалығындағы ўәлаятлар басып алынғаннан кейин Шыңғысхан тийкарғы күшти Хорезмшаҳлар мәмлекетинин Орайлық бөлеги Хорезмге атландырады.

Шыңғысхан – XII әсирдин ақыры XIII әсирдин басларында социал-экономикалық ҳәм мәдений рауажланыудың төменги басқышларында турған монгол қаўим ҳәм қәбилелери үлкен ҳәм уллы құдиретли монгол мәмлекетин пайда етиў ушын гүрес алып баарар еди. Ҳәkimият ушын қәўим ҳәм қәбилелер арасында гүресте Шыңғысхан (1155-1227) жеңип шықты ҳәм 1204-1205-жылларда күшли монгол мәмлекетине тийкар салды [5].

Ахмад Яссайи – түркій суфизм әдебиятының ўәкили. Яссайиидин тууылған жылы мәлим емес, бирақ дереклерде 1166-жылдың қайтыс болған деп жүритиледи. Бизге оның «Дийүаны ҳикмет» шығармасы мийрас болып, халық арасында Меккеде Мухаммед, Түркистанда – Хожаахмет деп таныстырып, ислам дини қағыйдаларын халыққа туура мәниде ен жайдырған шайыр.

Элийшер Науайы – өзбек әдебиятының теңсиз шайыры, миллий мақтанышымыз, мәмлекетлик искер, илим билимлendirиў, көркем әдебият санасында жәхәнге өзиниң шығармалары менен данқ таратқан, ғәzzел мүлкиниң

султаны. Ол өзи ўәзир ўақтында билимлендириўге үлкен итибар береди. Билимге қызығыўшы жасларды жанына жыйнайды. Бағлар жаратады, каналлар қаздырады, мешит, медреселер қурғызады.

Захиридин Мұхаммад Бабур – шайыр көркем сөз шебери, әдебиятшы, тиблиши, этнограф, логика илимлерин ийелеген жәмийетлик искер. Бизге 15 әсир өзбек халқының тилинен, тарихынан, этнографиясы, географиясы, мағлыұмат беріүши «Бабурнама» атты шығармасы мийрас болып қалды.

Елдеги ҳәр қыйлы талас-тартыслар себепли Бабур елден шығып Ҳиндистанға жол алады. Ҳиндистанда абырайлы патша болады, бирақ оның есінен тууылыш өскен ели шықпайды, сағынып жасайды. Ҳиндистанда 47 жасында әлемнен өтеди. Елдин топырағы несийп етпейди.

Улугбек – Мырза Улугбек жәхән пәни ҳәм мәденияты рауажланығына үлкен үлес қосты. Тарихшы алым Бөрибай Ахмедов айтқанындай «Мырза Улугбек тири ўақтында-ақ өзине ҳәйкел орнатып кетти» [6]. Улугбектиң «Зиж»и үлкен астрономияға тийисли шығарма болып, ол орта әсирлерде ҳәм оннан кейинде Ҳиндистаннан Атлантика Океанына шекемги аймақтарда астрономияның рауажланығына үлкен тәсир көрсетеди [5]. 1444-жылда Улугбектиң қәүетерли өлиминен соң, ол дүзген академия ҳәм тарқалып кетеди.

Машраб – өзбек суфизм әдебиятының көрnekли ўәкили, өзине тән стилине, дөретиүшилик жолына иие болған әүлийе шайыр. Ол 1640-жылды Наманганда зиялы шаңаракта дүньяға келеди. 1711-жылды Махмуд бий әмири менен Балх шәхәринде дарға асылады.

Абдулла Қадирий – өзбек әдебиятының роман жанрының тийкарын салыўшы Абдулла Қадирий өзинин «Өткен күнлөр» романы менен өзбек прозасында терең из қалдырды жазыўшы. Оның шығармасы елге шекем өзбек прозасы кәрүанының басында баратыр. Лекин А.Қадирий усындағы ислер ислеседе «Халық душпаны» деп қамаққа алғынады ҳәм 1938-жылды 4-октябрьде жазықсыздан жазықсыз атылады. Деген менен, Абдулла Қадирийдин исми халқымыздың кеүлинен терең орын ийелеген, әдиўли жазыўшы, елимиздин оған деген хүрмети шексиз.

Усман Насыр – XX əsir əzəbek poэziyasında şair, az əmir körsede үlken miiyras қalдыրғan şaiýär, dramaturg, aýdarmaşy. Усман Насыр 1912-jылы 13-novembrede Namanǵannda туўылады. Atasynan jetim қalғan Усман Насыр Қоқандағы балалар үйинде тәrbияланады. Ol ҳәziрги Rossiyasyň Kemerovo oblastynda 1944-jылы 9 martta қайтыс болады.

«Сиңлим Раҳатхан Уйғындыкине барып нәрселеримди ал, Мадамин Дәўранның үйинде пальтом, Ибраһим Назирдикинде етигим қалды. Соларды алып кел, мен ҳәм кететуғынға усайман» (1937-jыл Tашкent қамақханасы Усман Насыр).

Сондай-ақ, ерте дәўирдеги тарийхымызға тийисли әмел атлары да қолланылған:

Султан – бул арабша сөз болып, «хұқимдарлық дәреже» мәнисин аңлатады [7].

Хоқон – уллы мәмлекеттин ғағыз хұқимдары, «уллы хан», «шаҳаншаш». Eski türkij tiilinde de usындай мәни аңлатқан. Бул атама тийкарында «қаған» формасында айтылады [8].

Қашқар – 1933-1934-jыллары Қашқар қаласы Шығыс Tүrkistan Islamy respublikasyның пайтахты болған. Қашқар ҳәziрги дәўирде Қытай мәмлекетиниң аймағында Синьцзян-Уйғыр автономиялы районына қараслы жер atamasы. Tарийхқа нәзер тасласақ, Қашқар Қарағанийлер мәмлекетиниң пайтахты болған.

Енисей – Азиядағы дәръя. Батыс Сибирь шегарасы бойлап ағады. Қара теңизге қуяды.

Бул шығармада озбек халкынын этногенезине байланыслы 96 баўлы уруў ҳаққында да айтылған.

Жуўмақластырып айтқанда, M.Юсуф шығармаларына тек талмex санаатына бир қосығына ғана өз пикиримизди билдиридик. Шайырдың дөретиўшилигин тереңнен үрениў, оның шайырлық шеберлигин ашыў ушын, еле де көп изертлеўди, үрениўди, илмий көз қарастан баҳа бериўди талап етеди.

М.Юсуф өз жолына, өз сөзине, өз шайырлық дүньясына ийе шайыр. Оның усы «Үатаным» қосығында эрамыздан алдыңғы дәүирлерден бизиң кунимизге дейинги тарийхты қамтыйды. Узақ әсирлик тарийхый үақылар ҳаққында гәп етеди. Тек үатанды қурақ мақтаулар емес, ал үатанымыз басынан кеширген қара дақлардың бет пердесин ашып, ҳаққыный сұйретлеп бере алған. Бул инсан халқымыздың тарийхын жақсы билген. Сонлықтан да, өзиниң қосықларына тарийхты қарыстырып әжайып, тәкиярланбас поэзия бағын пайда еткен.

Әдебиятлар:

1. Салаев Ф., Қурбаниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2003.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2019. – 333 б.
5. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Хошимов С. Ватан тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 470 б.
6. Ахмедов Б. Улуғбек (Эссе). – Тошкент, 1989. – 229 б.
7. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2002.
8. Эшов Б.Ж., Адилов А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2014. 1-т.
9. М.Юсуф. Сайланма асарлар.- “Шарқ” нашриёт-2007.

Abduqahhor Jalilov,
Respublika musiqa va san'at kolleji o'qituvchisi,
"Madaniyat fidoyisi" ko'krak nishoni sohibi

MUHAMMAD YUSUFNING "SAMARQAND" SHE'RIDA ABDULLATIF OBRAZIGA DOIR POETIK ISHORALAR

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Samarqand" she'rining lingvopoetik xususiyatlarining ba'zi qirralari ochib beriladi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek va Abdullatif munosabatlaridagi tarixiy voqealarning she'rda ifoda etilishida shoir mahorati ko'rsatilib berilgan.

Kalit so'zlar: Samarkand, Mirzo Ulug'bek, Abdullatif, yulduzlar, o'z bolam, shoh va ota, dard va alam, milliy xarakter, toponim, shartlilik, ijro mahorati

Аннотация

В статье раскрываются некоторые аспекты лингвопоэтических особенностей поэмы народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа «Самарканд». В частности, в стихотворении показано умение поэта выразить исторические события во взаимоотношениях Мирзо Улугбека и Абдуллатифа.

Ключевые слова: Самарканд, Мирзо Улугбек, Абдуллатиф, звезды, собственный ребенок, царь и отец, боль и страдания, национальный характер, топоним, обусловленность, исполнительское мастерство.

Annotation

The article reveals some aspects of the linguopoetic features of the poem "Samarkand" by the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. In particular, the poet's skill in expressing historical events in the relationship between Mirzo Ulugbek and Abdullatif is shown in the poem.

Key words: Samarkand, Mirzo Ulugbek, Abdullatif, stars, own child, king and father, pain and suffering, national character, toponym, conditionality, performance skills.

She'riy badiiy asarlarda ruhiy holatni ifodalash o'ziga xos murakkablikka ega bo'ladi. Biror mavzuni tanlar ekan shoir qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursandlik yoki xafa bo'lish, rozilik, taajjub, kuyinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, tilak-istik, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda lingvopoetik unsurlardan foydalanadi.

Lingvopoetik tahlilning ko'plab tamoyillari mavjud. Eng muhim tamoyillar orasida badiiy matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim hisoblanadi. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Buni Muhammad Yusuf ijodida poetik aktuallashgan ayrim birliklar misolida ko'rishimiz mumkin.

O'tgan asrning so'nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo'lchi yulduzdek porlagan shoir Muhammad Yusuf o'zining sodda va samimiyo so'zi, o'zigagina yarashadigan she'riyati bilan el nazariga tushdi. U o'zining qisqagina umrida milliy she'riyat va zamonaviy qo'shiqchilikni yuksaklarga ko'tarilishiga hissasini qo'sha oldi.

Odatda bastakorlarning ezgu maqsadi musiqada ilohiy ovozga, sasga, tovushga eng yaqin ohangni topish va tinglovchiga yoqimli ovozni, behishtiy sadolarni taqdim etishdan iborat bo'ladi. Olimlar esa insonni o'ylatadigan hayotiy savollarga aniq javob topish borasida mehnat qiladi. Shoirlar esa so'z ma'nolaridan ma'nolar izlab, o'quvchi qalbini, ongini misralar qatiga tortishga intilib, so'zlarga ko'pdan ko'p vazifalarni yuklaydi. Shoir xalq tilidagi ayrim so'z, ibora va quyma gaplarni g'uborlardan poklab asl holida yana xalqqa qaytarib beradi.

Shu bilan birga matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (naql, hadis, rivoyat, afsonalar, ijodkorning ma'lum bir asari) eslab o'tadi. Ma'lumki, matnning yaxlitligi va butunligini ta'minlashda sarlavhaning benihoya muhim o'rni bor. U matnda alohida, kuchli sintaktik pozitsiyada turuvchi, matnning mazmuniyestetik mohiyatiga ishora qiluvchi o'ziga xos unsurdir. Adabiyotshunoslikda allyuziya degan bir tushuncha bor. Allyuziya - badiiy adabiyotda va notiqlik san'atida tarixiy voqealarni yoki mashhur asarlarga ishora qilishdan iborat stilistik

figuralardan biri. Muhammad Yusuf ko‘plab asarlarida bu stilistik uslubdan o‘rinli foydalangan. Buni M.Yusufning “Samarqand” she’rida misolida ham ko‘rish mumkin. M.Yusuf o‘z she’rini negadir “Ulug‘bek monologi” demay, “Samarqand” deb atashida ham anchagina sir yashiringan. Nazarimizda, u Samarqand tarixi bilan bog‘liq qator she’rlar turkumini yaratishni rejallashtirgan. Mirzo Ulug‘bek tilidan yozilgan she’r ularning biri bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Samarqandga borsam men agar,

Ulug‘bekni ko‘rib qaytaman.

U qon yig‘lab turar har safar

Men dardimni kimga aytaman. [1]

Bu misralarda Samarqand, Ulug‘bek so‘zlari tilga olinadi. Beixtiyor kitobxon Mirzo Ulug‘bek yashagan davr, Go‘ri Mir maqbarasi, Amir Temur sag‘anasi, Mirzo Ulug‘bek qabrini eslaydi. Nima uchun shoir Ulug‘bekning qon yig‘lab turganligini yodimizga solishini tafakkur qiladi.

Bugina emas, 1941-yili Amir Temur qabrining ochilishi bilan bog‘liq tarixiy ma’lumotlar, Mirzo Ulug‘bek haqidagi badiiy film, tragediya, Ulug‘bek obrazini yaratgan Shukur Burhonov siyimosi, Ulug‘bekning Abdulatif bilan muloqoti tasvirlangan lavhalar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston - vatanim manim” she’ridagi “Yulduz bo‘lib uchdi tilla bosh” misralarini eslaymiz.

Shuningdek, Alisher Navoiyning “Majolis un nafois” asarida “Ulug‘bek Mirzo – donishmand podshoh erdi. Kamolati bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila qur’oni majid yodida erdi. Hay’at va riyoziyini xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoye’dur. Abdulatif Mirzo - savdoyi mizoj va vasvasiy tab’ va devonasor kishi erdi. Mundin o‘zga dag‘i g‘arib badfe’lliqlari bor erdikim, zikridin behijobliq lozim kelur. O‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o‘lturdi. Har oyinakim, sultanat Shiruyag‘a vafo qilg‘oncha anga qildi. Ammo tab’i nazm erdi va she’rni obodon aytur erdi”, deb yozadi [2].

Ma'lumki, Mavarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek siyosiy sabablarga ko'ra, 1449-yili o'g'li Abdullatif tomonidan qatl ettirilgan. Shundan beri kitoblarda Abdullatif padarkush sifatida malomat qilib kelinadi. Shoир va adiblar, tarixchilar keyingi avlodni to'g'ri tarbiyalashda bu achchiq hodisani bot bot esga olib turishadi. Buni M.Yusuf she'riyatida ham uchratish mumkin.

Endi she'rda ayni Abdullatif nomi tilga olinmasa ham unga tegishli fikr mavjudligiga e'tibor qarataylik:

Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam,
Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam,
Men dardimni kimga aytaman [3].

Bu bandda "Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam", "mergan bolam", "lochin ko'z bolam", "Bo'g'zimga tig' urgan O'Z bolam", so'z va iboralari ayni Abdullatifga ishora qilinayotganligi sezilib turadi. Shoир odamlarga tanish tarixiy faktini bir bir esga soladi. So'zlarni faollashtiradi, ularga ma'no yuklaydi, o'quvchiga go'yo "Bilib qo'y, esla" degan ishoralar qiladi.

"Mergan bolam" iborasida o'z otasini o'ldirishni nishonga olgan o'g'il obrazi gavdalansa, "lochin ko'z bolam"da otasiga nafrat bilan tikilib turgan o'g'il obrazi gavdalanadi. "Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam"da esa begonalar tomonidan emas, o'z o'g'li tomonida bo'g'ziga xanjar qadalgan bechora ota holati ko'z oldimizga keladi. Bu o'rinda shoир padarkushga bo'lган nafratni kuchaytirish uchun pog'onali ma'nolar silsilasini yaratadi.

Bundan tashqari "lochin ko'z bolam" iborasi ayni Abdullatifga tegishli emas, balki bu "Mirzo Ulug'bek" badiiy filmidagi Abdullatif obrazini ijro etgan aktyorga tegishli esanligini ko'pchilik payqamagan bo'lishi mumkin. Haqiqatan ham Abdullatif obrazini o'ynagan aktyor, o'zbek emas, balki Yevropa millatiga mansub kishi bo'lib, ko'zlar lochinniki singari qahrli va makkor ko'rinishga ega bo'lgan. Rejessyor atay salbiy qahramon uchun shunday tipni tanlagani ham bejiz emas[4].

Durdona Xudoyberanova o'zining "Til, tafakkur, madaniyat" nomli monografiyasida (Toshkent. "Nodirabegim" nashriyoti, 2020) Muhammad Yusuf

she’riyatida allyuziv nomlar qatnashgan matnda ijodkor o‘z fikrini ixcham, ayni vaqtda ta’sirchan shaklda ifodalash ko‘p uchrashini ta’kidlab o‘tgan. “M.Yusuf o‘z she’rida To‘maris, Jaloliddin, Go‘ro‘g‘li, Hotam, Layli, Majnun, Ulug‘bek, Qodiriy, Kumush, Otabek, Tohir, Zuhra kabi antroponimlarni, Chambil, Orol, Marg‘ilon kabi toponimlarni, “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” biblionimlarni allyuziv nom sifatida qo‘llab, muayyan lingvopoetik maqsadni amalga oshirgan” degan fikrlari mavzumiz uchun ham ahamiyatlidir [5].

Demak, badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashda, ayniqsa, so‘z alohida o‘rin tutadi. Zotan, she’rni tushunish, uning lingvopoetik mohiyatini xolis ko‘rsatish undagi so‘z tahlilisiz aslo mumkin emas. Demakki, so‘z qo‘llashning san’at darajasida yoki san’at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, matndagi so‘z, uning ma’nosini va bu ma’nuning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim.

“Samarqand” she’ri matni hofizlarga ilhom bergenligi bejiz emas. M.Azimov Muhammad Yusufning ushbu she’rini qo‘sish qilib kuylab, elga tanildi. Tarixni ongda qayta jonlantirish maqsadini ko‘zlagan shoir niyatini chuqur his etgan hofiz she’r ruhiga mos ohang topa olgani ham uning asosiy yutug‘i desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. “Sharq” NMAK Bosh tahriri. T.: 2019. 384 b. – 61.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1997. 242 b. – 138.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. “Sharq” NMAK Bosh tahriri. T.: 2019. 384 b. – 61.
4. “Mirzo Ulug‘bek” badiiy filmi. “O‘zbek film” kinostudiyasi mahsuloti. Rejessyor Sh.Abbosov. 1963.
5. Durdona Xudoyberanova. Til, tafakkur, madaniyat. Monografiya. “Nodirabegim” nashriyoti, T.: 2020. – 75 b.

MUHAMMAD YUSUF IJHODIDA TARIXIY SHAXSLARNING YORITILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodida tarixiy shaxslarning yoritilishi haqida so'z boradi. Bu shaxslar haqidagi she'rlarning bugungi kundagi ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, tarixiy shaxs, Vatan, adabiyot, she'riyat, ijod, so'z, shoir, ajdod, avlod, tarix.

Аннотация

Статья посвящена освещению исторических личностей в творчестве народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа. Подчеркивается, что стихи об этих личностях сегодня имеют большую образовательную ценность.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, исторический личность, родина, литература, поэзия, творчество, слово, поэт, предок, поколение, история.

Annotation

The article is devoted to the coverage of historical figures in the work of the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. It is emphasized that great poems about these individuals are of educational value.

Key words: Muhammad Yusuf, historical personality, homeland, literature, poetry, creativity, word, poet, ancestor, generation, history.

Bugun mamlakatimizda ilm-fan va ta'lif sohasini rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning tub zamirida yosh avlodning bilimli, ma'naviyatli va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash maqsadi yotadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari yanada shiddat ila kechayotgan davrda adabiyot hanuz yoshlar ma'naviyatini shakllantiruvchi qo'rg'onlardan biri bo'lib qolmoqda.

Muhammad Yusuf – o'tgan asrning 80-yillarida, istiqlol arafasida adabiyotimizga kirib kelgan qalbi uyg'oq, millatsevar, tom ma'nodagi haqiqiy millatparvar shoir edi.

Muhammad Yusuf ijodida shaxs va qalb ozodligi, millat va yurtsevarlik, millat xarakteri, muhabbat va sadoqat kabi hech qachon eskirmas g'oya, tamoyil va mavzular yuksak mahorat bilan talqin qilingan. Shoir qo'llagan she'riy san'atlar, badiiy tasvir vositalari orqali go'zal she'rlar dunyo yuzini ko'rgan.

Muhammad Yusuf ijodi orqali tug'ilgan yurtni, Andijonni, Farg'onani sevishni, O'zbekistonning tuprog'ini to'tiyo qilishni, uning har bir maysasigacha inja tuyg'ular bilan ardoqlashni, asrashni o'rgandik, deb mubolag'asiz ayta olamiz.

Shoir ijodi bilan tanishar ekanmiz, uning aksariyat she'rlarida tasvirlanayotgan qalb kechinmalari tashqi olamda ro'y berayotgan voqelikka munosabat sifatida namoyon bo'lishini kuzatamiz. Bunday munosabat hech shubhasiz, o'sha yillar she'riyat maydoniga kirib kelgan ko'pgina yosh shoirlar uchun mushtarak holatlardan biri edi

She'riyat maydoniga o'ziga xos ovozi, o'ziga xos dardi bilan kirib kelgan Muhammad Yusuf ijodidagi milliy o'zlikni anglash elim, yurtim deb yonib yashash, mas'uliyat tuyg'ulari bilan uyg'unlashib ketgan. Uning ijodida tarixiy shaxslarning qalamga olinishi salmoqli o'rinni egallaydi. Shoirning "Vatanim" she'rida:

Sen Mashrabsan,

Xalqda tumor,

Balxda dorga osilgan,

Navoiysan, shoh yonida

Faqirni duo qilgan.

Yassaviysan, meniki deb,

Ko 'ringan da 'vo qilgan,

Ming bir yog 'i ochilmagan

Qo 'rig 'imsan, Vatanim.

Sen Xo 'jandsan,

*Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan, qorachig ‘i
Olovlargacha ragan,
Shiroqlarni ko ‘rgan cho ‘pon
Cho ‘lig ‘imsan, Vatanim.*

Yuqoridagi misralar orqali Vatanini ulug‘lash, o‘tmishda yashab o‘tgan otabobolaridan faxrlanish tuyg‘ulari barq urib turganining guvohi bo‘lamiz.

*...Ruhdagi ziyodan ayt.
Dur-u gavharin terib,
Shomdan ayt, Rumodan ayt,
Yassaviy bobodan ayt,
Najmuddin Kubrodan ayt.
Sen o ‘zing ayt, Onajon,
Sen o ‘zing aytgil, Vatan,
Inshoollo, inshoollo,
Aslingga qaytgil, Vatan*

*Ko ‘rsin u so ‘qir tarix
Titgan har mahmadona,
Bo ‘yrangning etagidan
To ‘kilmish bor an ‘ana.
Temurning jilmaygani —
O ‘ttiz elda tantana,
Alisherga bo ‘yi teng
Alisher qayda yana?..
Sen o ‘zing ayt, Onajon,
Sen o ‘zing, aytgil, Vatan,*

Inshoollooh, inshoollooh,

Aslingga qaytgil, Vatan.

Shoir “Hayrat” she’rida vatandoshlarini Ahmad Yassaviydek ruhi toza, Najmiddin Kubrodek fikri, so‘zi bilan amali bir mard va jo‘mard bo‘lishga undaydi. Vatanini esa Temur davridagidek gullagan va sharafli bo‘lishini qalb tug‘yonlari orqali aks ettiradi. Shu bilan birga Hazrat Navoiydan g‘ururlanib, Alisherga bo‘yi teng, Alisher qayda yana?

Yoki ...Alisherlar, Ulug‘beklar Vatanisan Yashnagani – o‘z asliga qaytganisan, Turon yurtda yonsin qayta so‘ngan chiroq... misralari orqali ota-bobolarimizga munosib, ilm-ma’rifat mash’alalari yana porlashini chorlayotgandek.

...Aslingga qaytgil Vatan, Ortga qaytmoq bo‘lmisin misralarida esa aslimizga, o‘zlikni qaytishimizni, ortga qaytish emas, balki zamon bilan hamnafas bo‘lishimizni biz hech kimdan kam bo‘lmagan avlod ekanligimizni aytib o‘tadi.

Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor,

Toshlarni yig‘latgan dostonlaring bor,

O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonio,

Ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

Bag‘rim o‘rtar bir o‘y bahor ayyomlar,

Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.

Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,

Fayzullodek mardi-maydonlaring bor...

Yurtim, ko‘nglingdek keng osmonlaring bor,

Yulduzni yig‘latgan dostonlaring bor.

Osmonlaringdan ham diydoringga zor,

Jayrondek termulgan Cho‘lponlaring bor.

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni,

Onamsan-ku, og‘ir olma so‘zimni,

Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini

Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,

*Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar —
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor..*

Ushbu she'rida yaqin o'tmish, mustabid davrda xalqimizning eng sara o'g'lonlarini xalq dushmani deb otuvga yoki borsa-kelmas yurtlarga surgun qilingani, eng achinarlisi, xalqimizning mard, jasur o'g'lonlarini o'zimizdan chiqqan hasadgo'y "chayonlar" ularning hayotiga zomin bo'lganliklarini chiroyli o'xshatishlar orqali qalamga olganki, bu misralar har bir insonni o'yga toldiradi, odam, odamiylik ezgu tuyg'ular xususida mushohada qilishga undaydi.

"Laganbardorlar" she'rida ham yuqoridagi misralardagi mavzu qalamga olingan.

*Otabek Kumushin ko'zlarin yopib,
O'zi ham ortidan qilgach safarlar,
Qodiriy boboning qo'llarin o'pib,
Chohga itargan ham – laganbardorlar.

Ular Iblis bilan tili bir o'rtoq,
Ular Azroilga sodiq choparlar.

Avval Usmonlarni sotib, keyinroq
Faryod ko'targan ham – laganbardorlar.

Yov nadir? Zo'r kelsa o'ldiradi yov,
Bular qon so'rguvchi iskabtoparlar.

Qahhorni qandkasal,
Oybekni soqov

Qilib qo'yganlar ham – laganbardorlar.*

Har qanday shoir bitgan she'rlar uning mavqeyini, obro'sini baland ko'tarishi yoki aksincha, bo'lishi mumkin, yaxshi she'rlargina shoirni abadiyatga daxldor qiladi. Muhammad Yusuf she'riyatida orqali uning ichki bir mag'rurligi, g'olibiyati seziladi, u birov larga yaldoqlanishni, ayniqla, haqsizlik qoshida bo'yin egilishini o'ziga ep ko'rmaydi. Uning she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi, o'yga toldiradi, mushohada qilishga, halol yashashga undaydi.

Muhammad Yusufdan el qalbidan joy olgan asarlar qoldi. Yillar o'tsa-da, ular hanuz ma'lum va mashhur, kishilar orasida o'z umrini yashamoqda.

Muhammad Yusuf ijodi gullagan, navqiron yoshda hayotdan ketgan bo'lsa ham hammani havasini keltiradigan qisqa va mazmunli umr kechirdi. Yosh avlod uning izidan borib, asl milliy an'analarimiz mohiyatini anglaydi.

O'zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos olim, yetuk munaqqid Ozod Sharafuddinov Muhammad Yusufning to'ldirilgan, qayta ishlangan "Saylanma"ning so'z boshisida "...Muhammad Yusuf baxtli, omadli shoir. Unga mustaqil yurtini, ozod xalqini ko'rish nasib etdi. Yurtining eng ulug' bayramlarida uning qo'shiqlari baralla yangraydigan bo'ldi. O'zbekiston haqidagi she'rini yoshlar hatto o'z madhiyalariga aylantirib yubordilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shoirning qalb kechinmalari sodda va ravon tilda bayon etilgan. Uning jahd-u jasorati qalam bilan tilga olganlarida ko'zga tashlanadi. Haqiqatga tik boquvchi, haqiqatni aytishdan iymanmaydigan ijodkorning mahorati ortiqcha ta'riflashga til ojiz. Kelgusida yoshlar tomonidan Muhammad Yusufning ijodiga ko'p bora to'xtalishi, uning asarlari bo'yicha badiiy va hujjatli filmlar yaratilishi, shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. She'rlar, dostonlar, xotiralar. –T.: "Sharq", 2019.
2. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan Vatanim. To'plami. – T.: "Ijod dunyosi", 2004.
3. Sh.Qurban. Muhammad Yusuf saboqlari. Shoir siymosiga chizgilar. –T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti", 2019.

Aziza Azimova,

Kutubxona-axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi

3-kurs talabasi

MUHAMMAD YUSUFNING “SAMARQAND” SHE’RI HAQIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf qalamiga mansub “Samarqand” she’ri haqida fikr yuritiladi. Asrlar davomida ilm-fan va madaniyat beshigi bo’lgan Samarqand dardi shoir qalbida Ulug‘bek bo‘lib qayta tiriladi. Shuningdek, temuriyzoda olim va hukmdor Mirzo Ulug‘bek o‘z pushti kamaridan bo‘lgan o‘g‘li Abdulatif tomonidan o‘ldirilgani ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, Samarqand, Ulug‘bek, Temuriylar, madaniyat, fikr, xazina.

Аннотация

В данной статье речь идёт о стихотворении Мухаммада Юсуфа “Самарканд”. Колыбель научных и культурных ценностей за века возродится в сердце поэта в образе Улугбека. Учёный и царь Мирзо Улугбек был убит своим собственным сыном Абдулатифом.

Ключевые слова: Мухаммада Юсуф, Самарканд, Улугбек, Темуриди, культура, мысль, вклад.

Annotation

This article is a poem “Samarkand” by Muhammad Yusuf. The pain of Samarkand, the cradle of scientific and cultural treasures accumulated by the Temurids over the years, will be revived in the heart of the poet as Ulugbek. The scientist and king Mirzo Ulugbek was killed by his son Abdulatif from the pink belt.

Key words: Muhammad Yusuf, Samarkand, Ulugbek, Temurids, culture, idea, treasure.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’rlar xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. U rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi, u muhabbat

haqida kuylaydimi yoki tariximiz va taqdirimiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari ravon va soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohangdir. O'zbek she'riyatida Muhammad Yusuf ijodining gullagan pallasi XX asr oxiri XXI asr boshlariga to'g'ri keladi. Muhammad Yusuf uchun har bir so'z, hayotidagi har bir hodisa she'riyat edi.

Ulkan iste'dod sohibi bo'lgan shoirning betakror mahorati, eng avvalo, uning asarlarida poetik obrazlar orqali ifodalangan estetik, axloqiy, falsafiy ma'nolar salmog'i va individualligi bilan belgilanadi. Bunga misol tariqasida "Samarqand" she'rni keltirish mumkin. Muhammad Yusuf "Samarqand" she'rida Samarqandga borganida, Mirzo Ulug'bekni ziyorat qilib qaytishini yozadi. Shunda go'yoki, Mirzo Ulug'bek unga: "Men dardimni kimga aytaman", - deb nido qilayotgandek tuyular, keyingi misralarda shoir Ulug'bek tilidan o'zi o'stirib, bo'yi yetgan o'z bolasini maqtaydi. Farzandi mengan va xuddi lochinni ko'zi kabi o'tkir ko'z bo'lib ulg'ayganligini, shu menganligi bilan otasining bo'yniga tig' urganligini keltirib o'tadi. Endi tasavvur qiling, fojiali tarixiy fojialardan biri bo'lgan temuriyzoda olim va shoh Mirzo Ulug'bekni o'z pushti kamaridan bo'lgan o'g'li Abdulatif tomonidan o'ldirilganligini shoir ikkinchi misra oxirida yana nido qiladi: "Men dardimni kimga aytaman". Haqiqatan ham, o'zining farzandi o'z otasini shu ahvolga solsa: " Men dardimni kimga aytaman,"- deb Allohga nola qilishi tabiiy hol.

Mirzo Ulug'bek yillar davomida Samarqand taxtiga o'tirib, Mavarounnahrda olim-u fuzalolar va ilm-peshvolarini qo'llab-quvvatlab shon-shuhuratga erishadi. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarida 1018 ta yulduzni ta'riflab, ularning samoviy tuzilishini, aniq geometrik o'lchamlarini o'lchaydi, u astronomiya sohasiga o'z hissasini qo'sha olgan va ilk bora rasadxona yaratgan. Temuriyzoda Samarqand ravnaqi uchun umrini bag'ishlaydi. Keyingi kelayotgan misralarda balki farzand tarbiyasiga kamroq e'tibor bergenligi yoki davlat va fan bilan mashg'ul bo'lib oilaviy tadbirlarga yetarli vaqt ajratmasligi uchun shunday deganlar: "Sezmay qoldim o'shanda chog'im" misrasi bunga yaqqol dalil bo'la oladi. "Yulduzlarda edi nigohim" misralarida ham yuqorida aytilgan fikrlar o'z ifodasini topgan. Misra so'ngida "Bilmadim, ne edi gunohim",-

deya shoir lirik qahramonning ichki dardlari borligini o‘ylagandir. Har doimgidek misra oxiri naqorat bilan tugaydi: “Men dardimni kimga aytaman”.

Keyingi misra boshida lirik qahramon ruh bo‘lib gap ochadi: “Tanam muzlab goh tosh qotaman,”- deb aytilgan holat lirik qahramonni ichki kechinmalarini belgilab beradi.

“Shoh emas, axir otaman”,- haqiqatan ham shohlik otalik kimgargadir og‘irlik qiladi. Chunki Navoiy ham o‘z “Xamsa”sida “Sab’ai sayyor”dagi shoh Bahromni ishq va shohlik bir tanaga sig‘may qolishini ifodalab kelgani beziz emasdir. “Go‘rimda ham o‘ylab yotaman”- misrasida lirik qahramon ruhni nima uchun shunday qismatga ro‘baro bo‘lganini o‘ylab, kimga dardini aytishni bilmasligi, balki millat ruhiyatini ifodalab kelganligi ma’lum bo‘ladi.

Yillar davomida Temuriylar to‘plagan xazinalarning, ilm-fan va madaniyatning beshigi bo‘lgan Samarqand dardi shoir qalbida Ulug‘bek bo‘lib qayta tiriladi. She’r oxirida shoir yana o‘z tilidan so‘zlaydi: “Samarqandga borsam men agar,” deya Ulug‘bekni ko‘rmay kelmasligini, Ulug‘bekni ko‘rganda, xuddi shoh unga yuqoridagi nidoni aytib yig‘lagandek tuyulganligi uchun millat dardi qalbini qon qaqqhatganligi uchun Ulug‘bekni ziyorat qimasligini aytadi. Mabodo, ziyorat qilsa, shoir o‘z dardini o‘ylab ikkilanadi.

Aslida, Ulug‘bekni ziyorat qilishdan emas, ajdodlar qoldirib ketgan merosni saqlay olmaydigan avlodlar xunrezliklaridan xafa bo‘lgan edi. Balki mustaqillikdan avval millatni uyg‘otish uchun shunday sodda so‘zlardan foydalangandir. Nima bo‘lganda ham “Samarqand” she’ri kishini o‘ylashga undaydigan ajoyib she’rlardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma (she’rlar, dostonlar, xotiralar). – Toshkent: “Sharq”, 2004.
2. www. saviy.uz Muhammad Yusuf.
3. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek adabiyotining lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent, 2004.

II SHO‘BA

MUHAMMAD YUSUF IJODINING SAN’ATSHUNOSLIK VA MADANIYATSHUNOSLIKDAGI TALQINLARI

**Rixsilla Ismoilov,
O‘zDSMI o‘quv ishlari prorektori**

O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI MUHAMMAD YUSUF ASARLARINING TA’LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Qadimgi davrlardan boshlab barcha adiblar badiiy asar yozish bilan birga ta’lim-tarbiyaga oid bo‘lgan risolalar ham bitganlar. Agar e’tibor beriladigan bo‘lsa, qadimgi adabiyotlar asosini odob-axloq masalalari tashkil etgan. Shuning uchun ham adabiyotni odoblar to‘plami deb ham yuritiladi. Badiiy adabiyot qaysi janrda yozilishidan qat’i nazar odamlarga ta’lim-tarbiya berishi, yaxshilikka yetaklashi, yomon ishlardan hazar qilishga o‘rgatishi lozim. Bunday adabiyotlar ajdodlarimiz tomonidan ko‘plab yaratilgan.

Bunday adabiyotlar asrlar davomida bir necha avlodga ta’lim-tarbiya berib kelayotganligi o‘zbek millatini saqlanib qolishiga, ilm-odobga ega bo‘lishiga, yoshlarimizni millatimizga xos bo‘lgan ezgu ishlarni amalga oshirishiga dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda va bu ish hamon davom etib kelmoqda.

Birgina ulug‘ shoir, davlat arbobi, alloma Alisher Navoiyning asarlari ta’lim-tarbiya sohasidagi cheksiz ummon hisoblanadi. Uning har asarida, albatta, ma’rifat va madaniyat masalalari ko‘tariladi va xalqona tarzda bu masalalar hal qilib beriladi. She’riyat sultonni bo‘lgan hazrat Navoiy har bir asarida ta’lim olishga, o‘qib o‘rganishga, odob-axloqli bo‘lishga, halol mehnat nonini yeishiga, birovga zulm qilmaslikka, o‘z ilmi, kasbi bilan xalqiga xizmat qilishga, birovlarining mulkiga, omonatga xiyonat qilmaslikka, o‘z farzandiga yaxshi ilm, odob o‘rgatishga chaqiradi.

Bunday xislatlarning obod kelajakni bunyod etishda nihoyatda muhim omil ekanligini shoir qayta-qayta takrorlaydi. Hozirda ham buyuk allomaning faraxbaxsh chaqiriqlari doimiy ravishda yangrab turibdi va xalqimizni ezgu ishlarga chorlamoqda.

Eng muhimi, Alisher Navoiyning hozirda bu sohadagi izdoshlari hamon mavjudligi xalqimiz kelajagiga umid uyg‘otadi. Ayniqsa, XX asrda yashab ijod qilgan o‘zbek yozuvchi va shoirlari o‘z salaflarining xalqimiz ta’lim-tarbiyasi sohasidagi orzu-niyatlarini davom ettirdilar va hamon bu ishlar keyingi avlod shoir va yozuvchilari tomonidan estafeta tarzida davom ettirib kelinmoqda.

O‘zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusuf ham o‘z salaflari o‘gitlarini doimiy amalga oshirib kelgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shoir hayotlik chog‘ida ham, hozirda ham o‘z asarlari bilan yoshlari, xalqimizning ta’lim-tarbiyasiga xizmat qilib kelmoqda. Uning asarlarini yosh-u qari suyib o‘qiydi, o‘ziga kerakli bo‘lgan hikmatni topadi. Ayniqsa, uning she’rlari asosida yaratilgan kuy-qo‘shiqlar kishi qalbiga kirib chuqur o‘rnashib qoladi.

Eng avvalo, o‘quvchi shoirning she’rlarini o‘qib grammatikadan ta’lim oladi, ya’ni so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi va o‘qilishini o‘rganadi, leksik jihatdan har bir so‘z qanday ma’no anglatishini bilib oladi, so‘zlarni bir-biriga chiroyli bog‘lanib ma’no nozikliklari ochib berilayotganligini anglaydi. She’rlar mazmunidan kelib chiqadigan hikmatlarni o‘z ongiga singdiradi.

Men dunyoni nima qildim,

O‘zing yorug‘jahonim,

O‘zim hoqon,

O‘zim sulton,

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg‘izim,

Yagonam deymi,

Topingan koshonam deymi,

O‘zing mening ulug‘lardan

Ulug‘imsan, Vatanim...

Ushbu parchada shoir yorug‘ jahonim, hoqon, sulton, taxti Sulaymon, yolg‘iz, yagona, koshona, ulug‘lardan ulug‘imsan kabi jarangdor so‘zlar bilan Vatanni naqadar ulug‘vor ekanligini ko‘rsatib beradi. Bu so‘zlarni o‘zlashtirib olgan o‘quvchi, eng avvalo, ularning grammatik jihatdan to‘g‘ri yozilishini, leksik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanishini anglab oladi.

Ayniqsa, shoir she’rlari adabiyot va she’riyat nazariyasini anglashda nihoyatda katta yordam beradi. Yuqoridagi she’riy parchada keltirilgan so‘zlar, albatta, ko‘pchiligi ko‘chma ma’noda qo‘llanganligi aniq. Shu ma’noda, o‘quvchi metafora, metonimiya, sinekdoxa, ko‘chim, istiora, mubolag‘a singari ko‘pgina adabiy troplar haqida ham bilimga ega bo‘ladilar va ularning ma’no nozikliklarini tushunib oladilar.

Yuqoridagi parchada so‘z qatorlari oxiridagi qofiyalanish holati ham muhim ahamiyatga ega. Adabiyot nazariyasida qofiyalanish haqida ham keng tushuncha beriladi. Qofiya, ayniqsa, she’rlarni kuyga solishda, ularni ifodali badiiy o‘qishda asqotishi oydinlashadi.

She’rda shoir so‘z darg‘asi bo‘lgan ulug‘ ustozlarni yodga oladi. Bu bilan ularning asarlarini o‘qib o‘rganish, ular yashagan tarixiy sharoitlarni anglash, ularning taqdiri bilan qiziqish, qisqasi, ularni qayta-qayta o‘qish, uqish lozimligini ta’kidlaydi:

*Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko ‘ringan da ’vo qilgan,
Ming bir yog ‘i ochilmagan
Qo ‘rig‘imsan, Vatanim.*

Darhaqiqat, elni o‘ylagan, avomning g‘amini yegan, o‘zidan ko‘ra ko‘proq xalq uchun qayg‘urgan allomalarning taqdiri ayanchli bo‘lgani ma’lum. Buning sababini o‘rganish uchun talaba tarixga murojaat qilib uni o‘rganishga harakat qiladi va shu

sababli ko'plab manbalarni topib, ularni o'qishlariga to'g'ri keladi. Tarixiy ma'lumotlarni anglabgina talabalar she'rda keltirilgan ma'lumotlarning mohiyatini chuqur o'rganishga harakat qiladi. Qidirib topilgan tarixiy ma'lumotlar tarixiy shaxslarning taqdirini yanada chuqur o'rganib, ularga nisbatan ma'lum bir munosabat va g'urur hislarini paydo qiladi Mana shunda ham asarning ta'limiy ahamiyati katta ekanligi ko'rinadi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, shoirning barcha asarlari ta'limiy xususiyatga ega. Ayniqsa, Mingtepaga bag'ishlab yozgan she'rlari bu qadimiy go'shaning tarixiga kitobxonni qiziqtirib qo'yadi. Shu asnoda kitobxon bu qadimiy go'shaning uzoq o'tmishi bilan tanishish maqsadida "Tarix" fanini o'qib chiqishga ehtiyoj sezadi va bu bilan o'zining bu fandan olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

Muhammad Yusuf asarlarining ta'limiydan tashqari tarbiyaviy ahamiyatini hech qanday mezon bilan o'lchab bo'lmaydi. Muhammad Yusufning shaxsiyatidan vatanparvarlik hissi nihoyatda kuchli bo'lgan. Vatan haqida juda ko'p shoirlar yozgan. Bu albatta, yaxshi xislat. Bu shoir boshqalardan o'zgacharoq yozdi. U Vatanni "Iddaolar qilmay sevaman" deb yozdi. Demak, u vatanni sevar ekan, hech narsa da'vo qilmaydi. Shunday go'zal Vatani bor ekan, uni borligicha sevadi. Aynan shu narsa she'rni o'qigan kitobxonga ham yuqadi. Kitobxon ham Vatanni xuddi shoirdek sevadi va unda haqiqiy vatanparvarlik hissi tarbiyalanadi.

Muhammad Yusufning o'z qarindosh-urug'lari, atrofidagi odamlar haqida yozgan she'rlari o'quvchida insonparvarlik ruhini tarbiyalaydi. Ayniqsa, o'z onasiga bag'ishlab yozgan she'rlari go'yoki, barcha onalarga dahldordek tuyuladi. Shoirning "Onamga", "Onamga xat", "Ota uy", "Sevar ekan", "Singlimga maktub", "Oqibat", "Bir yil bo'ldi", "Bu beshafqat", "Sodda Muhammadman", "Manzura", "Ona, nega meni...", "Onaizor", "Tavallud" kabi she'rlarida onasiga, yaqin kishilariga, jigarlarga nisbatan bo'lgan mehr-oqibat, hurmat-e'tibor singari insoniy munosabatlari o'z aksini topgan. Bularning barchasi nafaqat shoirning o'ziga, balki barcha millatdoshlariga qaratilgan murojaatdek o'z aksini topgan. Negaki, yuqoridagi xislatlar ajdodlarimizdan bizgacha saqlanib qolgan, milliy mulk sifatida ajdodlarimizdan

bizgacha yetib kelgan, bizning avlodlarimizga ham singdirib borishimiz zarur bo‘lgan ijobjiy xislatlar sifatida ardoqlashimiz lozim bo‘lgan an’ana sifatida shoir tomonidan ulug‘lanadi va avlodlarga ham xitob sifatida yangraydi. Bularning barchasi ta’lim-tarbiyaning asosiy vositalari sifatida taqdim etiladi.

Shoir o‘z millatini ulug‘laganidek, milliy ta’lim-tarbiyaning zarur ekanligini uzviy ravishda ta’kidlab kelgan. Chunki qachonki, milliy ta’lim-tarbiyaga amal qilinsagina, millatning yashovchanligi, uning abadiylici saqlab qolinishini yurakdan his qilgan.

Shoir millatni ulug‘lash bilan birga millatning ko‘rki bo‘lgan milliy tilimizni ham ulug‘lab bir qator she’rlar yozgan. Uning “Ona tilim” she’ri ana shunday asarlardan biri hisoblanadi. Bu she’rda muallif “Ona tilimiz kechagina paydo bo‘limgani, uni Alisher Navoiy, Qodiriylar, Cho‘lponlar, Abdulolar muqaddas Ona til sifatida ulug‘laganligini” yozib qoldirgan. Ona tilimiz bundan keyin ham abadiy umr kechirajagini ta’kidlab o‘tgan.

Xulosa qilib aytganda, bularning barchasi yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga xizmat qiladi. Bu bilan Muhammad Yusufdek noyob fenomen hodisaning yosh avlod ta’lim tarbiyasi bilan bog‘liq ulkan vazifalarni bajarishga muhim bir vosita bo‘lib qoladi. Garchand buyuk shoirning ijodi ta’lim-tarbiyada kreativ vazifani bajarib kelayotgan ekan, bundan keyin ham ko‘p yillar va asrlar uning ijodi va asarlari bo‘lajak avlodlarimizning ta’lim-tarbiyasida muhim vosita bo‘lib qolishiga ishonchimiz komil. Zero, shoir Muhammad Yusufni buyuk Alisher Navoiyning davomchisi sifatida e’tirof etishga loyiq.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.
2. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan, Vatanim. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

Xoliqulova Go‘zal Erkinovna,
San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

“KO‘KSINGDA SAVOLING BO‘LMASA DUNYOGA NEGA KELDING.....”

Muhammad Yusuf shaxsini yaqindan bilgan insonlar, ya’ni ustozlari, tengdoshlari, do’stlari u haqda istaganicha xotirlashi, yozishi va gapirishi mumkin. Chunki jonli muloqotlar chog‘idagi esdaliklar ularga asos bo‘ladi. Masalan, Said Ahmad shoirni “pokiza inson, u odamlarni o‘ylatgan, kuldirgan, yig‘latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli” [1.5] deya ta’riflagan. Ozod Sharafiddinov “Muhammadjon kamdan-kam tug‘iladigan iste’dod egasi bo‘lishi bilan birga, kamdan-kam shoirlarda uchraydigan xislat egasi – shuhratdan qochadigan kamsuqum inson edi. U shuhratning emas, shuhrat uning ortidan quvib yurardi” [1.7] deb yozgan. Abdulla Oripov esa “U obro‘ talashmas, izzatini so‘roqlab yugurib yurishdan or qilardi. Shunday yaxshi insongina yaxshi ijodkor bo‘lishi tabiiy va qonuniydir. Shu kabi yuksak fazilatlar tufayli Muhammad Yusufni xalqimiz ardoqladi” [1.8] deya ulug‘lagan bo‘lsa, Erkin Vohidov “Muhammadjon qisqa umr ko‘rdi. Sham singari yonib yashadi va o‘zidan so‘nmas otash, yorug‘ iz qoldirdi. Bu otash shoirning yodini, ikkinchi umrini asrlarga tutashtirajak” [1.10] deya shoir shaxsini boshqalarga namuna qilib ko‘rsatgan.

Shoirning hayoti va ijodini sevib o‘rganganlar, she’rlaridagi dardni o‘zining dardiga aylantirib yod olganlar u haqda yozishga biroz cho‘chiydilar, xato fikr aytib qo‘ymaslik uchun o‘zlarini tiyadilar. Shoirning hayoti va ijodi bilan bog‘liq voqeahodisalarni o‘qib, qalbida tug‘ilgan qator savollarga javob axtaradilar, she’rlaridan ilhomlanib o‘zlaricha she’r to‘qiydilar, yuragida paydo bo‘lgan qator savollarga ana shu she’rdagi satrlardan javob topganday bo‘ladilar, “yozishga haqqim bo‘lsa kerak”, deb o‘z xulosalarini boshqalarga ulashish maqsadida qo‘liga qalamga oladilar.

Aslida bunday holat sahna ijodkorlarida ko‘proq uchraydi. Sahna nutqi pedagoglari sahna ijodkorlarining nutqini tarbiyalashda ko‘proq Ona Vatan to‘g‘risidagi she’riy asarlardan foydalanadilar. Tanlangan she’riy asar badiiy jihatdan kuchli bo‘lishi, tarbiyaviy ahamiyatga ega va umuminsoniy qadriyatlarga boy

bo‘lishi, umuman olganda ijrochi-talabaning hamma qirralarini ochishga xizmat qilishi zarur. Shunda shoirning “Vatanim”, “Xalq bo‘l, elim”, “Ulug‘imsan Vatanim” kabi qator she’rlari talabaning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki uning she’rlarida tabiiylik, soddalik, eng asosiysi milliylik bor. Uning yaratgan dostonlari kam, ammo nihoyatda ta’sirli. Masalan, Muhammad Yusufning 33 yoshida 1987-yilda yozgan “Ko‘hna quduq” nomli dostonini shu kungacha ko‘pchilik o‘quvchi sevib o‘qib keladi. Bugun kundan-kunga chiroy ochib borayotgan Buxoroni ko‘rgan o‘quvchi shoirning istaklarini yanada chuqur anglagandek bo‘ladi. Birgina mana shu doston orqali Vatanning har bir qarich yerini asrab-avaylash lozimligi anglaydi.

Doston o‘zining shakliy xususiyati bilan ajralib turadi. Satrlar ma’lum nisbatda navbatlashib kelgan ham she’riy, ham nasriy qismlardan iborat. Ammo nasriy qismlarda ham she’riy ohanglar dard bilan uyg‘unlashib ifodalangan.

Shoir ushbu dostonni yaratara ekan, Qadimgi Buxoroni Hofiz obrazida ko‘radi va uni kuylatadi. Cho‘kib, nurab borayotgan minoralar, to‘kilib ketayotgan obidalarning devorlari-yu, zax bosgan hujralariga achinish bilan qaraydi. Alamlarini to‘kib sochadi. Bu ko‘hna shaharda yashab ijod qilgan allomalarining tilidan so‘yaydi, o‘zining ichki dardi Hofizning dardi bilan uyg‘unlashib ketadi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar O‘zbekistonning qaysi bir hududida bo‘lmisin, mavjud tarixiy obidalarning barchasi kun sayin to‘kilib, nurab, yo‘qolib borayotganiga guvoh bo‘ldik. Bu haqda shoir va yozuvchilar tomonidan qator she’rlar, dostonlar yaratildi. Olimlarimiz tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Tarixni kelajakka yetkazish uchun davlatimiz kuch va imkoniyatlarni ayamadi. Ammo bu muqaddas tarixiy obidalarni asrab-avaylash ham, barbob qilib tashlash ham insonlarga bog‘liq ekanini anglatishda adabiyotning, she’riyatning kuchi muhim ahamiyatga ega.

Butun umrini Vatanga ishqiga bog‘lagan shoir birgina Buxoroni o‘z holiga tashlab qo‘yilganidan, bu bilan o‘tmishimizni, yetishib chiqqan buyuk allomalarimiz tarixini unutayotganligidan qayg‘uga tushadi. Bunga befarq bo‘lgan kishilardan ranjiydi, mas’ul shaxslarini tanqid ostiga oladi:

Buxoroda qancha hujra bor? Buni hech kim bilmaydi.

Sababi bu hujralarda ilm da'vo qilgan barcha mullavachchalar endi mulla bo'lishib o'z yurtlariga tarqab ketishgan. Mulla bo'lomaganlari esa hujralardan hafa.

Go 'yo gap faqat hujradadek.

Buxoroda qancha hujra bor? Buni hech kim bilmaydi.

Bilganlarning bari o'tib ketgan. Yana bir sababi shulki, bu hujralar hech qaysi...JEKka qaramaydi...

Shoir yer yuzida qancha o'qimishli odam bo'lsa, Buxoroda hujralar soni shuncha, deb o'zining savollariga o'zi javob beradi. Uning yuragidagi qator savollar yana she'riy satrlarga aylanadi:

Buxoro, sen shamga o'xshaysan,

Mening ko 'ngil hujramga kirgan.

Tutab, o'chib qolay deb turgan,

So 'nar so 'nggi shamga o'xshaysan.

Minorlaring bo'yłari uzun,

O'zidan-da o'yłari uzun.

Ertakdayin so'yłari uzun,

Sen ham uzun g'amga o'xshaysan.

Muhammad Yusuf dostonning avj satrlariga kelar ekan, ota-bobolarimiz yetgan aziz va muqaddas qabristonlarni nima uchun sajdagoh deb atalishini, unga odamlar nima uchun sig'inishlarini, buning asli ma'nosi nima ekanligini Hofiz tilidan dardli ohanglarda quyidagi satrlarda kuylaydi.

Asli inson xoki qo'yilgan hamma joy aziz va muqaddasdir. Bas, shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog'ini ko'zlariga surtsin. Men barcha qabristonga sig'inaman. Men barcha toza dilga sig'inaman. Illo, toza dilda kufrga joy yo'q....

Odamlar bir-birlarining diligiga sig'insin, deganlar mavlono Rumiy.

Chunki inson ko'ngidan muqaddasroq Ka'ba ham yo'q!

Buxoroi sharif, muqaddas beshik,

Ne-ne allomalar dunyoga kelgan.

Bunga shohlar kirgan kovushin yechib,

Bu joyga amirlar piyoda kelgan.

Shoir ishlatgan bu so‘zlar o‘quvchini nafaqat vatanparvarlikka chorlaydi, balki ertangi kuni haqida o‘ylashga ham majbur qiladi. Chuqur mulohaza qilishga undaydi. U o‘zi yashab turgan uyini, makonini, ota-onasi yotgan mozorlarini ko‘zdan kechirishga harakat qiladi, vatanparvarlik asli o‘zining ostonasi ekanini anglaydi.

Dostonda qiziq bir voqeа tasvirlangan. Bunda Buxorodagi bir maqbara tilga olinadi. Bu maqbaraga dunyoning barcha joylaridan kelgan sayyoхlar niyat qilib, ixlos bilan atrofidan yetti marta aylasa tilagi bajo bo‘lishini aytadi. Buxoroliklarning o‘zi bu hikmatni bilmas ekan-u, ammo sayyoхlar bilar ekan. Avtobusdan tushgan qator faranglar ushbu maqbara oldiga kelib aylana boshlaydi. Ular orasida yoshlар ham qarilar ham bor, xiyol kulimsirab, hazil aralash, ammo yoshi ulug‘lari jiddiy ixlos bilan yetti marta aylanadilar. Ular ketishadi. Hofiz yana tilga kirib:

Faranglar ketishdi. Hofiz hikmati yana hikmatga aylandi... Buxoro sen buyuk hikmatsan. O‘z bolang ham qadriga yetmagan hikmat.

Sening to‘kilayotganing shundan emasmi?

Nihoyat minglab, balki millionlab kishilar suv ichgan ko‘hna quduq haqida gap ketadi. Unga hayrat ko‘zi bilan o‘zining bolasiday qaraydi, bu vodiyya “bobokalonimning bobokaloni” deb jilmayib qaraydi, ammo uning xastaligidan xo‘rsinadi.

Dostonda shoir tabiatni ham esidan chiqarmaydi. Tog‘lardagi ohular, hujra yonida rayhonlar ekib, parvarishlab yurgan aqli ojiz yigit, zilol suvlaridan mahrum bechora Orol dengizini tilga oladi. Ko‘ksiga qator-qator savollarni tugadi.

Buxoroda bir payt ohular bo‘lgan – Xonguli degan.

Xoldor ohular... Ular meni tushlarimda yo‘qlaydi.

Shundoq tepamga kelib, jilmayib, yuzlarimni iskaydi.

*Men har tong qaydasiz ohularim, deb uyg‘onaman. Hali
ko‘zimni ochmay dunyoga savol beraman. Qadim Buxoronning
ohulari qayga ketib qoldi, deyman.*

Daryolar quriydi. Tog‘lar cho‘kadi. Kitoblar yonadi.

Dunyoda faqat bir narsa – savollargina abadiy.

Savollar kiyik so‘qmoqqa eltuvchi yo‘lakdir. Ko‘ksinda

Savolning bo‘lmasa dunyoga nega kelding, otingdan aylanay

Inson!

Bu dostonni o‘qigan har bir o‘quvchi larzaga tushadi. Ayniqsa, bu dostonni ijrochi-talaba bilan repertuar sifatida ishlansa, so‘z boyligi oshadi, tili burro, tafakkuri keng bo‘ladi. Ovozi charhanadi, so‘zning tub ma’nosini topishga, anglashga o‘rganadi. Sohtalikdan qochadi, tabiiylikka intiladi. Tomoshabin bilan jonli muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Balki, 8 gektardan ziyod yer maydonini o‘z ichiga olgan va unda bunyod etilgan “yaxlit me’moriy ansambli – Adiblar hiyobonida qad ko‘targan 24 nafar yozuvchi va shoirlarimizning haykalariga biriktirilgan oliy o‘quv yurtlari qatorida O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haykaliga O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining mas’ulligi shaxsan hurmatli Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgani bejiz bo‘lмаган. Asosiy maqsad, yoshlar qalbiga she’riyatni singdirish, ma’naviyat targ‘ibotchilarini vatanparvarlikka o‘rgatish, kelajakda sahnalashtiriladigan spektakllarda, tayyorlanadigan filmlarda ona tilini e’zozlashga jiddiy e’tibor berish, unga mehr, hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, buni esa Muhammad ijodidan qidirish lozimligi ko‘zda tutilgan.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida/ Muharrir U.Qo‘chqorov. – Toshkent: “Adib” nashriyoti, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgust “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 502-sonli qarori.
3. O‘zA “Vatanimizning oltin ostonasi Toshkent tobora chiroy ochmoqda” // Xalq so‘zi, 2020-yil 27-may. 1-bet.

4. Muhammad Yusuf. Saylanma. She'rlar, dostonlar, shoir haqida xotiralar. – Toshkent “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. 107-121-betlar.

Xamdam Ismoilov,
O‘zDSMI “Jahon tillari va adabiyoti”
kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI MUHAMMAD YUSUFNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning obraz yaratish mahorati masalasi nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Shoir yaratgan obrazlar o‘ziga xos xususiyatlari, o‘ta milliyligi, shu bilan birga umuminsoniyigli bilan ajralib turishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: hayot, obraz, badiiy, voqelik, ong, yuksak, aniqlik, lo‘ndalik, ijtimoiy, e’tibor.

Аннотация

В данной статье теоретически рассматривается вопрос о мастерстве создания образа Народным поэтом Узбекистана Мухаммадом Юсуфом. Отмечается, что созданные образы поэтом отличаются своими образными характеристиками, национальными и общенациональными качествами.

Ключевые слова: жизнь, образ, художественный, действительность, мысль, высокий, точность, целостность, социальный, внимание.

Annotation

This article theoretically examines the question of the skill of creating an image by the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. It is noted that their peculiar characters, national qualities, distinguish the images created by the poet.

Key words: life, image, artistic, reality, thought, high, accuracy, integrity, social, attention

Adabiy asarlarda hayotni badiiy aks ettirishda asardagi obrazni haqqoniy tasvirlash adibning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu sohada shoir Muhammad Yusufning alohida o‘rni bor. Uning ba’zi she’rlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq shaxslarga yo‘naltirilganligi e’tiborni tortadi. Shoirning “Malika”, “Nasiba”, “Xursanoy opa”, “Gdlyan”, “Kumush”, “Toshkent” kabi she’rlari shular jumlasidandir. Bu asarlarda obrazi yaratilayotgan personajlarning nomi aniq keltiriladi va shu asnoda ularning hayoti va bajargan ishlari bilan bog‘liq barcha jihatlar aniq shaxs obrazi bilan bog‘liq ravishda haqqoniy ochib beriladi. Bu bilan shoir realistik obraz yaratish mahoratini namoyish qiladi.

Obraz orqali badiiy asardagi barcha narsani qamrab olish mumkin bo‘lganligi sababli u bilan adabiyotning tasvir doirasi ham keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Biroq adabiyotning voqelikni ongimizga, qalbimizga kirib boradigan darajada samara berishi uchun adiblar asar ustida qunt bilan ishlashlari, obrazni shakllantirishda yuksak badiiy aniqlikka va lo‘ndalikka erishishi zarur bo‘ladi. Shoir Muhammad Yusuf o‘zi yaratgan obrazlar orqali keng adabiy imkoniyatlardan foydalanadi, shu sababli u yaratgan obrazlar nihoyatda jonli, hayotda qanday bo‘lsa shunday tasvirlanadi. Lekin shoir bu bilan o‘z obrazlarini quruq tasvirlamaydi, balki ularga badiiy ishlov beradi va boyitadi.

“Qizg‘aldoq” she’ridagi qizg‘aldoq obrazida qandaydir jonsiz bir giyoh tasvirlanayotgandek tasavvur hosil bo‘ladi, lekin u berayotgan badiiy bo‘yoqlar orqali qizg‘aldoq jonli bir xilqatga aylanadi. Bu obrazning “koshonasi”, “toshoynasi”, “peshonasi” borligini ta’kidlaydi. Qizg‘aldoqni kelinchakka, jayronga mengzaydi, qizil yuzadan qon tepib turganligini ta’kidlaydi. Qizg‘aldoqning tez ochilib, tez so‘nishiga, hayotning esa o‘tkinchi ekanligiga ishora qiladi.

Hayotning o‘tkinchi ekanligi haqidagi fikrlarni shoirning “Qizil olma”, “Kapalaklar” kabi she’rlaridan ham uqish mumkin. Qizil olma, kapalaklar obrazlari bilan muallif kishilarni insof-diyonatga, birov larga ozor bermaslikka, ularga mehr ko‘rsatishga chaqiradi. Ko‘rinadiki, tasvirga olingan obrazning har birining ijtimoiy ahamiyati yuqori darajada ekanligi anglashiladi.

Obraz orqali asarda ko‘zda tutilgan barcha fikrlar dalillanadi. Ammo har bir obrazda ijtimoiy ma’no mavjud. Qachonki, obrazga ijtimoiy ma’no yuklatilsagina, u yanada jonlanadi, ma’no doirasi yanada kengayadi. Bosh obraz darajasigacha ko‘tarilgan jayron, rayhon, dunyo, anor, qaldirg‘och kabilarga ham ijtimoiy ma’no yuklatilganligi uchun ularni jonli xilqatdek tasavvur qilinadi, ularga jonli odamdek munosabatda bo‘linadi, ular ham jonli mavjudot ekanligiga ishora qilinadi.

Ijtimoiy hayotni to‘la va yorqin tasvirlash uchun har bir obrazga e’tibor bilan yondashish lozim. Bunda tilga ham jiddiy e’tibor berish lozim bo‘ladi, negaki to‘laqonli obraz yaratishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yan adibdan tushunarli til, puxta tanlangan so‘zlardan foydalanish talab etiladi. Tabiiyki, obraz til bilan yaratiladi. Adabiyot so‘z san’ati bo‘lganligi tufayli undagi obrazlarni yaratishda so‘z qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. So‘z esa tilning asosini tashkil qiluvchi vosita hisoblanadi. Ko‘rinadiki, so‘z bilan til bir-birini o‘zaro taqozo etadi. Shu ma’noda shoirning so‘zi ham, tili ham birday tasvir vositasi bo‘lib qoladi. Shoir obraz yaratishda so‘z va tildan unumli foydalanadi, u so‘zni bekorga sovurmaydi, o‘zi foydalangan har bir so‘zga olam-olam ma’no yuklaydi. Shu tufayli u soddagina so‘zlar bilan o‘quvchini ishontira oladi.

Adabiy til badiiy asarda obraz yaratishda asosiy vosita hisoblanadi. Negaki, adabiyotning o‘zi so‘z san’ati bo‘lganligi tufayli obraz ham adabiy til yordamida yaratiladi. Shoir o‘z asarlarida adabiy tilda “gapirodi”. Negaki, u o‘z ona tilini nihoyatda hurmat qiladi. Uni ortiqcha varvarizmlar bilan qorishtirishni xohlamaydi. Uning she’rlarini har bir satri o‘zbekona jaranglaydi, bu, albatta, milliy adabiy tilimizning qudratidan dalolat beradi.

Shunday bo‘lsa-da, adabiy til so‘zlashuv tili bilan doimiy aloqada bo‘ladi. Ayniqsa, adiblar o‘zbek tilining turli shevalari vakillari bo‘lganliklari uchun ularning asarlarida, albatta, so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan so‘zlar ham mavjud bo‘ladi. Adabiy til xalq tilidan kelib chiqqanligi sababli unga o‘zgacha bo‘yoq beradi. Aynan ana shunday so‘zlar ishtiroki tufayli badiiy asar kitobxonga yanada yaqin bo‘ladi. Shu ma’noda ba’zi o‘rnlarda adib o‘zi yashagan sharoitda qo‘llangan so‘zlardan ham unumli foydalanadi. Bunday sheva so‘zлari asarga putur yetkazmaydi, balki uni

bezaydi. Shu ma'noda "ayol" so'zini "xotin" so'zi bilan bir paytda qo'llayveradi, "to'shak" so'zi ham o'z o'rniga ega va hokazo.

Ko'pgina adiblar, jumladan Abdulla Qodiriy ham obraz yaratishda so'z qo'llashda nihoyatda talabchan bo'lgan. So'z qo'llashga no'noq bo'lganlarni tanqid qilgan. Obraz yaratish jarayonida tilda uchrashi mumkin bo'lgan chigallik, balandparvozlik, sun'iylik, qashshoqlik, quruqlik kabilardan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. Muhammad Yusuf ham o'z salaflarining o'gitlariga doimiy amal qilib keldi. So'z salmog'ini nihoyatda noziklik bilan ilg'aganligi tufayli obraz yaratish paytida har bir so'zdan o'z o'rnida foydalanishga intildi va bu sohada ko'pgina ijodkorlarga o'rnak bo'ldi. Ortiqcha chaqiriq, da'vat so'zlaridan tiyildi. Adabiy tilimizni nihoyatda hurmat qilgan holatda undagi so'zlardan ziylolilarga xos ravishda foydalandi. Shunday xalq so'zлari ham borki, ular muallif nutqida fikrni qanday ifodalash kerak bo'lsa, xuddi shunday ifodalaydi.

Shoir o'z asarlari bilan o'zbek tili nihoyatda boy, nihoyatda chiroyli, har qanday fikrni bemalol ifodalay olishi mumkinligini o'z asarlarida ko'rsata oldi. O'zbek tilining so'z boyligidan unumli foydalandi. Shoирning quyma satrlarida har bir so'zning o'z o'rni bor. Ularni boshqa so'zlar bilan almashtirish dushvor. Bu so'zlar tizimi yodda qolarli obrazlar yaratishda assosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

Har bir obrazni yaratishda tashbehlardan unumli foydalandi. Shuning uchun u yaratgan obrazlar jonli, hayotiy chiqqan. Xususan, Vatan obrazini onaga o'xshatadi, u onadek mehribon ekanligini ta'kidlaydi. Vatanni ulug'lash maqsadida yana ko'plab she'rlar bag'ishlaydi va har birida uni sharaflash uchun tegishli so'zlarni topa oladi.

Muhammad Yusuf obraz yaratishda shoирга ilhom, jasorat, mahorat kerak deb hisoblaydi. Shoир qaltis zamonlarda o'zida Vatanni qanday sevish mumkinligini o'z asarlari bilan ko'rsata oldi va bu sevgini aniq obrazlar orqali tasvirladi.

Obraz yaratish chog'ida tildan foydalanishda har bir shoирning o'z nuqtai nazari va uslubi bor. Bu davrda mavjud bo'lgan ijodiy metod va milliy adabiy an'analar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Milliy an'analar esa hozirda mavjud bo'lgan an'analar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda M.Yusuf ko'pchilik ijodkorlar kabi

milliy an'analarni nihoyatda ehtirom qilgan holda o'zi orzu qilgan yangi zamon ruhida ijod qildi, asarlar yaratdi.

Umuman olganda, Muhammad Yusuf o'zidan avvalgi salaflardan o'rnak olgan holda milliy adabiyotimizga xizmat qildi, yangi davrda uning ravnaqiga o'z hissasini qo'shdi. Uni haqli ravishda uchinchilik renessansning birinchi shoiri deb atash mumkin. XX asrda u xalq sevgan shoir edi, XXI asrda ham u xuddi shunday bo'lib qoladi, shogirdlari safi yanada kengayib boraveradi. Xuddi hazrat Alisher Navoiydek kelajak avlodga "labbay" deb javob beraveradi, shoir o'zi yaratgan obrazlarda abadiy yashaydi.

Adabiyotlar:

1. Qodiriy A. Ijod mashaqqatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: "O'zAJBIT" markazi, 2003.
3. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan Vatanim. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.

**A'zamjon Abduxalilov,
O'zDSMI "Qo'g'irchoq teatri san'ati"
kafedrasи mudiri, dotsent**

ODDIY SO'ZLARNI ULUG'LAGAN SHOIR

Annotatsiya

Ushbu maqola Muhammad Yusuf she'riyatining o'zbek qo'shiqchilik san'atining yuksalishidagi o'rniga bag'ishlanadi. Uning o'nga yaqin "Tanish teraklar" (1985), "Bulbulga bir gapim bor" (1987), "Iltijo" (1988), "Uyqudag'i qiz" (1989), "Halima enam allalari" (1989), "Ishq kemasi" (1990), "Ko'nglimda bir yor" (1991), "Erka kiyik" (1992) kabi she'riy to'plamlaridagi she'rlarining qo'shiqqa aylanishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, xalq, millat, sevgi, sadoqat, odamiylik, shoirlilik, e’tirof.

Аннотация

Эта статья посвящена роли поэзии Мухаммеда Юсуфа в становлении узбекского пения. Около десяти ее работ - «Знакомые тополя» (1985), «Слушай соловей» (1987), «Убадительная просьба» (1988), «Спящая девушка» (1989), «Калыбельные матушки Халимы» (1989). , «Корабль любви» (1990), «О кам мечтал» (1991), «Ласковая газель» (1992) превращение его стихов в песни.

Ключевые слова: Родина, люди, нация, любовь, преданность, человечность, поэзия, признание.

Annotation

This article is dedicated to the role of Muhammad Yusuf's poetry in the rise of Uzbek singing. About ten of her works are “Familiar Poplars” (1985), “I Have a Say to the Nightingale” (1987), “Prayer” (1988), “Sleeping Girl” (1989), “Halima Enam Allalari” (1989), “Ship of Love” (1990), “Unfaithful Many”(1991), “Male Deer”(1992) the transformation of his poems into songs.

Key words: Motherland, people, nation, love, devotion, humanity, poetry, recognition.

Inson umri necha yoshga kirgani bilan emas, balki shu vaqt mobaynida o‘zidan qoldirgan ishlari bilan baholanar ekan. Odamlar og‘zida: “U falon yoshga kiribdi-yu eslaydigan bir ish qilmabdi. Ammo falonchi juda oz umr ko‘rdi-yu, qilgan ishlarini sanab adog‘iga yetmaysan kishi”, – deb aytilgan fikrlar qulog‘imizga chalinib turadi. Bu mazmunda O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haqida hech bir mubolag‘asiz yurt koriga yaragan shoir deb aytish mumkin. U – Muhabbat kuychisi edi.

Garchand, M.Yusuf she’riyatida Vatan, xalq, millat, sevgi, sadoqat, odamiylik, shoirlilik va hokazo mavzularni boshqa shoirlar ijodida ham uchratsak-da, talqin borasida o‘ziga xos yondashuv bor edi. Uning she’rlari muhabbatga yo‘rgaklangani, so‘zning kuyga hamohangligi, fazilati ham shunda deb o‘ylaymiz. Yana shoirning

she’riyatida o‘ta soddalik, oddiy, xalqona chapanilik, barcha birdek tushuna oladigan so‘zlar va jumlalarni kuzatamiz. U qaysi bir mavzuga e’tibor qaratmasin, aytganlari go‘yo unga ilohiy o‘ziga xos ifodani ta’minlagandek. Gap shundaki, M.Yusuf ba’zi bir shoirlar kabi so‘zning jozibasiga emas, balki uning tabiiyligiga e’tibor qaratdi. Satrlardagi ravonlik, soddalik va chapanilik xalqona ibora tanlovi sabab shoir she’rlari tezda yodda qoladi. Shundan bo‘lsa kerak yurakdan tug‘ilgan dardli so‘zlar xalq qalbiga tez singdi. Odamlar ham hech bir qiyinchiliksiz yod olar, xirgoyi qilishga odatlangan edi. Shoirning muhabbat kuychisi bo‘lishi, ana shu samimiyligi ufurgan she’rlari, ko‘ngilga yaqin so‘zлari kuyga aylanib, yurtimiz ardog‘idagi xonandalar ijodidan munosib o‘rin egalladi. O‘zbekiston xalq artistlari G‘.Yoqubov, Y.Usmonova, O.Nazarbekov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar M. Xoliqov, O.Madaliyev, G‘.Boytoyev, S.Nazarxon va boshqa ko‘plab xonandalar tomonidan qo‘shiq qilib kuylandi. Shuning barobarida ko‘plab qo‘shiqlar so‘zining muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib, el ichida yosh-u keksaga birdek manzur bo‘ldi. Bu qo‘shiqlar hofizlar ijodida repertuarlarining gultoji bo‘lib, o‘rin egalladi. Aksariyat qo‘shiqlar elga manzur qo‘shiqlar sifatida ular og‘zida doimiy xirgoyi etiladiganlariga aylandi.

M.Yusuf hayotiga bag‘ishlab olingan film portretlar, unda oilasi, do‘stlari, yaqinlari, shoirlar, bastakorlar, xonandalar tomonidan bildirilgan iliq va samimiylar, shaxs sifatida nechog‘lik sodda, samimiylar, tirishqoq, tanti inson bo‘lganidan darak beradi. Darhaqiqat, ular e’tiriofini ko‘rishni istagan kishi, shoir yozgan she’rlarni jamlagan kitobni qo‘lga olib nazar solsinlar. Uning o‘nga yaqin “Tanish teraklar” (1985), “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagи qiz” (1989), “Halima enam allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Ko‘nglimda bir yor” (1991), “Bevafo ko‘p ekan” (1991), “Erka kiyik” (1992), “Yolg‘onchi yor” (1994) kabi she’riy to‘plamlari, saylanmalari nashr etildi.

M.Yusuf she’riyatida ona obrazini ifoda etarkan, uning ta’rifiga aytilgan so‘zlar, sizning, mening, bizning onamiz haqidadek, go‘yo. Uning “Onamga xat”, “Onamga”, “Onajon”, “Onaizor” nomli va bir qator shu mavzudagi she’rlar turkumida kitobxon beixtiyor o‘z onasiga aytmoq istagan so‘zini topadi. O‘sha mehribonlik, farzand

uchun qayg‘urish, tashvishiga ko‘milish, sog‘inch qiyinog‘i, uning quvonchidan olamlarga sig‘maslik, shodligidan zavqlanish va hokazo. U – bizning Onamiz.

Oh, mening ortimdan ovvora onam,

Bir parcha yuragi ming pora onam.

Har baloni ko‘rib yorug‘ dunyoda,

Toshkanni ko‘rmagan bechora onam,...

Ha, bu mening onamga aytmoq bo‘lganlarim, qidirganlarim go‘yo uning so‘zlarida aks etgandek. Shoir hali tiriklik chog‘ida o‘z onasiga mehrini baholar ekan, o‘zidan kechgudek, olayotgan nafasiday omonat, buyuklikka daxldor siymo deb aytadi. M.Yusuf ijodida Ona va Vatan siymolarini o‘zaro uyg‘un talqin etdi. Bir she’rida ona bag‘ridan vatan topsa, boshqasida Vatan ishqidan ona mehrini tuydi.

Men dunyoni nima qildim,

O‘zing yorug‘ jahonim,

O‘zim xoqon,

O‘zim sulton,

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg‘izim,

Yagonam deymi,

Topingan koshonam deymi,

O‘zing mening ulug‘lardan

Ulug‘imsan, Vatanim...

Bu satrlarni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sevara Nazarxon ijrosida tinglagan kunim hali-hamon yodimda. O‘sha kuni “Xalqlar do‘stligi” san’at saroyida “E’tirof” milliy taqdimot taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tayotgan edi. Sahnaga S.Nazarxon taklif etildi. Sahnaning markazida harakatsiz, bir joyda turib yuqoridagi so‘zlar bilan aytilguvchi “Ulug‘imsan Vatanim” qo‘shig‘i uning ijrosida yangradi. Zalda bir muddat sokinlik hukm surdi. Faqat Sevaraning ijrosi eshitilardi biroq, zum o‘tmay, qo‘shiqning naqorat qismida xonandaga butun konsert zali jo‘r bo‘ldi.

Sen- shoxlari osmonlarga

Tegib turgan chinorim,

*Ota desam, O'g'lim dem,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo 'ynimdag'i iftixorim,
Bo 'ynimdag'i tumorim,
O'zing mening ulug 'lardan
Ulug 'imsan, VATANIM !*

O'zim ham negadir, beixtiyor ko'zda yosh bilan kuylashga tushdim. Tanamdan shu lahzada go'yo minglab chumoli tirmashgandek seskanib ketdim. Harchand o'zimni yig'lashdan to'xtatishga urinsamda iloji bo'lmasdi. Nogoh ko'zim oldingi qatorda o'tirgan estradamiz yulduzlariga tushdi, ular ham tinimsiz ko'z yoshlarini artish barobarida qo'shiqqa jo'r bo'lishardi. Shu payt butun konsert zali o'midan turdi, boyagi hayajon yanada kuchaydi. Endi hech kim atrofga e'tibor qilmas, borlig'i bilan qo'shiqqa jo'rovozlik qilardi. Qo'shiq yakunlandi. Tinimsiz olqishlar uzoq yangradi. Shu kuni konsert zalidan chiqib uyga piyoda yo'l oldim. Tumonat odam ichidan o'tar ekanman, kimdir o'sha qo'shiq haqida xamrohiga hayajon bilan gapirar, yana kimdir esa hamon qo'shiqni xirgoyi qilishdan to'xtamas edi. Bildimki, xonandaning mahorati shoirning dardiga uyg'un ijro etilgani va albatta, bastakorning topqirligi, so'zning aniq notasi va pardasini topa olganida ko'rindi.

Shoir muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turdi.

1998-yili Muhammad Yusufga "O'zbekiston xalq shoiri" degan yuksak unvon berildi.

Shoir 2001-yilning 1-avgust kuni 47 yoshida olamdan o'tdi. Negadir uni qabristonga kuzatib borganlar xuddi ular nomidan so'zlovchi, rohat va azoblari – kechinmalarini topib aytuvchi hamdardlarini tuproqqa qo'yayotgandek ayriliqni tuyganlari haqida hali hamon eslaydilar.

Bugun uning nomida maxsus ijod maktabi, muzey, uy muzeyi va o'zi o'qigan muktab nomlandi. Xotirasini abadiylash vazifasi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich tavsiyasini bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga

yuklatildi. O'tgan qisqa vaqt ichida amaliy ishlar rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, hujjatli va badiiy film, ijodiy kechalar, institut rektorining M.Yusuf she'rlarini mahoratli o'qish, uning so'zлari bilan kuylanuvchi qo'shiqlar tanlovi va hokazo ijodiy ishlar belgilab olindi. Bu kabi ijodiy ishlarning amaliy natijalariga ham guvoh bo'ldik. Har oyda shoir haykali joy olgan "Adiblar xiyoboni"da uning oila a'zolari ishtirokida ijodiy kechalar tashkil etib kelinmoqda.

Aytganlarimiz Sizlarga garchand yangilik bo'lmasa-da, ilmiylik kasb etmasada, biz ham uning she'rlariga bir ixlosmand muxlis sifatida aytgimiz kelgan fikrlar bilan o'rtoqlashdik, xolos. Zero, shoirning ruhi shodlansa, qalblar esa taskin topsa.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan, Vatanim. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.

**L.T. Urazmbetova,
O'zDSMI Nukus filiali,
"Rejissura va aktyor mahorati" kafedrasi mudiri,
M. Ismailova,O'zDSMI Nukus filiali,
"Rejissura va aktyor mahorati" kafedrasi dotsenti**

HAYOTI – IBRAT, XOTIRASI AZIZ SHOIR

*She'rim – qarog 'imdan oqqan yoshlarim,
Anglarmisiz uni, hech ko'zim yetmaydi...
Barakalla sizga zamondoshlarim,
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi!*

(Muhammad Yusuf. "Taraqqiyot" she'ridan)

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Muhammad Yusuf ijodi haqida so'z borib, uning she'riyati nafaqat o'zbek xalqi, balki qardosh xalqlar she'riyatidan munosib o'rin

egallaganligi, Muhammad Yusufni qoraqalpoq xalqi ham xuddi o‘zining farzandi va dono shoiri sifatida hurmat qilganligi haqida.

Kalit so‘zlar: shoir, ijod, xalq, adabiyot, she’riyat, tarix, xotira, millat, inson, ma’naviy boylik.

Аннотация

В данной статье рассматривается творчество поэта Мухаммада Юсуфа, то, что его поэзия занимает достойное место не только в поэзии узбекского народа, но и в поэзии братских народов, а также, народ Каракалпакстана воспринимает Мухаммада Юсуфа как своего сына и как мудрый поэт.

Ключевые слова: поэт, творчество, народ, литература, поэзия, история, память, человек, духовное богатство.

Annotation

This article examines the work of the poet Muhammad Yusuf, the fact that his poetry occupies a worthy place not only in the poetry of the Uzbek people, but also in the poetry of fraternal peoples, and the people of Karakalpakstan respect Muhammad Yusuf as their son and a wise poet.

Key words: poet, creativity, people, literature, poetry, history, memory, man, spiritual wealth.

Zamonimizning kuchli shoiri Muhammad Yusufning muborak xotirasi har safar yod etilib, uning ijodini yoshlar tafakkuriga yetkazish muqaddas va sharafli ishga aylanib ulgurdi. O‘zbek she’riyatida munosib iz qoldirgan ulug‘ shoirlar nomi abadiylashtirilib, ular uchun maktab-internatlari, xiyobonlar barpo etilmoqda. Shahar va tumanlarda ko‘chalar ularning nomi bilan ataladigan bo‘ldi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 2-3-iyunda Andijon viloyatiga tashrifi chog‘ida zabardast shoir Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish haqidagi topshirig‘iga binoan qad rostlagan maktabda bugungi kunda 150 nafar iqtidorli yigit-qizlarimiz ta’lim olmoqda. Unda tashkil etilgan shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlangan muzey yoshlar tafakkurini yorutuvchi sayqallangan chiroq misoli.

“Muhammad Yusuf xalqimiz sevgan samimi shoir, vatanparvar inson edi. Sizlar uning munosib davomchilari bo‘lishingiz kerak. Buning uchun bir daqiqa ham vaqtlariningizni behuda o‘tkazmay, ko‘proq o‘qib, tarixga uyg‘oq boqib, kamolga yetishlaringiz zarur. Eng katta boylik – ma’naviy boylikdir”, - degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev [1].

Moddiy boylik qachondir tugashi ehtimol, ma’naviy boylik barhayotdir. Haqiqatan ham, uning she’riyati nafaqat o‘zbek xalqi, balki qardosh xalqlar she’riyatidan munosib o‘rin egalladi. Muhammad Yusufni qoraqalpoq xalqi ham xuddi o‘zining farzandi va dono shoiri sifatida hurmat qiladi. Qoraqalpoq shoirlari ham o‘zbek adabiyotini sidqidildan sevib, unga shaydo bo‘ldi desak, mubolag‘a emas. O‘zbekiston Qahramoni Ibrayim Yusupovning “Men Toshkentni sog‘inaman ko‘rmasam” degan she’rida:

Men Toshkentni sog‘inaman ko‘rmasam,

Yozda Anhor bo‘ylarida yurmasam,

Shirin tilli o‘zbek shoirlaridan

G‘azal tinglab, qo‘sish qib bermasam,

- deya o‘zbek ijodkorlariga yuksak baho berib, ularga qoraqalpoqlar nomidan hurmat-ehtirom bajo keltiradi. Qoraqalpoq va o‘zbek shoirlari azal-azaldan, do‘st-u birodar bo‘lib birga qalam tebratganlar.

She’riyat osmonida yorug‘ yulduz bo‘lib porlab, xalq uchun o‘lmas ijod durdonalarini yaratish faqat buyuklarga xos azm-u shijoat ifodasidir. She’riyat zamon va makon, millat va elat tanlamaydigan cheksiz ma’naviyat bulog‘idir. U yorug‘ dunyoda qalamga emas, qalbiga quloq soldi. Iste’dodini “Shoirlar” nomli she’rida ko‘ngil mulki deya e’tirof etib:

Shoirlar – kuygan ko‘ngillar nolasi,

G‘arib onalarning g‘arib bolasi.

Jami buyuklarning buyugi ular,

Jami bechoralar ham bechorasi.

deya buyuklar qalbidan chiqqan nolani asli g‘ariblik keltirib chiqarishini yuksak darajada ifodalaydi.

Shunday insonlar bo‘ladiki, ularning vafoti haqida eshitganda ko‘nglingiz bog‘iga bir g‘alati bo‘ron kirib, ko‘nglingiz qaqshab qoladi.

Muhammad Yusufning vafot etishi o‘zbek adabiyotida katta yo‘qotish bo‘ldi. Chunki uning hayoti va xalq oldidagi xizmatlari beqiyos edi. Uning qo‘shiqlari dunyo xalqlariga o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy xususiyatlarini, insonlarining toza qalbi va ulug‘ tarbiyasini tanitdi. She’riyatimi zning katta yo‘qotishi she’riyat ixlosmandlari bilan jamoat arboblarini ham tashvishlantirmay qo‘ymadi.

O‘sha vaqtлari uning onasi Enaxon aya Sotiboldiyevaga Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning maktubida chin dildan aytilgan quyidagi samimiy fikrlar mujassam edi:

“...O‘g‘lingiz Muhammadjon noyob iste’dod egasi, odamlarga mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi. Shu bois bu mudhish xabar shoirning ko‘plab do‘stlari va muxlislari kabi mening ham qalbimni larzaga soldi. Uning yorqin xotirasi barchamizning qalbimizda doimo saqlanadi...”[2]

Bu bamisoli bizga atalgan vasiyat edi. Shoir ijodining buyukligini har qadamda yod etib, ijodiy kechalar tashkil etilganda insonlar ko‘zlariga yosh oladigan bo‘ldi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday eslaydi:

“Andijonning yana bir fidoyi farzandi – O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning vafotidan so‘ng uning oilasi, farzandlaridan xabardor bo‘lish, shoirning yubileyлari, xotira tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha shaxsan menga bergen topshiriqlarini yaxshi eslayman” [3].

Bugungi kunga kelib Prezidentimiz tomonidan shoir xotirasi abadiylashtirildi. Shoir nomiga atab xalqaro mukofotning tashkil etilishi uning nomiga sadoqatning cheksiz amaliy ifodasi. Muhammad Yusuf xotirasi so‘nmas yulduz misoli yosh avlodlar ongini tarbiyalashdek yuksak vazifa yo‘lida xizmat qilib kelmoqda. Zotan, Ibrayim Yusupov ta’kidlaganidek, she’riyat mangu, shoirlilik nурdir.

Tog‘lar buloq ko‘zin ko‘mmasa agar,

Odamiylik fazilat o‘lmasa agar,

Armon yulduzlari so‘nmasa agar,

Sen so‘nmaysan she’riyat yulduzi.

Muhammad Yusuf hayot yo‘li yoshlarga ibrat namunasi sifatida ma’naviy ilmimizni oshirishda madad va quvvat manbai hisoblanadi. Xotirasi mammuniyat ila qalbimiz to‘ridadir. Zero, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning u haqida: “Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo ortidan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o‘lmas meros qoldirdi. Muhammad she’r muxlislarining yuragini o‘rtab ketdi. Endi shoirning o‘zi yo‘q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish She’riyat bor. Bu she’riyat aslo zavol bilmaydi”, - deb aytgan edilar. Shoirlar ko‘p, lekin shularning ichida katta harfli shoirlarning tan olishi va ularni tan oldirish hammagayam nasib etavermaydi. Muhammad Yusuf she’riyati zavol bilmas, zamonlar osha misli javohirdek jilvalanib turuvchi, abadiyatning mo‘jaz darchasidir.

Adabiyotlar:

1. www.prezident.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oljanov xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent “O‘zbekiston” 2017-y.
3. Muhammad Yusuf “Saylanma” Toshkent – 2007 “Sharq” NMAK
4. I.Yusupov “Begligiqli buzba sen” Nekis “Qaraqalpaqstan” baspasi 1995-y [Yeslatma: I.Yusupov she’rini o‘zbek tiliga muallif tarjima qilgan].

**Qunduz Nishonboyeva,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“San‘atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi dotsenti, t.f.n.**

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATAN MADHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalqining toza yurakli, iste’dodli shoiri Muhammad Yusufning umrboqiy she’riyati, uning bir qirrasi Vatan madhi va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritilib, tom ma’noda shoir O‘zbekistonni mehr bilan madh etganligi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Vatan, vatanparvarlik, Muhammad Yusuf, millat Vatan tuyg‘usi, yurt sog‘inchi, ijod.

Аннотация

В данной статье рассматривается поэзия чистосердечного, талантливого поэта узбекского народа Мухаммада Юсуфа, на протяжении всей жизни которой звучит гимн родини и его просветительское значение и буквально с любовью восхваляется Узбекистан.

Ключевые слова: родина, патриотизм, Мухаммад Юсуф, национальность, чувство родины, тоска по Родине, творчество.

Annotation

This article examines the poetry of the sincere, talented poet of the Uzbek people, Muhammad Yusuf, throughout whose life the anthem of the homeland and its enlightening significance are sounded, and Uzbekistan is literally praised with love.

Key words: Homeland, patriotism, Muhammad Yusuf, nationality, feeling of homeland, homesickness, creativity.

Hayot shunday serhimmat, shunday sahovatliki, u kitob atalmish, beba ho bir mo‘jizani insoniyatga taqdim etgan. Kitob – o‘ta nozik did va nafosatni tarbiyalovchi beqiyos vosita hisoblanadi. Unda nodonga aql, bedidga farosat, johilga ma‘rifat, g‘annokka g‘am-g‘usor, dardmanga shifo bo‘la olguvchi kuch mujassam. Ana shunday kitob olamining ma‘rifat chashmasidan bizga buyuk meros qoldirgan O‘zbekiston xalq shoiri, jamoat arbobi Muhammad Yusuf tirik bo‘lganlarida 67 yoshni qarshilagan bo‘lar edilar.

Muhammad Yusufning yoshlik, yigitlik yillari Toshkentday shahri azimda o‘tdi. U shu yerda omadini, baxtini, shon-shuhratini topdi. Ko‘hna Shoshning boloxonalarida “xalq shoiri” unvonini olishga musharraf bo‘ldi:

Meni shoir qilgan qumsuvoq

Boloxonalaring bor bo‘lsin.

Shuningdek, bu yurtdan bir umr burchdor ekanligini bir umr his qilib yashadi:

Qirq yil qulluq qilsam ham agar,

Uzolmasman sendan qarzimni.

Otashin shoir Muhammad Yusuf har qancha izzat-ikrom ko‘rsatilsa arziydigani so‘z san’atkori bo‘lib, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflagan she’rlari bilan shuhrat qozondi. O‘z davrida bu ijodkorning she’riyati o‘z-o‘zidan yaralgani yo‘q. Xudo bergen bu iste’dod “suvoqlari ko‘chgan eski uylar”, ajin bosgan ajib yuzlarni eslatuvchi nim nuragan paxsa devorlari, tuproq ko‘chalarining tungi sukutlaridan, onaizorlarning mehr-u sog‘inchlari, otalarning umriy zahmatlari isi kelib turuvchi yaktak choponlari, suluv qizlarning kulgisi, qosh-u kipriklari aro maysadek ko‘karib kamol topdi. Uning she’riyati mehr-u muhabbat, sog‘inch, dard-u hijron, tiriklik va o‘lim, diydor, ayriliq tarbiyasini olgan, shuning uchun ham bu she’riyat umrboqiyidir.

Daraxtning bo‘y-basti yiqilganda bilinadi, deganlari ayni haqiqat ekan. Har kuni ko‘zingizni quvnatib, yashnab turgan go‘zallik qarabsizki, bugun yo‘q. Yo‘qotish dardi og‘ir. Katta orzu-umidlar bilan yashab, ijod qilayotgan shoirni o‘lim oramizdan erta olib ketdi. Muhammad Yusuf qismati ham bevaqt qulagan daraxt qismatiga o‘xhab ketdi. Shoirdan bizga ibrat olsa arzigulik chinakam betakror ijodiy meros qoldi.

Muhammad Yusuf baxtli, omadli shoir edi. Qisqa vaqt ichida adabiyotimizning asl darg‘alari O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafuddinov, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov va eng avvalo, xalqimiz e’tiboriga tushdi. O‘z davrida O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Muhammad Yusufni xotirlab shunday yozgan edilar: “Ajal yakka ov qiladi, deyishadi. U hech kim bilan maslahatlashmas ekan, boshqalarning irodasini nazar-pisand qilmas ekan, bevaqt o‘lim adabiyotimiz gulshanida barq urib, ochilib, yashnab turgan bir chechakni uzdi-yu ketdi. Chinakam shoirning qalbida zohir qush doimo sayrab turadi. O‘sha qush aynan Muhammadjonning yuragida oshyon qurbaniga men astoyidil ishonganman... Uning ko‘zлari ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi” [1.277]. Xalq shoirining sha’niga ustozlar tomonidan bunday iliq so‘zlarni ko‘plab keltirish

mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, Muhammad Yusuf ustozlari, yaqinlari, farzandlari xotirasida yaxshi ishlari, xokisorligi, mehrliligi bilan muhrlanib qolgan bo‘lsa, xalqimiz, aniqrog‘i o‘z muxlislari tasavvurida yig‘latadigan, o‘ylatadigan, ezgulikka yetaklaydigan she’ri, qo‘shiqlari bilan yashab kelmoqda. Biroq, xalq sayllarida, tantanalarida va oddiy yoshlar bilan uchrashuvlarda xalqparvar shoirimizning o‘rni bilinadi. Chunki mustaqilligimizning ilk kunlaridayoq, xalqimizning asrlar osha orzu-umidlarini yurakdan his qilib, baralla ovozi bilan “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston” deb kurash maydonlariga tusha olgan shoirimiz bugun oramizda yo‘q. Xalq suygan shoirimiz elga, yurtga mehr-u muhabbatini shu qadar sodda , shu qadar suyukli misralarda ayta olgan edi:

Ko‘ringanni duolar

Qilar bizda momolar,

G‘animga ham omonlik

Tilar bizda momolar.

Momolar har joyda bor,

Bizda bori qayda bor?

Bizning bo‘ston qayda bor,

Shohimardon qayda bor,

So‘lim Surxon qayda bor,

Samarqand non qayda bor-a,

O‘zbekiston qayda bor?

Ijodkorning baxti, o‘z asarlari bilan xalq mehrini qozonishda, Vatan madhini baralla kuylay olishidadir. Xalq suygan shoir Muhammad Yusuf asarlari ko‘ngillarda ikkinchi umrini yashamoqda. San’atni sevgan xalqimiz e’tiboriga tushish, uning qalbidan joy olish ancha murakkab bo‘lishiga qaramasdan, xokisor shoirimiz Vatanni sevishni, yorni sevishni, ardoqlashni, asrashni o‘zining jozibali va yoqimli ovozi bilan bizga o‘rgatib ketdi. Shu bilan bir qatorda, Muhammad Yusuf o‘zgalar dardini, alam-iztirobini, sevgi-sadoqatini his qiladigan shoir edi. Vatan aslida shoir yuragidagi gul. Shoir hech qachon bu gulning so‘lishini, zavol topishini istamaydi. Uning chiroy ochishi, yashnashi shoirni yayratadi.

*Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!*

Muhammad Yusufning “Ko‘hna quduq” dostonida shunday jumlalar bor: “Ko‘ksingda savoling bo‘lmasa dunyoga nega kelding, otingdan aylanay, Inson?” Iymonda, e’tiqodda, kindik qoni tomgan zaminga muhabbatda sobit har insonning qalbida bir savol tug‘iladi: “El-u yurtimga munosib farzand bo‘la oldimmi, tarbiyalab kamolga yetkazgan, oq sut bergen ota-onam mendan rozimi, saflarda o‘rnim, qadrim bormi?” Shu savollar oldida yuzi yorug‘ odam yurt yo‘llarida qaddini g‘oz tutib yura oladi. Birovdan qarzi bor odam yelkasidagi yukni irg‘itib tashlolmaydi. Vatan oldidagi qarzini his qilgan inson ham hammaga xushyor va tiyrak nazar bilan yuradi.

Muhammad Yusuf mamlakatimiz ozodligini, hech ikkilanmay, Qodiriy, Cho‘lpox va Usmon Nosir kabi ulug‘ ijodkorlarning ko‘ksini kuydirib ketgan buyuk armon ijobati sifatida qabul qildi. Shu bois butun borlig‘ini, iste’dodini Vatan madhini tarannum etishga bag‘ishladi. Ona – Vatanga muhabbat mavzusida Muhammad Yusuf to‘laqonli ijod qildi. “Do‘sstar, og‘iz to‘ldirib Vatan deya o‘lmoq o‘zi baxt ekan”, deb yozsa, boshqa bir she’rida “Vatan – yuragimning olampanohi”, deya ulug‘laydi yoki mana bu satrlarni o‘qib, ko‘nglida faxr-iftixor tuyg‘usini tuymagan odam bo‘lmasa kerak:

*Sen shohlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim.
Ota desam , o‘g‘lim deb,
Bosh egib turgan chinorim.
Ko‘nglimdagи iftixorim,
Qo‘ynimdagи tumorim,
O‘zing meni ulug‘lardan
Ulug‘imsan , Vatanim!*

(“Vatan”)

Vatan tarixi, moziyning nurli va zulmatga cho‘lg‘angan davrlari shoirni befarq qoldirmaydi. U Vatan uchun jonini fido etgan el farzandlarining jasoratini alohida g‘urur bilan ifoda etadi:

*Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig ‘i
Olovlargacha sakragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.*

(“Vatanim”)

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she’riyati milliy o‘zlikni anglash, ozod va obod Vatanni tarannum etish, oq sut berib ulg‘aytirgan ona xalqqa butun umr sadoqat bilan xizmat qilish borasida yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edilar: “Hammamiz o‘zimizni o‘zbek sanaymiz. O‘zbekligimizdan faxrlanamiz, g‘ururlanamiz. Yaqinda Muhammad Yusufning bir she’rini o‘qib qoldim. O‘zbek nomini tushunish uchun nimalarni bilish kerakligi haqida yozibdi. Yaxshi she’r! Qani endi, olimlarimiz hammasi shunday katta g‘oyalarning ilmiy talqinini bersalar”, - deb niyat bildirgan edi [1. B1].

O‘zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri sanaladi. Shu bilan birga xalqimiz tarixda misli ko‘rilmagan hodisalarini boshdan kechirgan. Bosqinchi ketidan bosqinchi kelib, bu go‘zal yurtni vayron qilib, xalqimizni qullikka mubtalo qilishga uringan. Xalqimiz bamisli samandar (olovda tug‘ilib, olovdan omon chiqadigan afsonaviy qush)dek barcha sinovlardan omon chiqdi. Biroq, bu kurashlar, ozodlikka bo‘lgan intilishlar, albatta qurbonsiz, yo‘qotishlarsiz kechmadi. Millatning ne-ne bahodirlari, yurt ozodligini har narsadan ustun bilgan xalqning asl farzandlari shu kurash maydonlarida jon berdilar. Biroq yov kelganda o‘zini chetga olgan, jon shirinlik qilib, sha’nidan kechgan do‘stlarini sotgan kimsalar ham bo‘lgan. Ehtimol, ana shunday Vatan qadrini bilmagan kimsalarning yovuz kirdikorlari shoir qalbini tirnab o‘tgandir va quyidagi alamlı satrlar yuzaga kelgandir:

*Yurtim ado bo 'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig 'latgan dostonlaring bor,
O 'tmishingni o 'ylab og 'riydi jonim,
Ko 'ksing to 'la shahid o 'g 'lonlaring bor.*

*Yurtim, ko 'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig 'latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringda ham diydoringga zor,
Jayrondek termilgan Cho 'lponlaring bor.*

Vatanparvarlik g‘oyalari Muhammad Yusuf she’riyatining o‘zagini, tub mohiyatini tashkil etadi. “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!”, “Xalq bo‘l, elim”, “O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim”, “Vatan”, “Vatan madhi”, “Vatan yagonasan” va boshqa ko‘plab she’rlar katta-yu kichikning ko‘ngil mulkiga aylandi. Vatanni har kim o‘zicha suyadi, o‘zicha ardoqlaydi. Muhammad Yusuf O‘zbekistonni alohida mehr bilan alqaydi:

*Ey menga ertaklar so 'ylagan zamin,
Ergashib izingdan qolmasman sening.
O 'zgalar nazdida bog 'i eramni
Jiydang yaprog 'iga olmasman sening.
Vatan ,qayda bo 'lmay sen hamrohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.*

(“Vatan”)

Shoir millatimiz tarixiga cheksiz hurmat bilan qarab, ehtiyyotkorlik bilan uni qalamga oldi. Go‘yoki “Vatan” bag‘rida o‘zini murg‘ak, lekin uyg‘oq go‘dakdek his qilib erkin ijod qildi. Shoirning “Vatanim” she’rida shunday qadrli misralar bor:

*“Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin –Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda...”*

Qarangki, shoir ushbu misralar orqali Qashqar va Enasoy tomonlarda sargardonlikda qolib ketgan Furqat va Usmon Nosirlarning ayanchli qismatini qalamga olib, alamli satrlar bitadi.

Shoir shaxsi Vatan tuyg‘usini qalbining tub-tubidan his etsagina, uning she’rlari o‘quvchi yuragiga to‘g‘ri kirib boradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Vatanni ko‘rish armoni bilan ko‘z yumgan Bobur, Furqat kabi shoirlarning she’rlarini o‘qiganda, o‘quvchining Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbati yanada ortadi. Muhammad Yusuf el-yurt sog‘inchini oddiy, lekin juda samimiyl misralarda tasvirlaydi:

*Qushday uchib quchog ‘ingdan dunyo kezdim,
Qancha olis ketsam shuncha qadring sezdim,
Kezib-kezib topganlarim Sog ‘inch bo ‘ldi,
Qayda yursam yodi mehring ovunch bo ‘ldi.
Aylanayin qora qosh-u ko ‘zingdan-a,
O ‘zingdan qo ‘ymasin, xalqim, o ‘zingdan-a.*

(“O ‘zingdan qo ‘ymasin, xalqim”)

O‘zbek, millat, Vatan, ozodlik, o‘zbeklik g‘ururi, ulug‘ bobolarga vorislik tuyg‘usi shoir she’rlarida ufurib turadi:

*Ziyo oqqan men yurgan yo ‘l-yo ‘lakka,
Shom-u Iroq zor termulgan o ‘zbekman.
Dunyolarni o ‘rantirgan ipakka,
Tilla qo ‘ng ‘iroqli karvon o ‘zbekman!*

– deb yozadi shoir g‘urur bilan “O‘zbekman” nomli she’rida.

Shoir ijodida bo‘y cho‘zib turgan muhtasham obrazi – Vatan obrazi, O‘zbekiston timsoli. Muhammad Yusuf “yuragining olampanohi bo‘lgan” Vatan haqida hamisha jo‘shib yozadi. U tom ma’noda Vatan kuychisi. Shoir nazarida, Vatanga muhabbat – Vatan uchun fido bo‘lmoqqa tayyor turish, o‘ziga hech narsa tilamaslik, buyuk sadoqat, ixlosdan iborat.

*Lochin ko ‘kda netar ko ‘zi o ‘tmasa,
Sindir qalamingni so ‘zi o ‘tmasa.
Vatan, desang ko ‘ksing to ‘lib ketmasa,*

She'r yozishga balo bormi birodar?!

– deya hayqiradi she'rlaridan birida.

Muhammad Yusuf she'rlarining yana bir fazilati uning soddaligidadir. U o‘z she'rlari uchun har xil shakllar ham qidirib yurmaydi, xalq qo‘shiqlari yo‘lida qalam tebratib, xalqning o‘zidan olib, xalqning o‘ziga berishga harakat qilgan. Shundan she'rlari qog‘ozga ravon va sodda tushib, ma’nosini anglash oson kechadi. Chunonchi, “O‘zbek” degan she’rida shunday satrlar bor:

Yomon she'r yozsang ham, betingdan o'pib,

Kam bo'lma, bolam, deb yashaydi o'zbek...

Xulosa qilib aytganimizda, she’riyat tubsiz bir ummon. Aslida, sokin ko‘ringan bu ummonning ichki dunyosi g‘alayonlarga, to‘fonlarga boydir. Muhammad Yusuf she’riyati ham kitobxonni befarq qoldirmaydi, uning qalbida shunday buyuk xalqqa farzand ekanligidan g‘ururlanish hissini uyg‘otadi.

O, ota makonim,

Onajon o'ljam,

O'zbekiston jonom to'shay soyangga.

Senday mehribon yo'q, seningdek ko'rjam,

Rimni alishmasman bedapoyangga.

Sen bilan o'tgan kun bayram-bazm,

Sensiz bir on qolsam rahmim keladi.

Seni bilganlarga qilaman ta'zim,

Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Muhammad Yusuf ana shunday o‘tli mehr, jo‘shqin ruh, beg‘ubor samimiyat, kamtarona odob bilan mudom el orasida bo‘ldi, o‘ktam shoirning umri ham el ichida nihoya topdi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma.”Sharq” nashriyot – matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent – 2014.
2. Muhammad Yusuf. Shoir sevgisi. “Noshir”, Toshkent –2016.

O'tkur Islamov,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi, f.f.n.,

Jo'rabet To'ychiyev,

II kurs "Madaniyatshunoslik"

mutaxassisligi magistranti,

Dilnoza Irisboyeva,

I kurs "Madaniyatshunoslik"

mutaxassisligi magistranti

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MASALALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning "Mahalla" nomli she'ri tahlilga tortilgan. Unda xalqimizning milliy urf-odatlari va an'analari hamda ularni mahalla bag'rida qanday shakllanganligi bayon etilgan. Shoirning xalq manfaati yo'lidagi orzulari ushbu she'rda mujassamlangan bo'lib, unda o'zbek mahallasining odob-axloq maskani ekanligiga ishoralar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, urf-odat, millat, o'zbek, xalq, shoir, she'r, vatan.

Аннотация

В статье анализируется стихотворение народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа "Махалля". В нем рассказывается о национальных обычаях и традициях нашего народа и о том, как они формировались в самом сердце района. В этом стихотворении воплощены мечты поэта на благо народа, намекающие на то, что узбекская махалля - это место нравственности.

Ключевые слова: соседство, традиция, нация, узбек, народ, поэт, стихотворение, родина.

Annotation

The article analyzes the poem of the People's Poet of Uzbekistan Mohammed Yusuf "Mahalla". It tells about the national customs and traditions of our people and

how they were formed in the very heart of the region. This poem embodies the poet's dreams for the good of the people, hinting that the Uzbek mahalla is a place of morality.

Key words: neighborhood, tradition, nation, Uzbek, people, poet, poem, homeland.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xalq ishonchi va quvonchini, madaniyati va ma’naviyatini chin dildan anglagan inson bo‘lgan ekan, lekin biz buni kechroq angladik. Ota-onamizni xuddi hech qachon botmaydigan quyosh kabi doimo bizga nur uzatib turaveradigan mehr manbai deb tushunganimizdek, Muhammad Yusufdek shoirni ham shunday deb o‘ylabmiz. Undan yana, yana va yana yangi she’rlar kutib kunlarni o‘tkazib yuraverganimiz mana endi o‘zimizga boshqacha ta’sir qilyapti. Ungacha kuylangan qo‘sinqning ijrochisiga qarsaklarni chin dildan chaldik, ammo qo‘sinqning so‘zi va bu so‘zning egasi xususida hech o‘ylamadik.

O‘zbekiston davlatining mustaqillikka erishishi va mustaqillikning mustahkamlanishida o‘zbek she’riyatining zabardast shoirlari Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar qatorida yosh Muhammad Yusufning ham vatanparvarlik ruhida yozgan she’rlari alohida nurli sahifalarni tashkil etadi.

Adabiyotshunos olim, akademik Izzat Sultonning shunday fikrlari bor: “Buyuk tarixiy shaxslarni buyuk davrlar yaratadi va bu shaxslar o‘zlarini yaratgan zamongagina mansub bo‘lib qolmaydilar. Har gal insoniyat o‘z taraqqiyotida yangi, yanada balandroq pog‘onaga ko‘tarilganida o‘tmishning tafakkur gigantlari hamrohlikka va hamkorlikka keladilar. Jamiyat o‘zi yangi tarixiy dovonga talpinishi paytida o‘tmishning buyuk siymolarini madadkorlikka chaqiradi” deganlaridek, Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan poytaxtimizda barpo etilgan “Adiblar xiyoboni”da haykallari qad rostlagan tafakkur gigantlari bugungi kunda balandroq pog‘onaga – uchinchi renessansga shahdam qadamlar bilan o‘tib borishimizda bizga hamrohlikka va hamkorlikka kelmoqdalar.

Xiyobonda bo‘lib o‘tayotgan har bir tadbirdan so‘ng shoir Muhammad Yusuf ruhi oldida qarzimiz qanchalar ko‘p ekanligini yanada teranroq his eta boshladik.

Muhammad Yusuf va boshqa adiblar haykallari yonidan o‘tar ekanmiz, beixtiyor maktab partasida aytgan uy vazifalarimiz yodimizga tushadi va beixtiyor nima uchun ular qo‘lga qalam olganligi haqida chuqur o‘yga tolamiz.

E’tibor bersangiz, hammaning siri o‘zi bilan ketadi, faqat qalam ahlining barcha sir-asrorlari olamga dasturxon bo‘ladi. Uning bu dardlari uzoq-uzoqlarga yetib boradi. U afsuslarini yozadi. Yig‘lab, Ollohga tavallolar qilib qalam tebratadi. U shu ko‘yga tushgachgina kitobxonni uyg‘ota oladi. U ko‘ngliga kelganini qog‘ozga tushirmagunicha, ko‘ngli joyiga tushmaydi. Yuragida bo‘layotgan g‘alayonni aytmagunicha boshqa ishga qo‘l urolmaydi. Xalqqa aytadi, yukdan qutuladi, darddan xalos bo‘ladi.

Muhammad Yusufning safdosh do‘sti shoira Sayyora To‘ychiyeva “Muhammadjon bir kelib ketdi”, deganlarida ming karra haq edilar. Haqiqatan ham shoiramiz ta’kidlaganlaridek, Muhammad Yusuf bu yorug‘ olamga bir keldi-yu ketdi.

Nafsilamrini aytganda, biz avvaliga Muhammad Yusuf ijodi haqida ko‘nglimizdagini oqqa ko‘chirmoqchi bo‘ldik, ammo qalam ushlashga nimadir to‘sinq bo‘laverdi. Bizning Muhammad Yusufga bag‘ishlangan ko‘ngil asrоримизга Sayyora To‘ychiyevaning quyidagi bitiklari teginib o‘tdi. Shu she’r ta’sirida yurak daftarga ko‘chdi.

*Ko ‘klamoyim nuriga o ‘xshab,
Maysalarning siriga o ‘xshab,
Bug ‘doy isli she ’riga o ‘xshab,
Muhammadjon bir kelib ketdi.*

*Dehqon elga mehri beqiyos,
Erkaligi bir o ‘ziga xos.
Kapalaklar, tinglang iltimos,
Muhammadjon bir kelib ketdi.*

*Ko ‘nglim mening toza daftaram,
Do ‘sti yo ‘qlab bir cheti yarim.*

So ‘zim bitti birodarlarim,

Muhammadjon bir kelib ketdi.

Ushbu satrlar har qanday kitobxon ko‘nglini Muhammad Yusuf she’riyatiga yetaklaydi. Biz ham shu satrlardan so‘ng Muhammad Yusuf ijodiga qanday yondashishni o‘rgandik.

Muhammad Yusuf she’riyat darvozasini taqillatib emas, sharaqlatib kirib keldi va hech kimga sezdirmasdan ohistagina borsa kelmas tomonlarga ravona bo‘ldi. Shuning uchun ham boshqa shoirlarga o‘xshab uning ijodini eng gullagan davrini hech kim sezmay qoldi. Chunki uning ijodi xuddi lovullab ochilib turgan lolaqizg‘aldoqzor singari qaysi tomondan boqsang eng gullagan ijod davri bo‘lib ko‘zni qamashtiradi.

Muhammad Yusuf dunyoni o‘zining pokiza nigohlari bilan tasvirladi. Muhammad Yusuf barchaning shoiri. Kim nimaga ehtiyojmand bo‘lsa, albatta, uni Muhammad Yusufdan topadi. Shu bois uning she’rlarini o‘qigan har qanday inson ko‘rkam fazilatlar egasiga aylanib qolganligini sezmay qoladi. Mag‘zi to‘liq va mazmuni bo‘liq so‘zlardan tashkil topgan har bir misrasida bizning yuragimiz yashiringandir.

Ko ‘nglimning gavhari shu aziz maskan,

Fidodir hamisha unga jon-u tan.

Otalar himmatin yodi mash’ali,

Onalar oq suti hurmati – Vatan.

Bu misralarni yer kurrasining hamma joyida bir xil jaranglaydi. Chunki Vatan hamma davrlarda ham barcha uchun eng qadrli, muqaddas hisoblangan.

Shoirning Vatan mavzusidagi she’rlarini o‘qir ekanmiz, uning “Mahalla” nomli she’ri e’tiborimizni tortdi. Mazkur she’r o‘zbekning or-nomusi bo‘lgan mahallaga bag‘ishlangan bo‘lib, beixtiyor o‘sha joydan Vatan saylab yashaging keladigan qilib kuylaydi. Mahalla deb atalmish kichik bir Vatanni bunday tasvirlash Muhammad Yusufda milliy qadriyat, milliy iftixor kabi tushunchalarga qanchalar yaqinlik bor ekanligi sezilib turibdi:

Yuzaki qaralsa, markaz hashamlari,

Osmono ‘par uylar – hammasi go ‘zal.

Ammo bosh suqilsa, bularning bari,

Bir oddiy mahalla oldida o ‘sal.

Bunda shoir shaharning osmono‘par uylarining barchasidagi bir xillik va bir-birini takrorlovchi manzaralar qanchalar ko‘rkam va go‘zal ekanligiga tan berishi, lekin o‘zbekning past-past uylaridan iborat mahallalari hammasidan ham yuqori turishini yuragida faxr va iftixor bilan she’rga ko‘chirib kuylamoqda. Mahallani o‘zbekona yashash qonun-qoidalari bir nuqtaga jamlangan odob-axloq maskani deya sahifasi oltin majallaga, unda xulqida nuqsoni bor, nomukammal odamlar yo‘q ekanligini, ya’ni noplak odamlar qadami yetmagan muqaddas va pok go‘sha deb ta’riflamoqda:

O ‘zbegin qomusi – mahallam mening,

Sening o ‘z qonuning, odatlaring bor.

Sahifasi oltin majallam mening,

Sen noqis oyog ‘i yetmagan diyor.

Misralarda o‘zbekning “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-on” maqoliga ishora qilinmoqda. Bu bilan shoir o‘zbekistonliklar “bolaning begonasi yo‘q” tamoyiliga amal qilgan holda yashashlarini va bu dahldorlik hissi yurt tinchligi va Vatan ravnaqi yo‘lidagi birinchi qadam ekanligini nazarda tutmoqda. Shoir mahalladagi samimiy va iliq munosabatlarni kuylar ekan, u o‘z fikrini navbatdagi satrlarda quyidagicha davom ettiradi:

Baraka deysizmi, oqibatmi yo,

Iliqlikning bari bunda muhayyo.

Shu joydan boshlanar insof vodiysi,

Mahalla – diyonat, mahalla – hayo.

Qarang, shoir mahallani insof vodiysi deb atayapti. Bu degani u yerda har bir kun havaslarga to‘la niyatlar bilan o‘tadi degani. Bu degani u joylarda yashaydigan har bir inson yaxshi fazilatlarning egasiga aylanib ulgurgan degani emasmi? Bunday tashbeh, bunday maqom hech qaysi millatning shoiri qalamidan to‘kilmagan axir.

Misralarga e'tibor bersak, shoir o'zbekning mahallasini diyonat va hayoga o'xshatmoqdaki, ya'ni bayt boshida kelgan baraka va oqibat hamda diyonat va hayo tushunchalari egiz tushunchalar sifatida bir-birining mazmunini to'ldirib kelyapti.

Ma'lumki, muqaddas Ka'ba ziyoratida kiyib yuradigan libosning nomi ehrom deb nomlanadi. Shoir quyidagi satrlarida ana o'sha eski tomlarga ham havas bilan qarashi, qadimiy devorlar esa unga ehrom libosi kabi muqaddas va qadrli ekanligini quyidagicha ifodalamoqda:

Eski tomingga ham qilaman havas,

Qadimiy devorlar menga ehromlar.

Bahorni tomlardagi lolaqizg'aldoqlar bilan qarshi olgan shoirimiz o'sha tomlarni havas bilan eslab, tomning tagidagi eski devorlarni bejizga ehromlarga qiyoslamayapti. Chunki ehrom kiygan odam chin ma'nodagi musulmon, ya'ni hamma gunoh va xatolardan forig' bo'lib poklangan toza vujud. Bu bilan shoir eski devorlarni ehromga, uning ichidagi odamlarni esa hali gunohlar qilishga ulgurmagan pokdil insonlar deya ta'riflamoqda.

Shuningdek, agar ushbu fikrlarni yanada kengroq talqin etadigan bo'lsak, o'zbek xalqining kim ekanligini tanituvchi bizning bu qadimiy devorlarimiz ekanligiga alohida urg'u berib yondashmoqda.

O'zbekning mahalla deb atalgan maktabidan buyuk shaxslar yetishib chiqqanligini birgina shoir G'afur G'ulom misolida keltirib o'tmoqda:

Chunki osmono 'par qasrlardanmas,

Mahalladan chiqqan G'afur G'ulomlar.

She'rning so'nggi satrlariga murojaat qilar ekanmiz, shoirning yuragida yana nimalar qolganligini sezdir. Vatanni sevishni biz ham Muhammad Yusufdan, aynan "Mahalla" she'ridan o'rgandik.

Shoir emas, jarchi bo 'lsaydim agar,

Kim kelsa derdim men, qaysi sarhaddan:

Mehmon, markazni qo'y, mahallaga bor,

Bizda mahalladan boshlanar Vatan!

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ana shunday ovozi va sozi bor chinakam Vatanparvar inson edi.

**Rustam Abdullayev,
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti
Folklor va etnografiya kafedrasi dotsenti,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist**

QO‘SHIQQA AYLANGAN SHOIR

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek milliy she’riyatiga o‘zining betakror ijodi bilan munosib hissa qo‘shgan O‘zbek xalqining sevimli farzandi, otashqalb shoiri “Do‘stlik” ordeni sohibi O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: shoirlar, xalq, bulbulzabon, vatan, yoshlik, tengdoshlar, bo‘y cho‘zmoq.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению жизни и творчества Народного поэта Узбекистана, обладателя ордена “Дружба”, любимого сына узбекского народа Мухаммада Юсуфа, внесшего огромный вклад в развитие узбекской национальной поэзии.

Ключевые слова: поэты, народ, сладкоголосый, Родина, молодость, ровесники, рости.

Annotation

This article is devoted to the study of the life and work of the People's Poet of Uzbekistan, holder of the Order of Friendship, the beloved son of the Uzbek people, Muhammad Yusuf, who made a huge contribution to the development of Uzbek national poetry.

Key words: poets, people, sweet-voiced, homeland, youth, peers, grow up.

O‘zbek she’riyati shunday chamanzorki, uning gulzorida gul ko‘p, chechak ko‘p, bu bo‘stonda bir-biriga o‘xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan dilbar shoirlar avlodi qayta-qayta bo‘y cho‘zaveradi. Shunday shoirlardan biri, shubhasiz, O‘zbekiston xalq shoiri, xalqimizning bulbulzabon farzandi Muhammad Yusuf edi.

U 1954-yilda Andijon viloyati, Marhamat tumani, Qovunchi qishlog‘ida tavvallud topdi. O‘ychil, kamsuqum bo‘lgan shoir yoshligidan boshqa tengdoshlaridan ajralib turardi. U o‘zi unib o‘sgan Andijondek vatanini juda sevar, jumladan, Andijonga bag‘ishlab bir she’rida shunday yozgan edi:

Nechun qulluq qilmay Andijonga men?

Shu yurtda tug‘ildim, shu yurtda o‘sdim,

Agar do ‘stim bo ‘lsa, bitta u do ‘stim,

Nechun qulluq qilmay Andijonga men?

Yodimga o‘t tushsin, etmasam yodlar,

Dukchi eshonlari qilgay faryodlar,

Uni tavof etgan Mashrabdek zotlar,

Nechun qulluq qilmay Andijonga men?

Uning qalamiga mansub she’rlari xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, ko‘plab xonadonlarga qo‘shiq bo‘lib kirib borgan edi. Mana necha yillar o‘tsa ham uning she’rlariga, xonandalar tomonidan kuylangan qo‘shiqlariga qiziquvchilar juda ko‘plab topiladi. Uning she’rlariga muxlislar kundan-kunga ko‘paysa ko‘paymoqdaki, lekin aslo kamayayotgani yo‘q.

Muhammad Yusuf adabiyot maydoniga 1970-yillarning boshida kirib keldi. Dastlab uning ilk she’ri “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligida bosilgan, shundan boshlab respublika matbuotida uning she’r, ocherk va maqolalari muntazam ravishda chop etila boshlangan. Shundan so‘ng “Tanish teraklar”, “Bulbulga bir gapim bor”, “Iltijo”, “Uyqudagil qiz”, “Halima enam allalari”, “Ishq kemasi”, “Ko‘nglimda bir yor”, “Bevafo ko‘p ekan”, “Yolg‘onchi yor”, “Erka kiyik”, “Osmonimga olib ketaman” singari o‘nlab she’riy kitoblari nashr etildi.

Uning she'rlari xalq qo'shiqlari singari sodda va raxonligi, ta'sirchanligi uchun hofizlar tomonidan kuylanib, millionlab insonlarning yuragiga kirib bordi. O'zbek xonadonlarida hech bir kishi yo'qki, uning she'rlaridan ijro etilgan qo'shiqni tinglamagan bo'lsa yoki o'zi ham jo'r bo'lib kuylamagan bo'lsa. Ayni paytda ezgu, bokira va betakror til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy raxonlik, tuyg'ular tiniqligi, samimiylig, ruhiyat manzaralarini lo'nda va yakdil ifodalay bilish Muhammad Yusuf she'riy uslubining yetakchi xususiyatidir.

Hozirda uning she'riy kitoblaridagi she'rlarni ko'zdan kechirsak, bironta qo'shiqqa aylanmagan she'rini topishning o'zi bir qiyin masala.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ta'kidlaganidek: "Hali yosh chog'idayoq minglab, o'n minglab muxlislar orttirgan, bunchalik darajada mashhurlik pog'onasini zabit etgan birorta shoirni ko'rmaganman," degan edi. Xalqimizning yana bir zabardast shoiri Erkin Vohidov esa: "Muhammadjonning she'rlari ijrosida kuylangan necha qo'shiqqa men ham muxlisman," - degan edi.

U rostgo'y shoир, halol va pokiza qalb egasi edi. U muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz va taqdirimiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari raxon va soddaligi, xalqona musiqa ohanglariga tushadigan xalq og'zaki ijodiga hamohangligi uchun ko'p xonandalar: O'zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova, Zulayho Boyxonova, Gulsanam Mamazoitova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlardan Oxunjon Mamadaliyev, G'iyos Boytoyev, Gulbahor Erqulova, Sevara Nazarxon shoirning go'zal she'rlarini qo'shiq qilib ijro etib kelishmoqda.

Xalqimiz ardoqlagan buyuk munaqqid, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov shunday degan edi: "...unga o'xshab sodda va raxon yozishga boshqa shoirlar ming urinishmasin, baribir, qo'lidan kelmaydi," - deb ta'kidlagan edi. Shu o'rinda, shoир 15 daqaqalar chamasi vaqt ichida "Ko'klamoyim" she'rini yozib tugallab, undan Ozod Sharafiddinovdek buyuk inson ta'sirlangani tahsinga sazovordir.

Muhammad Yusuf adabiyotimiz va xalqimizga qilgan fidoyi xizmatlari uchun “Do’stlik” ordeniga, “O’zbekiston xalq shoiri” unvoniga sazovor bo’ldi.

Otashnafas shoir, Olloh tomonidan berilgan iste’dod sohibi Muhammad Yusuf 2001-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ellikqal’a tumanida millionlab muxlislar qarshisida she’r o‘qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etdi.

Ol, deya bir egam, osmonga uchsa ruhlarim,

Bir ajib moviy diyor bo ‘ynini quchsa ruhlarim.

Ko ‘k mening ko ‘ksim bo ‘lur, yulduzları anduhlarim,

Gul o ‘pib, gul yopinib, har dilda mozorim qolur,

Men ketarman bir kuni navolarim, zorim qolur

degan edi bir she’rida shoir.

Uning qisqa 47 yil umr ko‘rganiga qaramay, ijod davralaridagi yutuqlaridan yana bir jihat shundan iborat ediki, Usmon Azim, Azim Suyun, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon singari shoirlar orasidan adabiy jamoatchilik nazarini o‘zi tomon qarata olgan shoir edi.

Muhammad Yusuf nomini abadiylashtirish maqsadida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan Toshkent shahri va Marhamat tumanidagi ko‘chalardan biri, shuningdek, Andijon shahridagi bolalar kutubxonasi va Marhamat tumanidagi san’at maktabi Muhammad Yusuf nomi bilan ataldi. Poytaxtimizdaggi Adiblar xiyoboni va Andijon viloyatida unga haykal qo‘yildi.

Muhammad Yusufning “Ulug‘imsan Vatanim” qo‘shig‘i O’zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sevara Nazarxon tomonidan ijro qilingan bo‘lib, muxlislar qalbidan joy olgan yoqimli qo‘shiq sifatida insonlar qalbini zabt etdi. Shoirning Vatan haqidagi she’rlari o‘zining jo‘shqinligi, ma’nolarga boyligi, musiqaviyligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.
2. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: “Adib”, 2014.

3. Muhammad Yusuf. Yolg'onchi yor. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.

Musallam Abdujabbarova,
O‘zDSMI, “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi dotsenti, p.f.n.
Oybek Davlatov,
O‘zDSMI, “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi dotsenti v.b., (PhD).
Xolbek Haydarov,
O‘zDSMI, “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi.

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA SO‘ZNING KUCHI VA UNING SHAXS TARBIYASIDA AKS ETISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Muhammad Yusufning ijodi va she’riy misralaridagi falsafasi hamda she’rlarida keltirilgan g‘oyalarning tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratilgan. Maqolada “Lirikaning ijtimoiylashuvi”, “Lirikaning mafkuraviylashuvi” borasidagi ayrim fikrlarning qiyosiy tahlili ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Vatan, she’riyat, adabiy meros, tarbiya, badiiyat, so‘z san’ati.

Аннотация

Эта статья посвящена философии творчества и поэзии поэта Мухаммада Юсуфа, воспитательному значению идей, выраженных в его стихах. В статье также дается сравнительный анализ некоторых взглядов на “социализацию лиризма” и его “идеологизацию”.

Ключевые слова. Родина, поэзия, литературное наследие, воспитание, искусство, словесное искусство.

Annotation

This article is devoted to the philosophy of creativity and poetry of the poet Muhammad Yusuf and the educational meaning of the ideas expressed in his poems. The article also provides a comparative analysis of some views on “socialization of lyricism” and “ideologization of lyricism”.

Key words. Homeland, poetry, literary heritage, education, art, verbal art.

Bizga ma'lumki, so'zlardan tuzilgan she'riy misralar inson qalbiga kuchliroq ta'sir etadi. Nafaqat ta'sir etadi, balki individni shaxs bo'lib shakllanishida, ijtimoiy muhitda o'zini-o'zi boshqarishida, shaxslararo munosabat o'rnatishida so'z boyligining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda XX asr o'zbek she'riyati tabiatini istiqlol yillarida o'rgangan adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam bu masalaga alohida to'xtaladi. "Yangi o'zbek she'riyati" kitobining ayrim fasllari "Lirikaning ijtimoiylashuvi", "Lirikaning mafkuraviylashuvi" tarzida nomlanadi. Asta-sekin bu ijtimoiylik insonga yaqinlashish adabiy hodisasiga U.Hamdam "Lirkada ijtimoiy dardning insoniylashuvi" sifatida qaraydi. Muhokama qilgan masalalarni tashqi va ichki omillar kesimida asosli o'rganadi va quyidagi umumlashgan muhim bir xulosani taqdim etadi: Shunday qilib, XX asrda tubdan ijtimoiylashgan o'zbek she'riyati badiiylik darajasi nuqtai nazaridan ikkiga ajralmoqda: birinchisi, davr muammolarini san'atkorona aks ettirilgan, ko'pning dardi shoir dardiga aylangan – shaxsiyangan (personifikatsiya hodisasi) she'riyat. Bunga Cho'pon, G'afur G'ulom, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Kurshid Davron, Usmon Azim kabi shoirlar she'riyati misol bo'la oladi.

Ikkinchisi, davrga xos muammolarni badiiylik mezonlaridan turib emas, balki ularning jamiyatda tutgan o'rni, dolzarbligini qayd etish va jamoatchilik e'tiboriga havola qilish maqsadida yozilgan, ba'zan nazmbozlik mahsuli sifatida dunyoga kelgan she'riyat[1].

Muhammad Yusufning ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak aynan, ikkinchi davrni o'z ichiga qamrab olganligini kuzatishimiz mumkin.

Insonning kuchi uning yuragida bo‘ladi. Yuragida qudrati bor inson g‘ururli bo‘ladi. Avvalo, shoir dovyurak bo‘lishi kerak. Muhammad Yusufning vatanparvarlik ruhidagi she’rlarida mana shu yurakning kuchi sezilib turadi. Vatan haqida yozilgan ayrim she’rlarni muallifi nomini o‘zgartirsang, xuddi shu so‘zlarni boshqa millat vakili aytsa ham bo‘laveradigandek. Muhammad Yusufning Vatan, yurt haqidagi she’rlarini boshqa biror shoirniki bilan almashtirib bo‘lmaydi. Buning sababi Muhammad Yusuf faqat yurt tabiatiga xos, millatga xos so‘zlarni (masalan: bedapoya, tandir, to‘n v.b.) qo‘llashida emas, uning she’rlarida millat ruhining singib ketganida. Ushbu fikrlarning isboti sifatida M.Yusufning quyidagi she’riy misralariga e’tiborimizni qaratsak!

*Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim hoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim...
Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri -
Ilig‘imsan, Vatanim.
Sen Mashrabsan,*

*Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko 'ringan da 'vo qilgan,
Ming bir yog 'i ochilmagan
Qo 'rig 'imsan, Vatanim [2].*

She'rni diqqat bilan mutolaa qilsak, hech bir tushunarsiz jumla uchramaydi. Bizning nazarimizda, shoirning qalblarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib borishi, ijodida xalq ko‘nglini aks ettira olganidadir. Shuning uchun ham, Muhammad Yusufning Vatan haqidagi qo‘sish bo‘lgan she’rlari o‘zlikni anglashimizda ta’siri naqadar sezilarlidir. Ayniqsa, yoshlar qalbida vatanparvarlik, sadoqatlilik tuyg‘usini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Buning sababi Muhammad Yusuf, avvalo, o‘zligini tushunish uchun o‘z ichki kechinmalarini sodda til bilan bayon eta olganligida.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan tushunish mumkinki, Muhammad Yusuf she’rlarida, Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargoh ekanligi, Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, o‘sib, kamol topib boradigan zaminligini, uni asrab-avaylash har birimizning farzandlik burchimiz ekanligini anglatuvchi tushunchalar, g‘oyalar bilan boyitilganligi hamda xalqchilligida ekanligi bilan ajralib turadi.

Bugun dunyoda integratsiyalashuv, globallashuv jarayonlari kechayotgan, insonlar yuksak texnologik taraqqiyotga intilayotgan, uning ijobiy natijalaridan foydalanayotganimiz barobarida, kosmopolitizm kabi vatansizlikni targ‘ib qiluvchi g‘oyalarning tarqalishi kabi bir muncha xavotirli jarayonlar ham mavjud. Aynan, shoir she’rlarining misralarida keltirilgan g‘oyalar o‘sib kelayotgan yosh avlodni bu kabi illatlarga qarshi mafkuraviy immunitetini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ernazarova Gulnoza Xamrayevnaning “Hozirgi o‘zbek she’riyatining meditativ tabiati” mavzusidagi filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. 2020-yil.
2. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. – Toshkent: “Ijod dunyosi”, 2004. – 75 b.

Юсупова Марина Римовна

Кандидат искусствоведения,

доцент кафедры «Искусство эстрады и массовых представлений»

Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Республика Узбекистан

НАЧАЛО ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda uchinchi renessans boshlanishida O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodining ahamiyati uning “Inson” va “Lolaqizg‘aldoq” she’rlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: renessans, inson, insonparvarlik, lolaqizg‘aldoq, she’r, tarixiy xotira.

Аннотация

В статье анализируется значение творчества народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа в начале третьего Возрождения в Узбекистане на примере его стихотворений «Человек» и «Тюльпан».

Ключевые слова: ренессанс, человек, человечество, тюльпан, стихотворение, историческая память.

Annotation

The article analyzes the significance of the creativity of the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf at the beginning of the third Renaissance in Uzbekistan on the example of his poems "Man" and "Tulip".

Key words: renaissance, man, humanity, tulip, poem, historical memory.

Мухаммаду Юсуфу посвящается...

В своем послании к Олий Мажлису Президент Республики Узбекистан – Шавкат Миронович Мирзиёев поставил новые задачи перед литературой и искусством, отвечающие созидательному контексту развития художественной культуры сегодня. А это значит: «вступить в диалог с реальностью, выразить на высоком профессиональном, идейно-художественном уровне своё отношение к текущим событиям, фактам, сохранив при этом «свою национальную и творческую идентичность» [1,с.13]. Гуманистическая концепция «непрерывного образования Узбекистана» и её практическая реализация доказала, что в учебных заведениях, помимо овладения профессиональными навыками, параллельно уделяется огромное внимание воспитательному процессу. Воспитательный потенциал наших Вузов, куда входят совокупность средств воспитательной среды, её возможностей и ресурсов, традиции направления «Устоз-шогирд», формы организации групп, обучающихся в студиях, ансамблях, творческих мастерских и прочее, а так же усиление духовного компонента в работе с учащимися женского пола, связан с освоением новых технологий, как откликаемость на новации в сфере искусства, культуры и науки. Комплексный подход по работе с молодёжью позволяет по-новому раскрыть понимание «широкого круга» и универсальности портфеля компетенций, который не «размывает», а подчёркивает значение профессиональной деятельности творческих ВУЗов. Именно за последние годы появились «инновационные интегрированные современные методики преподавания, которые позитивно влияют на формирование культуры в среде искусства»[2, 153]. Говоря в своей речи «О третьем Ренессансе, Мирзиёев Шавкат Миронович имел ввиду не только инновационное возрождение культуры, искусства, образования, науки, но и подготовку самого фундамента для этого эпохального процесса». «Мы поставили перед собой великую цель – формирование фундамента нового Ренессанса в нашей стране; и с этой целью должны создать среду и все условия для воспитания новых Хорезми, Беруни, Ибн Сино, Улугбека, Навои и Бабура.

Важнейшими фактами в этом историческом процессе, неотъемлемой частью нашей национальной идеи являются развитие образования и воспитания, науки и инновации, утверждение здорового образа жизни» [3].

Академик Конрад Н.И. в своей книге «Литература и театр» в разделе «Средневосточное возрождение и Алишер Навои» подчеркнул значение городов Самарканд и Герат, как зон Старого света: «Герат и Самарканд...Самарканд и Герат...Это – не просто города, где протекала жизнь и деятельность Алишера Навои, это полномочные представители его мира – той зоны Старого Света, которой они, эти города, принадлежали»[4, 99].

Центральная зона Старого Света, которой принадлежал Алишер Навои, была родиной универсализма. Универсализм – это и общность и цельность. Алишер Навои напоминает нам об этой цельности в своей «Хамсе» – «Пятерице». Число «пять» – великое число. Можно привести в пример и «Пяти книжие» – Моисеево и Конфуцианское. Или перечислить первоэлементы вещественной природы в древнекитайском «шу-цзине» и в индийской «веданте». Возьмем в качестве примера также пять функций государства: законодательная, исполнительная, судебная, воспитательная и контрольная.

«Тут и пять внешних чувств – зрение, слух, обоняние, вкус, осязание; пять эмоций – радость, гнев, желание, страх, горе; пять основных цветов, пять тонов гаммы» [4, с.99].

Именно такой глубокой исторической памятью наполнено творчество великого поэта современности – Мухаммада Юсуфа. Это мудрый, правдивый, непримиримый, порой неудобный, резкий, но справедливый Учитель. Нужно ли на Востоке объяснить значение этого понятия? Нация познаёт себя в художественном творчестве. В том и состоит одна из важнейших черт народности искусства.

Людям нужен идеал, это наиболее содержательная эстетическая категория. Это всеполнота прекрасного. Эстетический идеал – часть общекультурного идеала: социального, нравственного и познавательного.

Истина, добро, красота – три ипостаси идеала. Именно через них воплощалось представление о высших духовных ценностях. Поэзия Мухаммада Юсуфа – это закодированное чувственное восприятие мира, выраженное через знаки и тексты. У каждой человеческой эмоции свой темп и особый ритм. То, о чем пишет Мухаммад Юсуф, удивительным образом совпадает с сердечным ритмом его соотечественников. В поэзии, сохраняя принцип «правды жизни», тем не менее, нельзя ударяться в бытовизм.

В литературе и, особенно, в поэзии, очень важен принцип соединения в обобщении осознаваемого и неосознанного. «Ананда-вардхана – один из творцов санскритской поэтики, говорил о том, что целью поэтического высказывания является скрытый смысл этого высказывания» [5, 61] .

Косноязычие искусства особенно хорошо раскрыто в литературе. Есть яркие способы, которые известны в филологии. Это соединение в обобщении осознаваемого и неосознанного; конструирование логической невозможности; конструирование двусмысленностей; порождение обманутых ожиданий и игра с символами.

Мухаммад Юсуф виртуозно использовал эти приёмы в своём творчестве. К примеру, осуждая номенклатурных поэтов он не клеймил их, а иронично намекал о бесполезности такого поэтического «языка» для восхваления имущих:

«Нормальные поэты вон – в тенечке
Для будущего лепят строчку к строчке.
И, Абдулло Орирова ругая,
Пекут стишочки под журчанье сая...»

Стихотворные строчки Мухаммада Юсуфа образны и многозначны. Но любой образ своим рождением обязан сильным переживаниям. Это, бесспорно подчёркивает индивидуальность художественного образа. Когда-то великий Гёте в своём двустишье:

«Кто хочет понять поэта,
Должен идти в страну поэта»,[6, 27] –

выразил

два смысла – прямой и иносказательный. Прямой: чтобы понять стихи, надо знать страну стихотворения, его народ, её традиции. А иносказательный : «страна поэта» – это мир искусства; кроме обычного языка, на котором говорят там, откуда родом поэт, существует ещё язык, на котором говорит он сам» [6, 217]. Впитав в себя музыкальность родного языка, Мухаммад Юсуф вложил всю душу в смысл существования себя, как поэта, и как гражданина своей страны. Нужно уметь читать его междустрочья, определять эмоциональную окраску выражаемой мысли, подтекста и самой сути противоречия. Очень показательным и объёмным в этом смысле является его поэтическое размышления о человеческой сути :

«Злая ночь проглатывает звезды.
Мрак такой, как будто бы навек.
Если в эту ночь не сдержишь слез ты,
Значит, ты и вправду человек.
Крик новорожденного ребенка,
Новой жизни дерзостный разбег.
Если верой в Завтра окрылен ты,
Значит, ты и вправду человек.
У любви – отравленные стрелы.
Утешенья жажду – слышу смех.
Если боль мою со мной разделишь,
Значит, ты и вправду человек.
На тропе истории не счислить
Грозных дат, свинцовых страшных вех.
В час тяжелый верил ты в Отчизну –
Значит, ты и вправду человек.
От рассвета до заката жизни
Труд верша не для себя – для всех,
Нужен дальним ты и нужен близким,
Значит, ты и вправду человек»...

За последние тридцать лет наша страна стремительно развивается, занимает достойное место среди других мировых держав. Но подготовка молодого поколения к вновь создающимся историческим и социальным условиям должна осуществляться с некоторым опережением. Естественно, что государство сталкивается с потребностью инновационного подхода и к патриотическому воспитанию подростков.

Мухаммад Юсуф понимает, что проблемы подрастающего поколения, не только проблемы самих подростков, но и всего общества в целом. Именно в этом возрасте дети особенно чутки к дружелюбному отношению и пониманию. Стихотворение Мухаммада Юсуфа «Марухский перевал» – это разговор не только о мужестве своих земляков, это и о дружбе между народами в целом.

Взвод

Вмерз в лед.

Пулю встретив грудью,

Боец погиб

Там, где белизна

Ледниковых глыб.

Через двадцать лет,

Через двадцать бездн

Здесь нашел его тело

Пастух-черкес.

Схоронил солдата

Седой Кавказ.

Был узбеком боец,

Был он черноглаз.

Его имя –

Саттар?

Садык?

Сатвалды?

Кто ответит?

Молчат вековые льды.
Кто узнает?
Пустынен простор небес.
Здесь нашел его тело
Пастух-черкес.
Чьим любимым сыном
Был тот боец?
Чьим он братом был?
Кто его отец?
Кто он –
Тот, кто в гордые горы врос?
Чтоб оплакать его,
Вам не хватит слез.

Ритм «Марухского перевала» сдержаный, жёсткий. Здесь не надо много слов для объяснения потери защитника для страны. Ритмическое развёртывание событий объясняет всё. Если поэт начнёт дополнительно раскрывать смысл гибели, её настоящую боль для родных и близких, то будет невозможно читать эти строки – от слёз и желания уберечь всех сыновей на земле от войн и лишений. И он держит ответ перед читателем, как будто он виноват, как будто он потерял и сердце его наполнено кровью.

Его

сопереживание через ритм, словосодержание вызывает чувство ответственности каждого за происходящее не только в стране, но и мире в целом. Чувство беспокойства за будущее близких после его ухода, тревоги и нарастание сомнений сквозит в стихотворении «Тюльпанчик мой любимый»:

«Что, уйдя, оставлю?
Томик небольшой,
Книжек пару сундуков,
Холмик земляной.
Мне вослед что скажут –
Только звук пустой,

Ну а ты, родная,
Что будет с тобой?
Тюльпанчик мой любимый,
Алый мак степной.
Как уйду, сторонись
Ты плохих людей,
Их, красавица моя,
Избегай когтей.
Все невзгоды в одночасье
Схлынут, как вода –
Нечестивцу лучше
Не стать никогда.
Ты держись подальше
От толпы людской,
Тюльпанчик мой любимый,
Алый мак степной ...»

Символ нежности, красоты и совершенства – тюльпанчик, возникает как образ беззащитности и хрупкости в жестоком мире. Сами символы, вырванные из контекста произведения, без глубокого осмысления не значат ровным счётом ничего. Но здесь, повторяясь, слова звучат, как заклинания, которые, возможно, уберегут от будущих бед.

«Если текст порождает такие осознанные и неосознанные противоречия, что решение осознанных противоречий приводит к решению неосознанных, то данный текст является художественным текстом. Он будет автоматически порождать положительные эмоции даже при многократном повторении».

[5, 59].

Грустно, что так рано ушёл талантливый поэт нашей современности. Скажем великое спасибо узбекскому народу, принёсшего нам в дар такого Учителя, который учит думать, размышлять и любит свою родину.

Ренессанс не возникает в одночасье, и творчество Мухаммада Юсуфа – это и есть кирпичики в фундамент будущего расцвета нашей Родины.

Использованная литература:

1. Хамирова М.А. Юсупова Н.Ю. Художественная культура, искусство в аспекте теоретического осмысления. Т.«TURON-IQBOL». 2017г. (95с).
2. Журнал «Искусство и образование» № 4 2020.М. «Роспечать». Развитие культурного потенциала личности в творческой среде обучения.
3. Послание Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева к Олий Маждису от 30.12.2020.
4. Конрад Н.И. «Литература и театр» № 4. М.Наука.1978.(463 с.).
5. Аллахвердов. В.М. Психология искусства. Санкт - Петербург Изд. ДНК 2001 г.(200 с.)
6. Гулыга А.В. Принципы эстетики. М. Политиздат.1987 г.

Matluba ISAKOVA,

**O‘zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasi dotsenti**

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA AYOLLAR TALQINI

Yozuvchining hech kimga nasib etmagan baxti bor.

Bu – bir varaq oq qog‘ozga dardini to ‘kib solish baxtidir!

O‘tkir Hoshimov, O‘zbekiston xalq yozuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’riyatida ayollar mavzusini yoritilishiga bag‘ishlanadi. Shoirning “Mehr qolur”, “O‘zbekning ayollari”, “Seni hech kim sevolmaydi, meningdek”, “Biz baxtli bo‘lamiz”, “Kundoshli uy”, “Uyqudagqi qiz”, “O‘zbek momo”, “Kumushbibi nolasi”, “Zaynabning nolasi” she’rlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Mehr, muhabbat, she’riyat olami, milliy adabiyoti, iftixor, go‘zal jumlalar

Аннотация

Эта статья посвящена теме женщин в поэзии Мухаммеда Юсуфа. «Осталось милосердия», «Узбекские женщины», «Никто не любит тебя так, как я», «Мы будем счастливы», «Дом Кундошли», «Спящая девушка», «Узбекский момо», «Кумушбиби ноласи», «Зайнаб». плачущие »стихи анализируются.

Ключевые слова: Милосердие, любовь, мир поэзии, национальная литература, гордость, красивые фразы.

Annotation

This article is dedicated to the theme of women in the poetry of Muhammad Yusuf. «Ostalos miloserdiya», «Uzbekskie jenshchiny», «Nikto ne lyubit tebya tak, kak ya», «My budem schastlivy», «Dom Kundoshli», «Spyashchaya devushka», «Uzbekskiy momo», «Kumushbibi nolasi», «Zaynab plachushchie» stixi analiziruyutsya.

Key words: Miloserdie, lyubov, mir poezii, natsionalnaya literatura, gordost, krasivye frazy.

Muhammad Yusuf – she’riyat olamida baxti kulib boqqan, omadli shoirlardan biri. U o‘zbek milliy adabiyotining ko‘zga ko‘ringan, iste’dodli, shu bilan birga, o‘zining dilga yaqin she’rlari bilan xalqimiz yuragidan chuqur o‘rin egallay olgan, qobiliyatli shoirlaridandir. Uning sermazmun ijodi asriy madaniyatimiz, xalqimiz ma’naviyati, ong-u tafakkurini yuksaltirish, shuningdek, yosh avlod qalbida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kamol toptirishda katta o‘rin tutib kelmoqda.

Shoir qaysi mavzuga qo‘l urmasin, hayotiy, oddiy qarashlari bilan qalam tebratdi. Uning so‘zlarida muhabbat bor, dard bor, qalbni o‘rtovchi ayollar madhi betakror, o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlangan. Bir so‘z bilan aytganda, M.Yusuf oddiylikda buyuklikni, buyuklikda oddiylikni ko‘rsatib bera olgan. Shoir she’rlarini

o‘qib, bu go‘zal jumlalar muallifining ham haqiqatgo‘y, halol, pokiza va muhabbatga limmo-lim qalb egasi ekanligini anglab yetamiz. Shuning uchun bo‘lsa kerak, shoir Muhammad Yusufning ko‘plab she’rlari hofiz, xonandalar tomonidan kuylangan, qo‘shiq bo‘lib qalblarga yetib borgan.

Inson diliga xush yoquvchi qo‘shiq tinglasa, avvalo, uning muallifi kim deya qulq soladi va bu, albatta, Muhammad Yusuf qalamiga mansub bo‘lgan qo‘shiqlar bo‘ladi. Uning she’rlari juda oddiy, so‘zлari ravon bitilganligi uchun xalq og‘zaki ijodi namoyandalari bilan hamohangdir. Shoirning “Mehr qolur” she’rini eslab ko‘ring-a:

*O‘tar qancha yillar to‘zoni,
Yulduzlar – ko‘zyoshi samoni.

O‘tar inson yaxshi-yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur...*

Bu kabi satrlarida dardli, inson ruhiyatini tarbiyalovchi so‘zlarni qayta-qayta o‘qib, taskin topamiz. Mushohada qilib, xulosa qilishga shoshamiz.

She’riyat san’ati yaralibdiki, ayol nomini ulug‘lamagan, uning go‘zalligini ta’riflamagan shoir yoki yozuvchi bo‘lmasa kerak. Bu borada, shoir Muhammad Yusuf eng mahoratlilaridan, desam, adashmayman. Uning ijodida ayol talqini pok sevgi timsoli, mehribon ona, vafodor yor, suykli qiz, qo‘l yetmas armon bo‘lgan muhabbat obrazlarida o‘z aksini topadi.

Ayniqsa, hamma ham ilg‘ay olmas, ayollar ko‘ngliga malham bo‘la oladigan, ayolning nozik ko‘ngli, uning mehrini she’rlari bilan ifoda etib bergen ulkan ijodkor hamdir.

*Qo‘rqaman, ertaga men o‘lib ketsam,
Yotar bo‘lsam qumga botib ko‘zlarim,
Ko‘nglimni ko‘chkiday bosadi bir g‘am –
Yig‘lashni ham bilmas mening qizlarim...*

Ushbu she’rga e’tibor bersak, o‘zining chekayotgan dardidan ham qizlari haqida qayg‘urayotgani, o‘zidan keyin ular ahvoli qanday bo‘lishi mumkinligini o‘ylab, ushbu she’rni shoir tasavvuri keng, mushohadaga boy tarzda yozgan. So‘zlarining

dardliligidan yuraklar junbishga kelib, qalb yig‘laydi. Haqiqatan ham, qaysi farzand yig‘lamaydi, otasi vafot etsa?! Qaysi qiz yig‘lamaydi, tog‘ kabi ulkan suyanchig‘i qulasa?! Qaysi qiz yig‘lamaydi, bolalikdan sho‘x erkaliklarini ko‘targan otasini yo‘qotsa?! Qaysi qiz yig‘lamaydi, oppoq libosida ota uyini tark etayotib, duolarga qo‘l ohib: “baxtli bo‘l, qizim”, deya peshonasidan o‘pgan otasini yo‘qotsa?! Qaysi qiz yig‘lamaydi, bellari bukchaygan, qo‘llari mehnatdan qavargan, hassaga suyanib, uzoqlarga termilib mehrga tashna otasini yo‘qotsa?! Qaysi qiz yig‘lamaydi, ulg‘aygach ham, mehrga to‘la ko‘zları ila boqib: “senga ishonaman, aqllisan, qizim”, degan otasini yo‘qotsa?! Albatta, bizning padari buzrukvorlarimiz suyangan tog‘larimiz va ishongan bog‘imizdir.

O‘zbek adabiyotida she’rlar bisyor, shoirlar ko‘p, qo‘shiqlarga aylangan she’rlar ko‘p, ammo Muhammad Yusuf ijodining o‘rni bo‘lakcha, har bir ijod namunasida oshiqlarga xos chinakam dil izhori, ona mehri, ayol dardi, ayol bardoshi, yurt sog‘inchi, farzand iftixori, do‘slik, mehr-muhabbat, sevgiga sadoqat, ona tabiatga hurmat kabi tuyg‘ularni qalban his etamiz, ruhan do‘splashamiz. Ayniqsa, shoirning “O‘zbekning ayollari”, “Seni hech kim sevolmaydi meningdek”, “Biz baxtli bo‘lamiz”, “Kundoshli uy”, “Uyqudagি qiz”, “O‘zbek momo”, “Kumushbibi nolasi”, “Zaynabning nolasi”, “Kumush”, “Ozoda”, “O‘lan”, “Kristina”, “Alla”, “Go‘zallar”, “Jayron”, “Shoir sevgisi”, “Palaxmon”, “Lolajon”, “Qari qiz” kabi bir qator she’rlarida dilkashlik va o‘ta noziklik bilan ayol muhabbatiga, ayol go‘zalligiga, uning sabr-matonati-yu bardoshiga, o‘zbekona oriyatiga, nafis ta’rif beradi-ki, xoh u yetuk ayol bo‘lsin, xoh o‘spirin qiz, undagi misralarni shubhasiz, o‘zining qalb so‘zlariga aylantirib oladi.

Shoir tomonidan qog‘ozga tushgan, ayol ta’rifiga bildirilgan so‘zlar, tinglovchi ko‘z o‘ngida uning siymosini ruhan chizishiga turtki beradi.

Jumladan, shoirning:

Uxlamaydi tunlari,

Oy nurlari taralgan.

O‘bekning ayollari,

Farzand uchun yaralgan...

singari jumlalari bilan o‘zbek ayolining naqadar bolajon, mehribon, sabrli va matonatli shaxs sifatida namoyon etgan.

Shoirning eng sara she’rlari qatoridan joy olgan: “Onamga”, “Onajonim” “Onamga xat” she’rlarida esa onaizoriga o‘z vaqtida ko‘rsata olmagan mehrini, qalbidagi afsus-nadomatlар-yu, sog‘inchlarini shu qadar dilga yaqin ta’riflaganki, o‘qigan inson nafaqat chuqur ta’sirlanadi, balki o‘zi uchun qalban saboq ham oladi. Shoir Muhammad Yusuf o‘z onasi uchun yozgan she’rida ham hayotiy haqiqat bor.

*Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko‘rib yorug‘ dunyoda,
Toshkanni ko‘rmagan bechora onam,
Bolang bo‘lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o‘g‘il bo‘ldimmi!..*

Ushbu she’rdagi “Toshkanni ko‘rmagan bechora onam” kabi so‘zlar o‘qilishidan kulgili tuyilsa ham, so‘zlarda oddiylik bor. Avvallari Toshkentga kelish ham ancha qiyin bo‘lgan. Ona farzandini kutishi, yuragining bir parchasi haqida qayg‘urishi shundoqqina so‘zlarda namoyon bo‘lgan.

Ona yagona. Ona bitta. Onadek ulug‘ sodda zot dunyoda bo‘lmasa kerak. Ayol qalblari ichida eng mehriboni ham bu onadir. Ona haqida qancha shoirlar she’rlar bitgan.

Muhammad Yusuf ana shunday xalqimizning har qaysi qatlami bilan dardlasha oladigan shoir edi. Uning o‘ziga xosligi ham aynan shunda.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Muhriddin Xoliqov tomonidan kuylangan “Qizg‘aldoq” qo‘srig‘i tinglovchini junbushga keltiradi. Shoirning ushbu she’rining yozilish tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist (marhum) Muhriddin Xoliqov xotiralariga yuzlanamiz. “Muhammad Yusuf o‘z ishining ustasi edi. Mening ijodimda xizmatlari beqiyos. Shoir bilan toqqa dam olishga chiqqandik, hammamiz o‘zimiz bilan bandmiz. Bir mahal Muhammad aka bir o‘zları chetda xayolga berilib o‘tiribdilar. Yoniga borib: “Ha, aka, nimalarni o‘layapsiz?” deb so‘radim. U bo‘lsa, “Muhriddin, qara, anavi qizg‘aldoq menga

tinchlik bermayapti. O‘pay desam, peshonasi yo‘q, uzay desam, to‘kilib ketadi. Bir she‘r yozsam, qo‘sish qilasanmi?” dedilar. Keyinroq hammaga mashhur “Qizg‘aldoq” qo‘sishig‘i yaratildi”, – degan edi o‘z xotiralarida M.Xoliqov. Haqiqatan, ushbu she‘r orqali shoirning ziyrak, topqir hamda kuzatuvchan insonligini yana bir bor ko‘rishimiz mumkin.

*Ayo, taqdir, meni buncha jafolarga yo‘latgaysan,
Birov qilgan gunohning bojini menga to‘latgaysan.
Bag‘irni tog‘ etib tiklab, o‘zing ani qulatgaysan,
Bahorimga ko‘zim tiksam, anga qorlar elatgaysan.*

*Senga qulluq etay deyman, o‘zim chohga yiqilgayman,
Bog‘imda nag‘malar istab, quzg‘unlarga cho‘qilgayman.
Ko‘karmasdan hazin yaproq kabi beun yoqilgayman.
Imkonimni olib butun, misqollatib so‘ratgaysan.*

Ushbu satrlarni bilmaydigan, xirgoyi qilib yurmaydigan inson bo‘lmasa kerak. Yuqorida keltirib o‘tilgan she‘riy satrlar kim tomonidan yaratilgani barchaga ma’lumdir. Ushbu she‘rni yaratish uchun insonga hech kimnikiga o‘xshamas qalb kerak. Bunday qalb o‘zbek shoiri Muhammad Yusufda bor edi. Inson dunyoga kelar ekan, u yaratgan tomonidan berilgan iste’dod qobiliyati ila dunyo yuzini ko‘radi. O‘zbegimning ijodkorlari, shoirlari juda ko‘p. Ammo ular orasidan o‘zining samimiyligi, kamtarligi, o‘z ijod qalami bilan insonlarni diliqa kirib borgan shoirimiz Muhammad Yusufdir.

Muhammad Yusuf o‘zining sodda, xalq tilida bitilgan hech bir shoir ijodini takrorlamas misralari-yu, samimiyligi ta’riflarga boy she‘rlari bilan millionlab she‘riyat ixlosmandlari qalbini zabit etgan dilkash shoirdir. Aytilgan gaplar kabi yozilgan she‘rlari ham, inson qalbining oynasi bo‘lganidek, uning qanchalar rostgo‘y, halol va pokiza qalb egasi ekanligi yozgan she‘rlarida ham yaqqol sezilib turadi. Shoir muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor dastidan so‘zlaydimi yoki tariximiz-taqdirimiz shonidan yozadimi, har birida hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik barq urib turadi. Tinglagan yoki o‘qigan muxlis yuragida bir vaqtning o‘zida

unutilmas bo‘lib, saqlanib qoladi. Shu sababdan ham hech bir kitobxon yo‘q-ki, uning kitob javonida Muhammad Yusufning she’riy to‘plamlari o‘rin olmagan, uning misralaridan mehr-muhabbat hissini tuymagan bo‘lsin. Shoир qalamida shunday she’rlar yaraladiki, ularni yod olinmaydi, ular yozilib, qalblarda kuy bo‘lib yangraydi. Muhammad Yusuf ana shunday kuylovchi shoirlar sirasidan edi. Uning qalamiga mansub she’rlar nafaqat she’riyat olamida, balki hofizlar san’atida ham munosib o‘rin egallab, ikki karra sevimlilikka erisha oldi.

Qo‘shiqlar kuylangan bo‘lsa-da, Muhammad Yusufning talqini o‘zgachadir. Yuqoridagi she’rda ham onaizorning farzand dog‘ida kuyib yonishi, ul zotdek boshqa hech kim chin dildan g‘am chekmasligi tasvirlangan.

O‘zbek xalqining zabardast yozuvchisi Said Ahmad aytganlaridek: “Asl shoirlar uzoq yashamaydilar, ammo ortlaridan abadiy yashaydigan unutilmas meros qoldirib ketadilar”.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ham bizga ana shunday o‘lmas meros qoldirdi. Bugun ularning o‘zi bo‘lmasa-da, ulardan bizga MUHAMMAD YUSUF degan dilnavoz she’riyat meros bo‘lib qoldi. Shoир 2001 yil 30 iyulda vafot etdi. U haqida qancha gapirsak, shuncha oz. Ha, u garchand dunyodan o‘tgan bo‘lsa-da, dillarimizda hamon yashayapti, tillarimizda esa, hamon tirikdir.

Hayotga qanday boqsangiz – xuddi shunday ko‘rasiz. Men uni bir uzun yo‘lga qiyoslayman. Yo‘llar tekis ravon emas. Hayot juda shirin. Yashagan sari – yanada yashaging kelar. Lekin – o‘lim haq.

Muhammad Yusuf ana shunday xalqimizning har qaysi qatlami bilan dardlasha oladigan shoир edi. Uning o‘ziga xosligi ham aynan shunda.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.
2. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: “Adib”, 2014.
3. Muhammad Yusuf. Yolg‘onchi yor. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.

Xilola Abdujabborova,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat

institutining “O‘zbek tili va adabiyoti”

kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEK QO‘SHIQCHILIK SAN’ATI VA MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada shoir Muhammad Yusufning o‘zbek qo‘shiqchilik san’atiga qo‘shgan salmoqli hissasi, shoir she’rlaridan foydalangan bastakor va xonandalar haqidagi ma’lumot bayon qilinadi, shoir qo‘shiqlarining janr jihatidan xilma-xilligi, ahamiyati va mavqeyi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, she’riyat, shoir, she’r, qo‘shiq, xonanda, qo‘shiqchilik san’ati, tango, ballada.

Аннотация

В данной статье излагается сведение о значительном вкладе поэта Мухаммада Юсуфа в узбекское искусство пения, о поэтах и композиторах, которые использовали его стиховорений, жанровом своеобразии его стихотворений.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, поэтика, поэт, стихотворение, песня, певец, искусство пения, танго, баллада.

Annotation

This article is dedicated to the significant contribution of the poet Muhammad Yusuf to the art of Uzbek singing.

Key words: Muhammad Yusuf, poetics, poet, poem, song, singer, the art of singing, tango, ballad.

Shoirlik – o‘tli qismat. Uni inson o‘zi tanlamaydi, unga yuqtiriladi. Vujud ichidagi ruh inson ongiga bo‘ysunmagan holda kutilmaganda isyon qila boshlaydi va

bu isyon qog‘ozda she’r tarzida o‘z aksini topadi. Shundan so‘nggina keyingi she’r yozilgunga qadar biroz tin oladi. Shoир esa shu isyonni, otashni aks ettirish uchun munosib so‘z axtarib umrini o‘tkazadi. Qalbdagi otashin tuyg‘ular umr bo‘yi shoирni yondirib keladi. Shoirlar yoniq qismat egalaridir.

O‘zbek she’riyati bo‘stonida o‘z so‘ziga, uslubi va o‘rniga ega shoirlar juda ko‘p. Har birining o‘ziga xos takrorlanmas jihatlari bor va bu, albatta, quvonarli hol. Yozganlari xalqi orasida mashhur va sevimli bo‘lishini, qo‘shiq bo‘lib yangrashini orzu qilmagan shoир bo‘lmasa kerak. Aslida, ijodkor uchun bu unchalik muhim emas, chunki u qalbi buyurgani uchungina yozadi, lekin she’rlarining ommalashishi uni yanada ruhlantiradi, ilhom bag‘ishlaydi. Agar yozgan she’ri kimningdir qalbiga yetib bormasa, joy egallamasa, unda bunday shoирlikdan naf yo‘q.

Bu orzularning ijobati barcha ijodkorga ham nasib etavermaydi. Ana shunday baxtli shoirlardan biri Muhammad Yusufdir. Uning she’rlari o‘zining xalqchilligi, samimiyligi bilan xalqimiz ko‘ngidan chuqur joy olgan. U haqiqiy o‘zbeklarga xos bo‘lgan xarakter – soddalik, to‘porilik, dangallik va mehridaryolik bilan o‘zbek she’riyatiga kirib keldi.

U o‘zini majburlab son uchun yozmadi, balki haqiqiy ijodkor kabi faqat ko‘ngli buyurganidagina yozdi. Ana shunday o‘zi “ilohiydan keladigan” she’r, albatta, ohangi, kuyi bilan yaraladi. Shu sababli Muhammad Yusuf she’rlari hali siyohi qurimasdanoq qo‘shiqqa aylanardi. Shoир qalamiga mansub she’rlar o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining rivojiga munosib hissa qo‘shdi, ko‘plab xonandalarning xalq orasida mashhur bo‘lishiga sababchi bo‘ldi.

Jumladan, O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Mahmudjon Azimov, Nuriddin Haydarov, Muhriddin Holiqov, Oxunjon Madaliyev, G‘iyos Boytoyev kabi ustoz san’atkorlar o‘sha paytlari aynan Muhammad Yusuf she’rlarini ijro etib, xalq orasida shuhrat qozonishgan. Mahmudjon Azimovning “Samarqand” qo‘shig‘i, Nuriddin Haydarovning “Yur, muhabbat” qo‘shig‘i hozirgi kunda ham sevib tinglanadi.

Buyuk bobomiz Mirzo Ulug‘bek fojiasiga bag‘ishlangan “Samarqand” she’ri to‘laligicha o‘sha mudhish voqeani jonlantira olgan. Mazkur she’rni olim, hukmdor va ota Mirzo Ulug‘bekning ichki faryodi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

...Bag ‘rimda bo ‘y etgan bo ‘z bolam,

Mergan bolam, lochin ko ‘z bolam,

Bo ‘g ‘zimga tig ‘urgan o ‘z bolam...

Men dardimni kimga aytaman.

Garchi, o‘g‘il noqobilligi sabab padarkushlik tamg‘asini abadiyga olgan bo‘lsada, temuriylar sulolasiga isnod keltirsa-da, o‘zining o‘limiga sababchi bo‘lsada, Ulug‘bek ota sifatida qanchalik mehridaryo ota ekanligini shoir “bo‘z bolam, mergan bolam, lochinko‘z bolam, o‘z bolam” deya erkalashlari bilan juda ta’sirli qilib ifodalagan. Farzand qanchalik noqobil bo‘lmasin, ota-oni uni birgina “bolam” deyishining o‘zidayoq ulkan mehr aks etib turadi va ota-oni shu birgina so‘z orqali uning barcha ayblarini kechirib yubora oladigan qudratga egadir.

Sezmay qoldim. O‘shanda chog ‘im,

Yulduzlarda ekan nigohim.

Bilmadim, ne ekan gunohim...

Men dardimni kimga aytaman.

Mazkur bandda ota, hukmdor Mirzo Ulug‘bek buyuk astronom olim sifatida gavdalanadi. Ilm bilan mashg‘ul bo‘lib, farzand tarbiyasida g‘aflatda qolganligida o‘zini ayblaydi.

... Tanim muzlab, goh tosh qotaman,

Men shoh emas, axir, otaman.

Go ‘rimda ham o ‘ylab yotaman,

Men dardimni kimga aytaman?..[1, 46]

Ota olamdan o‘tib, tanasi sovigan holatda ham farzandining bu qilmishiga kim aybdorligi, o‘zining bunday ayanchli o‘lim topishining sababini topolmasligi, hech kimga aytolmasligi, o‘z farzandidan hech kimga shikoyat etolmasligi va bu savol uni qabrda ham tinch qo‘ymasligi, ya’ni bu qanchalik og‘ir dard ekanligini Muhammad Yusuf mohirona ochib berolgan.

Mazkur she'r nafaqat Mirzo Ulug'bek, balki barcha u kabi baxtsiz otalar va padarkush o'g'illar haqidadir. She'rning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, she'rni o'qigan yigitlar o'g'il sifatida, erkaklar esa ota sifatida ota va o'g'il munosabatida yanada mas'uliyatli bo'ladilar, bu esa, o'z navbatida, oila mustahkamligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

O'zi shundoq ham dardga to'la bo'lgan she'rga Mahmudjon Azimovning dardli ovozi yanada dard qo'shib, tinglovchining ko'zida beixtiyor yosh paydo qila oladi. Bu esa ijodkorlar yutug'idir.

Bastakor Anor Nazarov va Nuriddin Haydarov hamkorligida "Arab tangosi" kuyiga yaratilgan "Yur, muhabbat" qo'shig'i ham juda muvaffaqiyatli chiqqan. Oradan yillar o'tib umuman boshqacha talqinda Sevara Nazarxon ijrosida yangragan mazkur she'r ikkinchi marta ham muvaffaqiyat qozona oldi. Bu esa she'r kuchli yozilganligining yaqqol isboti.

Mazkur qo'shiq yaralish tarixini O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, bastakor Anor Nazarov shunday eslaydi: "...“Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan” sarlavhali she'ri ham menga juda yoqib qoldi. Shu she'r asosida o'zbekcha tango yaratdik. O'zbek estrada san'atida tangoni Botir Zokirov kuylagan edi. Bunday ashulaning o'ziga xos talablari bor. Mana, endi Muhammadjonning she'ri asosida jozibali lirik uslubdagi tango qo'shig'i paydo bo'ldi.

"Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan" satri har bandda takrorlanib kelaveradi.

Muhammadjon, shu she'rning oxirida o'zingizni ham qo'shsangiz, she'rning yakuniy bandida g'azaldagi taxallusday bo'lar edi. Mana bunday: "Yur, Muhammad, ketdik bu yerdan". Qalay?

Ma'qul, - dedi u" [2, 94].

Oy yuzidan nur yog'di sim-sim,

Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan.

Shirin tushlar ko'rsin sevgilim,

Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan.

Oy nurlari sim-sim yog'ilib turgan oydin kechada qalbi yorishmayotgan oshiq hammasiga qo'l siltab, faqat muhabbati bilan birga bu dunyodan ketish haqida

o‘yaydi. Uning suyuklisi tun qo‘ynida shirin tushlar ko‘rib orom olishini tilaydi. Chin oshiqqina ma’shuqasiga faqat ezgulik, baxtlar tilaydi.

*Biz ketsak, yer kengayib qolar,
Osmon ham sal enkayib qolar,
Bir qorako ‘z jilmayib qolar,
Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan [3, 121].*

Lirik qahramon o‘z sevgisi bilan dunyoni tark etsa, yer ham biroz kengayib qolishi, osmon esa g‘amdan sal bo‘lsa-da, enkayib qolishi, faqatgina uning sevgisidan bexabar “qorako‘z”gina bu holatdan jilmayib qolishini qalbidagi sevgisiga uqtirmoqda. Aslida, nazarimda, lirik qahramon bu dunyoni tark etsa ham yori uning xotirasida jilmaygan holatda, chiroyli bo‘lib muhrlanib qolishini istayotganday. Chin muhabbat haqidagi bunday o‘tli satrlarni faqat qalbida ishq o‘ti yonib turgan ijodkorgina yoza oladi. Ana shunday o‘tli harorat bilan yozilgan misralar o‘zbek qo‘shiqchilik san’atida o‘zbekcha tango bo‘lib qoldi.

Ma’lumot o‘rnida yana shuni ham keltirib o‘tish joizki, Muhammad Yusuf va Anor Nazarov hamkorligida bundan tashqari, “Do‘lana”, “Aldama” (Nuriddin Haydarov ijrosida) kabi qo‘shiqlar, o‘zbek musiqa san’atida noyob bo‘lgan “Mehr qolur, muhabbat qolur” musiqiy balladasi (Zohida Umarova ijrosida) yaratilgan.

O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova ijrosidagi “Seni osmonimga olib ketaman”, “Otam bor”, “Uyqudagil qiz” kabi qo‘shiqlar xonandani xalq orasida yanada mashhur qildi. Ayniqsa, “Xalq bo‘l, elim”, “O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim” va “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston” qo‘shiqlari asosiy bayramlarimiz madhiyasiga aylanib ulgurdi.

O‘zbekiston xalq artisti Sevara Nazarxon ijrosidagi “Ulug‘imsan, Vatanim” qo‘shig‘i nafaqat yurtimiz, balki dunyo bo‘ylab mashhur bo‘ldi, ijtimoiy tarmoqlarda turli millat vakillari uni sevib ijro etishdi. Mazkur qo‘shiq sevimli bo‘lib qolmasdan, balki san’at chegara bilmasligi, xalqlarni birlashtira olishini yana bir marta isbotladi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan ustoz san’atkorlarimiz tomonidan ijro etilgan qadrdon qo‘shiqlar Sardor Mamadaliyev, Qilichbek Madaliyev, Shohruhxon singari

yosh xonandalar tomonidan qayta kuylandi va bu ham shoir qo'shiqlarining umriboqiyligini isbotlamoqda.

Shu o'rinda bir ma'lumotni keltirib o'tish joiz. Shoir Muhammad Yusuf hayotlik davrida o'ziga nisbatan "qo'shiqchi shoir" deb murojaat qilishlarini xushlamas edi, u hech qachon qo'shiq bo'lishi uchun she'r yozmaganligi, uni xalqi faqatgina shoir sifatida e'tirof etishlarini istashini ko'p bora ta'kidlagan. Bu ham shoirning o'ziga xos chin ijodkorligidan darak beradi.

Garchi, o'zi istamagan bo'lsa-da, uning o'zbek qo'shiqchilik san'ati rivojiga qo'shgan hissasini rad etib bo'lmaydi. Turli janrlarda yozilgan ushbu qo'shiqlar o'zbek qo'shiqchilik san'atida munosib o'rnini topa oldi va uning bebaho xazinasiga ham aylanib ulgurdi. Bu qo'shiqlar hamonki yangrar ekan, ularning muallifi Muhammad Yusuf ham barhayotdir.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi, 2007.
2. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: "Adib", 2014.
3. Muhammad Yusuf. Yolg'onchi yor. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.

Xayriddin Xudoyev,
Respublika musiqa va san'at kolleji o'qituvchisi

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA MUSIQIY OHANG

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalqining mutafakkir shoiri Muhammad Yusuf she'riyatida musiqiy ohangning tutgan o'rni xalq sevgan san'atkorlar timsolida amaliy va qiyosiy o'rganiladi. Shuningdek, Muhammad Yusuf ijodi bilan bevosita bog'langan ustoz xonandalarning shoir haqidagi xotiralaridan namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: san'atkor, qo'shiqchi, Vatan, muhabbat, sevgi, sadoqat.

Аннотация

В данной статье роль музыки в поэзии узбекского поэта и мыслителя Мухаммада Юсуфа исследуется практическим и сравнительным образом в образе популярных исполнителей. Есть также примеры из воспоминаний мастеров-певцов, непосредственно связанные с творчеством Мухаммада Юсуфа о поэте.

Ключевые слова: артист, певец, Родина, любовь, привязанность, преданность.

Annotation

In this article, the role of music in the poetry of the Uzbek poet and thinker Muhammad Yusuf is explored in a practical and comparative way in the image of popular performers. There are also examples from the memoirs of master singers directly related to the work of Muhammad Yusuf about the poet.

Key words: artist, singer, homeland, love, affection, devotion.

“Buyuklik – bu oddiylikda”. Mana shu jumlalar shoirimiz Muhammad Yusufning hayotiy shiori edi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning beg‘ubor qatralari har bir tinglovchisining qalb sozini chertibgina qolmay, uning dil izhorlari bilan dardlashadi. Ayniqsa, uning xalq qalb qo‘ridan chuqur o‘rin olgan “Qizg‘aldog‘im”, “Kapalak”, “Lolajon”, “Qizg‘onaman” kabi ko‘plab she’rlariga bastalangan qo‘shiqlar har bir o‘zbek xonadonida xirgoyi qilib kuylanadi.

O‘zbek xalqining oddiy, shu bilan birga buyuk shoiri Muhammad Yusufning 10 ga yaqin she’riy to‘plamlari chop etilgan. Uning “O‘zingdan qo‘ymasin xalqim”, “Osmoninga olib ket meni”, “Ko‘nglimda bir yor” kabi she’riy to‘plamlaridagi deyarli barcha she’rlar qo‘shiq qilib kuylanadi.

Muhammad Yusufning bastakorlar va kompozitorlar bilan hamkorliklari xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, bastakor Anor Nazarov: “Shoirda chapanilik bor, bu chapanilik mehr chapaniligi” deb ta’riflagan edi. Shoir qisqa umr kechirgan bo‘lsada, o‘zining Vatanga, millatga nisbatan qalbidagi bitmas-tuganmas mehri, Vatan madhi, o‘zbek xalqiga bo‘lgan cheksiz sevgi timsoli uning she’rlarida ohang misol

qo'shiq qilib kuylanadi. Uning she'riy kitoblari nafaqat xalq orasida sevib o'qiladi, balki har bir o'quvchisi va tinglovchisi qalb torini junbushga keltirib, uning ichki kechinmalarini musiqiy soz misol tarannum etadi. Jumladan, biz san'at ahli ham Muhammad Yusufni mehr bilan esga olamiz.

Har birmizning ko'z o'ngimizda Muhammad Yusuf deganda, xalq qalbidan joy olgan shoir, xalqchil, ishq-muhabbatga to'la qalb egasi, oddiy so'z bilan aytganda inson qalbiga kirib boruvchi shoir gavdalananadi.

Muhammad Yusuf she'rlarining haqiqiy muxlisi bo'lgan shinavandalardan biri shoirdan: "Nima uchun doim oddiy kiyinib yurasiz, axir siz xalqning ko'zi o'ngida chiroyli kiyinib yursangiz bo'lmaydimi?" deb so'raganida, shoir: "O'zbegimning qo'shiqchilarini kiyintirib qo'yganim, menga yetarli" deya javob qilgan ekan.

Shoir she'rlarini o'qigan har bir inson qalbi junbushga kelib, o'z-o'zidan uning qalbini qandaydir ohang va navo chulg'ab oladi. Shoir she'rlariga o'z qalb qo'rini, qalb nolasini payvand qilmagan xonandaning o'zi bo'lmasa kerak. Jumladan, Muhriddin Xoliqov, Yulduz Usmonova, G'iyoq Boytayev, Oxunjon Madaliyev singari va boshqa bir qator O'zbekiston xalq artistlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, Nihol mukofoti sovrindorlari va boshqa xushovoz xonandalar shoirning ijodiga murojaat qilgan.

Shoирга "Buyuklik nima?" deb savol berishganda, Ustoz Muhammad Yusuf shunday deb javob bergen ekan:

*Kecha meni maqtab yurganlar,
Bir umrga do 'stman deganlar,
Yoshlik qilib qoqingan chog 'im,
Pallalarda g 'iybat qilganlar.
Bilib qo 'ying yengilganim yo 'q,
Ertamdan ham ko 'ngillarim to 'q.*

Mazkur she'r yaratilishining qisqacha tarixi haqida shoirning turmush o'rtog'i Nazira opa "O'zbekiston" kanaliga bergen intervyusida quyidagilarni ta'kidlaydi: Shoir ijod xonasiga kirmoqchi bo'lib turgan xushovoz xonandamiz Anvar G'aniyevni kuttirib qo'ymaslik maqsadida xonadan chiqa turib uchrashgan joylarida "Kecha

meni maqtab yurganlar...” deb oxirigacha she’rni o‘qib bo‘lib, bu she’rni sizga hadya qilyapman, men yozganligimni faqatgina o‘zingiz biling, deb, muallifini sir saqlashligini aytgan ekanlar. Bu holatni Anvar G‘aniyev keyinchalik Nazira opaga aytib berganganligini ta’kidlaydi. Bu she’rni keyinchalik qo‘sishiq shaklida ko‘rinishini qo‘sishiqchilar ijrosidan eshitgan xalqimiz yaxshi biladi, deb qo‘sishimcha qiladi, Nazira opa .

Nazira opaning mazkur suhbatlari chog‘ida, Muhammad Yusuf oilada umr yo‘ldoshi hamda farzandlari Ma’suda, Nozima, Madinalarga nisbatan juda talabchan bo‘libgina qolmay, mehribon ota bo‘lganliklari, quyidagi misralarda aks etganligini oila ahli mehr to‘la so‘zlarida yaqqol o‘z aksini topadi.

Mayli-da, kimgadir

Yoqsa,

Yoqmasa,

Ularga qo‘silib

Yig‘lasharmidik.

Biz baxtli bo‘lamiz

Xudo xohlasa,

Xudo xohlamasa

Uchrasharmidik...

Rayhon hidlaringni

Yo‘llarimga sep,

Kut meni,

Har oqshom,

Ko‘kka oy chiqqan.

Faqat,

Yig‘lamagin,

Gunohim ne deb,

Aybinq –

Onang seni

Chiroyli tuqqan!..

Shoir o‘z ijodida go‘zallikni tasvirlabgina qolmay, qalbni titrashga undaydigan ma’nolarni yaratuvchi so‘zlarni erkalab yoza oluvchi qobiliyat egasi ekanligi, uning oddiy so‘zlarda ifodalay olganligi bilan ko‘zlarni qamashtirib turibdi. Shoирning vatanparvarlik ruhi barcha she’rlarida ufurib turadi. Xoh sevgi haqida, xoh boshqa mavzuda yozgan she’rlari bo‘lsin, ularning xalqchilligi shundaki, har birida oddiylik va chapani go‘zallik orqali Vatanga mehr tuyg‘usi ufurib turadi.

Muhammad Yusuf xalq orasida o‘zining xalqchilligi bilan o‘rin olgan she’riy kitoblari durdonalarini qoldirib, insonlar orasida mehr ulashibgina qolmay, o‘lmas she’riy xazina qoldirib ketdi, desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Muhammad Yusuf she’rlari san’atkorlar tomonidan juda ardoqlanib, qo‘sinq qilib bastalanib ijro etilgan. Shoирning qo‘sinq qilinmagan birorta ham she’ri qolmagan desak, xato bo‘lmaydi. Jumladan, “Vatanim”, “O‘zbekiston”, “Xalq bo‘l, elim” kabi qo‘sinqlari vatanparvarlik g‘oyalarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa, “Jayron”, “Mehr qolur”, “Muhabbat”, “Zebi, Zebi”, kabi qator she’rlari inson qalbida sevgi sozini chalgan mashshoqdek, uni larzaga solmay qo‘ymaydi. Shoирning she’rlari xoh kuyga solinsin, xoh shundayligicha she’riy ohangda o‘qilsin, uni eshitgan tinglovchini she’riyatga, san’atga, musiqaga yetaklaydi.

Musiqa insonni ruhan tetiklashtiribgina, kayfiyatini yaxshilabgina qolmay, hatto betob odamga davo tarzida quvvat bag‘ishlashi ulug‘ bobokalonimiz, tib ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sinoning “Shifo” asarida ham aytib o‘tilgan.

Agar musiqa yaxshi she’r orqali bastakor tomonidan bastalanib ijro etilar ekan, insonni yig‘latadi, kuldiradi, sehrlab qo‘yadi. Muhammad Yusuf she’rlari o‘zining xalq dilidagi va tilidagi oson so‘zlar bilan tez tushuna oladigan ifodalar orqali ijro etilganligi, qo‘sinqqa aylanganligi bilan ham kishida mehr uyg‘otadi.

Shoirning “Saylanma”(3) to‘plamiga kiritilgan “Yor-yor” (3.49-b) she’rida oshiqning o‘z ma’shuqasiga bo‘lgan qalbidagi yashirin tuyg‘usini musiqiy soz “g‘ijjak nolasi” timsolidagi oh-u faryodidek chiroyli misralarda bayon etiladi:

Osmon olis, osmon jim,

Marhamatda qor yog ‘ar.

Seni qanday sevardim,

*Ko ‘rolmadi qarg ‘alar.
Hay-hay o ‘lan, jon o ‘lan,
Jonim qaqshar, yor-yor.
Qayda bo ‘lsang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...
Osmon olis, osmon jim,
Osmon quloq soladi:
Yuragimni sog ‘inchim
G ‘ijjak qilib chaladi.
Hay-hay o ‘lan, jon o ‘lan,
Jonim qaqshar yor-yor.
Qayda bo ‘lsang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...
Osmon olis, osmon jim,
Osmon yulduz to ‘shaydi.
Bilagingda barmog ‘im
Izi borga o ‘xshaydi.
Hay-hay o ‘lan, jon o ‘lan,
Jonim qaqshar, yor-yor.
Qayda bo ‘lsang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...*

Aslida, “Yor-yor” mavzusi mazmunida bir qator san’atshunos olimlarimizning ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, san’atshunoslik fanlari doktori F.Karomatovning “O‘zbek xalqi musiqa merosi XX asrda” nomli ikki tomli nashrning ikkinchi kitobida Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan yallachilik an’analari kesimida “Yor-yor”lar umumiy mazmunda o‘rganilgan (4). Musiqashunos olma K.Olimboyeva-Ahmedovaning “O‘zbek ayoli hayotida musiqa” ilmiy monografiyasida esa Farg‘ona vodiysida mashhur bo‘lgan xalq musiqa bisotidagi qo‘sish, lapar, yor-yor hamda yalla namunalari ilmiy tahlillarda berilgan (5). San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori N.Turg‘unovaning “Namangan

“yallachilik san’ati an’analari” mavzusida falsafa doktorlik dissertatsiyasida (6) hamda “Farg‘ona vodiysi yallachilik san’ati” nomli ilmiy monografiyasida (7) Farg‘ona vodiysi yallachilik san’atining mazmun-mohiyati, ohang lug‘ati, ritm usullari va boshqa xos sifatlari yorqin ifodalangan aytim janrlari – yalla, qo‘sish, ashula, yor-yor va boshqa qo‘sish va ashulalar timsolida o‘rganilgan (6.5-b). Shuningdek, o‘zbek xalq musiqasini o‘rganish asnosida ham bir qator san’atshunos olimlarimizning ilmiy ishlarida “Yor-yor” mavzusi o‘rganilgan (1, 2.).

Bundan anglash mumkinki, Muhammad Yusuf ijodida san’atga, xususan, musiqa san’atiga xos atamalarni qay darajada qo’llanilganligini qiyosiy tahlillar kesimida o‘rganish san’atshunoslikdagi o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan mavzulardan hisoblanadi. Shu bilan birga, bastakor va kompozitorlarimiz tomonidan Muhammad Yusuf she’rlarining shoir aytmoqchi bo‘lgan dardga va mazmuniga qay darajada xos ohang tanlanganligini ilmiy o‘rganish ham biz madaniyat xodimlari, san’atkor va san’atshunoslар oldida turgan katta vazifalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. O‘zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism (metodik tavsiyalar) – T. O‘zR XT o‘quv metodik markazi. 1994. – B. 1996.
2. Ibrohimov O., Xudoyev G‘. Musiqa tarixi. – T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti. 2018. – B.309.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyoti. 2019. – B.384.
4. Karomatov F. O‘zbek xalqi muzika merosi XX asrda. II kitob. – T. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. – B. 2007.
5. Olimboyeva, Ahmedova K. O‘zbek ayoli hayotida musiqa. –T. Yozuvchi. 1996. – B.145.
6. Turg‘unova N. Namangan yallachilik san’ati an’analari. San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik dissertatsiya avtoreferati. – T., 2018. – B.47.
7. Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik san’ati. – Namangan: “Namangan” nashriyoti. 2016. – B. 364.

Nilufar Ro‘ziyeva,

O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti

“Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik”

kafedrasi o‘qituvchisi

VATANGA MUHABBAT

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri, “Do‘stlik” ordeni sovrindori Muhammad Yusuf hayoti va ijodi haqida so‘z yuritiladi. “Ulug‘imsan, Vatanim” she‘ri tahlil qilindi hamda tegishli xulosalarga kelindi.

Kalit so‘zlar: Vatan, shoir, she‘r, ijod, mazmun, qalam, kitobxon, hayotiylik.

Аннотация

В данной статье рассмотрено жизнь и творчество народного поэта Узбекистана, обладателя Ордена «Дружбы» Мухаммада Юсуфа. Стихотворение «Великая моя, Родина» была проанализировано, и были явлены его особенности.

Ключевые слова: Родина, поэт, стихотворение, творчество, содержание, перо, читатель, жизненная сила

Annotation

This article was considered the life and work of Muhammad Yusuf, the winner of the people's poet of Uzbekistan “Order of friendship”. The poem "ulugimsan motherland" was analyzed and the relevant conclusions were made.

Key words: Vatan, poet, poem, creativity, content, Pen, Bookstore, vitality

Andijonni zabardast, mard, mehnatsevar, qalami o‘tkir shoir farzandi Muhammad Yusuf ijodida “Tanish teraklar”, “Iltijo”, “Uyqudag‘i qiz”, “Turkman qizi”. “Biz baxtli bo‘lamiz”, “Ulug‘imsan, Vatanim” she‘rlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu she‘rlar baland minbarlarda yangraganda Muhammad Yusuf qalami qanchalar o‘tkir va qanchalar ta’sirchan ekanini his qila olamiz. Butun ijodi davomida ko‘plab

she’rlar, dostonlar yozgan shoir hech bir so‘zni shunchaki yozmaydi, shuning uchun shoirning har bir she’ri qo‘sishq bo‘lib kuylanadi, har bir jumla, har bir satr o‘quvchi kitobxon tomonidan katta zavq va shu bilan birga kuchli his-hayajon bilan o‘qiladi. Shoir Muhammad Yusufning ijodiga qiziquvchi muxlis kitobxon sifatida shuni aytish mumkinki, shoir ijodida boshqa shoirlar ijodida kamdan kam uchratish mumkin bo‘lgan hayotiylik bor. Shoir she’rlarini o‘qiganda kitobxon go‘yoki she’r unga atalganday, she’r mazmunidagi voqealar kitobxon o‘quvchi bilan sodir bo‘lganday bo‘ladi. Muhammad Yusuf she’rlarining hayotiyligi ham shunda. Shoir qaysi mavzuni qalamga olmasin, uni shunchaki qog’oz qoralashga yozmaydi. Masalan, shoir ijodidagi ”Ulug‘imsan, Vatanim” she’rini olaylik:

Men dunyonи nima qildim,

O‘zing yorug‘ jahonim

O‘zim xoqon

O‘zim sulton

Sen taxti Sulaymonim

Yolg‘izim, yagonam deymi,

Topingan koshonam deymi?

O‘zing meni ulug‘lardan

Ulug‘imsan, Vatanim.

Shoir she’rda Vatanni shunchalar ulug‘laydi-ki, uni, ya’ni Vatanni, o‘zining eng go‘zal qiyoslariga taqqoslaydi. Vatanni butun boshli yorug‘ jahonim, taxti Sulaymonim, yolg‘izim, yagonam deya ko‘klarga ko‘taradi. She’rda shoir ijodida yetakchilik qiluvchi soddalik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir Vatanni ulug‘vor, tantanavor so‘zlar bilan emas, balki o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan soddalik va hokisorlik bilan e’zozlab yozadi. Shoirdagi bu vatanparvarlik shunchalar haqqoniy va shunchalar samimiysi, bu boshqalar tomonidan aytilgan balandparvoz gaplardan million chaqirim yiroq deb bemalol ayta olaman. ”Rimni almashmasman bedapoyangga” deganda ham shoirimiz adashmagandi. Shu jumladan, o‘zbekning haqiqiy shoiri bo‘lgan Muhammad Yusuf dahosining dengizidan bir qismi xolos. ”Tanish teraklar” (1985), ”Bulbulga bir gapim bor” (1987), ”Iltijo” (1988),

“Uyqudagি qiz”, (1969), “Halima enam allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Bevafo ko‘p ekan” (1991), “Erka kiyik” (1992), “Osmonimga olib ketaman” (1998) kabi asarlarida Muhammad Yusuf har bir mavzuga o‘ziga xos chegara bilmas muhabbatini yorita olgan va bu muhabbatni soddalik, oddiylik bilan o‘quvchiga yetkazib bergen. Muhammad Yusufni bu qadar mashhur qilgan sabablardan yana biri, hayotning turtkilariga bardosh berib, har sohada toblanib-toblanib kelish yo‘lida ijodkor o‘qishni bitirgach, O‘zbekiston kitobxonlar jamiyatiga muharrir bo‘lib ishga kiradi. Bu jarayon osonlik bilan o‘tmagan. Hayoti davomida “Toshkent oqshomi” gazetasida muxbir, G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at tahriri yati muharriri lavozimlarida faoliyat yuritgan. Shoир mehnatlari va ijodi ulug‘lanib, “Do‘stlik” ordeni hamda O‘zbekiston xalq shoiri unvonlari bilan taqdirlangan.

Muhammad Yusuf nafaqat o‘zbek kitobxonlari, qolaversa, qo‘sni respublikada ham sevib o‘qiladigan shoirlardan hisoblanadi. Fikrimni isbotlash uchun yana o‘sma mashhur “Ulug‘umsan, Vatanim” she’riga murojaat qilindi. Bu she’r O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Sevara Nazarxon tomonidan qo‘sni qilib kuylangan va bu tantanavor qo‘sni madhiya misol yangrab turadi va o‘zbekman degan har bir kishida faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda germanlar tomonidan Germaniyaning eng mashhur bir guruhi, aynan Muhammad Yusuf qalamiga mansub bo‘lgan “Ulug‘umsan, Vatanim” she’rini ham nemis, ham o‘zbek tilida qo‘sni qilib kuyladi. Qo‘sni shunchalar ommalashdiki, hozirgi zamon tilida aytadigan bo‘lsam haqiqiy chelenjga aylandi, buni aytib o‘tishimdan maqsad shuki, mahoratlil shoир Muhammad Yusuf qisqa satrlarda shunchalar ko‘p ma’no mazmun joylay olganki, bu nafaqat o‘zbek kitobxonini, qolaversa, o‘zining mazmundorligi bilan butun dunyo kitobxonlarini o‘ziga jalb qilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari. Muharrir U. Qo‘chqorov. – Toshkent: “ADIB” nashriyoti, 2014. – 232 6.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2019. -386 b.
3. Muhammad Yusuf . Quyoshga qarab oqqan suv. -Toshkent: Nurafshon biznes, 2019. – 232 b.

4. Muhammad Yusuf . Biz baxtli bo'lamiz . Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: Nazira as-Salom, Madina Muhammad Yusuf qizi.- Toshkent: Nihol, 2008. –192 6.

5. Davlat axborot tizimlarini yaratish bo'yicha va qo'llab quvvatlash bo'yicha Yagona Integrator Arboblar.uz sayti.

Shavkat Bobomurodov,
"Teatr san'ati" mutaxassisligi 1-kurs magistranti.

DRAMATIK HOLATLARNING SHE'RIY IFODASI
(“MO‘MINJON” SHE’RI MISOLIDA)
Annotatsiya

Maqolada Muhammad Yusufning “Mo‘minjon” she’ri syujetlar liniyasida dramatik holatlar tahlil qilingan, dramaturgiya qonuniyatlari talablari bilan solishtirilgan va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Dramatik holat, alternativ omil, kompozitsiya, yaxlit ifoda, keskin burilish, kulminatsiya, pafos.

Аннотация

В статье анализируются драматические ситуации в сюжетной линии стиха Мухаммада Юсуфа “Муминджон”, сравниваются с требованиями законов драмы и делаются выводы.

Ключевые слова. Драматическая ситуация, альтернативный фактор, композиция, селостное выражение, перипетия, кульминация, пафос.

Annotation

The article analyzes the dramatic situations of the poem “Muminjon” of Muhammad Yusuf in the plot line, compares them with the requirements of the laws of drama and draws conclusions.

Key words. Dramatic situation, alternative factor, composition, whole expression, sharp turn, culmination, pathos.

Qadimgi yunon faylasufi Arastu o‘zining “Poetika” asarida dahshatli holatni sahna jihozlarisiz, voqealor orqali ifodalaydigan ijodkor yaxshi shoir ekanini

ta'kidlarkan, o'z fikrini shunday davom ettiradi: "Aslida, asar shunday yozilishi kerakki, u sahnada ko'rilmaganida ham, bo'lib o'tadigan voqeani tinglayotgan har bir kishi xuddi Edip haqidagi rivoyatni tinglaganday, hodisalarning o'sib borishidan g'am chekuvchiga nisbatan o'zida hamdardlik sezsin va vujudi jivirlab seskansin" [1,28-b].

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning juda ko'p she'rlarida xuddi shu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi: o'quvchi dramatik holatga beixtiyor kirishadi, qahramonning boshiga tushayotgan kulfatlarga hamdardlik kayfiyatiga inadi. Dramatik holatlarning she'riy ifodasini shoirning "Muhammadqodir" she'ri misolida ko'rib, ayni mana shunday hamdardlik uyg'otuvchi syujet liniyasiga e'tibor qarataylik:

Mo 'min suvchi

G'o 'zaga suv tarab yurar,

Ish payti yurakdan ishlab,

Yayrab yurar.

Bo 'sh payti g'isht quyishga ham

Yarab turar.

Qish payti shiyponga ham

Qarab turar... [2, 334-b]

Qisqa ekspozitsiya orqali muallif o'quvchini dramatik holatga tayyorlab oladi. Bu xuddi yelka oshirib yerga urmoqchi bo'lgan kurashchining raqibini havoga dast ko'targan holatini esladi. Vaziyat o'z-o'zidan kutilmagan dramatik holatni talab qila boshlaydi. Aleksandr Mitta ta'kidlaganidek, "Har qanday hikoya dramatik holatdan boshlanadi. U yuzaga qanchalik tez qalqib chiqishi kerak? Eng yaxshisi – darhol!" [3, 44-bet]

Mo'min dehqon —

Daladadir kuni bilan.

G'o'zasiga

Parvonadir kuni bilan.

Oftob tanish,

Tanadadir kuni bilan...

Sheriklari

Panadadir kuni bilan.

O‘ynoqi ohang bilan syujet liniyasi tobora taranglashib boradi. “Panadagi sheriklari” kompozitsiyaning tugunini mustahkam chiyib bergani holda qolgani avjga – kulminatsiyaga qarab keskinlashib boruvchi voqealar rivoji ekani kishining tasavvurida tadrijlanib ulguradi. Chunki muallif keng ko‘lamli voqeaning butun kompozitsiyasini yuqoridagi yaxlit ifoda orqali bayon qilib bergen edi. Endi yuqoridagi syujet dramatik holatga solib qo‘ygan qahramonning ko‘ngil kechinmalarini ifoda etuvchi ta’sirchan, kuchli monologga ehtiyoj seziladi. Shoir bu vazifaning ham qoyilmaqom uddasidan chiqadi:

Sheriklari –

Pixin yorgan mast tuyalar.

Sheriklari –

Xachirdan ham past tuyalar.

Mo ‘minjondan kulishadi:

Sodda odam!..

Mo ‘minjonne qilishadi askiyalar.

Garchi hali syujet ekspozitsiyadan chiqib ulgurmagandek tuyilsa-da, voqealarning odatdagи tartibda tizimlangani unda keskin berilish – peripetyani talab qiladi. Zero, Arastu ta’kidlaganidek, “Men shunday to‘xtovsiz va yagona voqeani sodda deb ataymanki, undan voqea davomida taqdir o‘zgarishi keskin burilishsiz va to‘satdan anglashsiz sodir bo‘ladi” [1, 24-b]. Keskin burilish va to‘satdan anglash talabi keyingi mohirona qo‘llangan misralar orqali qondiriladi:

Mo ‘min suvchi

Bir kun og‘rib qoldi, tavba,

Qornin ushlab

Uyiga yo‘l oldi zo‘rg‘a.

Tut suyadi,

Tol suyadi,

Xotinining oldiga yetvoldi zo 'rg 'a...

Keskin burilish va to'satdan anglash voqealar rivojini pafosga olib keladi. Zero, "pafos – ehtiros halokat yoki iztirob keltiruvchi harakatdir" [1, 25-b]. Shoir xuddi shu ehtiyoj talabida davom etadi:

Mo 'min dehqon.

Mo 'min endi nogiron chol.

Ko 'ziga tik qarolmaydi Yo 'lamatol!

Ne bo 'ldi, deb surolmaydi Yo 'lamatol,

Mo 'min — butun Marhamatga tirik savol!

Har bir detalni shoir urg'ulab, har bir so'zni o'ynatib ishlatadi. Teatr donishmandi K.S.Stanislavskiy yozganidek, "Katta yozuvchilarning asarlarida hatto eng kichkina jismoniy vazifalar ham katta muhim shart-sharoitlar bilan asoslangan bo'ladi, ularda tuyg'uni qo'zg'atuvchi kuch yashirinadi" [4, 213-b].

She'ming dramatik holati keskin namoyon bo'lishi muallifning o'quvchiga tasavvur uchun imkoniyatlar qoldirib ketgani bilan ham bevosita bog'liq. Ijodkor holatlarga batafsil to'xtalib, she'rxonni zeriktirib qo'yishdan, deylik, dramatik holatdan chiqarib qo'yishdan istihola qiladi. Mittaga ko'ra, alternativ omil (lirik qahramon hayotiga bo'lgan xavfni o'quvchiga havola qilish orqali) dramatik holatning yuzaga chiqishida o'ziga xos shaklni ko'rsatib beradi [3, 46-b].

Odatda, alternativ omilning o'zini hurmat qilishga beriladigan zarba, kasbiy o'pirilish, jismoniy zarar, o'lim xavfi, oila hayotiga tahdid, populyatsiya hayotiga tahdid, insoniyatga tahdid kabi turlari dramatik holatni keltirib chiqaradi. Shoir tomonidan bayon qilinayotgan hikoya esa alternativ omilning deyarli barcha turlarini o'zida qamrab, tarang dramatik holatni yuzaga keltirgan.

Yechim esa o'quvchi xulosaning ibtidoda ilg'ab ulgurmagan jihatlarini qayta namoyish etib, dramatik holatni yanada keskinlashtiradi:

Mo 'min endi g 'o 'zaga suv taramaydi,

Ish payti yurakdan ishlab yayramaydi.

Bo 'sh payti g 'isht quyishga ham yaramaydi,

Qish paytida shiyponga ham qaramaydi...

Yuqoridagi she'rdagi lirik va dramatik holatlар uyg'unligi shuni ko'rsatadi, Muhammad Yusufning "Mo'minjon" she'ri ham shaklan, ham mazmunan dramatik qonuniyatlarga hamohang tarzda o'z ifodasini topgan. Bu esa yuqoridagi kabi keskin dramatik holatlarga boy she'rlarining fabulasi doirasida kuchli dramatik asarlar yaratish, filmlar suratga olish, spektakllar sahnalashtirish mumkinligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. Aristotel. Poetika (Poeziya san'ati haqida). – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: "Sharq" NMAK Bosh tahririyati. 2007.
3. Aleksandr Mitta. Kinoda rejissura va dramaturgiya. – T.: "Fan va texnologiya". 2014.
4. K.S.Stanislavskiy. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: "Yangi asr avlodи". 2011.

**Zilola Ergasheva,
Marg'uba Qodirova,
O'zDSMI "Jahon tillari va adabiyoti"
kafedrasi o'qituvchilari**

**THERE WILL BE NO TOMB OF A TRUE POET
BURIAL TO THE HEART ARE THE ORIGINAL POETS**

Annotatsiya

Ushbu maqolada dilbar she'rlari ohangdor qo'shiqlarga aylanib, har bir o'zbek xonadoniga kirib kelgan, XX asr o'zbek adabiyotida so'nmas yulduz sifatida porlagan lirik shoir Muhammad Yusuf ijodi yoritib berildi. Shoir Vatan, tabiat va insonparvarlik haqidagi qalbini larzaga soluvchi she'rlari bilan barchaning qalbida o'chmas iz qoldirdi, uning she'rlari garchi sodda tilda yozilgan bo'lsa ham, chuqr ma'no kasb etadi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, she’riyat, millat, vatanparvarlik tuyg‘usi, qalb, til, fikr, tabiat, insonparvarlik, g‘urur, iftixor.

Аннотация

В данной статье речь ведется о лирике Мухаммада Юсуфа, чьи очаровательные стихи стали душевными песнями и вошли в сердце каждого узбекского слушателя, сияя в каждом сердце как неугасимая яркая звезда. Поэт оставил неизгладимый след в сердцах каждого читателя душераздирающими стихами о Родине, природе и человечестве, хотя они написаны простым языком, но имели глубокий смысл.

Ключевые слова: литература, поэзия, нация, чувство патриотизма, сердце, язык, мысль, природа, человечность, гордость.

Annotation

This article deals with the lyrics of Muhammad Yusuf, whose charming poems became soulful songs and entered the heart of every Uzbek listener, shining in every heart like an inextinguishable bright star. The poet left an indelible mark in the hearts of every reader with heartbreaking poems about the Motherland, nature and humanity, although they were written in simple language, but had a deep meaning.

Key words: literature, poetry, nationality, patriotic feeling, heart, language, thought, nature, humanity, pride, pride.

Uzbek literature is a beautiful place with lots of flowers. In this garden, the poems of charming poets, who are different and do not repeat each other, are the gift of the heart. Muhammad Yusuf, the People's Poet of Uzbekistan, the honored son of our people, was an incomparable talent. Ozod Sharafuddinov, the Hero of Uzbekistan, described Muhammad Yusuf as follows: He was not for fame, fame was chasing him".

The independence of our country marked a turning point in the work of the poet, opened new horizons. Muhammad Yusuf's beautiful poems, written in honor of the future of the nation and the country, resonated in the hearts of millions of people with their sincerity, simplicity and artistic perfection. It is no exaggeration to say that his

poem "Confession" has become a masterpiece that proves how true poetry should sing the country. I do not think there is anyone who has not heard the song based on the text of the poet's poem.

*Oh, my father's birthplace
My lovely motherland,
Let me lay my soul on your shade.
Uzbekistan, you are the most benignant,
You are so great, for Rome –your clover-field-I cannot trade.
The Earth is covered with water and slopes,
I saw many countries, fates and hopes,
Your mountain uphold me and follow,
Asking to be proud high and low.*

In fact, there are many poems written in memory of the events that took place in Mazi, listing the names of our great ancestors one by one and praising them. Almost all of them mention Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoi, Babur, Cholpon, Fitrat, and glorify them with well-known poetic descriptions. Admittedly, not all of them were as famous as the work of Muhammad Yusuf.

The poet compares the love he felt for his homeland to the love of his mother. If the country says "my son", he says he is ready for any difficulties; he wants to "take refuge in the father and hug Ulugbek". Babur, Alisher Navoi, Ulugbek embody the virtues of the people, the nation, and reflect on the history of the people, it is most bitter and victorious days. While congratulating the independent Motherland, he rightly expressed gratitude on behalf of the people.

Poet, writer-creators in general fancy dreams , soul an opportunity to express their truth in the depths of their creativity the eyes of Allah are the owners of the fallen talent. That is, only a person who is able to express his feelings, feelings in his soul, his senses in his language without any stresses, in his pen, is considered a true creator. Since the works of such creators come out of the most transparent mask of a person –the heart, he quickly finds his violators and lives forever in the hearts.

The work of Muhammad Yusuf, the poet of our people we can get to the above points as the highest example. After all, the poet was creative in harmony with the heart of the pen. Whatever he writes from the heart, the writer would express himself without any superfluous gratitude. For the same reason, the singing of the evangelist, who did not even go into the poems of the person who does not listen, cannot be found.

Muhammad Yusuf among our people in relation to the poem is easy to read and understand, simple and sincere there are many opinions that "written" truth poet poems simple and fluent read. "However, do you want to see him write like that? It does not come from your hands! Like it's easy to write visible Egyptians cry their helm, laugh at their own anticipation pulls". So what was the secret of this? Briefly, to this question it is possible to answer as the freshness and sincerity of the poet's soul. Because that is certainly, the owner of a big and sincere heart for creativity must be.

The people he sings should be able to truly love the people and the motherland. The main theme of Muhammad Yusuf's poetry is human feelings such as affection, love and loyalty, and the main factor of these feelings, endless love and admiration for the motherland, the flower of which is top. The poet writes in the poem "Isheri dil:

Motherland-the refuge of my heart Alam

This is the Horn of a world-grandmother.

Watering lettuce with tears in my eyes,

I love the flowers that grow on my chest.

Motherland is a creator who did not praise him, did not sing should not be found. Because the creative for himself is a native mask –it will not be a pleasure and a scarf of happiness, as if singing his homeland. As I have already mentioned above, the poem of the poet "Motherland" in many, he mentioned the motherland as the mother, sister and sister.

In fact, for a mother who sees the first step of the child, this is there will be no more joy. Like Mother, motherland also lives in his bosom he rejoices with the achievements of his people, the days of joy. To his ways, flower-he keeps lawns. In

gloomy times like sisters, accompany praise-will. It turns out that the poet is a simple life striking similarities and thoughtful philosophical reflections based on events having created the Egyptians.

In the poem "Isheri dil" how the poet loves the motherland such annotate: Stand up, say my sister, I rub your hair. I will say my sister if you ask, I wish. I do not hurt you, I do not care- I am sorry, I am sorry. Love a bit. Protect the mother and sister of a real husband young staff in our people make them border on such traits as to be leaning against the mountain. Like the sister, motherland also relies on protection, the husband who will lean on the mountain. The poet comprehends these concepts in a thoughtful way, exposing the motherland to the sister and the sister mengzagan if ne wonderfull.

Analyzing the poems of the poet, we can see that the role of poetic syntax and poetic phonetics in the emergence of emotionality in Egypt is great in artistic arts. Its vat in his poems on the theme of an, we can see that he widely used the artistic arts talmeh and tashbeh, tazzod. In addition, poetic syntax tools are excellent, using such types as rhetorical interrogation, rhetoric, aniteza, apostraфа epifara the Egyptians created. For example, showing the lifestyle of the Uzbek people the art of apostraфа in the black sand poem " berichu " embodied the emotianality of the poem Death has set fire to you, Black sandstone, black sandstone. From the work of Muhammad Yusuf, the poem "Uzbekistan" with emotional coloring, attractiveness and many people with the expression of his boundless love for the motherland separate.

References:

1. Muhammad Yusuf. Selection.-Tashkent: Sharq Publishing and Printing Joint-Stock Company General Editorial Office, 2007.
2. Sh. Victim. Muhammad Yusuf or a disciple of a teacher. - Tashkent: Publishing and Printing Joint-Stock Company "Sharq" General Editorial Office, 2012.
3. Abdulla Oripov. Selected works. Volume 7.-Tashkent G '. Gulom Publishing House, 2013.
4. Muhammad Yusuf. Selection. - Tashkent: "Sharq", 2014.

5. Muhammad Yusuf. Shoир sevgisi.- Tashkent: “Noshir”, 2016.

Halimaxon Siddiqova,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

QISQA UMR, UZUN SHE’R

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ijodi, vatanparvarlik tuyg‘ulari ta’rifi, ta’lim-tarbiya sohasida she’riyatning o‘rni haqida yozilgan. Maqoladan shoirning qalamiga mansub she’rlaridan namunalar ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, fenomen, shoir, adabiyot, kelajak, yozuvchi, she’riyat, ma’rifat, xalqona

Аннотация

Данная статья посвящена описанию патриотических чувств в творчестве народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа, роли поэзии в сфере образования и воспитаний. В статье также представлены образцы стихов поэта.

Ключевые слова: патриотизм, явление, поэт, литература, будущее, писатель, поэзия, просвещение, народ.

Annotation

This article is devoted to the description of patriotic feelings in the work of the national poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf, the role of poetry in the field of education and upbringing. The article also presents samples of the poet's poems.

Key words: patriotism, phenomenon, poet, literature, future, writer, poetry, enlightenment, people.

Ijodkorlar, shoirlar, yozuvchilar ko‘p, lekin so‘zni suygan, so‘zga mehr qo‘ygan, so‘zni Vatan kabi qadrlagan, shuningdek, so‘zida tuproq, maysa, ko‘klam, osmon-u, tog‘lar, eng issiq va eng dilga yaqin bo‘lgan satrlar bilan o‘z o‘quvchilarnining mehrini qozongan ulug‘vor shoir Muhammad Yusuf ijod yo‘lini har qancha o‘rgansak arziydi. Chunki shoir o‘zining qisqagina, lekin sermazmun umri davomida jamiki mavzularda qalam tebratdi.

Uning ijodiy merosini bir mevali daraxtga qiyoslasak, daraxt har yili meva bergani kabi uning she’riyati har safar yangidan muxlislari, yosh adabiyot ixlosmandlari tomonidan o‘rganilganda, sevib yod olinganda gullab ijodiy mevalar beraveradi, ilhomlantiradi. Vatanni kuylovchi yosh shoirlarni kashf etadi. “Biz ma’rifat borasida, ta’bir joiz bo‘lsa, “iligi to‘q” xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor. Buyuk ajdodlarimiz betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak” [1],-dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

“Muhammad Yusuf o‘z she’rlariga quyib qo‘ygandek o‘xshardi: sodda, chapani, samimiy... Aytgancha, samimiy degani nimani anglatadi, birodari aziz? Ko‘p ishlatilganidan dehqonning ketmonidek yaltillab ketgan bu so‘zning qiyofasi qanaqa? Uning she’rlaridan samimiyat balqib turadi”, deb yozishadi olimlarimiz. Hech tasavvur qilolmayman.

Muhammad Yusufning dastlabki she’rlarini o‘qiganimda qizg‘aldoqzor adirda pochalari shimarilgan o‘spirin quyoshga qarab shoshmasdan ketayotgandek tuyulardi. Yana uning she’rlaridan endigina qo‘shquloq bo‘lgan yalpizning hidlarini tuyardim. Xullas, g‘irt o‘zbekcha manzara, kayfiyat edi bu. To‘g‘ri, hammamiz o‘zbekcha yozamiz, lekin hamma ham o‘zbekona yozolmas ekan.

*Muhabbat, ey go ‘zal iztirob,
Qomatimni bukib qo ‘yding-ku.
Ko ‘kragimga qo ‘lingni tirab,
Yuragimni to ‘kib qo ‘yding-ku...*

“Yuragim ado bo‘ldi”, “vayron bo‘ldi”, “yara bo‘ldi”, hatto, “xarj bo‘ldi” kabi kitobiy jumlalar ko‘p. Muhammad Yusuf esa rosmana xalqona qilib aytadi. “Yurakkinang to‘kilib ketadi”.

Yoshlikdan juda she’rsevar edik. Yaxshi she’rlar o‘z-o‘zidan yod bo‘lib qolardi. Bir-birimizga aytib charchamasdik. Musobaqalashardik ham. Sevimli shoirining suratlaridan albom qiladiganlar ham ko‘p edi. Qiziq, gazet-jurnalda chiqqan rasmiga qarab odamning yaxshi-yomonligini sezsa bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston gazetasining 180-sonida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo‘ldoshevning “Har bir o‘zbekning yuragini o‘ziniki qilgan shoir” deb nomlangan maqolalari chop etildi. Maqolada yurtimiz o‘tmishi, buguni va ertasi haqida qayg‘urib, betakror asarlar yaratgan shoirimizning ijodini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ayni paytda bir qator hayrli ishlar amalga oshirilayotgani ta’kidlangan. Jumladan shoir merosiga bag‘ishlangan maxsus onlayn o‘quv kursi joriy etilib, talaba yoshlarga adib asarlari chuqur o‘rgatilmoqda. Shuningdek, ta’lim muassasasida talaba yoshlar uchun “Muhammad Yusuf izdoshlari” ijodiy to‘garagi tashkil etildi va ushbu to‘garakka O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo rahbarlik qiladigan bo‘ldi. Institutda 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab Muhammad Yusuf ko‘krak nishoni va uning nomidagi maxsus stipendiya joriy qilindi” [2. 2-b.].

Samimiyat, bizningcha, tabiiylik demakdir. Dunyoni faqat oq-qora rangda ko‘radigan daltoniklar bo‘lgani kabi ko‘pchilik ilg‘amaydigan bo‘yoqlarni keskin ajrata biladigan zako sohiblari ham uchraydi. Bu ne’mat, albatta, ulug‘ Tangrining sevikli bandasiga siylovidir. O‘z navbatida, ana shunday noyob iste’dod egasi, magar u ijodkor bo‘lsa, u xalqqa oliy tuhfa sanaladi.

Ustoz Muhammad Yusuf o‘zining qisqagina umrida sermazmun ijod qilgan, zamondoshlarining mehrini qozona olgan ana shunday tabiiy shoir, samimiy inson edi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabrdagi O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yangi O‘zbekiston gazetasi. – T.: “Kolorpak” 2020-yil, 19-sentabr, 180-son.

Sh.I. Nusratova,

“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

MUHAMMAD YUSUFNING “UYQUDAGI QIZ” SHE’RI HAQIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbekining ardoqli shoiri Muhammad Yusufning Nurxon xotirasiga bag‘ishlab yozilgan she’rining o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Shoир, yozuvchi, she’r, ijod, san’at, his-hayajon, tasavvur, nozik san’at.

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности поэмы известного узбекского поэта Мухаммеда Юсуфа, посвященной памяти Нурхана.

Ключевые слова: поэт, писатель, поэма, творчество, искусство, эмоция, воображение, изобразительное искусство.

Annotation

This article discusses the features of the poem of the famous Uzbek poet Muhammad Yusuf, dedicated to the memory of Nurkhan.

Key words: poet, writer, poem, creativity, art, emotion, imagination, fine art.

Hayot va ijod yo‘li butun bir soha yoxud sohaning katta bir davri haqida atroflicha tasavvur beradigan mutaxassislar ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Chunki bunday kishilarga taqdirning ajib bir inoyati sifatida nasib etadi. Bu esa yozuvchi, shoир, dramaturglar ijodida yaqqol ko‘zga ko‘rinadi.

Ba’zi bir taniqli dramaturg, shoir va yozuvchilarning umri qisqa bo’lgan bo‘lmasa-da, shu qisqa vaqt ichida qilingan ko‘plab ijodiy ishlari ya’ni asarlari, hikoyalari, she’rlari uzoq yashab qoladi.

Ammo ular orasida adabiyotning gavhari bo‘lmish she’riyatga ixlos qo‘yibgina qolmay, bu nozik san’atni yuksak cho‘qqiga olib chiqqanlari kamdan-kam. Muhammad Yusufning iqtidoriga teng kelolgan kam uchraydi.

Insonga ko‘tarinkilik va jur’at bag‘ishlab, ulkan maqsadlarga undaydigan she’rlar sevimli yozuvchimiz Muhammad Yusuf qalamiga mansub “Tinish teraklar”, “Bulbulga bir gapim bor”, “Iltijo”, “Uyqudagagi qiz”, “Halima enam allalari”, “Ishq kemasi”, “Ko‘nglimda bir yor”, “Bevafo ko‘p ekan”, “Erka kiyik”, “Yolg‘onchi yor”, “Erka kiyik”, “Osmonimga olib ketaman”, “Ulug‘imsan, Vatanim”, “Xalq bo‘l, elim” kabi she’rlarida o‘ziga xos ramziylik bor. Ayniqsa, Muhammad Yusuf mansub bo‘lgan avlodning eng oljanob va yuksak insoniy fazilatlari bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o‘zbekona, sodda, ayni paytda ezgu, bokira va betakror tuyg‘u hamda kechinmalari o‘zining yorqin ifodasini topgan. So‘zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy raxonlik, tuyg‘ular tiniqligi, samimiylig va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo‘nda va yaqqol ifodalay bilish Muhammad Yusuf she’riy uslubining yetakchi xususiyatlaridir.

Birgina “Uyqudagagi qiz” she’rini olaylik, Nurxon xotirasiga bag‘ishlab yozgan. She’rda hayotdagi achchiq sinovlar uni biroz yo‘ldan adashtirsa-da, o‘zining nimaga qodirligini namoyon etgan, turmush sinovlarida toblangan, aql-zakovati bilan nazarga tushgan Nurxon obrazi talqin etilgan. She’rda hayotiy voqelik va inson taqdirining badiiy ifodasi, til jozibasi va orzu-istiklar ro‘yobiga chiqarishga bo‘lgan oliy harakat o‘quvchini ezgulikka, yangi maqsadlarga undaydi, ko‘nglimiz mulkini boyitadi...

Shoir bu she’ri garchi, “Nurxon”da berilgan ma’lumotlar asosida yaratgan bo‘lsa-da, undagi matn shunchalar zo‘r mahorat bilan badiiylashtirganki, o‘quvchi dilbar bir she’rni o‘qigandek huzur qiladi. She’rda Nurxon obrazi barcha murakkabligi va yorqinligi bilan namoyon bo‘lgan. Agar she’r badiiylikdan mahrum bo‘lsa, libossiz odamga, yaproqsiz daraxtga, oy va yulduzsiz osmonga aylanadi. Badiiylik esa bu – haqqoniylidir. Agar yozuvchi tasvirlayotgan voqeani aynan

rangi, ohanglari va hatto bo‘yi bilan tasvirlasa, bu badiiylikdir. She’rda manzara gul va soyalar jilvasi, ya’ni ma’no jihatidan qarama-qarshi so‘zlarni qo‘llash ta’sirchanlikni ta’minlovchi omillardan keng foydalangan. Oshiqqa vafodor, yangi hayot sari yo‘l olgan qiz haqidagi misralari bir baytdayoq oydinlashadi. Muhammad Yusuf badiiy tasvir vositalaridan lirik san’atining ifodalovchi unsurligini qayd etgan. Shoir “Uyqudagi qiz” she’rining misrasi bir yoki ikki so‘zni ikki ma’noda qo‘llash san’atidan foydalangan. Chunonchi, uning quyidagi misrasida Ko‘ngli to‘la armoni, qo‘yni to‘la qizg‘oldoq ma’nolarida qo‘llangan:

Bugina emas, hatto tasvirilash xususiyati singdirilgan ushbu she’rning birinchi misrasi ham quyidagidek talqin qiligan.

Qor yerga qo ‘yib bosh,

Bir qizgina uxlaydi,

Ko ‘zlariga to ‘la yosh,

Hur qizgigna uxlaydi.

Yuqoridagi misralar ko‘rinishidan oson, jo‘ngina tuyuladigan, aslida esa, bunday yoza olish juda murakkab bo‘lgan antiqa bayon uslubidir. She’r matni bir qizning erta so‘ngan hayoti haqida eslatadi. Uning ko‘zlaridagi yoshi esa o‘zgacha ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Qisqa misralarning ichki qofiyalar bilan ta’minlangani, ularning har birini yana ikki bo‘lakka bo‘ladi. Natijada o‘quvchida to‘rtlikdek taassurot qoldiradi. Bu esa jarangdorlikni yanada kuchaytiradi:

Bu dunyoda hech sendek

Qiz yo ‘q edi tur, singlim.

O‘zing orzu qilgandek

To ‘y qilamiz, yur singlim.

Shu birgina to‘rtlikning poetik fazilatlarini bir daftar qilib sharhlasa arziydi. Ikkitagina misrada yaratilgan oshiq timsoli fe’l-atvorining ko‘pqirraliliga e’tibor beraylik. Yangicha poetik shakl mo‘jiza sodir etib, an’anaviy fikrlarga yangidan jon ato etgan, zalvor ohang orqali tasvirlagan shu ta’sirchanlikni teskari amaliyotda yuzaga chiqargan. Orzu istaklariga yetishmay ketgan ota tomonidan qo‘llangan zulmning qo‘rboniga aylangan hur qiz siymosini yarata olgan.

Shoir bu kichik lirik janr namunalarida xotin-qizlarni singlim deb o‘z she’rlarida muhrlagan. Shunisi e’tiborliki, Muhammad Yusufning she’rlarining mavzulari g‘oyat xilma-xil. Falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, sevgi-muhabbat, do’stlik-totuvlik, hayotga muhabbat, ayniqsa, vatanga sadoqat singari talqinlar ma’naviy teranligiyu tabiiylici bilan o‘quvchini mutolaaga moyil etadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, Nurxonning hayotiy sarguzashtlarining voqeい tarixiy lavhalaridan iborat bo‘lsa-da, “Uyqudagi qiz” she’ri shoirning to‘plamini ana shu nom ostida nashr qilingani o‘ziga xos ilovadir.

Mazkur to‘plamga kirgan she’rlarda Muhammad Yusuf mansub bo‘lgan avlodning eng olajanob va yuksak insoniy fazilatlari bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o‘zbekona, sodda, ayni paytda ezgu, bokira va betakror tuyg‘u hamda kechinmalari o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Nurxon xotirasiga bag‘ishlanib bitilgan ushbu she’rda umumiyligidan ko‘ra ta’sirchanlik ustunlik qiladi. Chunki kitobxon umuman lirik qahramondan ko‘ra, uyqudagi qizning o‘zini yurakka yaqinroq oladi. Shunisi diqqatga sazovorki, muayyan she’rda, yuzaki qaraganda, Nurxon holga doir hech qanday belgi ko‘rinmaydi. Agar biz unga o‘tkir ko‘zi bilan boqib, tadqiq eta boshlasak, u she’rning kimga atalgani va uning isbotini ham manzur etishimiz mumkin. Chunonchi, qizning:

Qora yerga qo ‘yib bosh,

Bir qizgina uxlaydi.

Nurxon otli qalamkash,

Hur qizgina uxlaydi.

Shu bilan birga shoir she’riyatning asosiy mazmuni bo‘lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go‘zalligi, unga cheksiz muhabbat, hijron azobi, ayrilik‘ alamlari va visol quvonchlari nihoyat go‘zal va mohirona ifoda etilgan. She’rda inson va tabiatni, kayfiyatni moslashtirib tasvirlashi oxirgi misrada, ya’ni qahramonning hayoti fojea bilan yakun topib hur bo‘ladi degan so‘zni anglatadi.

So‘zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg‘ular tiniqligi, samimiylilik va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo‘nda va yaqqol ifodalay bilish Muhammad Yusuf she’riy uslubining o‘ziga xos xususiyatlaridir.

Shoirning qalamiga mansub aksariyat she'rlar taniqli xonandalar tomonidan ijro etilmoqda. 1989-yilda "Uyqudagi qiz" nomli she'riy to'plami uchun shoir respublika Yoshlar tashkilotining mukofotiga sazovor bo'lgan.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Uyqudagi qiz. She'rlar. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.,1989.
2. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan vatanim. She'rlar. "Ijod dunyosi" nashriyot uyi. T.: 2004.

**Qulmirzayeva Sanobar,
O'ZDSMI Kino san'ati tahlili va tanqidi
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
QIZG'ALDOQNI QUCHOQLAB...**

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she'riyatiga bag'ishlangan bo'lib, shoir she'riyatini o'qigan har bir o'quvchini qalb kechinmasi, shoir she'rlariga bo'lgan muhabbat, Muhammad Yusuf she'riyatidagi xalq ichida ommalashib ketgan obrazli she'rlariga va shoir tabiatiga chizgi tarzda odatiy maqola yozish uslubidan biroz chekinib, saj uslubi tarzida yozildi. Ruhiyat va she'riyatning uyg'un chizgilari bo'lib qog'ozga to'kildi.

Kalit so'zlar: Qizg'aldoq, shoir, she'riyat, xudoning erkatoylari.

Аннотация

Это статья посвящена поэзии народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа. На бумаге разлились как гармоничные линии психики, так и стихи.

Ключевые слова: тюльпан, поэт, поэзия, богиня.

Annotation

This article is dedicated to the poetry of the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. Both harmonious lines of the psyche and poetry spilled out on paper

Key words: tulip, poet, poetry, goddess.

Qay yo'sinda kamol topar qizg'aldoq? Kuzatganmisiz? Kamolidan jamol taqar bahorlar! Bahor ko'ksiga qadalgan alvon ko'zmunchoq qizg'aldoq.

Ko'zmunchoq ko'zlariga labin bosar sog'inchlar mushtoq... Qirlarning bag'rida qiqirlab, shamollar erka ohangiga erkalanib takror ko'karar, mavjlanar, avjlanar, mahzun kulgusi hur titroq qizg'aldoq. Qadamlarin quchib, ildizlarin o'pib, izzat topar ona tuproq. Dunyoning ko'ksiga yuragini sochib yotgan shoirga o'xshar ko'proq qizg'aldoq. Bir nafas olgudek joni, hovuchidan to'kilib, ona zamin ko'ksiga to'layotgandek qoni. Asrlarni sog'intirgudek, ammo bir nafaslik oni. Umrini yellar erkabal-erkabal olovida jon berar. Sovqatgan dunyo ko'ksiga bosgan cho'qqa o'xshar. Diydlarga baxt ulashar. Unga qismatdir she'rga erkalanib jon bermoq. Uning ahdi, ko'ngil kosasiga mehr qo'yib toshish, hayot hassasiga muhabbat taqish, qismatning qatiga to'ldirib she'r solish.

Hikmatning sahnasida, ibrat topish, ko'ngil ochish. Tunlarda yonib-yonib, tonglaridan qonib-qonib shabnam ichish. Lahzalik umrda asrlarda yashash kechmish. Yillarkim yuraklardan joy top mish. Garchi umri bo'lsada, bir nafas olgudek qisqa. Juda o'xshar bag'rida, gul ochgan dilxun, alvon ishqqa. Tegmasang ham to'kilishi o'xshar araz to'la rashkka, ishq to'la qo'shiqqa.

Qizg'aldoqning kamoli otash bo'lib yonmoq... Uning jamoli mangu, xayoli dilkash bo'lib qolmoq! Uning xayoli – muhabbatga aylanmoq. Uning visoli – bahorning ko'ksiga mangu joylanmoq!

Qizg'aldoqning tuguni – asl ishqning to'ni. Qizg'aldoqning ochilgan guli – beg'ubor muhabbatning tug'ilgan kuni. Bahorning ko'ksiga to'lib-to'lib, sig'may, alvon bo'lib oqqan, tuyg'ularning eng yorqini. Tunlariga sig'may dunyoning ohlari, alvon bo'lib olovlangan she'rning eng yorqini, eng chaqini – Qizg'aldoq!

She'r nima? Shoirning yurak yaproqlaridan yaralgan chaman! Chamanlarning chorborg'iga, bahorlar bo'lganda mehmon, she'r Qizg'aldoqning qaroqlariga bospana – Vatan! Bu shunday Vatanki, qizg'aldoqlar bilan yonma-yon. Faqat

Xudoning erkatoylari yashaydigan maskan. Alvon ohlarda faqat ular yashnaydigan, yashay oladigan maskan. Bu shunday makonki, faqat Xudoning erkatoylariga nasib bo‘ladigan imkon. Baxtlariga bahorin bag‘ishlab, to‘kib yashaydi mezon. Bu shunday baxtki, yillar ismini yaxshilar yodiga muhrlagani sari, ularning payvasta jonu otashida umr yulduzi mangu yoniqdir. Shirin tuyg‘ulardan tug‘ilgan bir og‘riqdir... Bir og‘riqki, kamdan kam bandasiga nasib bo‘lgay...

Hayotning og‘riqli sahnasida ko‘ksingda yurak borligini his qilib yashash baxtdir, saodatdir. O‘tganidan keyin ham o‘tli misralarda o‘t bo‘lib yashash, to‘kilish faslida barq urib yashash ham saodatdir.

Yig‘layverib yuragim,

Voh, ko‘ksimga tepyapti.

Har zarbida bir she’rim,

Dardim sochib ketyapti.

Baxtga to‘lsa bahorda,

Qizg‘aldoqning kosasi.

Gumbirlaydi ko‘ksimda,

Sog‘inchlarning nafasi.

Umr shunday bir shirin umidga egaki, qisqargani sari uzayishini, toraygani sari ko‘ksingizda bir qudrat kengayishini tilab yashaydi inson. Hayot kosasidan simirganing sari to‘ymay, to‘kilganing sari to‘lmay boraveradi. Armonning yaralishi balki shundandir. Bugunlar yo‘qlab boraverar o‘tmishdagi izlarni. Garchi bugunga yetmagan bo‘lsa ham, gar ezgu amalida qolgan bo‘lsa iz bo‘lib, mehrning ko‘zlaridan boqib turasiz mangu yumilmas ko‘z bo‘lib. Har yil bahorgi qizg‘aldoqlarga ko‘zim tushganda, turfa taqdirning hayot tilimlagan yirtiq ko‘ksila minglab, milionlab yurak yaproqlari she’r bo‘lib sochilib yotgandek, baxtga tashna yurak olovida sog‘inchlar yonib yotgandek tuyuladi menga. Buyuk bir ismsiz dard yonib, qovrilib,sovurilib yotganiga o‘xshaydi qizg‘aldoqning to‘kilishi.

Har inson yuragini tub-tubida asrolgan, hech kimga ocholmagan, umr bo‘yi o‘t bo‘lib yonib, ko‘ksida yorug‘lik bo‘lib yorishib turadigan yashirin sahifasi bo‘ladi. Ammo ijod ahlining yashirin yashiriqlari ham, dardlari ham she’r sahifasida

kamol topadi. El ichra kezib yuradi. Kimning qo‘liga tushsa, bu mening dardim deydiganylarga baxshida etilgan sahifasidan baxt topadi shoir. Shoirlikning baxti, ijodkorning taxti ana shu yashirin sahifalarni zabt etmoqdir. Asl ijod ahliga ko‘ngillarning ko‘shkidan taxt yaratiladi.

Hech kimga ochilmaydigan bu qulf asl ijodkorning shivirigada ochilib boraveradi. So‘zni so‘zga qo‘shgan bilan, qofiyalagan bilan she’r tug‘ilib qolmaydi. So‘z yozgan hamma ham shoir bo‘lib qolmaydi. Asl shoirning qismati-Dard. Asl shoirni armon dunyoga keltiradi. Vatan beshigida belab, fidolik alla aytadi. Pok muhabbat ulg‘aytiradi. Ulg‘aygani sari faqat ko‘ngil topadi. So‘zlarni yurak qoniga qorib, ko‘ksining kengliklarida ko‘pchitib, ishqning olovida pishitib, ko‘zlarining qarog‘ida she’r yozadi. Shu sabab, u hech kimning joniga tegmaydi. Hech kim to‘ymaydi. Ko‘ngil tilayveradi.

Yurakdan yaralgani uchun yurak topadi. Qachonlardir, kimlardir ko‘z qorachig‘ida asrab, qalb daftariga tirdgab yuradi.

Qalamimning qorniga,

Yurak qonim quyaman.

Olovlarining rangida,

Jonimdan she’r o ‘yaman.

Jonidan yaralgan, jonidan o‘yilgan she’rni ko‘ngil yaralari ustiga, armonlarning o‘rniga qo‘yaman. Aprelning otash jonidan, muhabbatning, mehrning qon-qonidan yaralgandir, balki qizg‘aldoq. Balki shundan bir mehrli dilning nafasida to‘kilishga zor bo‘lib, to‘kilib jon bo‘lib to‘shalar qizg‘aldoq! Oq dillar ungan, oq bulutlarning yerdagi yonar joni – qizg‘aldoq. Bahorning ko‘ksidagi ishq to‘la jomi qizg‘aldoq. Qaqroq lablariga yetmay, titroqlarda sinib to‘kilar sharobi – qizg‘aldoq... So‘ng ko‘ksini yig‘iga to‘ldirib yig‘latgan, she’r yaratgan yurak qoni – qizg‘aldoq... Bahorning unutilmas baxt topgan hayoti bir lahzalik yodi, bir umrlik go‘zal oni – qizg‘aldoq... Qatlarida baxt isi bor, yuraklar yaprog‘i qizg‘aldoq. Hayotning alvon sahifasida, bundan ortiq otash falsafa bormi?

Qizg‘aldoq – bahor qo‘ynidagi Yurak! Yaproqlari alvon sahifa. Alvon sahifalarga otash nafaslari ash’ori bitilgay. U faqat she’rga loyiq, sochilgay...

Qo‘ynimdagи qizg‘aldoq,

Yaproqlarin to‘kyapti.

Sog‘inch mahrami firoq,

Ash‘orimga ko‘chyapti.

Ko‘ksining kengliklari bo‘lsa alvon, shoirning eng go‘zal she’rlarini tug‘adi armon. Barcha buyuk shoirlarning doyasi – dard. Shu sabab shoirlari bo‘ladi mard...

Bir kuni bir o‘zini shoira deb yurgan singlimni menga qarata, Sizning g‘amigiz bor ekanmi? Meni hech qanaqa g‘amim yo‘q, shunchaki she‘r yozaman!- degan xitobini eshitib qoldim. Ba’zida o‘ylab qolaman, dardsiz qanday she‘r yozish mumkin-a? Shunday damlarda, yuragimning tub-tubidan joy olgan, ustoz Muhammad Yusufning “Kimda g‘am ko‘p bo‘lsa, u mening onam!” “Shoirlar armondan tug‘iladilar” misralarini takror-takror dilimga muhrlayveraman.

Yuz yil o‘tsa ham, ming yil o‘tsa ham o‘z rangini, yoniq taftini aslo yo‘qotmagay bu misralar. Dunyoga farzand aslida dard bilan keladi. She‘r ham shoirning farzandi.

Muhammad Yusufning har bir satri oxori to‘kilmay, yangilanib yetib borishi shoirning eng buyuk, yillar qaritolmagan navqiron baxti bo‘lib qoladi. Kimdir, qayerdadir g‘oyibona madad, taskin olib yashaydi bu she’rlardan. Kimlar yon daftariga, kimlar qalb daftariga tirkab yashaydi. Dardni yaratgan egam har kimga ham emas, go‘zal ko‘targan bandasiga beradi. Shu kunga qadar biron kimsaning, u to‘la-to‘kis bo‘lsa ham, yuragini tub-tubida yashirib yashagan bir dardi borligiga yurak ko‘zi bilan qarasangiz amin bo‘lasiz. Har kimning o‘z yashirin sahifasi bo‘ladi. Muhammad Yusufning eng yashirin qalb sahifalari she‘r bo‘lib, adabiyot bo‘lib, adabiyotga yod bo‘lib, xalq ko‘ngliga tutashib ketgan edi. Til topishib ketgan edi.

Har bahor Vatanimning ko‘ksida yoyilib yotgan lolaqizg‘aldoqlarga ko‘zim tushsa, Muhammad Yusufning qalbi ochilib, mehri sochilib, Xudoning erkatoy shoirining qalbi gullab, sochilib yotgandek tuyulaveradi menga.

Bugun qizg‘aldoqning yongan yorug‘ yuzida, ko‘klamoyimning sog‘inch to‘la ko‘zlarida, Muhammad so‘zi bor, Muhammad Yusufning o‘zi, o‘zligi, qalbi bor. Onajon o‘zbegimning ko‘ksida yashayapti, Vatan ishqida tole topgan buyuklikda,

suyuklikda Muhammad Yusufning izi bor. Bugun har bir o‘zbekning uyida yangrab turgan qo‘sishlarda Muhammad Yusufning o‘zi bor. Buyuk dardni ko‘tarib, buyuk inson bo‘lib yashagan el bolasiga yuz yillardan keyin ham, yaxshilarning qalb makkatullosi, eng oliv mukofotdir. “Qizg‘aldoq quchog‘ida yonganda bahor, qizg‘aldoq‘in quchoqlab kulganda bahor, sog‘inchlarim she’rga buraman yuz bor, armonlarga shivirim tutaman takror”. Qizg‘aldoqning yaproqlarin chertib yellar qilganda soz, qizg‘aldoq quchog‘ida, qizg‘aldoqni quchoqlab uxlaydi ustoz! Qizg‘aldoqni quchoqlab yig‘laydi yillar beovoz! Qachon she’r yozganim esimda yo‘q, qanday she’r yozganim esimda yo‘q. Lekin she’r deganda Muhammad Yusufni unutganim yo‘q. Ko‘ksimdagи qizg‘aldoq, yurakning qatlarida so‘zlarim ko‘p. Qatlaridan qatralar to‘kilar, lekin Muhammad Yusufdek shoir yo‘q. Bir lahza ham esdan chiqqani yo‘q. Esdan chiqarishga aslo haqqimiz yo‘q. Qizg‘aldoqlar qon dilida, alvon yo‘lida yo‘qlaganda bahor, bog‘lar boshiga oq gullar bog‘laganda, she’rlarim shoir bo‘larmikinman deb, Shoshga bo‘ylaganda, kamtarlikning kamoli ko‘ksimda ko‘ylaganda, ko‘ngil buyuk diydor tilaganda, Muhammad Yusufni ko‘rgim keladi. Ko‘rgim keladi!

Ko‘nglim yaxshilikni yo‘qlab tolmadi, Jonni tutdim, na do‘st, na yot qolmadi.

Unga chang solmagan bir zot qolmadi, Endi himoyani ko ‘rgim keladi.

Muhammad Yusuf

Na do ‘stim qoldi, na birgina dildosh,

Yurak ma ’yus xo ‘rsinishga to ‘ladi.

Oq qog ‘oz bo ‘lganda yagona sirdosh,

Muhammad Yusufni ko ‘rgim keladi.

Yaxshilikni yo ‘qlamay qo ‘ydi ko ‘plar,

Ho-yu havas dardida umr yeladi.

Qizg ‘aldoq qalbimdan yozib maktublar,

Muhammad Yusufni ko ‘rgim keladi.

Lolaning qon bag ‘riga yozsam she’rimni,

Deydilar: “Otashla yozganing shumi?”

Ularni o ‘ylantirmas qalblar o ‘limi,

Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
Imkon borida dil toparmidim?
Qa'tiy ovozimda oq yo 'l toparmidim?
Odamlarni boshqacha yozarmidim?
Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
Yirtdim she 'rimni ming bo 'lakka darzlab,
Qalam qalbimdan qoldimi arazlab?
Yuragimning sahifasin varaqlab,
Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
Yig 'lama qiz, yallasiga kuy bitib,
Oq tulporda ko 'kni quchib miriqib.
Qayga ketdi o 'zлari mehr qoldirib,
Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
Peshonasiz qizg 'aldoqqa bosib lab,
Yillar o 'tayotir qalbim varaqlab.
Andijonmi, Toshkanni so 'roqlab,
Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
Sochi uzun turkman qizlarni ko 'rdim,
Xonzoda-yu, jayron ko 'zlarni ko 'rdim.
Zamondoshi, do 'st-u yorlarin ko 'rdim,
Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
Mehrimning makoni yurakdir inon,
Olov yo 'limda, olov misra qadrdon.
Uningdek shoirlar tug 'ilar qachon?
Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
So 'nish yo 'qdir mangu olov taqdirda,
Yillarkim nomlari qalblarga ega.
Yurakdan haykal qo 'ydim, asl shoirga,
Muhammad Yusufni ko 'rgim keladi.
Shoshib she 'r dedim so 'zlarimni balki,

*Nahot xotiralar xayolning ko‘rki?
To ‘ydirsa gohi bu dunyoning makri,
Muhammad Yusufni ko‘rgim keladi.*

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Uyqudagি qiz. She’rlar. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. T.,1989.
2. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan vatanim. She’rlar. “Ijod dunyosi” nashriyot uyi. T.: 2004.

**Axmatov Abdullajon,
O‘zDSMI KAF fakulteti
303-guruh talabasi**

MUHAMMAD YUSUFNING “QORA QUYOSH” DOSTONI HAQIDA MULOHAZALAR

ANNOTASIYA

Maqola Muhammad Yusuf qalamiga mansub Qora quyosh dostoni haqida yozilgan. Doston mustabid tuzim istibdodini asoslab berolgan sodda tilda yozilgan asar hisoblanadi. Bundan tashqari Qora quyoshning kim ekanligini, uning mustabid mustamlakalariga o‘tkazgan zulmi haqida bilib olishingiz mumkin

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, Qora quyosh, doston, zulm, quyosh tutilishi.

Аннотация

Статья об эпосе «Черное солнце», написанном Мухаммедом Юсуфом. Эпос - произведение, написанное простим языком, оправдывающее произвол диктаторского режима. Вы также можете узнать, кто такое Черное Солнце и его угнетение тиранических колониозиев.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, черное солнце, эпос, угнетение, солнечное затмение.

Annotation

The article is about the epic Black Sun written by Muhammad Yusuf. The epic is a work written in simple language that justifies the tyranny of the dictatorial regime. You can also find out who the Black Sun is and its oppression of the tyrannical colonies.

Key words: Muhammad Yusuf, black sun, epic, oppression, solar eclipse.

Poetik go‘zallikning eng chiroqli, sodda va xalqona go‘zal namunalari inson qalbida kuy bo‘lib yangrashi shu xalqqa daxldor bo‘lgan insonni befarq qoldirmasa kerak. Uni qog‘ozdan qalbga ko‘chirishni uddalay olgan shoir Muhammad Yusuf qalamiga mansub bo‘lgan “Qora quyosh” dostoni ham ana shunday yaxshi asarlardan biri hisoblanadi. Dostonni o‘qigach, istibdod zulmi haqida, mustamlakaning chirigan siyosatini anglab, beixtiyor o‘yga tolamiz. Bizni shunday azoblarga giriftor qilgan insondan o‘zbek xalqining bir vakili sifatida nafratlanamiz. Sababi bosqinchining qilmishi yuraklarga sig‘maydi. Dushmanning zulmi kuraklarda turmaydi. Ana shunday zulmlarni va zulmlar sababchisini dostonni o‘qish jarayonida anglab boramiz.

Dastlab “Qora quyosh” dostoni shunday boshlanadi: “*Jondan aziz singlim Qumri! Maktubingga javob yozaman. Shuning uchun yozamanki, kechasi soat to‘rtda eslab xat yozganing uchun yozaman, yana shuning uchunki, yosh qalbingni baxtsiz mahbus uchun ezib, shirin uyqungni bema’ni sarguzashtim bilan buzganim uchun yozaman. Ko‘nglingni parishon qilib, uyqusiz tong ottirganing uchun yozaman... Xat yozmaganimga sabab umidsizlik emas, aksincha umidim porloq va yuksak. Ochig‘ini aytsam, achchiq turmushning alamli azobidan kuylovchi maktubim sadosi bilan sen kabi mehribonlarim ko‘nglini yig‘latishdan saqlanish maqsadida xat yozishdan kechdim... Yurakni tosh qilib bo‘lsa-da unutishlarizni so‘rayman. Razil hayotga ko‘nikib qolganimga shirin turmushni eslatmasangiz edi. Men uchun to‘kkan ko‘z yoshlariningizni eslar ekanman, qalbim siqiladi, baxtsizligim gavdalaniib ko‘z oldim qorong‘ulashadi-da, tug‘ilganimga qasam ichib, bor dunyodan kechgim keladi...*

Qumri, rahming kelsa yana qayta so ‘raymanki, meni esdan chiqar, ortiq meni qiy nab yuragimni ezma... Ehtimol, tez kunda ko ‘risharmiz. 51-yilga ham ko ‘p qolmadi. O‘zini menga yaqin tutgan qarindosh va yor-do ‘stlarga oldingi xatimda oxirgi salomimni qo ‘ndirgan edim. Yana qaytarishga o ‘rin yo ‘q. Opangga aytginki, meni iltimosimni unutmasin! Chor-nochor xayrlashib qoluvchi:

Akmal” Boyengol. 22.XII.46.

MUALLIFDAN: Bu xatni men tasodifan topib oldim. Shu holida, imlolarini tuzatmay, sizga havola etdim. Ehtimol, bu maktub Qumri ismli mushtipar ayolga akasidan yolg‘iz yodgordir. Agar shunday bo ‘lsa, men uni egasiga qaytarayotganidan xursandman”.

Shu o‘rinda dostonning boshlanishiga ahamiyat bersak. Uzoq o‘lkalarga qamoq jazosini o‘tash uchun yuborilgan o‘zbek yigitib dardini unutib, xat qoralaydi. Dastlab, uzoq xat yozmaganini izohlab qishlog‘idagi singlisidan kechirim so‘rab, xijolat bilan uni bezovta qilganidan kuyinadi. Uni kutayotganlar uchun qamoqdan qaytishiga va keyingi hayoti yaxshi bo‘lishiga umid qiladi. Chunki har bir mahkumda ertaning umidi, zulmning tugashi, jannat va ozodlikning bir-biriga juda yaqin ekanligiga ishonch bor. Qalblarida ana shu ozodlikni qurish uchun jonidan ham kechishga tayyor bo‘ladi. Shoир esa yurtdoshini kutayotgan vatandoshlariga ana shu maktubni yetkazganidan minnatdor bo‘ladi, chunki shoirlar insoniy fazilatlari jo‘sh urgan insonlarni kuylashni yaxshi ko‘rishadi.

Keyingi qismlarda shoир bir odam bilan suhbatda bo‘ladi. Shunda Odam haqiqatni yetim bolaga va baxtni tolkosadagi atalaga o‘xshatadi. Zamon zayli bilan mehribon millatimiz, soddadil xalqimiz baxtni tolkosada ichgan atalasida deb o‘ylaydi. Vaholanki, musulmon xalqimiz boriga qanoati, Allohdan qilgan andishasi ila jonzotlarga ozor bermaydigan insonlar bo‘ladi. Allohdan qo‘rqmaydigan, mustabid tuzumning tizimidan chiqmaydigan odamlar shu tizimning boshqaruvchilari hisoblanardi. Ular inson taqdiriga mutlaqo befarq qaraydigan ateistlar va boshliqning so‘zini so‘zsiz bajaradigan qullar kabi martabada bo‘ladi. Qilmishlari bilan beozor xalqni bezor qiladi.

She'r so'ngida xalqlarning boshiga tushgan azob-uqubatlar, ranjlarning sababchisi Stalin tilga olinadi. Odam esa tolkosadagi atalaning – baxtning nimaligin Stalindan so'rashini aytadi. Adolat esa ota-onasidek himoyachisi yo'q yetim bolaga o'xshatiladi.

Tasavvur qiling, soqov inson Stalinning ismini "Ishtalin" deb aytgani uchun otiladi. U o'limi oldidan ham "Yashasin Ishtali-in!"-deb jon beradi. Nahotki, insoniylik tushunchalari shunchalar qoloq, shunchalar tuban bo'lgan? Axir soqovligi uchun shunday talaffuz qiladi, bu uning uchun tabiiy hol. Nahotki, inson hayoti shunchalik beqadr bo'lgan bo'lsa, deb o'ylab qolasiz. Yoki o'z aybini bilmay qamalgan "Sulaymon Azimov"ning dumini tuhmat tufayli Sibirga surgun qilinishi-chi? O'z dardlari bilan yurgan Sulaymon umrida ko'rmagan insondan, o'z ismini eshitib, o'sha sherigining ham o'ziga sherik sifatida tuhmat bilan qamalishi istibdod fitnasi emasmidi?

Millat ziyolilarini yo'q qilish, xalqning uyg'onishidan qo'rqqan insonga qora quyosh sifatida qaralishini dostonni o'qish jarayonida anglab borasiz. Odatda quyosh yerni isitish, yorug'lik ulashish uchun chiqadi. Ekin-tekinlarning bo'y cho'zishi uchun ko'kka ko'tariladi. Xalqni uyg'otuvchi siymolar, jadidlarimizning harakatidan tashvishga tushganlar, o'zlarining o'rinlarini yo'qotib qo'yishdan qo'rqiб, jadidlarning qotillariga ularni tutib berishda qatnashadilar va xoinlik ko'chasiga qadam bosadilar.

Ammo o'z ayblaridan qo'rqlaydigan kimsalar, ulardan keyingi insonlar uni yomon ko'rishidan qo'rqlaydilarmi? Qamoqxonada qog'ozlardan quroq qilgan qaysi bobomizning bizga atagan merosini yo'q qilib tashlagan u nozirni inson deb atay olamizmi? Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Fayzulla Xo'jayev va Turkistonni uyg'ota oladigan millatimizning va millatlarning ogoh insonlarini qatliom qilinishi, aslida quyoshning bu raziliklarga bardosh berolmay "qorayishi" emasmidi?

Tabiatda quyosh utilishi yuz bersa, oy quyosh yuzini yashirib qo'yadi va osmonda quyosh xuddi qoraygandek ko'rindi. Ana shu qora quyoshda, tabiat mehrdan bebahra qoladi. Demak, shavqatsizlik va bemehrlik ramzi sifatida qora

quyosh gavdalanadi. “Qora quyosh” – Iosif Stalin... Shoир унга yetib bo‘lmasligini, ziyolilar yo‘lini to‘suvchi ramziy obrazni dostonning asl ma’nosи sifatida tasvirlab beradi.

Dostonni o‘qigan inson kechinmalari yuraklarni jiz ettirib ketadi. Ayniqsa, hali endi oyoqqa turib, atak-chechak qilib yura boshlagan norasida go‘daklarning qamoqxonada so‘roqqa tutilishi, sobiq sho‘ro boshqaruv tizimining eng jirkanch jinoyatlaridan biridek tuyuladi. Hali gapirishni bilmaydigan boladan javob olish qanday mantiqqa to‘g‘ri keladi? Roman yozgan yozuvchiga: “Shu she’r siznikimi?”- deb so‘rash qaysi johiliyatning sarqiti? Olti tilni bilgan bilimdonga o‘lim hukmi chiqarish-chi? “Qora quyosh” millatda aqlilar bo‘lishini istamas edi. Chunki har bir aql ziyoga ilhaq, har bir ziyo zulmatni ham yoritish qudratiga ega edi...

Muhammad Yusufning ushbu asarini o‘qib, ramziy obrazlar va sodda barkamollik uning eng yaxshi topilmalaridan biri ekanligiga yana bir bor amin bo‘ldim.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. Muharrir U. Qo‘chkorov. – Toshkent: “Adib” nashriyoti, 2014. – 232 b.
2. Saylanma: she’rlar, dostonlar/ M. Yusuf.-T.: “Sharq”, 2019. -386 b.
3. Biz baxtli bo‘lamiz. M. Yusuf. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: Nazira as-Salom, Madina Muxammad Yusuf qizi.– T.Nihol 2008 -192 b.
4. Quyoshga qarab oqqan suv: she’lar. M. Yusuf. –T.Nurafshon buzinnes 2019. – 232-b.

**Sherali AZIZOV,
O‘zDSMI Cholg‘u ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi**

YURAKLARGA KO‘MILGAN ASL SHOIRLAR!

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoirning “Ulug‘imsan, Vatanim” she’ri tahlilga tortilgan. Bu she’rning qo‘sishqqa aylanish jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: otashin qalb, qo‘sishq, vatan, iftixor, sahna.

Аннотация

В статье анализируется стихотворение поэта «Улугимсан, Ватаним». Он описывает процесс превращения этого стихотворения в песни.

Ключевые слова: огненное сердце, песня, родина, гордость, сцена.

Annotation

The article analyzes the poet's poem "Ulugimsan, Vatanim". He describes the process of turning this poem into a song.

Keywords: fiery heart, song, homeland, pride, scene.

O'zbek xalqining sevimli farzandi, otashinqlab shoiri, o'zbek she'riyatining iqtidorli namoyondalaridan biri bu – Muhammad Yusufdir. Shoир ijodining gullagan pallasi XX asr oxiri – XXI asr boshlariga, ya'ni O'zbekiston yangi mustaqilligi davriga to'g'ri keladi. Muhammad Yusufning qisqa, ammo yorqin hayotini Pushkinding Bayron haqidagi so'zlari bilan izohlash mumkin. "U o'z she'rлarida ixtiyorsiz tarzda she'riyatning zavq-u shavqi ila iqrорlik bildirgan". Darhaqiqat, Muhammad Yusuf she'riyatidagi zavq-u shavqni, iqrорlikni boshqa ijodkorda uchratish mushkul. Uning ijodi, asosan, she'r va dostonlardan iborat. Shoир vatan, ota-ona, qizlar, singil, yigitlarga atab va sevgi-muhabbat haqida she'rлar yozgan.

Muhammad Yusuf qalamiga mansub she'rлar yillar o'tgan sayin xalqimiz qalbidan yanda chuqurroq joy egallab bormoqda, yoshlarimiz uchun esa ibrat maktabini o'tab kelmoqda. Bugungi kunda shoирning she'rлarini yoddan bilmagan va eshitmagan inson juda oz bo'lsa kerak. Ayniqsa, shoирning vatan haqida yozgan she'rлaridan "Ulug'imsan, Vatanim" she'ri biz uchun juda ham qadrlidir. Undagi har bir so'z xalqimizga xos bo'lган xususiyatlarni o'zida mujassam etgan. Muhammad Yusufning vatan ishqini yuragiga joylab yozgan satrlari xalqimizning esini tanigan eng kichik vakilidan eng yuqori qatlamiga qadar yod bo'lib ketgan desam, mubolag'a bo'lmaydi. Insonlar ko'nglida ona yurtga muhabbat uyg'otgan misralar bitgan shoирning kindik qoni to'kilgan o'lkasiga bo'lган sevgisi qay darajada kuchli ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Shoирning vatan haqidagi she'rлarida samimiylilik, beg'uborlik, ajib bir dilkashlik sezilib turadi.

Muhammad Yusuf o‘zidan bir qancha o‘lmas nodir asarlar yozib qoldirgan. U chinakam xalq shoiri, mustaqillik uchun kurashgan ijodkorlardan biridir. O‘zbek, millat, vatan, ozodlik, o‘zbeklik g‘ururi, ulug‘ bobolarga vorislik tuyg‘usi uning she’rlarida mayin ifordek gupirib turadi, yosh kitobxonni ohangrabodek o‘ziga tortadi. Demakki, shoirning ijodida yangi o‘zbek adabiyotining ko‘pgina fazilatlari va muhim xususiyatlari o‘z aksini topgan desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Muhammad Yusufning ko‘plab she’rlari bir qancha taniqli xonandalarimiz tomonidan ijro etilib, qo‘sishiqsevar xalqimizning yuragidan chuqur joy egallagan. Shoirning “Ulug‘imsan, Vatanim” she’rini xalqimizning sevimli qo‘sishiqchisiga aylangan Sevara Nazarxon ulkan mahorat va dard bilan maromiga yetkazib ijro qilgan va bu qo‘sishiqni eshitgan insonning qalbida vatanga bo‘lgan muhabbat yanada ortadi.

Sen – shohlari osmonlarga

Tegib turgan chinorim,

Ota desam,

O‘g‘lim deb,

Bosh egib turgan chinorim,

Qo‘ynimdagи iftixorim,

Bo‘ynimdagи tumorim,

O‘zing mening ulug‘lardan

Ulug‘imsan, Vatanim!

Muhammad Yusuf ushbu she’rida o‘zbek xalqining o‘tmishini, tarixini kechagi kuni va bugunini oolib bergan. Shoir bu she’ri orqali vatanni ota-onaga, singilga qiyoslaydi. She’rning misralarida talmeh va tashbeh san’atidan keng foydalanadi. Muhammad Yusuf she’riyatining eng oliv fazilati, fikrimcha, bu uning sof va pok samimiyatida mujassamdir. Samimiyat, xalqona ruh uning she’rlarini jilolantirib bezab, ularga betakror ko‘rk-u tarovat bag‘ishlaydi.

Yurtimizda Muhammad Yusuf she’rlari bilan aytildigan qo‘sish yangramagan sahna qolmagan. Shoir ishq-muhabbatni nazmi bilan kuylagani uchungina emas,

balki ona-vatanga cheksiz sadoqatini izhor etgan, istiqlolni va xalqni ulug‘lagan she’rlari bilan ham yoshlarni sevimli shoiriga aylandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Muhammad Yusufning nomini abadiylashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Toshkent shahri va Marhamat tumanidagi ko‘chalardan biri, shuningdek, Andijon shahridagi bolalar kutubxonasi va Marhamat tumanidagi san’at maktabi Muhammad Yusuf nomi bilan ataladi. Yana bir misol tariqasida aytishim joizki, men tahsil olayotgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham Muhammad Yusuf ijodiga alohida e’tibor qaratilmoqda va uning ijod yo‘li bo‘yicha maxsus kurs tashkil qilinib, biz yoshlarga shoirning ijod sirlari o‘rgatilib kelinmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad shuki, Muhammad Yusuf nomini abadiylashtirish va uning ijodiga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirishdir. Biz yoshlar shuni g‘urur va iftixor bilan aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalqining o‘zligini butun dunyoga tanitgan mutafakkir bobolarimiz va yuraklarga ko‘milgan asl shoirlarimiz borligidan ko‘ksimizni tog‘ qilib faxrlanib yursak arziydi. Bunaqangi xalqsevar va xalqning dardida yonib-kuyib yashagan shoirlarimiz doimo qalbimizda mangu yashaydirlar!

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Uyqudag'i qiz. She'rlar. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. T.,1989.
2. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan, Vatanim. She'rlar. “Ijod dunyosi” nashriyot uyi. T.: 2004.

**Kibriyo Jo‘rayeva,
Qo‘qon ixtisoslashgan tasviriy va amaliy
san’at maktabi o‘qitivchisi**

TASVIRIY SAN’ATDA MUHAMMAD YUSUF SIYMOSI (MUSAVVIR MAQSUDJON QOSIMOV ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tasviriy san’atida shoir Muhammad Yusuf portretlarning estetik jihatlari qo‘qonlik rassom Maqsudjon Qosimov tomonidan yaratilgan

kartinaning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari orqali ochib beriladi. O‘quvchilar shuningdek, o‘zlari uchun yangi bir iste’dodli rassomni kashf etadilar.

Kalit so‘zlar: musavvir, tasviriy san’at, badiiy yechim, rangtasvir, shoir va tabiat, tog‘lar, shoirning ichki dunyosi, musavvirning bosh maqsadi.

Аннотация

В статье раскрываются эстетические аспекты портретов поэта Мухаммада Юсуфа в узбекском изобразительном искусстве через идеино-художественные особенности живописи кокандского художника Максуджона Касимова. Студенты также откроют для себя нового талантливого художника.

Ключевые слова: художник, изобразительное искусство, художественное решение, живопись, поэт и природа, горы, внутренний мир поэта, главная цель художника.

Annotation

The article reveals the aesthetic aspects of the portraits of the poet Muhammad Yusuf in Uzbek fine arts through the ideological and artistic features of the painting created by the Kokand artist Maksudjon Kasimov. Students will also discover a new talented artist for themselves.

Key words: artist, fine arts, artistic solution, painting, poet and nature, mountains, the poet's inner world, the main goal of the artist

Ma‘lumki, o‘zbek tasviriy san’atida portret janri taraqqiy etgan janrlardian biri sanaladi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar, mashhur madaniyat va san’at arboblari siy whole in the painting. Musavvirlar odatda el o‘rtasida mashhur ijodkorlarning asarlaridan ilhomlanib, ularning badiiy obrazini yaratadilar. Ba’zan shaxslarning fotosuratlariga suyanadilar. Odatda shoirlar rasmini kartinada gavdalantirishda realistik uslubdan ko‘ra romantik uslub ustunlik qiladi.

Fransuzcha “Portret” so‘zi tasvir degan ma’noni bildirib, adabiyotshunoslik va san’atshunoslikda o‘ziga xos ma’noda qo‘llanadi. Adabiyotshunoslikda u biror obrazning siy whole, tashqi ko‘rinishi, ichki dunyosi, xarakterini so‘zda tasvirlanishini bildiruvchi tushunchadir. Tasviriy san’atda esa portret alohida tasviriy janr hisoblanadi.

“Portret real holda mavjud bo‘lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilarning

rassom tasavvuridan paydo bo‘lgan siymosidir. Portret rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek foto san’atining muhim janrlaridan biridir. Portret yaratishdan maqsad hayotda yashagan aniq shaxsning qiyofasini ranglarda abadiylashtirishdir. Portretning muhim tomoni tasvirlanuvchi (modul, asli) aynan o‘xshash qilib chiziladi. Ijodkor portret orqali shaxsning ma’naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini, kasbi, jamiyatdagi o‘rnini aks ettiradi va shu orqali davr xususiyatlari, siyosiy va iqtisodiy ahvol to‘g‘risida ham ma’lumot bera oladi”[1] Rassomning kasbiy mahorati, bilimi, dunyoqarashi, estetik ideali portret yaratish chog‘ida yaqqol namoyon bo‘ladi, portret ishslash uchun tanlagan materiallari u yaratgan asarga takrorlanmas o‘ziga xoslik baxsh etadi.

Portret yaratish qadim zamondan beri mavjuddir. Bu masalada Beruniyning mulohazalari e’tiborga loyiqdir. Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida [2] “Odamlar nima uchun haykal yasaydi, nima uchun ayrim haykallar vaqt o‘tishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotadi, ayrimlari saqlanib qoladi?” degan savollarga javob izlaydi va shunday xulosaga keladi: Odamlar o‘zlariga ko‘p yaxshilik qilgan kishilarni tirikligida juda qadrlaydi, hurmat qiladi, sevadi. Ularni o‘z suyanchig‘i, najoti deb biladi. Vaqt yetib u vafot etganda qavm yoki jamoa uning firoqiga chiday olmay, motam tutadi. Bu bilan qanoatlanmay, tuproq, tosh va yog‘ochlardan ularning jussasini yasatib, o‘zlari uchun qulay joyga o‘rnatib qo‘yadi. Qabila boshliqlari, oqsoqollar rahbarligida uni tavof etishadi, unga sig‘inishadi. Shu bilan ovunishadi, kelgusi ishlari uchun, mashaqqatlardan qutilish uchun undan va uning ruhidan yordam va madad so‘raydilar.



Maqsudjon

Qosimovning O‘zbekiston
xalq shoiri Muhammad

Yusufga bag‘ishlangan portreti o‘ziga xos mazmun va ma’noga ega kartinalardan biridir.

Bu marosim keyingi avlodga ham o‘rgatiladi (dinning ibtidoiy shakllaridan biri animizm va fetishizm mana shu tariqa paydo bo‘ladi. Keyinchalik o‘sha insonni biladigan, taniydigan odamlar dunyodan o‘tib ketgandan keyin, haykalda tasvirlangan jussa uni ko‘rmagan, tanimagan avlod uchun o‘z azizligini yo‘qotadi. Natijada unga sig‘inish, uni tavof etish formal bir ishga aylanib qolib, bora-bora u qarovsiz holga keladi, yo‘qoladi. Mobodo, u toshdan yasalgan bo‘lsa, asori atiqa sifatida bizgacha yetib keladi.

Demak, portret shaxsning jamiyat oldidagi mehnati va xizmatlarini e’tirof etish, unga ehtirom ko‘rsatish, uning xotirasini keyingi avlodlarga yetkazish ramzi sifatida paydo bo‘lgan. Portretning ikki turi mavjud: portret, portret-kartina.

O‘zbek musavvirlari O‘.Tansiqboyev, V.Kaydalov, M.Nabihev, Chingiz Axmarov, N.Qo‘ziboyev, Rahim Ahmedov, M.Saidov, B. Jalolov, A.Ikromjonov, S.Rahmetov, Y.Tursunnazarov portret janrida to‘laqonli asarlar yaratib, tasviriy san’at taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishdi.

O‘zbek rassomlari Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodirabegim, Furqat, Muqimiyl, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Ibrohim Mo‘minov, Abror Hidoyatov, Sharof Rashidov kabi adabiyot, san’at, fan va siyosat arboblarining portretlarini yaratishgan. Bu an’ana bugun ham davom etmoqda. Buni o‘zbek musavvirlarining O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf portretini yaratishdagi ishlarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. 2014-yili yurtimizda M.Yusuf tavalludining 60 yilligi keng nishonlandi. Bu musavvirlarga ham ijodiy ilhom berdi.

Ana shunday musavvirlardan biri qo‘qonlik rassom Maqsudjon Qosimovdir. Bu rassomni respublikamiz rangtasvir ustalari yaxshi biladi. Ammo keng jamoatchilik uning ijodi va hayoti to‘g‘risida deyarli ma’lumotga ega emas. Shu sababli uning tarjimai holi va ijodiy yo‘nalishlari to‘g‘risida ba’zi ma’lumotlarni

keltirib o‘tamiz. Zero bizning maqolamiz rassom ijodi haqidagi birinchi tadqiqot hisoblanadi.

M.Qosimov 1951-yil 5-yanvarda Qo‘qon shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. 3-4 sinfda o‘qib yurgan vaqtlarida o‘qituvchilariga ko‘rgazmali qurollar chizib berardi. Sinf devoriy gazetalarini bezardi. 1962-yili Qo‘qon shahar o‘quvchilar uyidagi rassomchilik to‘garagiga qatnasha boshlagan. Birinchi ustozlari V. Molchanov, V. Sitnik kabi rus rassomlari bo‘lgan. Otasi Osimov Qosimjon o‘qimishli, ziyoli kishi moliya sohasida ishlagan. Onasi Osimova Zebiniso uy bekasi, ziyoli, o‘qimishli ayol bo‘lgan. Qirq to‘rt yil moliya sohasida ishlagan otasi o‘g‘lining moliya sohasida o‘qish yoki o‘qimasligini so‘raganda, u rassom bo‘lmoqchi ekanligini aytgan. Shunda otasi: “O‘g‘lim, sen o‘zing qiziqqan kasbingni qil” deb oq fotiha bergen.

Maqsudjon 1967-yili P.P.Benkov nomidagi rassomchilik bilim yurtining rangtavsir bo‘limiga o‘qishga kirdi. 4 yil Svetlana Dmitriyevna Ivashkina qo‘lida tahsil oldi. O‘qish davrida O‘zbekiston xalq rassomi ajoyib inson Chingiz Axmarov bilan tanishish baxtiga muyassar bo‘lgan va buyuk insonning maslahatlari bilan “Behzod o‘z shogirdlari bilan” mavzuida diplom ishi ishlab, bilim yurtini tamomlagan. 1971-yili Toshkent teatr san’ati va rassomchilik institutining rangtasvir bo‘limiga o‘qishga qabul qilinadi.

Institutni 1977-yili tamomlab Qo‘qon badiiy ustaxonasiga ishga keladi. 1978-yildan 2011-yilgacha shu dargohda ishlaydi. Maqsudjon Qosimovning tasviriy san’atdagi ilk yutug‘i “Qodirjon Haydarov portreti”ning yaratilishi bo‘ldi. U 1980-yili yaratildi. Hozir bu asar Q. Haydarov uyg‘muzeyida saqlanadi. Musavvirning O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Po‘latxon Qayumov portreti 1985-yili ishlangan. G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon davlat Adabiyot muzeyiga qo‘yilgan. Ulkan shoir Muqimiy portreti ham ijodkorning o‘ziga xos asarlari qatorida turadi. Ayni kunlarda Muqimiy uy-muzeyining doimiy eksponatlari safidan joy olgan portretini rassom 2003-yili yaratgan.

Rassom shoir siy whole page is missing from the original image, so I can't provide its content. The page number 259 is at the bottom of the page.

qo‘lyozma kitoblar, xira nur sochib turgan sham, shoirning hayotga mag‘rur boqib turgan ko‘zлari juda jozibali chiqqan. Unda biror ortiqchalik, sun’iylikni ko‘rmaymiz. M.Qosimovning ushbu romantik portreti Muqimiya qo‘yilgan o‘ziga xos haykaldir.

Maqsudjon Qosimovning O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufga bag‘ishlangan portreti o‘ziga xos mazmun va ma’noga ega kartinalardan biridir. Kartinada shoirning go‘zal tabiat qo‘ynida, tog‘lar bag‘ridagi gullar ochilib, tabiat jannatiy tusga kirgan bahoriy manzara og‘ushida turgan samimiyl holati tasvirlangan. Muhammad Yusufning ona-vatan va jonajon yurt madhiga bag‘ishlangan she’rlari, insoniy fazilatlari rassomga ilhom bag‘ishlagan. Shoirning o‘zi o‘qib bergen:

O, ota makonim,

Onajon o ‘lkam,

O ‘zbekiston,

jonim to ‘shay soyangga [2]

kabi misralari rassomga muhabbat va ilhom ato etganligi sir emas.

Kartinaga nazar tashlab beixtiyor bahor kuychisi Hamid Olimjonning baxtiyor siymosi yodimizga keladi. Bu ikki shoirning ijod yo‘li ham, umrlari ham bir biriga, qaysidir ma’noda o‘xshab ketadi. Hamid Olimjon juda erta elga tanilib, sevimli shoirga aylanib, 35 yoshida dunyoni tark etgan bo‘lsa, shoir Muhammad Yusuf ham o‘z davrida xalq muhabbatini erta qozondi, 47 yoshida vafot etdi. Har ikki ijodkor bahorni sevardi, bahorni kuylagan edi. Mana shu uyqashlik rassomga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymagan. Shoir bilan shaxsiy muloqot, uning turli fotosuratlari bilan tanishish, ijodi bilan oshnolik rassomga shoirning portretini mehr bilan yaratishga turtki berdi.

Biz Muhammad Yusuf portretini ko‘p rassomlar ishlaganligini bilamiz. Ammo Maqsudjon Qosimov yaratgan ushbu portret juda hayotiy, samimiyligi bilan ajralib turishini e’tirof etishimiz o‘rinlidir. Muxlislar va shoirning yaqinlari bu asarga yuqori baho berishgan. Bu asar Qo‘qon Adabiyot muzeyiga qo‘yilgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. T.: 1996. B 167.

2. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. “Fan” nashriyoti. T.: 1973. 97-bet.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. “Sharq” nashtiyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T.: 2019. 384 b. B.373.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATI TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK NIGOHIDA	Ошибка! Закладка не определена.
Ibrohim Yo‘ldoshev. Adiblar xiyoboni – adabiyot, ma’naviyat, ma’rifat madaniyat maskani.....	6
Rejai Kizlitunch. Muhammet Yusuf - Seçmeler Eserinin Tanıtımı.....	11
Iqbol Mirzo. “Vatan – yuragimning olampanohi”	11
Nazira as-Salom. Muhammad Yusuf asarlarida tabiat mavzusi	22
Sobir O‘nar. Kibrsiz odam	27
Ma’rufjon Yuldashev. Muhammad Yusuf she’riyatining tili	35
Ikromiddin Ostonaqulov. O‘zbek she’riyatida Muhammad Yusuf siymosi	40
Normurod Avazov. Behbudiy va Muhamad Yusuf ijodida Turkiston mavzusi....	47
Jahongir Mamatqosimov. Muhammad Yusuf she’riyatida ajdodlarga ehtirom tuyg‘usi.....	55
Feruza Fayziyeva. Milliy g‘urur qonda bo‘lsin	61
Sevara Mahmudova. Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostoni – millat ziylilari fojiasi haqidagi asar	65
Saxobiddin Xudayberdiyev, Muhammadjon Ismoilov. Bir ming bir yuz bir shoir	69
Dilnoza Jumayeva. Bir she’r tarixi.....	73
Muqaddas Sodiqova. The theme of patriotism in the works of Muhammad Yusuf	77
Zuhra Yuldasheva. Muhammad Yusufning dardli dostonlari.....	82
Xumora Usmonova. Muhammad Yusuf she’rlarida ramziy yondashuv.....	86
Zulkumor Norqo‘ziyeva. Vatanini ulug‘lagan shoir.....	91
Zumriniso Kozimova. Muhammad Yusufning Abdulla Qodiriya ehtiromi	96
Dilorom Muxammedova. Muhammad Yusuf ijodida milliy qadriyatlar.....	104
Nigora Saydaxmedova. “Ikki qisqli kundalik ” metodi asosida Muhammad Yusuf shoh satrlarini o‘rgatish.....	111

To‘lg‘anoy Mamatqulova. Muhammad Yusuf ijodida milliy ruh	116
Ulug‘bek Musinov. Ma’rifatli shoir ijodida ustoz-shogird an’analariga e’tibor ..	122
Amangul Prekeyeva, Keunimjay Qutlimuratov. M.Yusuf shig‘armalarinda talmeh sanaatiniq qollanilio‘i.....	128
Abduqahhor Jalilov. Muhammad Yusufning “Samarqand” she’rida Abdullatif obraziga doir poetik ishoralar	135
Nugzar Xaydarov. Muhammad Yusuf ijodida tarixiy shaxslarning yoritilishi...	140
Aziza Azimova. Muhammad Yusufning “Samarqand” she’ri haqida	145
II SHO‘BA. MUHAMMAD YUSUF IJODINING SAN’ATSHUNOSLIK VA MADANIYATSHUNOSLIKDAGI TALQINLARI	
Rixsilla Ismoilov. O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf asarlarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati	149
Go‘zal Xoliqulova. “Ko‘ksingda savoling bo‘lmasa dunyoga nega kelding.”.....	154
Xamdam Ismoilov. O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning obraz yaratish mahorati.....	153
A’zamjon Abduxalilov. Oddiy so‘zlarni ulug‘lagan shoir	163
L.T. Urazmbetova, M. Ismailova. Hayoti - ibrat, Xotirasi aziz shoir.....	168
Qunduz Nishonboyeva. Muhammad Yusuf ijodida Vatan madhi	172
O‘tkur Islamov, Jo‘rabek To‘ychiyev. Muhammad Yusuf ijodida ijtimoiy-ma’naviy masalalar.....	181
Rustam Abdullayev. Qo‘sinqqa aylangan shoir.....	187
Musallam Abdujabbarova, Oybek Davlatov,Xolbek Haydarov. Muhammad Yusuf she’riyatida so‘zning kuchi va uning shaxs tarbiyasida aks etishi.....	191
Марина Юсупова. Начало третьего ренессанса.....	195
Matluba Isakova. Muhammad Yusuf she’riyatida ayollar talqini	203
Xilola Abdujabborova. O‘zbek qo‘sinqchilik san’ati va Muhammad Yusuf she’riyati	210
Xayriddin Xudoyev. Muhammad Yusuf she’riyatida musiqiy ohang	215
Nilufar Ro‘ziyeva. Vatanga muhabbat.....	222

Shavkat Bobomurodov. Dramatik holatlarning she’riy ifodasi (“Mo‘minjon” she’ri misolida)	225
Zilola Ergasheva, Marg‘uba Qodirova. Muhammad Yusuf she’riyatida Vatan, vatanparvarlik tuyg‘ulari	229
Halimaxon Siddiqova. Qisqa umr, uzun she’r	234
Sh.I.Nusratova. Muhammad Yusufning “Uyqudagি qiz” she’ri haqida	237
Qulmirzayeva Sanobar. Qizg‘aldoqni quchoqlab.....	241
Axmatov Abdullajon. Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostoni haqida mulohazalar	248
Sherali Azizov. Yuraklarga ko‘milgan asl shoirlar!	252
Kibriyo Jo‘rayeva. Tasviyyiy san'atda Muhammad Yusuf siymosi (Musavvir Maqsudjon Qosimov asari misolida).....	255

